normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz". Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, qabul qilinayotgan qonunlar, har qanday normativ-huquqiy hujjatlar, huquq sohasida bo'ladigan o'zgarishlardan toliq tarzda xabardor bolib, o'rganib chiqilishi natijasida huquqiy ong va tushunib yetib unga amal qilinishi esa huquqiy madaniyatni shakllantiradi. Huquqiy madaniyatning yuksak darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim vazifa sanaladi. Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarururiy talabidir. Haqiqattan ham shunday, huquqiy immunitet shakllangan shaxsga tashqaridan kirib keladigan yot goyalar, qarashlar, qonunga xilof xatti-harakatlar oz ta'siriga ega bo'lmay qoladi. Ijtimoiylashuv natijasida shaxslar ezgulik va adolat, inson sha'ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi. "Nima yaxshi-yu nima yomonligini" tushunib yetishda esa ularga aynan huquqiy savodxonlik, huquqiy yetuklik yordam beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak" nomli ma'ruzasida siyosiy partiyalar, ularning parlamentdagi fraksiyalari va deputatlarning faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: "Deputatlarning ish uslubini takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar orqali: "Markaz - viloyat - tuman" tartibida ishlaydigan yangi tizimni joriy etish ayni muddao bo'lar edi", degan fikrni bildirganlar, chunki barcha qonunlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi deputatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular xalqning orasida bo'lib barcha taklif va tavsiyalar, kamchiliklarni o'rganib chiqib xalq manfaatlaridan, xalq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qonunlarni yaratishlari shart va zarur. Bekorga "Markaz-viloyat-tuman" tartibida ishlaydigan tizim deb aytmaganlar, har qanday siyosatda bo'ladigan o'zgarish va qo'shimchalar markazdan viloyatga undan tuman va boshqa chekka hududlargacha yetib borishi xalq xabardor bo'lishi va o'z fikr -mulohazalarini yetkazishi kerak ekanligini hisobga olib bunday tizim yartish kerakligini aytib o'tganlar. Mamlakatimizda ijroga yo'naltirilgan har bir qonun, amaldagi huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalardan aholini izchil hamda keng xabardor qilishda jamoatchilik ishtiroki va faolligi muhim. Kommunikatsiya texnologiyalari, davlat organlari bilan ijtimoiy sherikchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.

Huquqiy targ' ibot-tashviqot ishlarida:

- Axborot-resurs markazlari hamda axborot-kutubxona fondlaridagi yuridik adabiyotlarni huquqshunoslar tomonidan puxta o'rganilib har xil shaklda xalqqa yetkazish va tushuntirish;



- Buyuk fiqhshunos alloma Marg'inoniy nomidagi maxsus huquqiy targ'ibot-tashviqot markazini tashkil etish.

Xalqni huquq sohasida madaniyatli qilishning yana bir tomoni Oliy Yuridik ma'lumotli kadrlarni sonini ko'paytirish va sifatini oshirish. Buning uchun Oliy Yuridik ta'lim beruvchi ta'lim muassasalarini sonini ko'paytirish, yetuk malakali huquqshunos kadrlarni tayyorlash. Shu o'rinda Abu Nasr Farobiyning fikrlarini esga olaylik. Mashhur faylasuf har bir mansabdor shaxs qonunlarni chuqur o'rganishi, ularga rioya qilishda shaxsan namuna bo'lishi, aholi o'rtasida qonunlarni keng targ'ib qilish, uni takomillashtirish boyicha takliflar kirita bilishi, joiz bo'lsa, qonun yoza olishi shartligini ilgari surgan. Ayni shu mezonlardan kelib chiqib Prezidentimiz 2019- yildagi farmonlarida fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish- demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!"- degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish birlamchi vazifalardan etib belgilandi. Shunday ekan, bugun biz ana shu qoidalarga hammamiz va hamma vaqt ham rioya etyapmizmi, degan haqli savol tug'iladi. Zero, qonun normalari odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdiridagina yashaydi va ro'yobga chiqadi. Qonun esa xalqning xohish irodasidir.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyat bosqichma- bosqich shakllanib boradigan jarayon hisoblanadi. Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa qonunga itoat tuyg'usini rivojlanishiga olib keldi. Hozirgi kunda mazkur masala davlat siyosati darajasiga kotarilmoqda, shu maqsadda fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, ta'lim-tarbiyasi, huquqiy savodxonligini yanada yuksaltirish, yoshlarning huquq sohasiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni huquqiy jihatdan yetuk va barkamol avlod etib tarbiyalash asosiy maqsad va muddaolardan biri hisoblanadi. Jamiyatda ozhaq-huquqini biladigan va qonun-qoidalarga ogishmay amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevoridir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Gulnora Inomjonova. "Nikoh shartnomasi-oila mustahkamligining huquqiy kafolati" ilmiy-amaliy qo'llanma, -T.: Intellekt Ekspert, 2015, 10-b
2. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi" Ozbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: Adolat 2011, 7-b
3. Aholining huquq va erkiliklarini himoya qilish, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yanada yuksaltirishning huquqiy asoslari. E.Qodirov //Aholining huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy ongni oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rne va roli mavzusida tashkil etilgan davra suhbat materiallari. - T.:Toshkent tezkor bosmaxonasi, 2015, 20-b



4. “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi” mavzusida jamoatchilik fikri so'rovi. Kun.uz 24.11.2017

5. Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). - T.: “Adolat”, 2018, 287-b

Evaluating how teachers can match methodology to learner needs and the process of the strengths and weaknesses of teaching methodologies/philosophies, including:

- **Behaviorism**
- **Audio-lingualism**
- **The 'Natural Way'**
- **Humanistic Approaches**

Keywords: behaviorism, audio-lingualism, natural way, humanistic, approach, instructor.

**Khabibulloeva Gulchekhra, Buronova Mekkamtosh and Khushbakova Nasiba
teachers at Denau pedagogical and entrepreneurship institute**

Teaching language by using methodology may be interesting for learners and for teachers too. In this case, teacher should evaluate students' age, interest as well as faculty. It sometimes depends on educational philosophy. However, teaching methodology does not look like an educational philosophy, despite relating it with methodology. The philosophy is a way that teacher opts for pointing to why she believes students can learn well a new material or topic the ways in that students and teachers should interact during the lesson. Philosophy often impacts the options that teaching methodology she chooses to use.

Teachers commonly refer to their preferred teaching methods and philosophies together. While a numerous methodologies can be utilized by a teacher. A common and conventional teaching method is often chosen by teachers as lecturing or explaining. Teacher provides the information to the students at the beginning and then students are expected to understand the topic. There are some teachers that they focus on the significance of the learners' learning process such as group work, group discussion, small group discussion, and pair work. As a result, they can learn to be sociable and try to communicate with classmates. Therefore they are encouraged to take responsibility for their education and are active participants in the learning process. Moreover, it will increase discipline in the classroom to achieve basic curriculum objectives.

There are some learning methods such as behaviorism, audio-lingual, the natural way and humanistic that they may consist of advantages or disadvantages.

Behaviorism is a method that looks at observable actions of students and marks if they are learning effectively. On the one hand, they are always given feedback which tells them whether they are doing it correctly or not. They would be checked by test, task, homework. On the other hand, there are also disadvantages that the approach disregards student identity and individuality. Furthermore, it studies actions of body rather than that of the brain thus is considered ineffective at assessing real learning.

While in audio-lingual approach students are taught listening and speaking skills, it means the instructor presents the right model of a sentence and then students will repeat it. Students learn without understanding fully. However, they are not very good at vocabulary. Thus students are likely to come across problems of reading and writing skills. In addition to this, that it is a teacher dominated method.

In natural way students feel themselves energetic to play games, activities, problem-solving activities that can help them to communicate much more than the teacher. However, it does not pay attention to the grammar. This method is useful for young learners not for the students of senior high school. Nowadays, it is in the process because of being easy to apply and quite simple to understand. So teachers can relate it with other methods.

Humanistic learning method is a method of a student-centered learning. It focuses on human beings rather than supernatural or divine insight. It also pays attention to the idea that children are good at the cores the education focus on rational ways to teach the "whole" child. This approach engages social skills, artistic skills, practical skills. Teacher helps students develop learning skills and motivate. Nowadays all approaches are mixed up and used in a correct way by teacher and create a mixed method regarding to students level of knowledge, and needs.

To be a good teacher is more difficult than we thought. Because a professional instructor should be sophisticated in creating group opportunities to help students observe. The teacher needs to create a friendly, learning environment in a classroom that students can enjoy during the lesson. In this way, a lot of methods can be helpful for teachers. It would be better if the teacher used a wide range of methods together for achieving objectives.

Firstly, the teacher needs to determine which method is effective for his students. A perfect teacher should be an optimist and tries to present a new theme with grammar rules at the beginning of the lesson. After giving examples students would be checked by multiple choice questions or wheels game, give me a five activity for giving feedback. It is crucial to give feedback to every student to improve their knowledge and speaking skills. It will be also a useful listening exercise. During these tasks, teachers should explain the correct meaning of the words by giving a definition or guessing in the context. While in grammar the students can imitate the teacher by repeating the rules. In this process, he teaches behaviorism with an audio-lingual approach. But students want to get more knowledge as soon as possible. So they need to be taught by cramming or playing games, and funny activities to avoid being bored. In the activities, students are at the center of the process, while teachers are second-centered persons. They do activities and acquire skills without knowing the right rules. If the teacher matches the approaches in a humanistic way, it will be a perfect lesson. Because of evaluation effectively by many teachers around the world. Not only can teachers teach the students but also learn their outlook, and try to adapt them.

Modern teachers functions may change during the lesson process, for instance if she begins the lesson she tries to be a facilitator to her learners. While during the activities she is accustomed to showing independent participant. Moreover , she can check the homework as needs analyst or works like group process manager.

Used literatures;

Books

- a) 1.Crystal, D. 1997 “English as a Global language.” Cambridge University Press.
2. Mex TESOL journal “English language in development”.
- 3.” What is a teaching methodology?” G. Wiesen 13 august 2022.
4. Zuliati Rohmah. “ English is a global language.” 2005 February.

Websites;

- 1.<https://www.tex.net>
- 2.<https://www.wgu.edu.com>.
- 3.<https://pass.now.now.com>
4. <https://oxfordhousebcn.com/en/european-languages-day-where-does-english-come-from/>

O'quvchilarga tasviriy san'at va chizmachilik mashg'ulotlarida loyihalashga o'rgatishning ahamiyati.

I.U. Izbasarov (*O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasida dotsenti*)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at va chizmachilik fanlari mashg'ulotlarida o'quvchilarni loyihalashga o'rgatish metodikasi xususida tushunchalar yoritilgan. O'quvchilarni maktab yoshidan boshlab ijodkorlikka o'rgatish, ularda mustaqil loyihalar yaratish ko'nikmasini shakllantirish va loyihalashga doir mashg'ulotlarni tashkil qilish metodikasini ishlab chiqish haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlari: *Loyiha, kompozitsiya, kombinatsiya, rangshunoslik, perspektiva, metodika, ko'nikma.*

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod hech qanday axborotga ega bo'lmagan bola emas. Ular atrofdan shunchalik tez va ko'p ma'lumotlarni qabul qiladi. Endilikda faqat o'qituvchi yagona bilim beradigan shaxs (manba) bo'lmay qoldi. Zamonaviy maktabning vazifasi ham shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatga munosib kadrlar tayyorlashda o'quvchilarning kasbiy faoliyatga yo'naltirish, shu sohada nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Hukumatimiz qaror va farmonlarida jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi sifatida ta'limni modernizatsiya qilish va maktab tajribasidan kelib chiqqan holda, bizdan quyidagi muammolarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Bugun pedagoglar oldida ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning faoliyatini qanday tashkil qilish kerak degan savol turibdi. Ta'lim jarayonidagi talablar hamda ehtiyojlar, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yangi vositalarni innovatsion izlash, barcha fanlardan o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat.

Agar o'quvchilar o'qituvchi mahorati bilan haqiqatan ham bilim olishga intilsa, bilimni o'zlashtirish ko'rsatgichi sezilarli darajada oshadi. Bu jarayonda ta'lim muassasasi va o'qituvchining eng muhim vazifasi maktabda o'quvchilarga berilayotgan ta'lim sifatini



yaxshilash uchun sharoit yaratishdir, chunki ular ushbu muammoni hal qilishning davlat ahamiyatini va maktab o'quvchilarining kelajagi bilimlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatiga bog'liqligini yaxshi bilishadi.

Insonning tabiiy qiziqishi bir xil yo'nalishda harakat qiladi dastlabki faollik maktabga o'qishga kelgan barcha bolalarga xosdir. Kuzatishlarga ko'ra, bolalar o'n yoshgacha, iste'dodidan qat'i nazar, zavq bilan rasm chizadi, yuqori sinflarga o'tgani sari esa mustaqil ravishda rasm chizadigan bolalar soni kamayib boradi. Buning asosiy sabablaridan biri dars soatlari sonining kamligi va tasviriy san'atni o'rganishga bo'lgan kishilarning munosabatlariga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Bunda nafaqat ota-onalar, balki pedagogik xodimlarning ham bu haqda noto'g'ri munosabatda bo'lishiga olib keldi. Ko'pchilik kishilar tasviriy san'atga jiddiy fanlardan emas va umuman muhim emas deb o'ylaydi va bu kelgusida bolaning maktabni tugatganidan so'ng oliy o'quv yurtlariga kirishida hech qanday ro'l o'ynamaydi deb ham bilishadi. Ota-onalar va o'qituvchilarning bunday fikrlari muqarrar ravishda bolaga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Psixologik jihatdan u rasm chiza olgani bilan rassom bo'lmasligiga ishonib qoladi, chunki uning ota-onasi bu haqda doimo gapirishadi, bundan chiqdi bola sinfda ham, uyda ham tasviriy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun vaqt ajrata olmaydi.

Maktab tasviriy san'at fanining maqsadi har bir o'quvchini professional rassom qilishdan iborat emas. Tasviriy san'at darslari bolalarda u yoki bu mavzuni nostandart talqin qilish ko'nikmasini shakllantirishi, ijodiy idrok va mustaqil fikrlashni rivojlantirishi, bolani har qanday muammoni hal etishda ijodkorlikka o'rgatishi, boshqacha aytganda, bola shaxsini shakllantirishi ko'zda tutiladi.

Tasviriy sana'tning ijtimoiy hayotda qanchalik ahamiyatga ega ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Har bir bilimli inson barkamol bo'lishi uchun, nafaqat o'z mamlakati san'ati, balki jahon madaniy merosini ham bilishi zarurligi, o'z uyingizning ichki qismini did bilan bezatish, o'z qo'llaringiz bilan do'stlaringiz uchun esdalik sovg'alar tayyorlash va shunga o'xshash buyumlarni o'zingiz yasab bezatishni bilishingiz qanchalik zavq bag'ishlaydi.

Bolalarni tasviriy faoliyatga qiziqtirish, maktabda tasviriy san'at darslarini qanday qilib qiziqarli qilib o'qitish, badiiy ta'lim mazmunini amalga oshirishga turli metod va usullardan



foydalangan holda erishiladi. Bu borada tasviriy san'at fanining metodist o'qituvchilari rivojlantiruvchi va muammoli o'qitish usullaridan foydalanadilar.

O'quvchilarning faolligini rivojlantirish muammosini, mubolag'asiz, zamonaviy ta'limning asosiy muammolaridan biri deb hisoblash mumkin. Umuman olganda, ta'lim samaradorligi oshirish maktab o'quvchilarining o'quv jarayonidagi faolligini shakllantirishga bog'liq. Mamlakatimizda shakllanayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ta'limga ham tubdan ta'sir ko'rsatdi. Ta'lim tizimida tasviriy faoliyatga o'rgatishning asosiy maqsadi - ijodiy, erkin, o'zini o'zi belgilaydigan, jamoada va jamiyatda mustaqil ravishda moslasha oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Sifatli badiiy ta'lim – bu, eng avvalo, estetik didli shaxsni tarbiyalash, o'ziga xos individuallik, ma'naviyat va ijodkorlikni egallashiga ko'maklashishni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda shaxsni shakllantirish emas, balki uni topish, qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va unda o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi himoya qilish, o'zini o'zi tarbiyalash mexanizmlarini yaratish juda muhimdir.

Bolalarda yuqoridagi xususiyatlarni shakllantirish bugungi kunda zamonaviy rassom pedagoglarning oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'quvchilarni loyihalashga o'rgatish usullarining qiziqarli va jozibali tomonlari shundaki, bu usul badiiy ta'lim sifatini yaxshilashga imkoniyatlarni ochib beradi. Mashg'ulot jarayonida bolalarning faqat o'zi tanlagan va yoqtirgan narsasini tasvirilash bilan zavqlanishini ko'p kuzatganmiz. Ko'pincha o'quvchilarga berilayotgan bilimlar nazariylikicha qolib amaliyot bilan bog'lanmasligi mumkin, bu jarayonda esa loyiha usulining maqsadi ham nazariyani amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iboratdir.

Mavzuli loyihalar bosqichma –bosqich ishlanib tugallanib boradi va bu o'sish surati har bir bolaning o'ziga xos rivojlanish darajasini ta'minlaydi.

Badiiy loyihaviy ishni o'rganishdan maqsad, birinchi navbatda, maktab o'quvchilari o'rtasida yangi tajribani o'zlashtirishga, o'z-o'zini tarbiyalashga va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratishdir. Badiiy ta'lim loyihalari ustida ishlash orqali bolalar tadqiqot o'tkazish, turli ma'lumotlarni tahlil qilish va yangi g'oyalarni taqdim etishni o'rganadilar.



Shunday qilib, loyiha usullari ijodkorlik, axborot makonida harakat qilish va o'z bilimlarini mustaqil ravishda qurish qobiliyatiga asoslanadi.

Tasviriy san'at darslarida loyiha asosida o'qitish usulini dasturda rejalashtirilgan deyarli barcha mavzular bo'yicha tashkillashtirish mumkin. Mashg'ulotni loyihalar tuzish usuli orqali olib borish o'quvchilarning faolligini oshiradi passivligini engishga yordam beradi. Maktab o'quvchilari o'zlarining ijodiy imkoniyatlarini applikatsiya, mozaika, monumental rangtasvir mavzularida ijodiy loyihalarni bajarish orqali amalga oshiradilar. Gravyura (grafika turlarida), rel'yef, modellashtirish (haykaltaroshlik mavzusida), yog'ochga rasm chizish, dekorativ xalq amaliy san'ati mavzularida mustaqil loyihalar bajaradilar.

Loyihaviy ta'lim usulini ta'lim jarayoniga joriy etishdan maqsad ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni tasviriy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat. Bunday usulni qo'llashning shubhasiz afzalligi bu yangi mavzu ustida ishlash, o'quvchida tasvirlanayotgan kompozitsiyaning yechimlarini topish qobiliyatini rivojlantiradi. Loyiha metodologiyasi bilan ishlaydigan o'qituvchining asosiy vazifasi tanlangan usuldan didaktik jihatdan to'g'ri foydalanishdir.

Faqat bu holatda ta'lim jarayonining ta'lim va rivojlantiruvchi komponentlarini amalga oshirish haqida gapirish mumkin. Shunday qilib, loyihaning maqsadini aniq belgilash kerak. O'quvchilarga loyihaviy ta'lim asosida bilim berishning maqsadi uni amalga oshirish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdir.

Yetishmayotgan bilimlarni turli manbalardan mustaqil va xohish bilan egallashni olingan bilimlardan kognitiv va amaliy muammolarni hal qilishda foydalanishni o'rganish, turli guruhlarda ishlash orqali muloqot ko'nikmalarini egallash, ularning tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish, tizimli fikrlashni rivojlantirish, individual ijodkorlikni namoyon etishdan iborat. Bolaning ijodiy shaxsini rivojlantirish haqida gapirganda, biz ta'lim haqidagi mulohazalarni unutmashligimiz kerak. To'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya o'quvchini hayotdagi uchta asosiy rolga - fuqaro, ishchi, oila a'zosi sifatida tayyorlashi kerak.



Loyihalarni amalga oshirish natijasida maktab o'quvchilarida mehnatsevarlik, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, mas'uliyatni his qilish, xushmuomalalik, zukkolik kabi xususiyatlar shakllanadi.

Tasviriy san'at va kompozitsiya darslarida loyihalash mashg'ulotlari usulidan foydalanib, o'qituvchi badiiy ta'lim vazifalarini ham hal qiladi. Maktab o'quv dasturlarida belgilangan mavzularga asosan tasviriy san'at va badiiy ijodning asosiy vazifalari estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasi, elementar amaliy va badiiy faoliyat ko'nikmalarini berish hamda tekislikdagi va tabiatdagi bor hajmli narasalardan, xotiradan va tasavvurdan tasvirlash, rangtasvir, grafika, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, dizayn, me'morchilikning ifodali vositalari haqidagi bilimlarni egallash, bolalarda vizual qobiliyatlarni, badiiy didni, ijodiy tasavvurni, fantaziyani, estetik tuyg'uni va go'zallikni tushunishni rivojlantirish, san'atga qiziqish va muhabbatni tarbiyalashdir.

Chizmachilik mashg'ulotlarida ham o'qituvchi mavzuning boshlanishida loyihalashga doir chizma asosida texnik rasmlar bajarish haqidagi ma'lumotlarga, texnik rasmlarning tasviriy faoliyat bilan bog'liq jihatlari, ularning turlari, hamda chizmalarni bajarish usullariga batafsil to'xtalib o'tishi kerak.

Mustaqil ish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning gavdasi va qo'lining vaziyati to'g'ri joylashishiga, rasm kompozitsiyasi va uning bajarilishi ketma – ketligiga e'tibor qilishi lozim. Loyihalashga doir texnik rasmlarni bajarish amaliyotida faqat kontur rasm bilan chegaralanib qolinmaydi. Detal hajmi, yaqqolliq va shakl mazmunini ochib berish uchun bir nechta usullardan foydalaniladi. Bu usullar asosida yorug' – soya munosabatlari yoritilib, ularga shatirovka shtrix chiziqlar bilan yoki to'r ko'rinishidagi shtrixlar va soya qismlariga nuqtalar bilan ishlov beriladi. Soya berishda yorug'lik buyumga chap tomon balanddan tushadi deb hisoblash kelishilgan. Yorug'sirtlar shtrixlanmaydi, soya qismlari esa shtrixlanadi. Sirt qanchalik qoramtir soyada bo'lsa shtrixlash shunchalik qalin bo'lishi kerak.

Loyihalash mashg'ulotlarida texnik rasm bajarish malakasi ko'pchilik sohalarida kerakligi davr talabidir. Kasbiy va umuminsoniy munosabatlar, g'oya va loyihalarni ifodalashda har bir kishiga texnik rasm bajarish ko'nikmalari zarur bo'ladi. Rasmni bu tur



texnikasini egallashda qalam bilan ishlash malakalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratish kerak. Pero yoki mo'yqalamda texnik rasm bajarish usullariga o'rgatishni fakultativ mashg'ulotlarga ajratish mumkin.

Loyihalash orqali bajarilayotgan har bitta ishning natijasi samarali bo'ladi, chunki mo'ljaldagi vazifaning ketma – ketligi oldindan to'g'ri rejalashtirilib olinadi. O'quvchilarga tasviriy san'at va chizmachilik mashg'ulotlarida loyihalashga o'rgatish orqali ularda ijodkorlikni va mustaqil kompozitsiyalar yarata olish qobiliyatini shakllantiramiz, kasbga tanlashga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiramiz, estetik tarbiya omillarini amalga oshirishdek muhim vazifalarni bajargan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лакоценина Т.П., Алимова Е.Е., Оганезова Л.М. Современный урок. часть 4: Альтернативные уроки. – издательство «Учитель», М. 2012 г.
2. I.U. Izbasarov. Haykaltaroshlik. darslik. Samarkand. 2021 . SamDU. tahririy nashriyoti . 246 b
3. I.U.Izbasarov, G. A. Mahkamova, G.O. Sultanova “Tasviriy san'at va o'qitish metodikasi” o'quv qo'llanma Samarkand. 2021. SamDU. tahririy nashriyoti .176 b
4. I.U. Izbasarov .The Role of Compositional Principles in the Creation of Works of fine Art. American journal of social and humanitarian research. ISSN: 2690-9626 vol.3, no 1, 2022



IMPROVING STUDENTS' WRITING SKILLS BY USING SOCIAL MEDIA

Makhsudova Munisa Jamol qizi

Master's degree, Uzbekistan State World Languages University

Turg'unova Shakhnoza

UZSWLU senior teacher

Anotatsiya

Ushbu maqola bakalavr talabalarining yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish istiqbollarini ochib berishga qaratilgan. Ushbu muammoni aniqlash uchun turli usullar, so'rov, guruh testi, talabalar bilan bahs-munozaralar o'tkazildi. Ma'lumotlar yig'ilgandan so'ng, tadqiqotchi talabalarning yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni tahlil qilindi. So'rovnoma universitet talabalari o'rtasida ijtimoiy tarmoqlar, xususan Telegram, Facebookdan foydalanish tendensiyalarini o'rganishga yordam berdi. Guruh muhokamasida talabalar yozish ko'nikmalarini oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish uchun o'z fikrlari va munosabati haqida yetarli ma'lumot to'plashga yordam berishdi.

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy tarmoqlar, ESL o'quvchilari, Facebook, Telegram, muhokama guruhi*

Аннотация

Использование социальных сетей влияет на жизнь каждого студента. Эта статья направлена на раскрытие перспективы использования социальных сетей для развития навыков письма студентов бакалавриата. Для выявления данной проблемы экспериментируются различные методы, опрос, групповое тестирование, диспуты со студентами. После сбора данных исследователь проанализировал использование социальных сетей для развития навыков письма учащихся. Опрос помог изучить тенденции использования социальных сетей, в частности Telegram, Facebook среди студентов вузов. В групповом обсуждении студенты помогли собрать достаточно

информации об их мнении и отношении к использованию социальных сетей для улучшения навыков письма.

Ключевые слова: *социальные сети, учащиеся ESL, Facebook, Telegram, дискуссионная группа.*

Annotation

The use of social media has impact on every student's life. This article aims to reveal the prospect of using social media to evolve undergraduate student's writing skills. To identify this issue, a variety of methods, a survey, group test, debates with students are experimented. After collecting the data, researcher analyzed the use of social media to develop writing skills of students. A survey helped to examine the trends of employing social media particularly Telegram, Facebook among university students. In group discussion, students helped to collect enough information about their opinion and attitude to use social media for improving writing skills.

Keywords: *Social medias, ESL learners, Facebook, Telegram, discussion group*

Introduction

Writing is a core skill in academic field, in particular in a higher education while technology has affected all students' life, as well as, in education. In today, using social media is growing up day by day, which is also being used for educational purposes. The use of social media for educational purposes is little explored in our country. Although the popularity of social media as a tool for language teaching inside and outside class, the role of social media concentrated on investigating the trends of its use among students.

Literature Review and Methodology

Developing the Internet illustrates to increase the use of social media throughout the globe. Safco states social media as “user-generated content; blogs, audio, video, music, news, photos, tweets—working together with digital technology in [an] environment [where] everything is accessible from everywhere and everything is connected”. Grahl divided social media into six distinct groups including social news, social networks,

bookmarking sites, blogging, micro blogging and media sharing. Facebook, Instagram, Twitter, and Telegram are some of the Social Networking Sites resulting from social media technology. Technology helped instruction is more productive than traditional teaching methods to assist students in language acquisition. Using social media like Facebook and Twitter assisted students to develop their writing skills and vocabulary. (Li, 2010; Yunus et al. 2012). On the other hand, Schmidt and Brown mentioned that the use of social media ought to taken as combination of online and traditional classroom teaching. Warschauer used the laptops to improve writing skills. His findings revealed that there existed an important development in students' writing as use of laptops assisted them to easily access the information to plan their writing, in drafting the papers and publishing their works after having immediate feedback and frequent revision.

Most of students have easy access to social media through their mobile phones, laptops and language teachers used some social media to improve writing skills. The result of study shows that active participation of students is in Telegram and Facebook helps them improve writing skills. During group discussion students conveyed their point of view that easy access to Telegram and Facebook made it convenient for them to use Telegram and Facebook for language practice than the limited time available in classroom. They could visit the writing group discussion chat groups on Telegram and Facebook. For the reason that Omar, Amin Embi, and Yunus are point of view that "Facebook has become a significant part of students' lives, utilizing the tool in a pedagogically sound approach could benefit ESL learners in practicing the language outside their classrooms". Facebook and Telegram provide a group for extending the traditional class by using technology in language acquisition according to students' interest and participation in this digital age. Students shared their experience and enjoyment and expressed their opinion and ideas about a sort of topics on Telegram chat and Facebook rather than traditional classroom environment.

Telegram group enables students to communicate with other groupmates and talk with another friend without time control. Students emphasized they can read their groupmates' post on the Telegram discussion group, and they were also encouraged to share their

personal opinions given the topics. Besides, they can ask several questions and take their replies from others. That group helped them read and comment on other student's questions. One student said that he read and reread her message from sending to the group which assisted her to self-correct her mistakes. As well as, when students write their comment on others post, they repeat this situation on Facebook. Majority of students shared their experience that when they read their friends' posts written in English, they became more conscious of their own writing. When they have some misunderstandings to the words, they consulted the dictionary to search the meanings or definitions of any new words employed by their groupmates on the discussion group. Students take this from motivation and they want to continue this activity to learn through interaction with groupmates and teacher. To sum up, using Facebook or Telegram as an innovative tool for language teaching helps to evolve amazing attitudes and relationships, attract students' attention, motivate them to participate, encourages a collaborative environment.

Most students are active on social media and there exist several ways of improving writing skills:

1. Engaging with the language
2. Expressing yourself succinctly
3. Developing a writing style
4. Learning from the experts
5. Building confidence
6. Being conscious of your grammar

Social media has a positive effect on students' writing skills as given ways. On social media, students are able to use creativity with the language. In other words, they have better understanding of how it works.

Conclusion

From point of view that our classes are needed to upgrade to incorporate social media in order to engage students in the digital period. The study displays that students' easy access to Telegram and Facebook makes it a potential tool to be employed in language teaching to facilitate language learning. The students could improve their writing skills since they were

encouraged to write in an organized way in a stress-free environment supplied by Telegram and Facebook. The use of them rose the student teacher interaction and cooperated the students to learn from their teachers and groupmates through collaborative learning experience. On the other hand, social media ought not to be seen as a replacement of traditional classroom learning but as a tool to help the language teaching in class.

References

1. Amina Shahzadi (2020) “Using Social Media to Improve Students' English Writing Skills: A Mixed Method Study”, 124-140
2. Grahl, B. (2013) ‘The media of social media’. Retrieved from [Http://tristantreadwell.wordpress.com/tag/grahl](http://tristantreadwell.wordpress.com/tag/grahl) dated 13th April, 2016.
3. Liu, Y. (2010). Social media tools as a learning resource. *Journal of Educational Technology Development and Exchange*, 3(1), 101-114.
4. Omar, H., Embi, M. A., & Yunus, M. M. (2012). ESL learners’ interaction in an Online discussion via Facebook. *Asian Social Science*, 8(11), 67-74.
5. Yunus, M., & Salehi, H. (2012). The effectiveness of Facebook groups on teaching and Improving writing: Students’ perceptions. *International Journal of Education and information Technologies*, 6(1), 87-96

Терминларнинг мазмуний муносабатлари

Насирдин Қаршиев. Ўзбекистон-Финландия педагогика институти филология
фанлари доктори (PhD).

Аннотация: статья посвящена лингвистическому анализу гипонимического, антонимического, партонимического падежей терминов каракулческого терминов.

Ключевые слова: каракулского терминов, гипонимия, партонимия, антонимия, синонимия.

Аннотация: мақолада қоракўлчилик терминларининг гипонимик, партонимик, антонимик ва синонимик ҳолатларининг лингвистик таҳлилига бағишланган.

Калит сўзлар: қоракўлчилик терминлар, гипонимия, синонимия, антонимия.

Abstract: the article is devoted to the linguistic analysis of the hyponymic, antonymic and synonymous cases of the terms Astraxan branch.

Key words: Astraxan branch, hyponymy, partonomic, synonymic.

Ўзбек тилининг қоракўлчилик терминологик системасини яхлит бир система сифатида тадқиқ этиш давомида шу соҳа терминларининг шаклланиши тарихи, лексик-семантик гуруҳлари, ясаиш усуллари, бойиш манбаларини ўрганиш билан бир қаторда уларнинг, яъни терминларнинг ўзаро мазмуний алоқасини аниқлаш масаласи ҳам кўндаланг бўлди. Тадқиқот объекти материалига хос терминлар ўзаро қуйидаги мазмуний муносабатларга кириша олади.

Терминларнинг гипонимияси. Қоракўлчилик терминологик тизимини таҳлил қилиш натижасида унинг таркибига кирувчи терминларнинг бир талайи “жинс-тур” муносабати билан ўзаро боғланганлиги аниқланди. Негаки, “Воқеликдаги нарса, белги, хусусиятлараро жинс-тур боғланишлари жуда кенг тарқалган. Бундай боғланишларни табиатда ҳам, ҳаётда ҳам, фанда ҳам жуда кўп учратамиз”. Ўзбек тилининг қоракўлчилик терминологиясида ҳам айни шундай ҳолатнинг ўз ифодасини



топганлигини кўриш мумкин. Қоракўлчиликка оид тушунчаларнинг ўзига хос хусусиятидан келиб чиқилганда, шуни таъкидлаш лозимки, улар, асосан, “тур”, “нав”, “гул”, “ранг”, “расм” тушунчалари билан бирлашиб, яхлитлик ҳосил этади. Табиийки, бундай тушунчаларнинг барчаси тилда махсус луғавий бирликлар воситасида реал тус олади. Натижада, яхлит бир терминологик система шаклланган бўлиб чиқади. Бундан эса мазкур терминологиянинг таркибий қисмлари – “тур”, “нав”, “гул”, “ранг”, “расм” каби семалари мавжуд эканлиги аён бўлади. Бу семанинг ҳар бири гипероним сифатида майдонга чиқади. Чунки улар ўзаро бир-бири билан боғлиқ бўлган қатор луғавий бирликлар, аниқроғи, терминлардан иборатдир.

1. “Тери тури” семасининг гипер-гипонимияси. Териларнинг ҳар бир тури тегишли терминлар воситасида ифодаланадики, улар “тери тури” гиперонимининг гипонимлари қаторидан жой олади. Бундай гипонимлар тузилишига кўра икки хил шаклда қўлланади:

а) туб ёхуд ясама шаклида: *сур, шерозий, тақир*// *қоракўлча*;

б) бирикма шаклида: *қора тери, кўк тери, оқ оралаган қора, қамбар тери, халили тери, гулигаз тери, сур тери* ва б.

Қоракўлчилик терминологиясида гипер-гипонимик ўзаро муносабатнинг қай даражада эканлиги ҳақида тўлиқроқ тасаввур ҳосил қилиш мақсадида “тери тури” гиперонимининг яна қуйидаги гипонимлари гипоним вазифасини ўтаб келаётганлиги тасдиқланди, далиллар келтириб ўтамыз.

“Тери тури” [гипероним] → “қора тери” [гипоним] → гипероним: тўқ қора тери, нормал қора тери, оч қора тери [гипонимлари].

“Тери тури” [гипероним] → “кўк тери” [гипоним] → гипероним: оч кўк тери, тўқ кўк тери, ўрта кўк тери, кўк каптар тери, ҳаво ранг тери, тиниқ ҳаво ранг тери, тўқ ҳаво ранг тери, кумуш ранг тери, пўлат ранг тери, “мошкичири” тери [гипонимлари].

Терминлар партонимияси. Табиатда мавжуд бўлган барча жонли ва жонсиз ном маъносидаги нарса-предметлардан тортиб, инсон қўли билан яратилган жамики нарса-предметлар ҳам муайян қисмларнинг бирикувидан, бириктирилуvidан яхлитлик касб этади. Бундай диалектик ўзаро боғлиқликни “қоракўл тери” “бутун”



буюминг “қисмлари” мисолида ҳам кўриш мумкин. Чунки улар, гарчи кам миқдорда бўлса-да, қорақўлчилик терминологиясида ўзига хос терминлар воситасида ифодаланиб, айниқса, мутахассислар орасида тез-тез қўлланади. “Қорақўл тери” партонимининг тотонимлари (бўлақлари) аталишининг сабаблари бор, албатта. Жумладан, бу ҳақда А.Раҳимов шундай деган: “ Ҳар бир қорақўл териси айрим қисмларининг мўйна сифати турличадир. Шунинг учун ҳар бир терини айрим қисмларга бўлиш... зарурдир. Қорақўл териси ҳар бир қисмининг номи ва уларнинг чегараси... бор”.

Бу ўринда шуни қайд этиб ўтиш лозимки, “қорақўл тери” партонимининг тотонимлари қорақўл кўзилари (барралар)нинг конституциясининг қисмларини англатувчи терминларнинг ўзларидан фойдаланиб келинмоқда.

“Қорақўл тери” партонимининг тотонимлари қуйидагилардан иборат: *сағри (орқа оёқ усти қисмининг териси), орқа қирра, ёнбошлар, бўйни, калласи, қорни, думи, думининг ёғсиз қисми, орқа оёқлари, олдинги оёқлари, чотлари, сакраш бўғимлари.*

Терминлар антонимияси. Материаллар таҳлилидан қорақўлчилик терминологиясининг ўзига хос хусусиятга эга эканлиги туфайли антонимик тушунчаларнинг ифодаланишида, бошқа соҳалар терминологияларидан фарқли ўлароқ яқка луғавий бирликлардан иборат антонимик жуфтлик камроқ қўлланаётганлиги кузатилди. *Жингалаклик-жингалаксизлик, гуллилик//гулдорлик-гулсизлик, жунлилик-жунсизлик, рангдорлик-рангсизлик* ва б.

Бирикма шаклидаги антонимик жуфтликларни вариантларга эга-эга эмаслиги нуқтаи назаридан икки гуруҳга ажратиш мумкинлиги шу соҳа терминологиясининг ўзига хослигини тасдиқловчи омил деб ҳисоблаймиз. Бундай терминлар, асосан, ёзма манбаларда қўлланиб келинмоқдаки, улар қуйидагилардан иборат:

Вариантсиз қўлланаётган антонимик жуфтликлар. Бу хилдаги терминларнинг ишлатилаётганлиги шу соҳа терминологиясидаги бир хилликка эришиш учун олиб борилган ишларнинг самараси деб ўйлаймиз. Қуйидагилар шундай антонимик



жуфтликлар сирасига киради: *терининг этилганлиги - терининг этилмаганлиги, катта донагул - майда донагул* ва б.

Терминлари синонимияси. Ўзбек тили лексикасини систем нуқтаи назаридан тадқиқ этишда синонимия (маънодошлик) масаласи ҳам муҳим ўринни эгаллайди. “Маънодошлик муносабатларини тўлиқ ва атрофлича тадқиқ қилиш, – дейилади Ҳ.Неъматов ва Р.Расуловнинг монографиясида, – ўзбек тили лексемалари семемаси таркибидаги ифода семаларни... ўрганиш имкониятини туғдирадиган муҳим омилдир. Бунда семалар қаторида, жумладан, қуйидагилар ўрин олади”. Бундай семалар қатори иккинчи бандда қуйидагича эканлиги кўрсатилган: “2) лексеманинг қўлланиш доирасини белгиловчи семалар (“сўзлашув нутқига хос”, “китобийлик”, “кўтаринкилик”, “ғайри оддийлик”, “назмга хослик”, “маълум бир тоифа нутқига хослик (арго, жарго)”, “шевага хослик” ва б.)”. Биз бу семага “терминлилик” (“терминологиясига хослик”) семасини ҳам қўшишни лозим деб топдик. Чунки айти шу семанинг синонимияси саналган семалар синонимиясидан тадқиқот усулининг ўзига хослиги билан ажралиб туради. Кўрсатилган семаларда синонимлар тилнинг бойлиги сифатида қаралади. Терминологияда эса ўзгача ёндашиш қарор топган. Тилшуносликнинг бу соҳасида

синонимлар ўрганилганда, танлаш тамойилига амал қилинади, яъни “битта тушунчага – битта термин” принципига риоя этилади. Терминологиядаги синонимларни ўрганишдан мақсад уларнинг маъқулларини қўллашга тавсия этишдан иборат.

Маълум бўлишича, қоракўлчиликка оид манбаларда баъзи терминлар ва терминэлементларнинг синонимлари қавс ичида келтирилган. Олдинги бобда терминэлементлар синонимияси ҳақида етарли маълумот берилганлигидан қуйида қавсли терминлар (шартли равишда шундай деб атадик) синонимиясига алоҳида урғу берилди. Қавсли синонимлар ташқи ва ички терминлари тил материалига кўра уч хил гуруҳга ажралиб қолип схемаси асосида кўрсатиш лозим деб топилди. Булар қуйидагилардан иборат:



“Ўзбекча+ўзбекча → қавсли синонимлар”: бурма (ажин), чирмашиш (тўқилиш), кобиқ (пўст), қилтиқ (қил). Охирги синоним ҳақида икки оғиз сўз.

Тегишли манбаларда қилга нисбатан қилтиқ термини кўпроқ ишлатилганлиги, бинобарин, кейингиси асосий термин сифатида қўлланиши лозим, деган фикрга ҳам келиш мумкин. Шундай бўлишига қарамай, қоракўлчиликда қилтиқ ўрнида қил (“Девон” да тў тарзида берилган (I,385) терминидан фойдаланиш тарафдоримиз. Чунки ЎТИЛда иккала терминнинг бир-биридан фарқи очиқ-ойдин кўрсатиб берилган.

1. “Ўзбекча + русча-байналмилал қавсли синонимлар”: тангача (кутикула), итқили (песига).

2. “Русча-байналмилал + ўзбекча қавсли синонимлар”: штопор(бурама), дерма(териси/асл тери/чин тери).

Шундай қилиб, жун илдизнинг бир қисми, биринчидан, *пиёзча*, иккинчидан, *сўгон* деб аталган. Бу ўринда пиёзча терминининг танланганлигини тўғри, деб ҳисоблаймиз. Чунки қоракўл терининг ўзи кичкина ҳажмлидир. Иккинчидан, ЧТЛда ўша тушунча *луковица*, яъни лук лексемасининг кичрайтма шакли билан ифодаланган. Шундай экан, *пиёзча* термини ўрнида *сўгон* лексемасининг танланганлиги тўғри бўлмайди. Негаки, *сўгон* катта ҳажмли сабзавотлардан бирининг маъносини ифодаловчи *пиёз* лексемасининг синоними ҳисобланади. Кичик ҳажмли предмет (яъни, қоракўл тери)лардан бирининг жуда кичкина бир қисмини *сўгон* лексемаси билан ифодалаш ўзини оқламайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бўронов М. Ўзбек тилининг қасб - ҳунар лексикасидан (махсус курсга материаллар). – Нукус, 1978. – Б.54-55.
2. Зокиров М., Хачатурова Л., Юсупов С. Чорвачилик терминларига оид русча - ўзбекча лутат. Маълумотнома. – Тошкент: Меҳнат, 1990. – Б.210.
3. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Б. 118-119.
4. Раҳимов А.А. Қоракўлчилик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б. 83.

O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KORRUPSIYA XAVFI

**Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali Davlat-
huquqiy fanlar kafedrasini mudiri v.b. A.R.Jabbarov**

Davlat-xususiy sherikligi - bu xususiy biznesning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifalarini hal qilishning eng muhim vositalaridan biri. Xususiy sektorning davlat darajasida yaqin sheriklik munosabatlarini o'rnatishga bo'lgan qiziqishi biznesni rivojlantirish tendensiyasiga ko'ra nihoyatda ijobiy holat. Biroq, DXSh ko'lami kengayib borishi bilan korrupsiya xavfi sezilarli darajada oshadi. Hozirgi korrupsiya xavflarining asosiy sabablari mavjud institutlar tomonidan normativ ta'sir ko'rsatilmaganligi bilan bog'liq institutsional cheklolardir. Muallif davlat va xususiy biznes o'rtasidagi aloqalarni optimallashtirish uchun asoslarni taklif qiladi, ta'sirni kamaytirishga mo'ljallangan korrupsiya xavfi va DXSh rivojlanishining institutsional shart-yo'llarini shakllantirish.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sherikchilik (DXSh), xarid qilish holati, korrupsiya xavfi, korrupsiya tranzaksiyasi, institutsional cheklolvar.

Davlat-xususiy sheriklik - bu xususiy biznes tomonidan shoshilinch ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni hal qilishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Muvofiqlashtiruvchi funksiyalarga ega bo'lgan davlat, amalga oshirishda korporativ sektorni jalb qilishni o'z zimmasiga oladi u yolg'iz amalga oshira olmaydigan investitsiya loyihalarini taklif etadi. Biznesni o'zaro manfaat asosida jalb qilish ushbu loyihalarni yakunlash imkoniyatini beradi.

Jahon amaliyotida DXShning turli shakllari mavjud bo'lib, uning tarkibiy qismi xususiy korxonaning davlat tomonidan unga ajratilgan aktivlardan foyda olish huquqidir.

Shunday qilib, DXSh - bu davlat va xususiy biznes o'rtasidagi kelishuv shakli bo'lib, uning doirasida xususiy biznes jamoatchilik uchun katta ahamiyatga ega loyihalarni ishlab chiqish taklif etiladi. Loyihalarda xususiy korxonaning ishtirok etish usuli juda xilma-xil bo'lishi mumkin, shu jumladan ishlab chiqarish maydonlari loyihasi doirasida amalga oshirilgan xususiy korxonalar mablag'larini birgalikda moliyalashtirish va loyiha tomonidan ko'zda tutilgan ob'ektlarni qurishda xususiy sherikning bevosita ishtirok etishi. Ushbu muammoning mavjudligi DXSh rejimining noaniqligi, shartnoma tizimining muammolari bo'yicha muammolarini qo'yilishi sabablaridan biridir.

Bitimga binoan, loyihani amalga oshirish tashabbusi davlat tomonidan himoya qilinadi, chunki u infratuzilma ob'ektlarini shakllantirish, jamoatchilik manfaatlarini qondirish uchun mas'uldir.



Ideal holda, DXSh davlat va biznes hamjamiyatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning bir turi sifatida amalga oshiriladi, bunda biznesning davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikka bo'lgan qiziqishi asosan rivojlanishga qaratilgan an'anaviy korporativ strategiya ustidan hukmronlik qiladi. Ushbu strategiyaga muvofiq, davlat faqat iqtisodiyot davlat sektorini rivojlantirish arbitraj menejeri va regulyatori vazifasini oladi.

Korrupsiya umidlariga sabab bo'ladigan yana bir muammo – davlat buyurtmalarini raqobatbardosh joylashtirishning shaffofligi va noto'g'ri tasavvurga ega mexanizmlarning yo'qligidir. Ommaviy axborot vositalari davlat xaridlari sohasidagi qonun hujjatlarining qulashi to'g'risidagi ko'p sonli holatlarni qamrab oladi.

Korrupsiya xavflarini neytrallashtirish bo'yicha ehtimoliy chora-tadbirlardan biri xususiy sektor korxonalarining yirik davlat loyihalarini ishlab chiqishda ishtirokini kengaytirish bo'lib, ular yoki ganizerlarning o'zlari ushbu jarayonga cheklangan ta'sir ko'rsatishi bilan shaffof va ochiq raqobat tartib-taomillari asosida amalga oshiriladi. Shu sababli davlat ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy kompaniyalarni yanada ko'proq jalb qilmoqda. Davlat loyihalarida davlat muassasalari faoliyatidagi korrupsiya tarkibini sezilarli darajada qisqartirishga qodir. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida davlat faoliyatining shaffofligini oshirishda xususiy sektor ishtirokining ahamiyati alohida qayd etilgan. Torontodagi K-20 yig'ilishida (2010, Kanada) DXShlarning kuchayishi korrupsiyaga qarshi kurashish shartlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Los-Kabosda bo'lib o'tgan K-20 VIII sammiti ishtirokchilari (2012, Meksika) ham korrupsiyaga qarshi kurashda biznesning alohida o'rni qayd etildi.

Buyuk Britaniya DXSh tamoyillarini amalga oshirishda O'zbekiston uchun eng qiziqarli tajribaga ega, u yerda "xususiy moliyalashtirish tashabbusi" (xususiy moliyalashtirish tashabbusi, ya'ni XMT) keng tarqalgan, unda xususiy sektor ob'ektlarni o'z puliga quradi, so'ngra birovlar davrasida ekspluatatsiya qiladi va undan daromad oladi. O'zbekistonda xususiy biznes hali ham davlat bilan qo'shma loyihalarga kam qiziqish bildirmoqda. DXSh loyihalari bugungi kunda DXSh to'g'risidagi qonun yoki DXSh qonunchiligiga binoan amalga oshirilishi mumkin. DXSh to'g'risidagi qonunlarni qabul qilgan deyarli 4 yil bo'lishiga qaramay hududlarda unchalik ishonchli emas. Mahalliy hokimiyat qonunlarga zid bo'lishlaridan qo'rqib, me'yorlarni qasddan rasmiylashtiradi va ularni ishlamaydigan qilib qo'yadi. Va imtiyozlar loyiha ishtirokchilariga ko'plab cheklovlar qo'yadi: masalan, ob'ektni xususiy mulkdorning egaligiga o'tkazib bo'lmaydi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning mavjud amaliyoti bugungi kunda quyidagi sohalarda amalga oshirilmoqda:

–Ijro etuvchi organlar faoliyatini tartibga solish , ko‘rsatilayotgan xizmatning mohiyatini erkin talqin qilish imkoniyatlarini qisqartirish.

–Mansabdorlarning o‘z vazifalarini noto‘g‘ri bajarishlari uchun shaxsiy javobgarligi normalarini kuchaytirish.

–Davlat institutlarining nazorat funksiyalarini optimallashtirish, o‘zini o‘zi boshqarish organlarining barcha a‘zolari uchun majburiy bo‘lgan tadbirkorlik yoki kasbiy faoliyat me‘yorlari va qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning bir usuli sifatida keng yo‘l ochib beradi.

– Huquqni muhofaza qilish organlarini korrupsiya xavfining oldini olish sohasida qo‘shimcha vakolatlar bilan ta‘minlash.

Biroq, ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, ko‘zlangan maqsadlarga erishishga ko‘maklashish uchun ishlab chiqarilgan me‘yorlarning murakkabligi va samaradorligining yo‘qligi bilan bog‘liq jiddiy muammolarga duch keladi. Korrupsiyaga qarshi choralarning davlat tomonidan tartibga solishning mavjud tizimiga kuchsiz integratsiyalashuvi natijasida qo‘zg‘atiladi. Shu sababli davlat korrupsiya operatsiyalarini yakunlash imkoniyatidan oldin ogohlantirish o‘rniga, doimo sanksiyalar amallariga qo‘l urishga majbur bo‘ladi.

Ayniqsa, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish holatida davlatning korrupsiyaga qarshi kurashdagi xatti-harakatlari xavf-xatarlarga uchraydi, bunda ko‘p sonli buyurtmachilar ishtirok etadi, loyihalarni moliyalashtirish uchun katta miqdorda byudjet resurslari ajratiladi. Eng yirik investitsiya loyahasini amalga oshirishga korrupsiya sxemalarining kirib borishining yaqqol misollaridan biridir.

Ushbu amaliyot DXSh tizimining o‘zini xavf ostiga qo‘yadi, uning mavjudligi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishning shartidir.

Samarali DXSh tizimini shakllantirishning eng muhim institutsional sharti davlat va xususiy kompaniyalar manfaatlarining o‘z loyihalarini amalga oshirish uchun byudjet resurslarini jalb qilish bilan qiziqadigan simmetriyasiga rioya qilishdir.

Davlat bilan tuzilgan shartnoma loyahasiga qadam qo‘ygan holda, korxonalar tuzilishi loyihani amalga oshirish uchun qo‘shimcha xarajatlarga, shu jumladan zarur ma‘lumotlarni qidirish va qayta ishlashga, texnik ekspertizadan o‘tkazishga, hujjatlarni tayyorlashga tayyor bo‘lishi kerak. musobaqada, texnologik tizimni loyihaning texnik xususiyatlariga moslashuvi , va boshqalar

Qanday bo‘lmasin, xususiy kompaniya loyihada qatnashish xavfini o‘z zimmasiga oladi, chunki uni bajarish shartlari to‘g‘risida barcha ma‘lumotlarga ega emas. Bundan



tashqari, davlat shartnomasini tuzish bo'yicha tenderda ishtirok etish xususiy kompaniyaning loyihaning real xarajatlarini kamaytirishga intishiga sabab bo'ladi. Ushbu kompaniya nafaqat loyihani amalga oshirish shartlari to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish, balki o'z sherigiga qo'shimcha ma'lumot berish orqali ham xavf darajasini kamaytirishga qodir shartnomaning buzilishi yoki loyihaning past ishlashi tufayli yuzaga kelgan yo'qotishlarni qoplash imkoniyatini beruvchi kafolatlar.

DXSh loyihalarida xorijiy kompaniyaning muvaffaqiyatli ishtirok etishining asosiy sharti loyiha vazifalarini amalga oshirish uchun byudjet resurslarini va kredit mablag'larini olishning qulay rejimi mavjudligi hisoblanadi. Biroq, individual korxonalar uchun buxgalteriya resurslaridan foydalanish uchun sharoit qanchalik qulay bo'lsa, loyihada qatnashish huquqini olish mexanizmi shunchalik murakkablashadi. Shu shartlarga ko'ra, kompaniyaning DXSh loyihasida ishtirok etish huquqini olish korrupsion savdo sub'ektiga aylanadi.

Buzg'unchi tranzaksiya, bizning fikrimizcha, "qiziqqan taraflar tomonidan xudbin niyatlar uchun bunday tranzaksiyani amalga oshirishda shart-sharoitlar va tartibga zid ravishda amalga oshirilgan davlat xizmatini olish bo'yicha amalga oshirilgan harakatdir" [Roy: 2011, s. 139].

DXSh loyihasida buzg'unchi bitimni aniqlashda asosiy muammo - bu loyihani amalga oshirishda ishtirok etgan sheriklarning xudbin niyatlarini aniqlash juda qiyin bo'lganda, uning yopiq tabiatidir. Buzg'unchi xatti-harakatlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarning tashqi mustahkamlanishi bilan ushbu chora-tadbirlarning kutilayotgan natijalarga ta'sirini neytrallashtiradigan ko'plab institutsional tuzoqlar paydo bo'ladi.

Singapurlik taniqli davlat arbobi Li Kuan Yuv o'z xotiralarida xolis hukumatning mavjudligi uchun zarur shart - saylanish uchun hukumatga nomzodlarga ko'p mablag' kerak emasligi, aks holda ular korrupsiyaning vahshiy doirasini harakatga keltirganini qayd etdi. Saylov kompaniyasiga katta mablag' sarflaydigan g'oliblar nafaqat sarflangan mablag'larni qaytarishlari, balki keyingi saylov uchun mablag' to'plashlari kerak [Lee Kuan Yuv: 2010].

Korrupsiya xavfining asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi, buzg'unchi amaldorlar va biznes vakillari o'rtasida "ittifoq"lar paydo bo'lishiga hissa qo'shadi. Bizning nuqtai nazarimizga ko'rsak, bir qator korrupsiya aktlarida ularning oltita turi minimum sifatida yotadi: xizmatlar ko'rsatishda tezlanish; yuridik xizmat ko'rsatishda eksklyuzivlik; noqonuniy xizmatlarni qayta ishlab chiqishda yordam ko'rsatish; talon-toroj qilish va shantaj qilish; alohida iqtisodiy sub'ektlar tomonidan ayanchli qonunbuzarliklarga e'tibor bermaslik va soxta hujjatlar asosida ta'minlash. [Roy: 2008, s. 315-322].



Cheklangan jarayon. Ushbu tartibga ko'ra, oldindan tayyorgarlikdan o'tgan holda, talablar buyurtmachilar bilan muhokama qilinishi va keyin tender hujjatlari ishlab chiqilishi mumkin. Keyingi aniqliklar ortidan kelishi mumkin, ammo takliflar qabul qilingandan so'ng, jarayon tugaydi: qaror takliflar asosida qabul qilinadi va ishtirokchilar bilan boshqa muzokaralar o'tkazilmaydi. Bundan tashqari, tender shartlari asosida DXSh shartnomasi tuziladi. Ushbu yondashuv asosan konsessiyalar uchun ishlatiladi, masalan, Italiya va Ispaniyada, va juda tez va shuning uchun potensial ko'proq iqtisodiy jarayonni ta'minlaydi. Ushbu jarayon davlatlarda (nafaqat Yevropada) afzalroqdir. Bu yerda auksiondan so'ng ishtirokchilar bilan muzokaralarni qaytadan davom ettirish mumkinligi, shu tariqa korrupsiyaga asos yaratish ehtimoli mavjud. [Yusupov N., Karabaev F: 2013, s. 35].

DXSh doirasida yangi turdagi korrupsion operatsiyalar namoyon bo'ldi, ularning eng keng tarqalgan shakli bozor bo'lmagan asosda davlat va xususiy sherik vakillari o'rtasida byudjet resurslarini birgalikda rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lgan mashhur "arralash" hisoblanadi. Har ikki tarafning harakatidan oldin qonunga xilof ravishda chiqarib yuborish maqsadida loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga har bir sherikning haqiqiy hissasini baholash har doim ham mumkin emasligi tufayli bunday bitimning noqonuniyligini aniqlash oson emas. Kelishuvning tashabbuskori sifatida uning vakilining shaxsidagi davlat loyihaga xususiy sherikni jalb qilish me'yorlari va qoidalarini belgilaydi va loyihada ishtirok etishini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Umuman olganda, xususiy tadbirkorlik va davlat o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish bir qator asoslarga ko'ra amalga oshiriladi.

–Ma'lumoti. Loyihaning texnik xususiyatlari, amalga oshirish vaqti, shuningdek, haqiqiy cheklanishlar va xavflar haqida batafsil ma'lumotlar bilan tavsiflanganda.

–Loyihani bajarishda buyurtmachining tajribasi va ixtisoslashuvi. Operatsiyalarga ixtisoslashgan yoki loyihada ko'rsatilgan shunga o'xshash vazifalarni amalga oshirishda tajribaga ega bo'lgan firma tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishda ko'proq imkoniyatlarga ega.

–Loyiha natijalari e'lon qilindi. Agar loyihaning maqsadga muvofiq natijalaristategik sheriklar manfaati yo'lida bo'lsa, unda loyihani amalga oshirishda tomonlarning ishtiroki yanada muvozanatli va muvofiqashtiriladi.

Davlat xususiy sherikchiligi sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali chora-tadbirlari quyidagilardan iborat.

–DXSh shartnomalari doirasida tuzilgan qoidalarni soddalashtirish va batafsil tartibga solish. Shaffof bo'lmagan bitimlarni tuzishning har qanday imkoniyatini istisno qilish

uchun loyihani amalga oshirishning barcha tartib-qoidalari aniq ko'rsatilishi va tartibga solinishi kerak .

–Davom etayotgan loyihalar sifati uchun davlat kompaniyalari rahbarlarining mas'uliyatini kuchaytirish va ushbu sifatni baholashda xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini jalb etish. Loyihalarni ishlab chiqish va investorni tanlash bo'yicha raqobatbardosh tartib-taomillarni yanada faolroq joriy etish tavsiya etiladi Keyinchalik loyihalarni moliyalashtirishi mumkin bo'lgan potentsial DXSh investorlarini jalb qilish , bu barqaror, yaxshi ishlab chiqilgan va tuzilgan loyihalarning realliklarining paydo bo'lishiga hissa qo'shishi mumkin .

–Raqobat jarayonlari natijalariga qiziquvchilarning yo'naltirilgan ta'sirini to'sib qo'yish tizimini shakllantirish. Ushbu yo'nalish bilan DXSh sohasidagi loyihalarni nazorat qilish to'g'risida qaror qabul qilishda "manfaatlar to'qnashuvi " to'g'risidagi qonunchilik ta'minotidan faolroq foydalanish imkoniyatini beradi davlat vakillarining partiyalari.

– Davlat korxonalarini boshqarish sohasidagi ma'noli va muvozanatli siyosatni amalga oshirish, faoliyat natijalari bo'yicha boshqaruv xodimlarining qamrab olinishi va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan.

Huquqiy, normativ-huquqiy va siyosat muhitining qo'shilishi DXSh loyahasini barqaror rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bazaviy darajada zarur xizmatlar ko'rsatishda xususiy sektorning ishtirokini qo'llab-quvvatlay oladigan huquqiy muhitga ehtiyoj yo'q. Huquqiy muhit korrupsiya ehtimolini minimallashtirishi va xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish va investitsiyalarni rag'batlantirish uchun yetarli darajada mustahkam bo'lishi kerak. [Yusupov N., Karabaev F: 2013, s. 31].

Xulosa.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) xususiy biznes tomonidan jamoatchilik manfaatlarini ko'zlovchi dolzarb muammolarni hal qilishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda DXSh ning eng keng tarqalgan shakllari - imtiyoz shartnomalari; ishlab chiqarishni bo'lishish shartnomalari; moliyaviy ijarani o'z ichiga olgan ijara (lizing); mol-mulkni boshqarish va davlat shartnomalari. Maqolada davlat bilan yaqin hamkorlik o'rnatishga qiziqqan O'zbekiston biznesini rivojlantirishning hozirgi tendensiyalari qisqacha bayon etilgan. Biroq, DXSh ko'lamining kengayib borishi koronavirus xavfini sezilarli darajada oshiradi. Korrupsiya xavflarining asosiy sabablari mavjud institutionlarning normativ ta'siri etarli emasligi bilan bog'liq institutsional cheklovlardir. Muallif davlat va xususiy biznesning korrupsiya xavfining ta'sirini kamaytirish va DXSh rivojlanishining institutsional shartlarini yaratishga qaratilgan munosabatlarini optimallashtirish asoslarini taklif etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lee Kuan Yuv. Singapur tarixi: "uchinchi dunyo"dan "birinchi" gacha (1965-2000). M. : MGIMO-Universitet, 2010.
2. Roy O.M.Korrupsiya tranzaksiyasining institutsional tahlili /Davlat va munitsipal boshqaruv tizimida korrupsiya bilan kurash: islohotlar saboqlari : Sb. t.b. 2 Xalqaro ilmiy-amaliy. konf. : v 2 ch. Novosibirsk : Izd-vo Sib. akad. gos. Xizmat, 2011. Ch. 2. S. 138-144.
3. Roy O.M. Buzgʻunchi xatti-harakatlarni bartaraf etish boʻyicha institutsional chora-tadbirlar.
4. Yusupov N., Karabaev F. Teoriya i praktika gosudarstvenno-chastnogo partnerstva. Uchebnyy modul. Pod.redak. A.E.Shayxova Tashkent, 2013/www.undp.uz
5. Yusupov N., Karabaev F. Teoriya i praktika gosudarstvenno-chastnogo partnerstva. Uchebnyy modul. Pod.redak. A.E.Shayxova Tashkent, 2013/www.undp.uz

QUYOSH, OY VA YULDUZLAR

FAYZIEVA GULNOZA GEOGRAFIYA O'QITUVCHISI,

FAYZIEVA SHAXODAT BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHISI

Annotatsiya: Ushbu maqolada quyosh, oy va yulduzlar haqida fikrlar yoritilgan. Inson hayoti tabiat bilan bog'liq bo'lgani uchun kishilar qadim zamonlardan o'zlari yashaydigan joy tabiatini yaxshi bilishga harakat qilishgan. Keyinchalik qayiqlar, yelkanli kemalar yasab, dengizlarda suzishgan, yangi yerlarni kashf qilganlar. Borgan joylari tabiatini, odamlarning yashash tarzini tasvirlab yozishgan. O'zlari yashaydigan joyning hamda borgan yerlarining eng sodda xaritalarini chizishgan. Shu yo'l bilan geografik ma'lumotlar to'plana borgan. Bizni o'rab turgan olam qanchalik ko'plab mo'jizalarga boy ekanligi, unda yulduzlar, oy va quyosh harakati ilohiy qonuniyat asosida ishlashi haqida qiziqarli malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: quyosh, oy, yulduzlar, *Olam o'qi, olamning shimoliy qutbi, astronom, katta ayiq, kichik ayiq, planetalar,* sharq, g'arb, shimol, janub.


Odamzod hamisha o'zi uchun jumboq bo'lgan narsalarni o'rganishga intilishi orqali yangilik yaratadi, kashfiyotlar qiladi. Astronomiya sohasi ham shunday. Insoniyat yaralibdiki, osmon sirlarini ochish, cheksiz koinot ilmining oxiriga yetish, o'zga sayyoralarda hayot bor-yo'qligini bilishga intiladi. Ba'zan bunga shu qadar kirishib ketadiki, hatto tabiat mo'jizalari oldida ojiz ekanini ham unutadi. Istaymizmi-yo'qmi, bizni "Yerning halqasi bormi?", "Koinotning qaysi burchaklarida hayot bo'lishi mumkin?" degan savollar muttasil qiziqtiradi.

Agar tunda ma'lum bir joydan turib yulduzlar bir necha soat davomida tinimsiz kuzatilsa, butun osmon sferasining yulduzlari, kuzatuvchidan o'tuvchi faraziy o'q — *Olam o'qi* atrofida aylanishini ko'rish mumkin. Bunday aylanish davomida ixtiyoriy yoritgich o'z vaziyatini gorizont tomonlariga nisbatan o'zgartirib boradi. Yulduzlar osmonining bunday ko'rinma aylanish davri bir sutkani tashkil qiladi. Janub tomonga qarab turgan kuzatuvchiga



yoritgichlar chapdan o'ngga, ya'ni soat strelkasi yo'nalishida harakatlanayotgandek ko'rinadi. Bunda ma'lum yoritgich, sharq tomonda har doim ma'lum nuqtadan ko'tarilib, g'arbda ham aniq bir nuqtada botadi. Uning gorizontdan maksimal balandligi ham (janub tomon yo'nalishida) kunlar o'tishi bilan bu kuzatuvchi uchun o'zgarmay, har doim bir xil bo'ladi. Agar kuzatuvchi shimol tomonga qarasa, bir qism yulduzlar sharqdan chiqib, g'arbga botgani holda, botmaydiganlari — ma'lum qo'zg'almas nuqta atrofida konsentrik aylanalar (markazi bir nuqtada bo'lgan aylanalar) chizayotganini ko'radi. Bu qo'zg'almas nuqta **olamning shimoliy qutbi** deb yuritiladi. Olamning shimoliy qutbi, Kichik Ayiq yulduz turkumining (Katta Ayiq — «Yetti qaroqchi»ga qokshni yulduz turkumi) eng yorug' yulduziga (alfasiga) juda yaqin (orasi taxminan 1° C bo'lgan) nuqtada yotadi. Shu tufayli Kichik Ayiqning bu yulduzi **Qutb yulduzi** deb nom olgan. Yulduzlarning sutkalik bunday ko'rinma harakatlari Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi tufayli sodir bo'ladi.

Quyosh va Oyning sutkalik harakatlari ham sharqdan g'arbga tomon kuzatilib, yulduzlardan farqli o'laroq, ulaming chiqish vabotish nuqtalari hamda maksimal balandliklari kun sayin o'zgarib boradi. Xususan, Quyosh Navro'zda (21-martda) aniq Sharq nuqtasidan ko'tarilib, aniq G'arbda botgani holda, keyin uning chiqish va botish nuqtalari shimol tomonga siljib boradi.



Bunday hol 22- iyungacha davom etib, so'ngra chiqish va botish nuqtalari aksincha, gorizontning janub tomoniga siljiydi. Bu davrda Quoyoshning tush paytdagi balandligi pasaya borib, kunduz qisqaradi, tun esa. aksincha, uzayadi. Planetamizning yo'ldoshi Oy ham sutkalik ko'rinma harakatda ishtirok qilib, sharqdan g'arbga. yulduzlar bilan birga siljib boradi. Biroq bir necha tun davomida kuzatishlardan oq, Oyning yulduzlarga nisbatan haqiqiy harakatlanishini sezish mumkin.

Bunday harakat tufayli Oy, yulduzlar fonida g'arbdan sharqqa tomon har sutkada taxminan 13 gradusdan siljib borib, Yer atrofida 27,32 sutkada bir marta to'la aylanib chiqadi. Quoyoshning bir necha oy davomida sistemali kuzatilishi uning ham Oy kabi yulduzlarga nisbatan g'arbdan sharqqa siljib borishini ma'lum qiladi. Quoyoshning bunday ko'rinma harakati tufayli sutkalik siljishi, Oynikiga nisbatan juda kichik bo'lib, atigi bir gradusga yaqin yoini tashkil qiladi va bir yilda bir marta to'la aylanib chiqadi.


Quoyosh va Oyning osmonni bir to'la aylanib chiqishlaridagi yuradigan yo'llarining tekisliklari bir-biriga yaqin. Ular kesib o'tadigan yulduz turkumlari zodiak yulduz

turkumlari (yunoncha «zoon» - hayvonlar degani) deyilib, bu turkumlar sohasi — zodiak soha deyiladi.

Quyosh – Yerga eng yaqin bo‘lgan qizib yotgan yulduz – olov shardir. U Quyosh sistemasining o‘rtasida joylashgan. Quyosh – Yerdagi yorug‘lik va issiqlik manbai. Uning atrofida 8 ta sayyora aylanib turadi. Bular - Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun, Pluton sayyoralaridir.

Sayyoralarning yulduzlardan farqi shuki, ular nur sochmaydi, Quyoshdan tushgan nurni qaytaradi, xolos. Olimlar murakkab asboblari, har xil teleskoplar yordamida sayyoralari va ularning yo‘ldoshlari asosan bir xil moddalardan tuzilganini aniqlashgan. Ular ham Yerdagi uchraydigan moddalardan tuzilgan ekan. Sayyoralarning yulduzlardan yana bir farqi shuki, ular koinotdagi o‘z o‘rinlarini o‘zgartirib turadilar. Oy – Yerning tabiiy yo‘ldoshi, Oy o‘zidan nur sochmaydi, Quyoshdan tushgan nurni qaytaradi. Oy Yer atrofida deyarli bir oyda bir marta aylanib chiqadi. Yer, Quyosh va Oyni osmonda bir-biriga nisbatan joylashgan o‘rniga qarab u bizga har xil ko‘rinadi. Bizga Oyni Quyosh nuri bilan yoritilgan qismigina ko‘rinadi.

Agar diqqat bilan qarasangiz yangi Oy o‘roq shaklida bo‘ladi. Endi eslab qoling: yangi Oy kechqurun Quyosh botganda g‘arb tomonda ko‘rinadi, eski, tugayotgan Oy esa



erta
tongda
Quyosh

chiqmasdan sharq tomonda ko'zga tashlanadi. Agar Oy doira shaklida bo'lsa, to'lin Oy deyiladi.

Oyning har xil ko'rinishi: 1 – Oy ko'rinmaydi; 2 – Yangi oy; 3 – Oyning birinchi choragi; 4 – Chorak kam to'lin oy; 5 – To'lin oy; 6 – Qisqarayotgan oy; 7 – Oxirgi chorak; 8 – Tugayotgan oy.

Oyning 14-15-kunlari to'lin Oy bo'ladi. Oy tutilishi to'lin Oy kunlariga to'g'ri keladi. Oy, Yer, Quyosh osmonda bir chiziqqa to'g'ri kelib qolganda Oy tutiladi.

Quyosh va Oyning Yerni tortishi natijasida dengiz hamda okeanlarda davriy ravishdasuv qalqishi, ya'ni suvning ko'tarilib, pasayishi ro'y beradi. Suvning ko'tarilib qaytishi Quyosh tortishiga nisbatan Oy tortganda ikki baravar kuchli bo'ladi.

Odamlar osmon jismlarini kuzatish natijasida Oy va Quyosh taqvimlarini tuzishni, quruqlik va okeanlarda turgan joylarini aniqlashni, Yerning kattaligi va shaklini belgilashni o'rganib olishgan.

Har qanday odam yulduzlarni tomosha qilishni yaxshi ko'rsa kerak. Kimdir shunchaki tungi osmonning go'zalligidan bahra olsa, yana kimdir koinotda yashiringan jumboqlarni ochishga harakat qiladi. Yulduzlar nima? Ular qanday tuzilgan? Ular qanday qilib osmonda nur sochadi? Bunday savollar har doim odamlarni o'ylantirib kelgan. Avvallari yulduzlar haqida nimalar deyishmagan deysiz! Ularni osmonda kimlardir tarafidan yoqiladigan olovlar deb hi'soblashgan; o'lgan odamlarning ruhlari deyishgan; ba'zilar ularni osmon gumbazidagi teshiklar deb o'ylab u teshiklardan ilohiy olovning nuri o'tib turadi deyishgan... Oradan ko'p asrlar o'tgach olimlar yulduzlarning ulkan qizigan gazli sharlar ekanini ilmiy jihatdan isbotlashgan. Unday olimlarni **astronom** deb atashadi. Astronomlar shug'ullanadigan yulduzlar haqidagi fanni esa **astronomiya** deb atashadi. Odamlar minglab yillar mobaynida yulduzlarni kuzatib borib ular haqida ko'plab bilimlar to'plashgan.

Tunda osmonga qarasangiz, juda ko'plab yulduzlar tartibsiz sochilib yotganga o'xshaydi. Aslida ular osmonda tartibsiz sochilib yotmaydi. Hozirgi vaqtda



olimlarrasadxona (observatoriya)larda yulduzlarning kattaligi, harorati, kimyoviy tarkibi va harakatlarini shuningdek, o'zaro joylashgan o'rinlarini ham o'rganishmoqda.

Yulduzlar nihoyatda qizib yotgan, Yerdan juda uzoqda joylashgan osmon yoritgichlaridir. Ularni odamlar qadimdan guruhlariga ajratishgan va har bir guruhga nom berishgan. Bular yulduz turkumlari deb ataladi. Masalan, Tarozu, Chayon, Mezon va boshqalar.

Juda qadim zamonlardayoq kishilar, zodiak yulduz turkumlari sohasida, tashqi ko'rinishi bilan yulduzlarga o'xshash, biroq yulduzlardan farq qilib, ularga nisbatan siljib boruvchi 5 ta yoritgichni kuzatdilar. Yulduzlardan farqlanuvchi bunday xususiyatlari evaziga ularga «adashgan yulduzlar» —*planetalar* deb nom berdilar. Qadim Rimda adashgan yulduzlar Rim xudolarining nomlari bilan Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter va Saturn deb atala boshlandi.

Teleskop ixtiro qilingandan so'ng 1781- yilda Uran, 1846- yilda Neptun planetalari va 1930- yilda Pluton mitti planetasi topildi.

Planetalaming ko'rinma harakatlari ham zodiak yulduz turkumlari chegaralarida kuzatilib, yulduzlar fonida siljishlari Quyosh va Oyning siljishlari kabi g'arbdan sharqqa bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **P. Gulyamov, R. QuRbonniyozov, M. Avezov, N. Saidova** O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik sifatida tavsiya etgan *Qayta ishlangan va to'ldirilgan 5-nashri* TOSHKENT «MITTI YULDUZ» 2020 **Geografiya**

2. <https://studfile.net/preview/14047593/page:33/>

3. <http://www.marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/2331.htm?ysclid=lb2cdhiiq977118795>

IS`HAKHKHAN TORA - ELEGANT POET AND SCIENTIST, PUBLISHER AND TRANSLATOR

Valiyev Sarvar Usmonkhon ugli

*History teacher, Arabist-Orientalist, School No. 54,
Torakorgan District, Namangan Region*

Annotation: Is`haqkhan Tora Ibrat left a rich legacy as a poet, historian, linguist and Islamic scholar. A skilled calligrapher who penned seventeen types of letters, he was one of the first Uzbek publishers who founded "Matbaai Is`haqiya" under his own name. Jame ul-Hutut provides information about 41 different writing systems known in the world, including forms of Arabic script such as suls, tawqe', rayhan, zulf, Humayun, turra, and at the same time, it includes husnikhat san Opinions about the horse are expressed. In this work, Ibrat emphasizes that the study of foreign languages such as English, French, German, and Latin, along with the Russian language, plays a major role in the acquisition of science and culture. He learned four languages perfectly, namely Arabic, Persian, Indo-Urdu and English. Abroad, he had the opportunity to compare the life, culture and art of the peoples of the East and the West.

Keywords: avon (time, era), akobir (greatest), ansab (worthy, worthy, arz (earth), aqba (difficulty), ahkom (regulation, guidance), bazla (pleasant word)

INTRODUCTION

Is`haq Khan Ibrat was born in 1862 in the village of Torakorgan near Namangan. His parents were among the educated people of the era of Junaydullahhoja and Huribibi. Is`haq Khan first studied in a rural school based on the Hija method, but he learned literacy under the hands of his mother.

MATERIALS AND METHODS

Is`haq Khan, who has great love for literature and art, is sent to Kokan to continue his studies. In 1878, he entered the Muhammad Siddiq Tunqator madrasa, founded in the beginning of the 19th century. The years of Is`haq Khan Ibrat's studies at the Koqan



madrasa (1878-1886) were marked by fundamental qualitative changes in Uzbek literature, cultural life, and education. He was in close contact with the major representatives of the Kokan literary environment, Muqimi, Furqat, Muhyi, Zavqi, Nadim, Haziny, and participated in literary meetings. Is`haq Khan Ibrat did not limit himself to the sciences taught at the madrasa. During his studies, he independently diligently read the works of great oriental scientists and studied Arabic, Persian and other languages in depth.

RESULTS AND DISCUSSION

In 1886, Is`haq Khan Tora Ibrat graduated from the Kokand madrasa and returned to his village Torakorgan. He began his career as an advanced educator spreading enlightenment, and opened a school in his village that same year. His school was somewhat different from schools based on the "old-fashioned" method. While studying in Kokan, Ibrat felt that the teaching methods of the Russian schools opened in the country were superior to the rote memorization method prevailing in the local schools. Is`haq Khan Tora Ibrat applied sound (savtiya) method, which was more advanced than his school, and defended the "savtiya method" from the supporters of the old method. However, he could not work in this school for long. Some ignorant fanatics declared his school as a "school of infidels" and tried to turn away the children of the people from this school. They even managed to close the school with the help of the officials of the Governor General's Office.

Ibrat writes in his works "Logati sittati alsina", "Jom'e ul-hutut", "Tarihi Fargana" that in 1887, when he was 25 years old, he took his mother to Mecca for the pilgrimage. However, her mother was not lucky enough to return to her homeland. Her mother, Huribibi, died of pneumonia in Jeddah.

Is`haq Khan Tora Ibrat buried his mother in Jeddah and continued his journey through Eastern countries. At the same time, he visited the central cities of Europe, such as Istanbul, Sofia, Athens, and Rome. For a long time, he lived in the big cities of Afghanistan, Kabul, and Jeddah, Arabia. He came to India from Mecca through the Red Sea and the Indian Ocean. In 1892-1896, he lived in the largest port cities of India, Bombay and Calcutta. Here he perfectly learned the Arabic language, that is, four languages: Arabic, Persian, Indo-Urdu and English.



At the beginning of the 20th century, the height of the colonial policy of the Tsar government increased the need for the Russian language among the local population. Rustuzem schools, "Usuli Savtiya" schools began to open not only in big cities of the country, but also in villages. In such schools, secular subjects were taught, as well as the Russian language, along with the mother tongue. Progressive-minded people who well understood the requirements of the time began to send their children to such schools. However, textbooks and manuals for independent learners of Russian and foreign languages for students were insufficient or non-existent.

Although this work of the scientist was completed in the middle of the 90s of the XIX century, when the author returned from a foreign trip, but due to persecution (censorship) of the works of local authors, the work was published much later - in 1901.

CONCLUSION

Is`haq Khan sincerely wanted his people to be knowledgeable and enlightened, and he did not spare his knowledge and energy to fulfill this wish. He reported in the work "Historical Culture" written in 1916, that in 20 years he created 14 scientific-historical, linguistic works and a collection of poems "Devoni Ibrat", which is a collection of 30 years of poetic creativity. In addition to his works on linguistics, "Logati sittati alsina", "Jome' ul-hutut", his works on linguistics, "Tarihi Fargana", "Tarihi kultur", "Mezon uz-zaman" have reached us.

REFERENCES

1. Mirakhmedova, S. N. (2021). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE SPIRITUAL AND ETHICAL VIEWS IN THE ILLUSTRATED WORKS OF ISHAKHKHAN. Academic research in educational sciences, 2(5), 770-778.
2. Akhrorova, U. Kh. (2021). THE ROLE OF ISHAKHKHAN IBRAT SCHOOL IN THE CULTURAL AND EDUCATIONAL LIFE OF NAMANGAN. Scientific progress, 2(1), 1087-1093.
3. Alinazarova, D. V. (2019). FROM THE HISTORY OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF NAMANGANDA TIME PRESS. VZGLYad V PROShLOE, (20).
4. Teshayev, A. T. O., & Bobokulov, O. (2021). ACTIVITY OF NEW METHOD SCHOOLS IN TURKEY (LATE XIX-EARLY XX CENTURY). Scientific progress, 2(3), 269-275.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH ASOSLARI

Soatqulov Suyar Quvatovich
Jizzax viloyati Forish tumani
74-maktab Boshlang'ich sinf
o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda fanlarni o'rgatishning turli metodikalari bayon qilinadi. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan. Innovatsion texnologiyalar yordamida dars mashg'ulotlarini sifatini oshirish taklif qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, darsning mantiqiy strukturasi qurish, mantiqiy fikrlash, mustaqil ish, didaktik materiallar, prezentatsiya.

KIRISH

Boshlang'ich sinflarda kompyuterli o'qitish – predmetlar muhitini elementlarini o'zgartiruvchi va boyituvchi sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari aynan bunday yoshda bolaning aqliy qobiliyatlarini jadal rivojlanish jarayoni kechadi, uning intellektual salohiyatini rivojlanishi uchun fundament yaratiladi. O'quv jarayonida pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalarini samarali yechish uchun imkoniyat yaratadi, jumladan¹¹:

1. o'quv jarayonini qiziqarli va mahsuldor qilish hisobiga o'quvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi;
2. mustaqil ishlash va o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmasi rivojlanadi; 3.darsning

¹¹ Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2018. – 180 b.

samaradorligini va har bir o'quvchining o'zlashtirishini ta'minlaydi;

4. har bir o'quvchining fikrlashini, sezish, intilishlarini, tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy optimal rivojlanishga erishiladi; sinfdagi barcha bolalarning faol ishlashi ta'minlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin¹².

Kompyuterlarning o'quv jarayoniga jadal kirib kelishi pedagoglar hayotida misli ko'rilmagan darajada o'qitishning yangi turlarini, shakllarini keltirib chiqardi. Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ikkita asosiy masalani yechish bilan bog'liq: bolalarni yangi texnikaviy vositalardan foydalanishga o'rgatish va o'quvchilarning o'qish va o'qishdan tashqari faoliyatida yangi imkoniyatlarini ochish va takomillashtirish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagoglar oldiga juda katta muammolarni keltirib chiqardi. Chunonchi, zamonaviy pedagog kompyuterdan foydalanishni bilishi, kompyuter yordamida o'qitish vositalaridan foydalana olish va uni o'quv jarayoniga tadbiiq qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi, o'z bilimini kompyuterli o'qitish bo'yicha doimo takomillashtirib borishi va hakoazar zarur. Amaliyotda shuni takidlash joyizki, masalan, 3-sinf matematika darslarida, o'quv materialini o'rgatish kompyuterli texnologiya asosida tashkil qilinganda o'zlashtirish sezilarli darajada yaxshilandi, o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqish ortdi, mustaqil ishlash ko'nikmasi paydo bo'ldi, bilimni o'zlashtirish bo'yicha imkoniyatlari rivojlandi, ijodiy yondashuvlar paydo bo'la boshladi, o'ziga va bilimiga bo'lgan ishonch shakllana boshladi.

Ayniqsa boshlang'ich maktabda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib dars jarayonini tashkil qilish dolzarb hisoblanadi. Chunki 1-4 sinf o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli fikrlash rivojlangan, shu boisdan ham dars jarayonini kompyuter

¹² Gaybullaev N.G, I. Dyrchenko. Razvitie matematicheskix sposobnostey uchashixsya. T.: «O'qituvchi», 2018



texnologiyalaridan foydalanib tashkil qilish juda muhim. Buning uchun sifatli ko'rgazmali materiallarni maqsadli tarzda juda ko'p tayyorlash va undan foydalanish zarur, bilimni qabul qilish jarayoniga yangi ko'rinishlarni tadbiq qilish, tovushlar, slaydlar, animatsiyalar bilan.

Boshlang'ich maktabda turli darslarda AKTdan foydalanish o'qitishning ko'rgazmali-tasvirli-tushuntirish uslubidan faoliyatli uslubga o'tishga imkoniyat yaratadi, bunda o'quvchi o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga, sub'ektiga aylanadi. Bu esa o'quvchida bilimni anglagan holda o'zlashtirishga imkon yaratadi. Shu boisdan ham zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinflarda kompyuter texnologiyalarini qo'llab dars jarayonini tashkil qilish ijodkor, novator pedagoglar tomonidan amalga oshirilmoqda, bu esa ko'pchilik pedagoglarning hayotiy ish normasiga aylanib bormoqda¹³.

O'rganilayotgan fan materiallari, chunonchi, 3-sinf matematikasi orqali tabiat va jamiyatning umumiy qonuniyatlari, shuningdek, matematik reallikni bilib olishning o'quvchilar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini oddiy raqamli, sonli misollar hamda ularga mos izohli matnlar (raqamlar yoki sonlar tilga kirganda uslubida) orqali tushunib olish mumkin. Tavsiya etilayotgan kundalik turmushga oid misollarga mos izohli matnlar slaydlar, animatsiyalar ko'rinishida boshlang'ich sinflarda dars jarayonida foydalanilganda yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar tomonidan mustaqil foydalanilganda bilim olish jarayoni yanada samarali bo'ladi.

AKT – bu o'qituvchi qo'lidagi juda quvvatli, ko'p qirrali, universal instrumental vosita hisoblanadi, buni egallab olishi va o'zining predmeti bo'yicha darslarda undan maqsadli foydalanishi zarur.

XULOSA VA MUNOZARA

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida turli darslarni AKT foydalanib tashkil qilish tajribalarini tahlili shundan dalolat beradiki, ya'ni to'liq ishonch bilan aytish

¹³ Abdullayeva Q., va boshqalar "Ona tili" T., "O'qituvchi" 2014 yil.



mumkinki, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ta'lim jarayonini ijobiy motivatsiyalashni ta'minlaydi;
- darslarni yuqori estetik va emotsional darajada o'tishni (slydlar, musiqa, animatsiyalar, multimedialar);
- o'qitishning yuqori darajadagi differensiyasini ta'minlaydi;
- darsda bajariladigan ish hajmini 1,5 – 2 baravar oshiradi;
- bilimni nazorat qilishni takomillashtiradi;
- o'quv jarayoni ratsional tashkil qilinadi, darsning samaradorligi ortadi;
- o'quvchi faoliyatida izlanish, ijod qilish ko'nikmasi shakllanadi;
- elektron kutubxonalarga, axborot resurslariga, turli-tuman ma'lumotlar tizimiga kirishga imkoniyat yaratadi va hakoza.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2018. – 180 b.
2. Gaybullaev N.G, I. Дырченко. Развитие математических способностей учащихся. T.: «O'qituvchi», 2018
3. Habib R.A. O'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish. T.: «O'qituvchi», 2011
4. Abdullayeva Q., va boshqalar “Ona tili” T., “O'qituvchi ”2014 yil.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2016.



ТЎҚИМАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ БОШҚАРИШ МАСАЛАЛАРИ

Умарходжаева Муяссархон Ганиевна

и.ф.н., доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Кириш

Жаҳон амалиётида тўқимачилик кластерларининг экспорт салоҳиятини бошқариш усул ва механизмлари такомиллашиб бормоқда. Жаҳон амалиёти сўнгги йигирма йил давомида ташкилотларнинг кластерли уюшмаларини яратиш жараёнлари фаоллашганидан далолат беради. Ривожланган мамлакатларда корхоналарнинг 50 %дан ортиғи кластерлар ичида ишлайди ва уларда ишлаб чиқарилган ялпи ички маҳсулотнинг улуши 60 %дан ортади. Global Cotton Outlook халқаро баҳолаш тизими маълумотларига кўра, "... келажакдаги 10 йил давомида тўқимачилик саноати учун хомашё ишлаб чиқариш ҳажми 2020 йилдаги 25,4 млн. тоннадан 29,8 млн. тоннага, савдо ҳажми эса 10,1 млн. тоннадан 11,3 млн. тоннага ортиши кутилмоқда"¹⁴. Жаҳон тажрибасига кўра, айнан миллий иқтисодиёт, шунингдек, минтақавий иқтисодий тизимларни шакллантиришда кластерли ёндашув ишлаб чиқариш самарадорлиги, рақобатбардошлиги ва аҳоли фаровонлигини оширишнинг муҳим шarti ҳисобланади.

Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича "йўл харитаси"ни тасдиқлашни назарда tutувчи Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони лойиҳаси тайёрланди. Лойиҳада мутлақо янги ёндашув қўлланилиб, режалаштирилган ислохотлар натижадорлигини тараққиётнинг мақсадларига эришганлик даражаси асосида баҳолаш тизими жорий этилди. Жумладан, Тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича "йўл харитаси"да мамлакатимизни ривожлантиришнинг 7 та устувор йўналиши доирасида қарийб 100 та мақсадга эришиш назарда тутилган¹⁵. Мазкур вазифаларнинг самарали ижроси юзасидан ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштиришни рағбатлантириш ва импорт ўрнини босиш сиёсатини, биринчи навбатда, истеъмол товарларини тармоқлараро саноат кооперациясини кенгайтириш, экспорт фаолиятини либераллаштириш ва соддалаштириш, экспорт таркиби ва географиясини диверсификация қилиш, иқтисодий тармоқ ва ҳудудлар, шу жумладан, тўқимачилик саноатининг экспорт салоҳиятини оширишдан иборат.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси.

¹⁴ D.Hudson, J. Malaga, Bing Liu. Global Cotton Outlook 2021/22 – 2030/2031. –Texas (USA), ICAC, 2020. – p.23.

¹⁵ Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича "йўл харитаси". <https://review.uz/oz/post/20222026-yillarga-moljallangan-taraqqiyot-strategiyasi-ning-yangi-loyihasi-muhokamaga-qoyildi>



Иқтисодийда кластер ёндашувининг асослари П.Маскелл, М.Лорензен, М.Портер, М.Сторпер, М.Энрайт, С.Ресенфелд, Т.Андерсен, С.Бресчи, П.Друкер, М.Састеллс, К.Кетелс, Э.Санари, Ю.Кимура, П.Кругман, К.Кутсун, А.Кучики, Б.Лундвал, Р.М.Марш, Г.Менсч, У.Мигари, О.Солвела, Г.Уайт, К.Фреман, С.Харрисон, Ж.Хендерсон, Д.Хилжерс, Ж.Шумпетер¹⁶ ва бошқалар томонидан ўрганилган.

Тўқимачилик ишлаб чиқаришини ташкил этишнинг кластер шакллари билан шуғулланган замонавий олимлар орасида Д.П.Барсуков, Д.М.Бегов, В.И.Вагизова, В.В.Ильин, Ю.А.Ахенбах, Н.Н.Шутко, Г.Д.Боуш, Л.Л.Бутузова, Р.Р.Тохчуков, Э.В.Чемоданов, А. Фридман, А.А.Мигранян, Т.В.Ускова, Е.В.Волкодавова, Т.И.Максимова, Л.И.Проняева, О.А.Федотенкова, А.В.Павлова, В.В.Печаткин, М.А.Николаев ва бошқаларни алоҳида айтиб ўтиш мумкин.


Маҳаллий олимлар орасида тўқимачилик кластерлари ривожланишининг устувор йўналишлари С.С.Ғуломов, Н.Х.Жумаев, М.Шарифхўжаев, Ё.Абдуллаев, Н.Қ.Йўлдошев, М.Р.Болтабаев, З.Т.Гаибназаров, Э.А.Муминов, З.А.Хакимов, С.Ш.Юсупов, Х.Кодиров, К.Р.Хонкелдиева, Ф.П.Азимова, И.А.Тошпулатов ва бошқалар томонидан бевосита ёки билвосита ўрганилган.

Таҳлил ва натижалар

Шу билан бирга, бу соҳада маҳаллий ва хорижий иқтисодчи олимларнинг кўплаб тадқиқотлари мавжуд бўлишига қарамай, тўқимачилик кластерларини такомиллаштириш ва тўқимачилик маҳсулотлари экспортини оптималлаштириш масалалари кўшимча тадқиқотларни талаб этади.

Ўзбекистонда кластер тузилмаларини кенг жорий этишни назарда тутувчи ислохотлар амалга оширилмоқда, бу фермер хўжаликлари ва тайёр маҳсулот ишлаб чиқарувчиларни ягона занжирга бирлаштириб, шу орқали уларнинг харажатларини камайтиради. Бу ислохотлар жами ишлаб чиқариш ва экспорт салоҳиятида тўқимачилик саноати улушининг тез суръатда ортишига асос бўлди. 2021 йил Ўзбекистон экспорт операциялари умумий ҳажмида тўқимачилик маҳсулотлари экспортининг улуши 2010-2021 йиллар давомида энг юқори қийматга эришди (1-расм).


¹⁶ Maskell P., Larenzen M. The Cluster as Market Organization// DRUID Working Paper. 2003. No 14. 2003. Porter Michael E. On Competition. - Boston: Harvard Business School, 1998; русск. пер.: Конкуренция; СПб; Киев: Изд. дом «Вильямс», 2005. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M.E. Porter. // Harvard Business Review. – 2018. – Vol.76 (6). – P.77–90. Porter M. E. Clusters and Competition: New Agen-das for Companies, Governments, and Institutions / M.E. Porter // Harvard Business School Working Paper. – 1998. – Vol.98-080. - P. 197-287. Storper M. The Regional World: Territorial Development in Global Economy/ M. Storper. – N. Y.: Guilford Press, 1997. – 338 p. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // World Link, No 5, July/August, 1992. - Pp. 24, 25. De Propriis, Lisa and Driffield, Nigel. The importance of clusters for spillovers from foreign direct investment and technology sourcing // Cambridge Journal of Economics. 2006. No 30. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // Word Link. - 1992. - No5, July/August. Rosenfeld S.A. Bringing Business Clusters into the Mainstream of Economic Development // European Planning Studies. 1997. No 5. Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. - Janvier: Annales des Mines. 1989. Toleno J.A. Propjs des Filires Industrielles. Revue d'Economie Industrielle. V. 6. 1978. No 4.



1-расм. 2010-2021 йилларда Ўзбекистон тўқимачилик маҳсулотлари экспортининг мамлакат умумий экспорт ҳажмидаги улуши¹⁷

Ўзбекистон Республикасида 2021 йил бошида умумий майдони 908 минг гектарга яқин бўлган 96 та пахта-тўқимачилик кластери мавжуд эди. Бу кўрсаткичлар вилоятлар кесимида ўрганиб чиқилса, Андижон вилояти сон жиҳатдан етакчи, Қашқадарё вилояти эса кластерлар эгаллаган пахта майдонлари бўйича етакчи ўринни эгаллайди (2-расм).

Кластерларнинг энг катта қисми 2019-2021 йилларда шаклланган бўлиб, 2021 йилда кластер тузилмалари умумий сонининг 72 %и ташкил этилди. Тошкент вилоятида 2021 йилда кластерлар сони 20 тадан ошди.



¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси ва “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.



2-расм. Ўзбекистонда минтақалар кесимида пахта-тўқимачилик кластерлари сони ва эгаллаган майдони, 2021 йил¹⁸

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 16 сентябрдаги ПҚ-4453-сонли “Енгил саноатни янада ривожлантириш ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан 2021 йилдан бошлаб, экспорт қилинадиган ҳар бир килограмм ип-калава учун 0,01 АҚШ доллари миқдорида йиғим ундирилиши белгилаб қўйилган. Бу маблағларнинг 75 %и корхоналарда халқаро стандартларни жорий этиш, маҳсулотларни сертификатлаш, корхоналарнинг халқаро кўргазмалар ва ярмаркаларда иштирок этиш, миллий брендларни яратиш ва илгари суриш билан боғлиқ харажатларини қоплаш, илмий тадқиқот ва инновацион лойиҳаларни амалга ошириш, кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш бўйича чора-тадбирларни молиялаштириш учун “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмасига йўналтирилади¹⁹.

Хулоса

Ўтказилган тадқиқотлар ва белгиланган вазифаларга мувофиқ қуйидаги хулоса ва таклифлар шакллантирилди:

1. Кластерлар умумий қиймат занжири доирасида ташкилотлар ва ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги ўзаро алоқа шаклларида биридик. Кластер ўз иштирокчиларининг ўзаро рақобати, ўз иштирокчиларининг ҳамкорлиги, минтақанинг ўзига хос компетенцияларини шакллантириш, маълум ҳудудда корхона ва ташкилотлар концентрациясини шакллантириш хусусиятларига эга. Кластерларни жорий этиш мамлакат ички эҳтиёжларини қондириш даражасини ошириш, импортга қарамликни камайтириш ва давлатнинг экспорт салоҳиятини ошириш учун мўлжалланган. Кластер ёндашуви алоҳида корхона ва тармоқларни қўллаб-қувватлашга эмас, балки тегишли корхоналар, географик яқинликда жойлашган муассасалар ўртасидаги муносабатларни ривожлантиришга қаратилган давлат иқтисодий сиёсатининг мазмунини тубдан ўзгартиришга қодир. Тармоқ ва комплексларни бошқаришда кластер ёндашуви ички ва ташқи конъюнктура ўзгаришига тезкор жавоб бериш, инновацион сиёсат ҳисобига мослашиш орқали иқтисодий тизимнинг барқарорлигини оширишга ёрдам беради.

2. Ўзбекистонда кластер моделига ўтиш қисқа вақт ичида республика миқёсида хомашёдан тайёр маҳсулотга қадар ишлаб чиқариш занжирларининг тубдан ўзгаришини таъминлади, бу эса ишлаб чиқариш жараёнининг турли даврларидаги ишлаб чиқарувчилар ўртасидаги муносабатларнинг янги муҳитини шакллантирди ва ишлаб чиқариш самарадорлиги ҳамда маҳаллий маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишга олиб келади.

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси ва “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 16 сентябрдаги ПҚ-4453 сонли “Енгил саноатни янада ривожлантириш ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноатида замонавий кластер тизимини таҳлил қилишда бир қатор муаммолар мавжудлиги аниқланди, уларнинг орасида моддий базанинг етарли даражада жиҳозланмаганлиги, тўқимачилик маҳсулотларини экспорт қилиш географиясининг диверсификация даражаси пастлиги, экспорт корхоналарини рағбатлантириш тизимининг заифлиги, солиққа тортиш даражаси юқорилиги, кластер фаолиятининг шаффофлиги етарли даражада эмаслигини алоҳида ажратиб кўрсатиш лозим. Самарали кластер тизими қуйидаги хусусиятларга эга бўлиши керак. Биринчидан, кластер яхлит, ўзини-ўзи ривожлантирувчи ва очиқ тизим бўлиб, унинг самарадорлиги уни қўллашнинг синергетика таъсирини сезиларли даражада ошириши мумкин. Иккинчидан, кластер шунчаки меҳнат тақсимотига асосланган кооперация эмас, балки инновацион технологиялар ва кўп босқичли технологик ўзаро боғланишларга асосланган уюшмадир. Учинчидан, кластерни анъанавий бошқарув аппарати эмас, балки унинг самарадорлигини оширишдан бевосита манфаатдор кластер ичидаги субъектлар бошқариши керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. D.Hudson, J. Malaga, Bing Liu. Global Cotton Outlook 2021/22 – 2030/2031. –Texas (USA), ICAC, 2020. – p.23.
2. Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича “йўл харитаси”. <https://review.uz/oz/post/20222026-yillarga-moljallangan-taraqqiyyot-strategiyasi-ning-yangi-loyihasi-muhokamaga-qoyildi>
3. Maskell P., Larenzen M. The Cluster as Market Organization// DRUID Working Paper. 2003. No 14. 2003. Porter Michael E. On Competition. - Boston: Harvard Business School, 1998; русск. пер.: Конкуренция; СПб; Киев: Изд. дом «Вильямс», 2005.
4. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M.E. Porter. // Harvard Business Review. – 2018. – Vol.76 (6). – P.77–90.
5. Porter M. E. Clusters and Competition: New Agen-das for Companies, Governments, and Institutions / M.E. Porter // Harvard Business School Working Paper. – 1998. – Vol.98-080. - P. 197-287.
6. Storper M. The Regional World: Territorial Development in Global Economy/ M. Storper. – N. Y.: Guilford Press, 1997. – 338 p.
7. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // World Link, No 5, July/August, 1992. - Pp. 24, 25.
8. De Propriis, Lisa and Driffield, Nigel. The importance of clusters for spillovers from foreign direct investment and technology sourcing // Cambridge Journal of Economics. 2006. No 30.
9. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // Word Link. - 1992. - No5, July/August. Rosenfeld S.A. Bringing Business Clusters into the Mainstream of Economic Development // European Planning Studies. 1997. No 5.



- 10.Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. - Janvier: Annales des Mines. 1989. Tolenado J.A. Propjs des Filires Industrielles. Revue d'Economie Industrielle. V. 6. 1978. No 4.



ЎЗБЕКИСТОН МИНТАҚАЛАРИДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИНГ ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШ

Умарходжаева Муяссархон Ганиевна

и.ф.н., доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Кириш

Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича “йўл харитаси”ни тасдиқлашни назарда тутувчи Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони лойиҳаси тайёрланди. Лойиҳада мутлақо янги ёндашув қўлланилиб, режалаштирилган ислохотлар натижадорлигини тараққиётнинг мақсадларига эришганлик даражаси асосида баҳолаш тизими жорий этилди. Жумладан, Тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича “йўл харитаси”да мамлакатимизни ривожлантиришнинг 7 та устувор йўналиши доирасида қарийб 100 та мақсадга эришиш назарда тутилган²⁰. Мазкур вазифаларнинг самарали ижроси юзасидан ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштиришни рағбатлантириш ва импорт ўрнини босиш сиёсатини, биринчи навбатда, истеъмол товарларини тармоқлараро саноат кооперациясини кенгайтириш, экспорт фаолиятини либераллаштириш ва соддалаштириш, экспорт таркиби ва географиясини диверсификация қилиш, иқтисодий тармоқ ва ҳудудлар, шу жумладан, тўқимачилик саноатининг экспорт салоҳиятини оширишдан иборат.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси.

Иқтисодиётда кластер ёндашувининг асослари П.Маскелл, М.Лорензен, М.Портер, М.Сторпер, М.Энрайт, С.Ресенфелд, Т.Андерсен, С.Бресчи, П.Друкер, М.Састеллс, К.Кетелс, Э.Санари, Ю.Кимура, П.Кругман, К.Кутсун, А.Кучики, Б.Лундвал, Р.М.Марш, Г.Менсч, У.Мигари, О.Солвела, Г.Уайт, К.Фреман, С.Харрисон, Ж.Хендерсон, Д.Хилжерс, Ж.Шумпетер²¹ ва бошқалар томонидан ўрганилган.

²⁰ Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича “йўл харитаси”. <https://review.uz/oz/post/20222026-yillarga-moljallangan-taraq-qiyot-strategiyasi-ning-yangi-loyihasi-muhokamaga-qoyildi>

²¹ Maskell P., Larenzen M. The Cluster as Market Organization// DRUID Working Paper. 2003. No 14. 2003. Porter Michael E. On Competition. - Boston: Harvard Business School, 1998; русск. пер.: Конкуренция; СПб; Киев: Изд. дом «Вильямс», 2005. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M.E. Porter. // Harvard Business Review. – 2018. – Vol.76 (6). – P.77–90. Porter M. E. Clusters and Competition: New Agen-das for Companies, Governments, and Institutions / M.E. Porter // Harvard Business School Working Paper. – 1998. – Vol.98-080. - P. 197-287. Storper M. The Regional World: Territorial Development in Global Economy/ M. Storper. – N. Y.: Guilford Press, 1997. – 338 p. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // World Link, No 5, July/August, 1992. - Pp. 24, 25. De Propriis, Lisa and Driffield, Nigel. The importance of clusters for spillovers from foreign direct investment and technology sourcing // Cambridge Journal of Economics. 2006. No 30. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // Word Link. - 1992. - No5, July/August. Rosenfeld S.A. Bringing Business Clusters into the Mainstream of Economic Development // European Planning Studies. 1997. No 5. Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. - Janvier: Annales des Mines. 1989. Toleno J.A. Propjs des Filires Industrielles. Revue d'Economie Industrielle. V. 6. 1978. No 4.



Тўқимачилик ишлаб чиқаришини ташкил этишнинг кластер шакллари билан шуғулланган замонавий олимлар орасида Д.П.Барсуков, Д.М.Бегов, В.И.Вагизова, В.В.Ильин, Ю.А.Ахенбах, Н.Н.Шутко, Г.Д.Боуш, Л.Л.Бутузова, Р.Р.Тохчуков, Э.В.Чемоданов, А. Фридман, А.А.Мигранян, Т.В.Ускова, Е.В.Волкодавова, Т.И.Максимова, Л.И.Проняева, О.А.Федотенкова, А.В.Павлова, В.В.Печаткин, М.А.Николаев ва бошқаларни алоҳида айтиб ўтиш мумкин.

Маҳаллий олимлар орасида тўқимачилик кластерлари ривожланишининг устувор йўналишлари С.С.Ғуломов, Н.Х.Жумаев, М.Шарифхўжаев, Ё.Абдуллаев, Н.Қ.Йўлдошев, М.Р.Болтабаев, З.Т.Гаибназаров, Э.А.Муминов, З.А.Хакимов, С.Ш.Юсупов, Х.Кодиров, К.Р.Хонкелдиева, Ф.П.Азимова, И.А.Тошпулатов ва бошқалар томонидан бевосита ёки билвосита ўрганилган.

Таҳлил ва натижалар

Жаҳон пахта ишлаб чиқарувчилари орасида Ўзбекистон 6-ўринда туради, бу эса тўқимачилик ишлаб чиқаришини самарали шакллантириш бўйича қиёсий устунликлар мавжудлигидан далолат беради (1-жадвал).

1-жадвалда кўрсатилганидек, Ўзбекистонда кластер тузилмаларини кенг жорий этишни назарда тутувчи ислохотлар амалга оширилмоқда, бу фермер хўжаликлари ва тайёр маҳсулот ишлаб чиқарувчиларни ягона занжирга бирлаштириб, шу орқали иккаласининг ҳам харажатларини камайтиради. Бу ислохотлар жами ишлаб чиқариш ва экспорт салоҳиятида тўқимачилик саноати улуши жадал ошишига асос бўлди.

1-жадвал

Жаҳон пахта ишлаб чиқарувчилари, 2021 йил²²

№	Мамлакат	Йиллик ўртача пахта толаси миқдори, миллион тонна	Ишлаб чиқарувчининг хусусиятлари
1.	Хитой	6,5-6,6	1. Дунё пахтасининг 25 %дан ортиғи бу ерга тўғри келади. 2. Асосан тайёр маҳсулотлар экспорт қилинади. 3. Ҳосилдорликни ошириш учун тупроққа кимёвий ишлов беришга эътибор берилди.
2.	Ҳиндистон	6,3-6,4	1. Машина ва қўлда йиғиш. 2. Хорижга маҳсулот экспортининг юқори улуши.
3.	АҚШ	3,5-3,7	1. Фақат машина йиғиш қўлланилади. 2. Пахта экспорти етакчиси.
4.	Покистан	2,3-2,4	Дунёда тайёр маҳсулотларга талаб юқори.
5.	Бразилия	1,4-1,5	Пахта етиштириш қадимий анъанадир.
6.	Ўзбекистон	1,1-1,2	Пахта-тўқимачилик кластери лойиҳаларини муваффақиятли амалга оширишга қаратилган ислохотларни амалга ошириш.

²² Муаллиф томонидан тузилган.



Мутахассисларнинг ҳисоб-китобларига кўра, 2022 йилнинг якунига тўқимачилик ва тикув-трикотаж маҳсулотлари экспорти 3,5 млрд. долларни ташкил этиши кутилиб, 70 га яқин давлатларга экспорт амалга оширилиши режалаштирилган бўлса, 2025 йилга бориб бу кўрсаткичларни 9,1 миллиард долларга етказиш режалаштирилган. Шу билан бирга, тўқимачилик маҳсулотларининг янги бозорларини ўзлаштириш бўйича мунтазам ишлар олиб борилмоқда, экспортнинг энг катта улуши қуйидагича тақсимланади: МДХ – 44 %, Шарқий Осиё – 27 %, Яқин Шарқ ва Африка – 8 %, Европа Иттифоқига – 7 %, Жануби-Шарқий Осиё – 6 %, Марказий Осиё – 6 %,

Кластерларни жорий этишнинг илғор усули Ўзбекистон тўқимачилик соҳасида юқори ўринларни эгаллади. Барча минтақаларда пахта хомашёсини етиштиришдан тортиб, пахта тозалаш заводларида қайта ишлаш ва юқори қўшимча қийматга эга тайёр тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришгача бўлган барча ишлаб чиқариш цикллари боғловчи пахта-тўқимачилик кластерлари ташкил этилмоқда.

2021 йилда Ўзбекистон тўқимачилик кластерларининг экспорт ҳажми 2019 йилга нисбатан саккиз баробар, яъни 3,2 трлн. сўмдан ошиб кетди. Кластернинг иқтисодий самарадорлигини таҳлил қилиш учун муаллиф томонидан тўқимачилик корхонасининг қўшилган қиймат сифатини қуйидаги кўрсаткичлар гуруҳидан фойдаланиш асосида аниқлаш таклиф қилинди: қўшилган қиймат динамикаси, қўшилган қиймат таркиби ва корхона ресурсларидан фойдаланиш самарадорлиги (2-жадвал).

2-жадвал

Яратилган қўшилган қиймат занжирини баҳолаш кўрсаткичлари тизими²³

Кўрсаткичлар	Ҳисоблаш формуласи
Қўшилган қиймат таркиби кўрсаткичлари	
1. Қўшилган қиймат умумий миқдорида фойданинг улуши, %	$K_1 = ЯФ/ҚҚ$
2. Қўшилган қиймат умумий миқдорида амортизация ажратмалари улуши, %	$K_2 = A_{ам}/ҚҚ$
3. Қўшилган қиймат умумий миқдорида ажратмалар билан иш ҳақи улуши, %	$K_3 = МХТ/ҚҚ$
Корхона ресурсларидан фойдаланиш самарадорлиги кўрсаткичлари	
1. Даромаднинг 1 пул бирлигига қўшилган қиймат, пул бирлиги	$K_4 = ҚҚ/Д$
2. Моддий ресурсларнинг 1 пул бирлигига қўшилган қиймат, пул бирлиги	$K_5 = ҚҚ/М$
3. Асосий воситаларнинг 1 пул бирлигига қўшилган қиймат, пул бирлиги	$K_6 = ҚҚ/АВ$
4. Технологик инновациялар харажатлари 1 пул бирлигига қўшилган қиймат, пул бирлиги	$K_7 = ҚҚ/Х_{ти}$
5. Ўз капитали 1 пул бирлигига қўшилган қиймат, пул бирлиги	$K_8 = ҚҚ/ЎК$

²³ Муаллиф томонидан тизимлаштирилган.



бу ерда ЯФ – ялпи фойда; ҚҚ – қўшилган қиймат; $A_{ам}$ – амортизация ажратмалари миқдори; АВ – асосий воситалар; I – асосий капиталга инвестициялар; МХТ – меҳнатга ҳақ тўлаш харажатлари ва иш ҳақи тўловларидан ажратмалар; Д – даромад; М – моддий харажатлар; ЎК – ўз капитали; $X_{ти}$ – технологик инновациялар харажатлари

Барча кўрсаткичлар қиймат ифодасида ўлчанади

Юқоридаги кўрсаткичларни ҳисоблаш қўшимча қийматнинг таркибий элементлари, шунингдек, қуйидаги формула ёрдамида ҳисоблаб чиқиш тавсия этиладиган умумий динамикани таққослаш имконини беради:

$$ҚҚ = \sqrt[3]{K_1 \cdot K_2 \cdot K_3} + \sqrt[5]{K_4 \cdot K_5 \cdot K_6 \cdot K_7 \cdot K_8} \quad (1)$$

Табиий материаллардан калава ишлаб чиқариш, тўқимачилик материалларини (тўқима, нотўқима бўлмаган, трикотаж) ишлаб чиқариш ва пардозлаш, дизайн, маркетинг ва тайёр маҳсулотларни сотиш бўйича батафсил статистик маълумотлар мавжуд эмаслиги туфайли қўшилган қиймат занжирини кузатиш мушкул вазифа ҳисобланади. Лекин Ўзбекистонда ишлаб чиқариш жараёни хомашё ишлаб чиқаришдан тайёр пахта маҳсулотигача бўлган барча босқичларни қамраб олганлиги сабабли, республика тўқимачилик саноатида тўлиқ қўшилган қиймат занжири ҳақида гапириш мумкин.

Шундай қилиб, Ўзбекистон тўқимачилик саноатида кластерлашнинг жорий этилиши юқори натижаларга эришиш имконини берди, хусусан, ишлаб чиқариш ҳажми сифат жиҳатидан ошди, тармоқнинг экспорт салоҳияти ошди, тўқимачилик маҳсулотларининг рақобатбардошлиги сезиларли даражада ортди. Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг экспорт салоҳияти энди авж олаяпти. Мамлакатда янада юксалиш учун улкан имкониятлар мавжуд. Энг муҳими, жаҳон миқёсидаги бозор конъюнктураси Ўзбекистоннинг қиёсий устунликларига деярли тўғри келади, эндиликда уларни тўқимачилик тармоғи учун рақобатли устунликларга айлантириш зарур.

3-жадвал маълумотлари далолат берадики, Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг экспорт салоҳияти 2016 йилдан 2020 йилгача бўлган даврда сезиларли даражада ортган. Ўзбекистонда ташкилотларнинг кластерлари шаклларини жорий этиш айнан 2016 йил охири ва 2017 йил бошларига тўғри келади. Экспорт салоҳиятининг бирмунча юқори ошиш ҳажми Наманган вилояти (7 баробар ошиш) ва Сурхондарё вилоятида (8 баробар ошиш) кузатилди.



2016-2020 йилларда Ўзбекистон минтақаларида тўқимачилик саноатининг экспорт салоҳияти²⁴

№	Минтақалар	Экспорт салоҳияти, млн. долл.		Ўсиш, %
		2016 й.	2020 й.	
1.	Қорақалпоғистон Республикаси	6,1	34,6	+467,2
2.	Анджон вилояти	109,8	327,9	+198,6
3.	Бухоро вилояти	62,6	79,1	+26,4
4.	Жиззах вилояти	32,8	80,2	+144,5
5.	Қашқадарё вилояти	15,7	62,1	+295,5
6.	Навоий вилояти	0	49,7	-
7.	Наманган вилояти	24,9	209,7	+742,2
8.	Самарқанд вилояти	14,8	85,8	+479,7
9.	Сурхандарё вилояти	10,1	73,4	+626,7
10.	Сирдарё вилояти	11,8	41,4	+251,6
11.	Тошкент вилояти	159,5	210,7	+32,1
12.	Фарғона вилояти	212,2	249,1	+17,4
13.	Хоразм вилояти	21,1	83,5	+295,7
14.	Тошкент ш.	181,9	298,4	+64,0

Агар экспорт салоҳияти корхона даражасида кўриб чиқилса, у иккита асосий қисм, яъни ички ва ташқи салоҳиятдан иборат. Корхонанинг ички экспорт салоҳияти экспортга маҳсулот ишлаб чиқариш учун зарур ресурслар мажмуини ўз ичига олади. Буларга табиий, меҳнат, моддий, молиявий ва ахборот ресурслари киради. Корхонанинг ташқи экспорт салоҳияти рақобатбардош маҳсулотларни сотиш билан боғлиқ бўлиб, корхонанинг маркетинг, логистика ва хизмат кўрсатиш фаолияти билан таъминланади²⁵. Юқори ташқи экспорт салоҳияти билан корхонанинг рақобатбардошлик даражаси сезиларли даражада ошади, чунки унинг маҳсулотлари халқаро бозорларда сотила бошлайди²⁶.

Хулоса

Ўтказилган тадқиқотлар ва белгиланган вазифаларга мувофиқ қуйидаги хулоса ва таклифлар шакллантирилди:

1. Кластерлар умумий қиймат занжири доирасида ташкилотлар ва ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги ўзаро алоқа шаклларида биридир. Кластер ўз иштирокчиларининг ўзаро рақобати, ўз иштирокчиларининг ҳамкорлиги, минтақанинг ўзига хос компетенцияларини шакллантириш, маълум ҳудудда корхона ва ташкилотлар концентрациясини шакллантириш хусусиятларига эга. Кластерларни жорий этиш мамлакат ички эҳтиёжларини қондириш даражасини ошириш, импортга

²⁴ Муаллиф томонидан тизимлаштирилган.

²⁵ Сычев А. В. Индикатор потенциала инновационной деятельности кластера.

²⁶ Сухих Д.Г., Кац В.М. Методики оценки экспортного потенциала предприятия. Российский опыт // Векторы благополучия: экономика и социум, 2015. №2 (17). – С. 62-75.



қарамликни камайтириш ва давлатнинг экспорт салоҳиятини ошириш учун мўлжалланган. Кластер ёндашуви алоҳида корхона ва тармоқларни қўллаб-қувватлашга эмас, балки тегишли корхоналар, географик яқинликда жойлашган муассасалар ўртасидаги муносабатларни ривожлантиришга қаратилган давлат иқтисодий сиёсатининг мазмунини тубдан ўзгартиришга қодир. Тармоқ ва комплексларни бошқаришда кластер ёндашуви ички ва ташқи конъюнктура ўзгаришига тезкор жавоб бериш, инновацион сиёсат ҳисобига мослашиш орқали иқтисодий тизимнинг барқарорлигини оширишга ёрдам беради.

2. Ўзбекистонда кластер моделига ўтиш қисқа вақт ичида республика миқёсида хомашёдан тайёр маҳсулотга қадар ишлаб чиқариш занжирларининг тубдан ўзгаришини таъминлади, бу эса ишлаб чиқариш жараёнининг турли даврларидаги ишлаб чиқарувчилар ўртасидаги муносабатларнинг янги муҳитини шакллантирди ва ишлаб чиқариш самарадорлиги ҳамда маҳаллий маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишга олиб келади.

3. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноатида замонавий кластер тизимини таҳлил қилишда бир қатор муаммолар мавжудлиги аниқланди, уларнинг орасида моддий базанинг етарли даражада жиҳозланмаганлиги, тўқимачилик маҳсулотларини экспорт қилиш географиясининг диверсификация даражаси пастлиги, экспорт корхоналарини рағбатлантириш тизимининг заифлиги, солиққа тортиш даражаси юқорилиги, кластер фаолиятининг шаффофлиги етарли даражада эмаслигини алоҳида ажратиб кўрсатиш лозим. Самарали кластер тизими куйидаги хусусиятларга эга бўлиши керак. Биринчидан, кластер яхлит, ўзини-ўзи ривожлантирувчи ва очик тизим бўлиб, унинг самарадорлиги уни қўллашнинг синергетика таъсирини сезиларли даражада ошириши мумкин. Иккинчидан, кластер шунчаки меҳнат тақсимотида асосланган кооперация эмас, балки инновацион технологиялар ва кўп босқичли технологик ўзаро боғланишларга асосланган уюшмадир. Учинчидан, кластерни анъанавий бошқарув аппарати эмас, балки унинг самарадорлигини оширишдан бевосита манфаатдор кластер ичидаги субъектлар бошқариши керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича “йўл харитаси”. <https://review.uz/oz/post/20222026-yillarga-moljallangan-taraqqiyyot-strategiyasi-ning-yangi-loyihasi-muhokamaga-qoyildi>
2. Maskell P., Larenzen M. The Cluster as Market Organization// DRUID Working Paper. 2003. No 14. 2003.
3. Porter Michael E. On Competition. - Boston: Harvard Business School, 1998; русск. пер.: Конкуренция; СПб; Киев: Изд. дом «Вильямс», 2005.
4. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M.E. Porter. // Harvard Business Review. – 2018. – Vol.76 (6). – P.77–90.



5. Porter M. E. Clusters and Competition: New Agen-das for Companies, Governments, and Institutions / M.E. Porter // Harvard Business School Working Paper. – 1998. – Vol.98-080. - P. 197-287.
6. Storper M. The Regional World: Territorial Development in Global Economy/ M. Storper. – N. Y.: Guilford Press, 1997. – 338 p.
7. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // World Link, No 5, July/August, 1992. - Pp. 24, 25.
8. De Propriis, Lisa and Driffield, Nigel. The importance of clusters for spillovers from foreign direct investment and technology sourcing // Cambridge Journal of Economics. 2006. No 30.
9. Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. - Janvier: Annales des Mines. 1989.
10. Tolenado J.A. Propjs des Filires Industrielles. Revue d'Economie Industrielle. V. 6. 1978. No 4.
11. Сычев А. В. Индикатор потенциала инновационной деятельности кластера.
12. Сухих Д.Г., Кац В.М. Методики оценки экспортного потенциала предприятия. Российский опыт // Векторы благополучия: экономика и социум, 2015. №2 (17). – С. 62-75.



Исоқов Зафар Ғофуржон ўғли
Жамоат хавфсизлиги университети
магистратура тингловчиси

Алимов Мухиддин Илхомжон ўғли
Жамоат хавфсизлиги университети
магистратура тингловчиси

Ўзбекистон Республикасида ҳарбий хизматни ўтаётган ҳарбий хизматчиларнинг жиноий ва моддий жавобгарлигининг назарий-ҳуқуқий асослари.

Қайси бир аскар туз хақи ва вафодорликни унутиб, хизмат вақтида ўз эгасидан юз ўгириб, менинг олдимга келган бўлса ундай одамни ўзимга энг ёмон душман деб билдим.

Амир Темур

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасида ҳақиқий ҳарбий хизматни ўташда содир этган жинояти учун жавобгарликнинг ҳуқуқий асослари, Қонунларда белгиланганлиги, ҳарбий хизматдаги камчиликлар ҳақидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг фикрлари, ҳарбий мансабдорликка оид жиноятлар, ҳарбий жиноятлар сонини камайтириш бўйича таклифлар тўғрисида ўринли мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: Қонун, ҳарбий мансабдорлик, Қуролли Кучлар, жазо, сиёсат, маънавий заиф, Ватанпарварлик.

Аннотация: В данной статье рассмотрены правовые основы ответственности за преступление, совершенное при прохождении действительной военной службы в Республике Узбекистан, ее определение в Законах, мнения Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева о недостатках прохождения военной службы, преступления, связанные с военной службой, вносятся предложения по сокращению количества воинских преступлений.

Ключевые слова: Закон, военная служба, Вооруженные Силы, наказание, политика, моральная слабость, патриотизм.

Annotation: This article discusses the legal basis for liability for a crime committed during active military service in the Republic of Uzbekistan, its definition in the Laws, the views of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev on the shortcomings

of military service, crimes related to military service, proposals are made to reduce the number military crimes.

Key words: Law, military service, Armed Forces, punishment, politics, moral weakness, patriotism.

Мамлакат мустақиллигини ҳамда ҳудудий яхлитлигини, халқимизнинг тинч ҳаёти ва мустақилликни мустаҳкамлаш йўлидаги бунёдкорлик ва меҳнатини ҳимоя қилиш ва ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш мақсадида мамлакат фуқаролари учун умумий ҳарбий мажбурият жорий этилади.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 52-моддасида “Ўзбекистон Республикасини ҳимоя қилиш - Ўзбекистон Республикаси ҳар бир фуқаросининг бурчидир. Фуқаролар қонунда белгиланган тартибда ҳарбий ёки муқобил хизматни ўташга мажбурдирлар” деб белгилаб ўтилган.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикасида ҳарбий хизматни ўташ тартиби Ўзбекистон Республикасининг “**Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида**”ги 2002 йил 12 декабрдаги 436-П-сон Қонуни ва Ўзбекистон Республикаси Конституциясига асосланади.

Умумий ҳарбий мажбурият – бу фуқароларнинг Ўзбекистон Республикасини ҳимоя қилишга мажбурий ҳарбий тайёргарлигидан иборат бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари сафини тўлдиришни ва уларнинг резервини тайёрлашни таъминлаш мақсадида жорий этилади.

Ҳарбий хизмат – Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг Қуролли Кучлар сафида умумий ҳарбий мажбуриятни бажариш борасидаги давлат хизматининг алоҳида туридир.

Ҳарбий хизматни қуйидаги турлари мавжуд:

- Муддатли ҳарбий хизмат;
- Сафарбарлик чақируви резервидаги ҳарбий хизмат;
- Контракт бўйича ҳарбий хизмат;
- Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари сафида ҳарбий хизматни ўтаган резервчилар хизмати.

Ўзбекистон Республикасининг “**Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида**”ги 2002 йил 12 декабрдаги Қонунининг 4-моддасига биноан саломатлигига кўра ҳарбий хизматни ўташга яроқли, ёши ўн саккиздан йигирма етти ёшгача бўлган эркаклар муддатли ёки сафарбарлик чақируви резервидаги хизматга чақириладилар.

Шунингдек, мазкур Қонуннинг 22-моддасида муддатли ҳарбий хизматга ҳамда сафарбарлик чақируви резервидаги хизматга чақирилишдан озод этиш тартиби белгиланган.



Унга кўра, тинчлик даврида муддатли ҳарбий хизматга ҳамда сафарбарлик чақируви резервидаги хизматга чақирилишдан қуйидагилар озод этиладилар:

1. саломатлигига кўра ҳарбий хизматга яроқсиз деб топилган чақирилувчилар;
2. яқин қариндошларидан бири (ака-укаси, опа-синглиси) ҳарбий хизматни ўташ вақтида ҳалок бўлган ёки вафот этган чақирилувчилар;
3. рўйхатдан ўтган диний ташкилотлардан бирида диний рутба эгаси бўлган чақирилувчилар.

Юқоридаги модданинг 2-бандида кўрсатилган шахслар ўз розиликлари билан ҳарбий хизматга чақирилишлари мумкин.

Жиноий жавобгарликка тортилган, шунингдек судланганлик ҳолати тугалланмаган ёки судланганлиги олиб ташланмаган фуқаролар ҳарбий хизматга чақирилмайдилар.

Шуни таъкидлаш жоизки, ҳозирги кунда ҳам ҳарбий хизматчилар ўртасида жиноятлар содир этиш ҳолатлари учраб турибди. Бундай жиноятлар айрим ҳарбий хизматчилар юксак ватанпарварлик туйғуларини ҳис этмасликлари, ҳарбий хизмат “Юкини” кўтара олмаётганликлари, маънавий заифлиги, Ватанга бўлган садоқатининг сустлиги сабабли юзага келишини тахмин қилиш мумкин.

Ҳарбий жиноятлар, яъни ҳарбийлар томонидан ва ҳарбий қисмлар ҳудудида содир этилган жиноятлар ҳарбий прокуратура томонидан чиқарилган Йўриқномада белгиланган қоидалар асосида ҳисобга олинади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан 2018 йил 10 январь кундаги Президент ҳузуридаги Хавфсизлик кенгаши йиғилишида: Бир фикрни ҳеч қачон унутмаслигимиз керак: армияни моддий жиҳатдан барча замонавий зарур техника ва жиҳозлар, қурол-яроғлар билан таъминлаш мумкин. Аммо шахсий таркиб маънавий жиҳатдан заиф бўлса, яъни, аскар ва офицерларимизда жанговар руҳ, Ватанга меҳр ва садоқат, унинг тақдири учун масъулият бўлмаса ёки уларнинг ўртасида бепарволик ҳукм сурса, бундай ҳолат ниҳоятда ноҳуш оқибатларга олиб келиши мумкин – дея ниҳоятда ҳақ фикрлар айтиб ўтилди.

Бу каби ноҳуш оқибатлар натижаси жиноятга олиб келса, ҳеч бир жиноят жазосиз қолмайди. Ўзбекистон Республикасининг “Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида”ги 2002 йил 12 декабрдаги 436-П-сон Қонунининг 51-моддасида “Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ҳарбий хизматдан бўйин товлаган тақдирда амалдаги қонун ҳужжатларига мувофиқ жиноий жавобгарликка тортиладилар” деб қатъий белгилаб қўйилган. Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодекси принципларидан бири бу – жавобгарликнинг муқаррарлигидир.

Шундай экан, қилмишида жиноят таркибининг мавжудлиги аниқланган ҳар бир шахс жавобгарликка тортилиши шарт, деб Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг 10-моддасида белгилаб қўйилган.

Ундан ташқари ушбу Кодекснинг XXIV бобида ҳарбий мансабдорлик жиноятлари белгилаб қўйилган.

Жумладан, 301-модда: ҳокимиятни суистеъмол қилиш, ҳокимият ваколатидан ташқарига чиқиш ёки ҳокимият ҳаракатсизлиги ва 302-модда: хизматга совуққонлик билан қараш каби ҳаракат ёки ҳаракатсизлик жиноят деб белгилаб қўйилган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Инсон қадрини учун» 2021 йил сайловолди дастурининг саккизинчи йўналишида ҳам «Прокуратура фаолиятини фуқароларнинг кадр-қиммати, ҳуқуқ ва эркинликларини самарали ҳимоя қилишга йўналтиришни устувор аҳамиятга эга вазифа сифатида қараймиз. **“Қонун – устувор, жазо – муқаррар”** тамойили прокуратура органлари фаолиятининг бош мезони бўлади», - дея таъкидланган.

Ўзбекистон Республикасининг “Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида”ги 2002 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонунига VIII¹ бўлими *Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 30 сентябрдаги ЎРҚ-718-сонли Қонунига асосан киритилди. Мазкур бўлимда ҳарбий хизматчиларнинг, олий ҳарбий таълим муассасалари курсантларининг (тингловчиларининг), ҳарбий йиғинларга чақирилган ҳарбий хизматга мажбурларнинг ва сафарбарлик чақируви резервидаги хизматни ўтаётган шахсларнинг моддий жавобгарлиги белгилаб қўйилди.*

Мазкур бўлим 48¹-48⁵-моддаларидан иборат бўлиб, ҳарбий хизматчилар, олий ҳарбий таълим муассасаларининг курсантлари (тингловчилари), ҳарбий йиғинларга чақирилган ҳарбий хизматга мажбурлар ва сафарбарлик чақируви резервидаги хизматни ўтаётган шахслар ҳарбий хизмат мажбуриятларини (хизмат мажбуриятларини) бажариш чоғида ҳарбий мол-мулкка (Қуролли Кучлар тасарруфидаги ҳарбий объектларга, бинолар ва иншоотларга, қурол-яроғ ва ўқ-дорилар, жанговар ва бошқа техника, ўзга моддий-техник воситалар ва пул маблағларига (қимматликларга) етказилган тўғридан-тўғри ҳақиқий зарар учун моддий жавобгарликка тортилишлари белгиланди.

Шунингдек, ушбу бўлим моддаларида ҳарбий хизматчиларни, олий ҳарбий таълим муассасалари курсантларини (тингловчиларини), ҳарбий йиғинларга чақирилган ҳарбий хизматга мажбурларни ва сафарбарлик чақируви резервидаги хизматни ўтаётган шахсларни моддий жавобгарликка тортиш шартлари, тўлиқ моддий жавобгарлиги, чекланган моддий жавобгарлиги, зарарнинг миқдорини аниқлаш ва зарарни ундириш тартиби, моддий жавобгарликка тортиш муддатлари белгиланди.

Ўзбекистон Республикасининг “Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида”ги Қонунининг VIII¹ бўлимида ҳарбий хизматчилар, олий ҳарбий таълим муассасаларининг курсантлари (тингловчилари), ҳарбий йиғинларга чақирилган ҳарбий хизматга мажбурлар ва сафарбарлик чақируви резервидаги хизматни ўтаётган



шахслар, агар зарар командирнинг (бошлиқнинг) буйруғини бажариш ёхуд асосли хизмат ёки хўжалик таваккалчилиги ёки бошқа қонуний ҳаракатлар натижасида етказилганда моддий жавобгар бўлмасликлари, ҳарбий хизмат мажбуриятларини (хизмат мажбуриятларини) бажармаётган пайтда моддий зарар етказган ҳарбий хизматчилар, олий ҳарбий таълим муассасаларининг курсантлари (тингловчилари), ҳарбий йиғинларга чақирилган ҳарбий хизматга мажбурлар ва сафарбарлик чақируви резервидаги хизматни ўтаётган шахслар фуқаролик қонунчилигига мувофиқ жавобгар бўлади деб белгиланган.

Шунингдек, ушбу Қонуннинг 48²-моддасида тўлиқ моддий жавобгарлик сифатида ҳарбий хизматчилар, олий ҳарбий таълим муассасаларининг курсантлари (*тингловчилари*), ҳарбий йиғинларга чақирилган ҳарбий хизматга мажбурлар ва сафарбарлик чақируви резервидаги хизматни ўтаётган шахслар ўз айби билан ҳарбий мол-мулкни талон-торож қилган, камомадга йўл қўйган, беҳуда сарфлаган, йўқотган, қасддан йўқ қилган, шикастлаган, ишдан чиқарган, қонунга хилоф равишда сарфлаган ҳолларда етказилган зарар учун ёки қасддан содир этилган бошқа хатти-ҳаракатлар (*ҳаракатсизлик*) туфайли етказилган зарар учун, уларда жиноят қонунчилигида назарда тутилган жиноят таркиби аломатлари борлигидан қатъи назар, моддий жавобгар бўлишлари, ҳарбий хизматчилар, олий ҳарбий таълим муассасаларининг курсантлари (*тингловчилари*), ҳарбий йиғинларга чақирилган ҳарбий хизматга мажбурлар ва сафарбарлик чақируви резервидаги хизматни ўтаётган шахслар ўз айби билан жисмоний ва юридик шахсларга зарар етказган тақдирда, агар зарарнинг ўрни қонунчиликка мувофиқ Қуролли Кучлар томонидан қопланган бўлса, Қуролли Кучлар томонидан қилинган харажатларнинг ўрнини давлатга қоплаши шартлиги, хизматчиларни (*ишчиларни*) қонунга хилоф равишда ишдан бўшатишда ёки бошқа ишга ўтказишда айбдор бўлган командирлар (*бошлиқлар*) мажбурий прогул вақти ёки кам ҳақ тўланадиган ишни бажариш вақти учун ортиқча ҳақ тўланиши муносабати билан, шунингдек қонунчиликни бузганлик ёхуд бўйсунув тартибида юқори турувчи командирнинг (*бошлиқнинг*) ёки суднинг хизматчини (*ишчини*) ишга тиклаш тўғрисидаги қарорини бажаришни асоссиз равишда кечиктирганлик учун етказилган моддий зарарнинг ўрнини давлатга қоплашлари ҳам белгиланди.

Ҳар қандай давлатда жамоат тартиби ва хавфсизлигининг ҳолати кўп жиҳатдан фуқароларнинг жиноят ва ҳуқуқбузарликларга қарши қанчалик фаол бўлишига боғлиқ. Бунда фуқароларнинг давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларига бўлган муносабати ва бунинг натижасида одамларнинг амалга оширилаётган ишларда фаол иштирок этиши, албатта, уларнинг истаги билан ўлчанади. Ҳозирги кунда ҳуқуқ-тартибот соҳасидаги муаммоларни ҳал қилиш самарадорлигини ошириш учун сўнгги йилларда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш бўйича кўп ишлар амалга оширилди. Лекин бугунги кун ҳақиқати



шунини кўрсатадики, давлат ҳуқуқни муҳофаза қилиш тизими фуқароларнинг ёрдамсиз тўғри тартибни ва жамоат хавфсизлигини тўлиқ таъминлай олмайдилар.²⁷

Қадимги Рим сиёсатчиси, нотик ва файласуф Марк Туллийус Цицерон шундай дейди: “Қонунларни билиш уларнинг сўзларини эслаб қолишдан эмас, балки уларнинг маъносини тушунишдан иборат”. Ҳозирги вақтда ҳуқуқий маълумотларнинг катта тўпламини ҳисобга олган ҳолда, қонунларнинг маъносини барча ҳарбий хизматчилар ҳам билавермайди.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, хулоса ўрнида шунини таъкидлаш жоизки, қонун устуворлигини таъминлаш мақсадида нафақат ҳарбий хизматчиларнинг, балки барча фуқароларнинг ҳуқуқий онгини шакллантириш ва ривожлантириш бугунги куннинг долзарб вазифалари қаторига киритиш мумкин. Айнан шу орқали соҳадаги жиноятларни олди олиниши ҳамда жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича маълум бир йўналишни такомиллаштиришга эришиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида”ги 2002 йил 12 декабрдаги 436-П-сон Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодекси.
3. Р.С.Артиковнинг “Ҳарбий Қонунчилик асослари” ўқув кўлланма. Тошкент-2019.
4. Жумабой Рахимовнинг «Буюк саркардаларимизнинг Жаҳон ҳарбий санъатида туган ўрни» II жилд 495-бет Тошкент-2022.
5. <https://www.gazeta.uz>
6. <https://www.kun.uz>
7. Alimov Muxiddin Ilhomjon o'g'li. (2022). Participation of Citizens in the Maintenance of Public Order Historical-Theoretical Significance. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 13, 67–70. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/2588>
8. <https://www.consultant-dv.ru>



Реймов Тимур Мамбеткаримович
Жамоат хавфсизлиги университети
Магистратурасининг тингловчиси

Алимов Мухиддин Илхомжон ўгли
Жамоат хавфсизлиги университети
Магистратурасининг тингловчиси

Ўзбекистонда ёшлар онгига деструктив ғоялар таъсир этишни олдини олишни такомиллаштириш

Аннотация: мақолада экстремизм ва терроризм мафкураларига қарши курашишнинг маънавий-марифий асослари ҳам фалсафий, ҳам сиёсий жиҳатдан талқин қилинган. Шу билан бирга уларнинг олдини олишга қаратилган таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: экстремизм; терроризм; қарама-қаршилик, терроризмга қарши кураш; жиноий жавобгарлик; экстремистик жиноят, ноқонуний қурол, криминалистика, хавфсизлик, миллат, элат, сепаратизм, зиддиятли вазиятлар, миллий хавфсизлик, стратегия, диний, сиёсат, этник хусусият, сиёсий экстремизм.

Аннотация: в статье духовно-просветительские основы борьбы с идеологиями экстремизма и терроризма осмысливаются как в философском, так и в политическом плане. При этом даются предложения и рекомендации, направленные на их профилактику.

Ключевые слова: экстремизм; терроризм; противостояние, борьба с терроризмом; уголовная ответственность; экстремистская преступность, незаконный оборот оружия, криминология, безопасность, нация, народ, сепаратизм, конфликтные ситуации, национальная безопасность, стратегия, религия, политика, этнос, политический экстремизм.

Annotation: the article interprets the spiritual and educational foundations of fighting the ideologies of extremism and terrorism both philosophically and politically. At the same time, suggestions and recommendations aimed at their prevention are given.

Keywords: extremism; terrorism; confrontation, fight against terrorism; criminal liability; extremist crime, illegal weapons, criminology, security, nation, people, separatism, conflict situations, liners, national security, strategy, religious, politics, ethnicity, political extremism.

Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси доирасида муқаддас ислом динимизнинг инсонпарварлик ғоясини тарғиб этиш, “жаҳолатга қарши-маърифат” тамойили асосида униб-ўсиб келаётган ёшларимизни соғлом эътиқод руҳида тарбиялашга алоҳида эътибор берамиз” [1]

Тинчлик буюк неъмат, инсон ҳаётининг бирламчи шарти ҳисобланади, чунки осуда ҳаёт яратувчанлик ва фаравонлик, умуман барча эзгу мақсадларнинг руёби энг аввало шу неъматга боғлиқ. Шунинг учун ҳам қадимдан барча халқлар тинчликни асраш учун моли-ю жони билан курашиб келганлар.

Халқаро терроризмга қарши кураш борасида универсал ҳуқуқий механизмларни яратиш жараёнларининг сифат ва мазмун жиҳатидан юксалиши Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ) таъсис этилиши пайтидан бошланди. Айнан БМТ шафелиги остида бугунги кунда халқаро терроризмга қарши кураш борасида тузилган универсал конвенциялар ишлаб чиқилиб, ҳаётга тадбиқ этилмоқда. БМТ органлари нафақат универсал конвенцияларни ҳисобга олган ҳолда фаолият юритмоқда, балки ўз қарорлари билан халқаро терроризмга қарши курашга ҳам кўмаклашмоқда.

“Халқаро терроризмга чек қўйиш бўйича чоралар тўрисида”ги декларация 1994 йилнинг 9 декабрида БМТ Бош Ассамблеясининг 49-60-сонли резолюциясига асосан тасдиқланган. Декларацияда давлатларни халқаро терроризмнинг турли жиҳатларига оид халқаро конвенция ва баённомаларида иштирокчи бўлиш мажбуриятларини белгилаб қўйиш таклиф қилинган. Бундан ташқари, БМТ Хавфсизлик Кенгаши томонидан ишлаб чиқилган, бузғунчи ҳаракатларни чеклаш бўйича дунё давлатлари учун мажбурий кучга эга бўлган 1373-сонли резолюцияси Ўзбекистон Республикаси томонидан тўлиқ маъқулланди. Шу ўринда айтиш жоизки, ҳужжатнинг асосий мақсади жаҳон ҳам жамиятининг халқаро терроризм ва диний экстремизмга бўлган муносабатини тубдан ўзгартиришга қаратилган бўлиб, кўпорувчиларнинг (террорчилар) керакли ресурс ва имкониятлар топиш, улардан фойдаланиш, хавфсиз маконларда яшириниш, қурол-яроққа эга бўлиш ҳамда давлатлар чегараларини кесиб ўтишнинг олдини олишда барча мамлакатлардан ҳамкорликни талаб қилади. “Дунёда терроризм таҳдидлари айниқса, сўнгги йилларда кучайиб бораётгани уларга қарши асосан куч ишлатиш йўли билан курашиш усули ўзини оқламаётганидан далолат беради. Бу борада кўп ҳолларда таҳдидларни келтириб чиқараётган асосий сабаблар билан эмас, балки уларнинг оқибатларига қарши курашиш билангина чекланиб қолинмоқда. Халқаро терроризм ва экстремизмнинг илдизини бошқа омиллар билан бирга, жаҳолат ва мурасасизлик ташкил этади, деб ҳисоблайман. Бизнинг асосий вазифамиз – ёшларнинг ўз салоҳиятини намоён қилиши



учун зарур шароитлар яратиш, зўравонлик ғояси ва “вируси” тарқалишининг олдини олишдир”. [2].

“Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси”нинг олтинчи бандида бугунги кунда инсоният кўплаб умумбашарий муаммоларга дуч келмоқда ва уларга ечим топиш долзарб муаммо бўлиб келаётганлиги, жумладан иқлим ўзгаришлари, экологик муаммолар, радикализм, экстремизм ва терроризм, одам савдоси, наркотрафик каби таҳдидлар бизнинг мамлакатимизда ҳам ечилиши зарур бўлган долзарб вазифалар қаторига киритилган.

XX асрда зўравонлик, агрессия инсон борлигининг барча жабҳаларига кириб борди. Диний экстремизм–экстремизмнинг дин ниқобида намоён бўлиш шакли. Бу тушунча XX аср илмий атамаларида қўлланила бошланган. Аслида диний мутаассиблик ва диний экстремизм, террорчилик ҳаракатлари, умуман экстремистик, террористик фаолиятлар пайдо бўлганига кўп вақт бўлган бўлса ҳам, уларни илмий таҳлил этиш, бундай ҳаракатларнинг кенг ёйилиши айнан XX асрда кўзга ташланади. Шу ўринда экстремизм тушунчасининг моҳиятига ҳам тўхталиб ўтиш керак. Диний экстремизм (лотинчада–эстремус энг сўнги, охири деган маъноларни англатади) ижтимоий ҳаётда юз бераётган жараёнларнинг таъсирида юзага келади ва унинг илдизлари қадимги тарихимиз сарчашмаларидан озикланади, чунки дин пайдо бўлиши билан диний экстремизм вужудга келган. Тарихнинг турли даврларида у турли қиёфада гавдаланади[3].

Дастлаб “террор” тушунчаси қадимги юнон тилида “кўрқинч”, “даҳшат” маъноларини англатган ҳолда ишлатилган. Кейинчалик диний экстремистларнинг усули сифатида террор усули тилга олинган. Яна асосий бир-бирига боғлиқ томони улар барчаси миллатлар, динлараро турли зиддиятлар ва ихтилофлар келтириб чиқарадилар. Давлат тўнтаришлари олиб бориш зарур деб ҳисоблайдилар, диний назарияларни ниқоб сифатида қўллайдилар.

Мутахассислар тинчликга раҳно солувчи омилларни турлича келтирадилар-давлатлар ўртасидаги низоли вазиятлар, фуқаролик урушлари, миллий ва этник низолар, табиий офатлар... Лекин бу омилларнинг ичида бугунги кунда энг хатарли ва ҳар қандай давлат тинчлиги, осойишталиги учун ашаддий хавф солишга фодир бўлган ислом дини ниқоби остидаги диний экстремизм ва терроризм эканини ҳар бир соғлом фикрли инсон тан олмақда.

Инсоният тарихини ўрганиш баробарида турли бунёдкор ва вайронкор кучлар ҳамда ҳаракатларни, улар орасидаги зиддиятли муносабатларни кўриш мумкин. Маълум бўлишича, агар фаолиятлар эзгуликка асосланган бўлса, улар жамият тараққиётига ижобий таъсир кўрсатиб, фаолиятлар вайронкорликларга асосланган бўлса, унда жамиятга салбий таъсирларни кўриш мумкин. Бундай ҳаракатлар инсоният яралибдики юзага келмоқда ва эҳтиёжлар, манфаатлар бор экан абадийдир.



Диний экстремизм ва терроризм иллатининг сўнгги пайтларда тобора кўчайиб бораётгани мазкур муаммонинг нақадар долзарб эканини кўрсатади.

Экстремистик қарашлар жуда чуқур илдизларга эга бўлиб, ҳеч қачон чегара билмаган. Шу ўринда дин, миллат ва ҳудудни тан олмаган. Агар динларнинг пайдо бўлишига эътибор берадиган бўлсак бундай ғоялар жуда қадимдан юзага келган ва чегара танламаган. Диний экстремизм диний мутаассибликнинг маълум томонларига асосланган бўлади. Жумладан, диний мутаассиблик турли реакциялардан фойдаланади, бирор миллат ва халқнинг қадриятларини тап тортмасдан оёқ ости қила оладилар, вайрон қилувчи куч сифатида майдонга чиқадилар, иккаласида ҳам Яратганга ўз жонини фидо этиш муқаддас саналади. Терроризм, фундаментализм, экстремизм каби мутаассибликнинг ҳам турлари мавжуд. Дунё давлатлари ўртасидаги маданий, маънавий, иқтисодий, сиёсий алоқаларни кучайтириш ўрнига инсоният зотига қирғин келтирадиган гиёҳванд моддаларнинг умумжаҳон бозорининг ноёб молига айлантериш ва шу йўл билан жаҳон халқларини таназзулга келтиришдан даҳшатлироқ нарса йўқ. Барчамиз бир жон бўлиб терроризм ва экстремизм хавфига қарши кураш олиб боришимиз, «ўз уйингни ўзинг асра» деган шиорнинг маъносини кенг ва чуқур англаб Ватанимизнинг тинчлигини, халқимиз осойишталигини кўз қорачиғидек асрашимиз зарур. Бугун дунё турли қарашлар, ғоялар, нуқтаи-назарларнинг тамомила янгича ривожланиш палласига кириб, бу унда яшовчи халқларнинг турмуш тарзи, ғоя ва мафкураларига ҳам бирдек катта таъсир кўрсатмоқда. Аслида, турли жамият аъзолари муносабатларининг ўзаро интеграцияси сифатида танилган глобаллашув жараёни вақт ўтиши билан, унинг фаолият йўналиши ҳам ўзгариб бормоқда. Жамиятда инсонларнинг ҳатти-ҳаракатлари ва хулқ-атворларини тартибга солиш, уларнинг ўзаро алоқаларга асосланган муносабатларини шакллантириш инсонларнинг ўзлари томонидан турли институтлар, яъни, том маънодаги—тартибга солиш қурилмалари ташкил этилган. Зеро, улар барчаси бир-бирларидан мафкуравий озуқа оладилар. Экстремизм мафкуравий жиҳатдан олиб қараганда, ўзининг сиёсий ва диний тизимини тан олиб, бошқа қарашларни бутунлай рад этади. Экстремистик ташкилот ўз йўлбошчисининг барча буйруқларини сўзсиз бажаради. Бундан ташқари диний экстремистлар бошқа мавжуд қарашлар ва назарияларни кескин рад этадилар. Мавжуд ҳолатларни ўзгартириш учун энг сўнгги чораларни террор ёки бошқа зўровонлик усулларини ҳам қўллайдилар. Ўз мақсадларига куч ишлатиш билан эришадилар. Диний экстремистлар асл диний таълимотлардан йироқлашган, фақат ўз манфаатларига монанд эгоистларга хос мақсадларни кўяр эканлар. Улар миллатлар ва динлар ўртасига ихтилофлар солиб, турли ғоявий таҳдидлар асосида ҳарбий полигонларни юзага келтиришга ҳаракат қилар эканлар. Миллатларни ва инсониятни минг асрлик қадриятларини вайрон этиб зўравонликка асосланган



давлатини куришни ният этар эканлар. Инсонлар эрки, ҳаёти, қадр-қиммати уларнинг мақсадлари йўлида ҳеч нарсадир. Улар хурфикрликларга қаршилар. Маърифат, яратувчанлик, шукрона, инсонпарварлик ва бошқа барча ахлоқий тамойиллар ва нормаларни тан олмайдилар, ўз мақсадлари йўлида барча нарса ва қадриятлардан, ор-номус, виждон, ахлоқ, Ватандан, ота-онадан ҳам воз кечишни жоиз деб ҳисоблайдилар. Демак, ҳамиша хушёр турмоқ, бундай жоҳиллик ва ёвузликка қарши курашмоқ зарур. Дунё мамлакатлари диний экстремизм ва терроризмга қарши курашишнинг турли чораларини кўриб келмоқдалар. Бундай кураш усуллари ва йўллари асосан араб давлатларида қўлланилган ва қонуний эътироф этилганларини алоҳида қайд этиш мумкин. Араб шарқининг турли давлатларида ўз вақтида ислом экстремизмига барҳам беришга қаратилган жиддий чоралар кўрилган.

Назаримизда, террорчилик каби жиноятлар XX асрнинг маҳсули эмас, бу жамият тарақққиётига йўлдош жиноятларнинг биридир. Ўтган замонларда бу жиноятнинг номи ўзгача аталган бўлиши мумкин. Буни инкор этиб бўлмайди, албатта. Аммо, XX асрнинг биринчи ярмидан бошлаб, бу юридик атама “террорчилик” деб юритила бошлади. Халқаро терроризмга қарши курашни универсал даражада самарадорлигин ошириш зарурияти ўтган асрнинг биринчи ярмида кўчайди. Жумладан, Европанинг қатор давлатлар ва собиқ Иттифоқ олимлари ҳамкорлигида террор ёки террорчилик ҳаракатини сиёсат ва ҳуқуқнинг долзарб муаммоси тариқасида ўргана бошладилар. Шу даврдан бошлаб, террорчилик муаммоси акс эттирилган қатор халқаро ҳужжатлар ишлаб чиқилад бошлади ва қабул қилинди. Маълумки, Брюссель шаҳрида 1926 йилда бўлиб ўтган жиноят ҳуқуқи бўйича Биринчи халқаро конгрессда терроризмга барҳам беришга оид бир қатор халқаро анжуманлар ўтказилган ва анжуманларда терроризмга қарши курашнинг асосий йўналишлари белгиланиб, қатор халқаро ҳужжатлар қабул қилинган. Мазкур ҳужжатларда халқаро ҳужжатларда жиноятларга таъриф ва уларнинг жинойий юридик моҳиятини очиб беришга ҳаракат қилинди. Ушбу ҳужжатда эътироф этилишича, “Шахснинг миллатидан, содир этилиши жойидан қатъий назар жамиятга таҳдид келтириш мумкин бўлган ҳар қандай воситалардан фойдаланган ҳолда қасдан содир этилган ҳаракат халқаро ҳуқуқ принциплари асосида жазоланиши шарт.” [4].

Шу кунга қадар, Ўзбекистон Республикаси Конвенцияларнинг барчасини ратификация қилган. Жумладан, Фуқаролик авиацияси халқаро ташкилоти (ИКАО) томоидан ишлаб чиқилган “Ҳаво кемалари бортларида содир этиладиган айрим актлар ва жиноятлар тўғрисида”ги конвенция, 1963 йилнинг 14 сентябрида Токиода имзоланган бўлиб, 1969 йилнинг 4 декабридан кучга кирган. Ўтган йилнинг октябрь ҳолатига кўра, 193 давлат иштирокчи ҳисобланади.



Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашишда Халқаро денгиз ташкилоти, Атом энергияси бўйича халқаро агентлик, бундан ташқари минтақавий ташкилотлар, БМТ низоми бўйича ташкил этилган турли сиёсий форум ва тизимлар- Европа Иттифоқи, ОБСЕ, МДХ, Шанхай ҳамкорлик ташкилоти ва бошқаларни киритиш мумкин. Ҳеч кимга сир эмаски, инсоннинг қалби ва онгини эгаллаш, айниқса ёшларнинг маънавий дунёсини издан чиқаришга қаратилган турли хавф-хатарлар тобора кучайиб бораётган бугунги ўта нотинч замонда ўзининг кимлигини, қандай буюк зотларнинг авлоди, қандай бебаҳо мерос ворислари эканини теран англаб, она юртга муҳаббат ва садоқат ҳисси билан яшайдиган, имон-эътиқоди мустаҳкам ёш авлодгина муқаддас заминимизни ёт ва бегона таъсирлардан, бало-қазолардан сақлашга, Ватанимизни ҳар томонлама раванқ топтиришга қодир бўлади. Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2021 йил 1-июлда имзоланган “Ўзбекистон Республикаси Экстремизм ва Терроризмга қарши курашиш бўйича 2021-2026 йилларга мўлжалланган миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6255-сонли ва 2021 йил 28-январда имзоланган 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли фармонлари юртимизда амалга оширилаётган барча соҳалардаги ислохотларнинг янги босқичга кўтарилишида ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилмоқда[5]. Мамлакатимизга XX асрнинг 80-йилларида диний экстремистлар ўзларини диннинг ҳимоячиси, диндош ва халқимизга дўст деб кириб кела бошладилар, улар маҳалларда, масжидларда ислом динининг софлиги учун курашга даъват қилдилар. Мақсади душманлик бўлган бундай кишилар ўзларининг чиройли даъватлари билан баъзи бир ҳаётий тажрибаси, кўникма ва малакаси етарли бўлмаган, очик кўнгилли ёшларимизнинг ишончига кириб олдилар, уларни ўзларига эргаштиришга уриндилар, қайсидир маънода бунга қисман бўлсада эришдилар. Афсуски уларнинг бундай қабих ниятларини ота-оналар ва ёшлар ўз вақтида сезмадилар. Бундай разил кимсалар маълум ёшларимизни диннинг асл моҳиятини билмасликларидан, содда бўлганликларидан, ўтиш давридаги турли муаммоларни рўқач қилиб, ҳали мукамал шаклланмаган дунёқарашларини жаҳолат билан заҳарлашга ва жиноят ботқоғига ботиришга улгурдилар. Диний экстремистик ҳаракатлар Ўзбекистонга аслида қачондан бошлаб кириб кела бошладилар деган ҳақли савол туғилади. Аслида мақсадлари ёвузликдан иборат бўлган диний экстремистлар ва диний ақидапарастлар хорижий давлатларда ўзларининг фаолиятларини кенг тармоқда олиб борган бўлсаларда, ҳозирги МДХ давлатлари ҳудудларига кириб келишлари XX асрнинг охирларига бориб тақалади. Инсон онги эскича дунёқарашни бирдан рад эта олмайди ва янги дунёқарашни бирдан қабул эта олмайди. Бу жуда мураккаб жараён. Чунки барча бўлаётган жараёнларни тўлалигича асл моҳиятини



англаш учун инсонда билим ва малакани етарли бўлиши, дунёқараши кенг шаклланган бўлиши зарур. Афсус ҳамманинг дунёқараши даражаси бир хил бўлмайди. Бунинг обектив ва субектив сабаблари кўпдир. Эскининг инкор этилиши ва янгининг қабул қилиниши учун маълум вақт керак бўлади. Ана шу вақт давомида инсон онгида, аниқроқ қилиб айтганда кўпроқ ёшлар онгида ғоявий бўшлиқ бўлади. Турли зарарли оқимлар мана шу бўшлиқни ёт ғоялар билан тўлдиришга ҳаракат қиладилар. Ўзбекистонга кириб келган ёт ва манфур мафкуралар ҳам ана шундай мақсадни олдиларгига қўйганлар. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашда маънавий ва мафкуравий тарбиянинг роли жуда каттадир. Миллий қадриятларнинг асосини комил инсонни тарбиялаш муаммоси асосий ўринда туради. Жумладан, ислом динида фалсафий тафаккур ва хурфикрлиликка кенг йўл очиб берган тасаввуфнинг ирфон фалсафаси ўрта асрларда диний-мазҳабий мутаассиблик ва жаҳолатга қарши курашда шаклланган дунёқараш сифатида бугунги кунда ҳам ўзига хос аҳамиятга эга. Инсонпарварлик, хурфикрлилик ва диний бағрикенглик ғояларига асосланган бу қудратли маънавий-маърифий дунёқараш, айниқса, ҳозирги ислом оламида катта сиёсий-ижтимоий ўзгаришлар юз бераётган бир даврда вужудга келаётган ақидавий муаммоларни ижобий ҳал этиш, диний фундаментализм ва экстремизмнинг зарарли ғояларига қарши мафкуравий кураш олиб бориш ва ниҳоят, ислом динининг асл моҳияти маърифат эканлигини илмий нуқтаи назардан кўрсатиб бериш масаласида ҳам илмий-назарий асос сифатида хизмат қилиши мумкин. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашда ғоявий тарбия фуқаролик масъулияти, иймон, эътиқод, ижтимоий-сиёсий, маънавий ва маърифий муҳит, соғлом ғоя, сиёсий онг ва ҳуқуқий маданият, анъанавий, янгича илғор фикрлар, оилавий тарбия, муассасаларининг етакчилик, тарбиячилик ролини ошириб бориш талаб этилади, шундагина одамларимиз терроризм тузоғига тушиб қолмайди, йўлидан адашмайди. Ватанпарвар шахсларгина ёт кимсаларнинг манфур ғояларига қарши қатъий зарба бера оладилар. Эркин шахсларгина ҳар қандай ёвуз ғояларга қарши эзгу ғояларни, жаҳолатга қарши маърифатни қўрқмай, халқининг ғурури, миллатининг номуси, юрт тинчлиги учун хур фикрларини дадил айта оладилар ва садоқатли бўладилар. Диний экстремизмга қарши курашишда миллий ғояни, миллий мафкурани, ахлоқий тамойилларни, диний бағрикенглик, Ватанпарварлик, халқ фаровонлиги, юрт тинчлигини асраш, бойитиш, аждодларга ворисийлик билан холисона етказиш ҳар биримизнинг бурчимиздир. Бунда санъат ва спорт, улардаги турли назарий ва амалий усуллар ҳам ёрдам беради. Санъат ва спорт ҳаммани бирлаштира олади. халқни, миллатни бир эзгу ғоя олдида бирлаштиради.



“Маълумки, жамиятдаги ижтимоий кескинлик фавқулудда вазиятларда: табиий офатлар, йирик авариялар ва фалокатлар, эпидемиялар, оммавий қирғинлар, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий инқирозлар, террорчилик ҳаракатлари пайтида кескин кучаяди. Бундай вазиятларда ҳуқуқ-тартиботни муҳофаза қилиш ва фавқулудда вазиятлар оқибатларини бартараф этишга ҳисса қўшадиган жамоат тузилмаларининг мавжудлиги ҳаётий аҳамиятга эга.

Бу омиллар жамоат тартибини сақлашнинг қўшимча механизмларини, жумладан, жамоат тартибини муҳофаза қилиш бўйича фуқароларнинг жамоат ёки жамоат-давлат ташкилотларини яратишни излаш ва қонун ҳужжатларида расмийлаштириш заруриятини келтириб чиқармоқда. [10]

Мустақил Ўзбекистонимизнинг Конституцияда ҳам инсон ва фуқароларнинг ҳаёти дахлсизлиги, шунингдек виждон эркинлиги алоҳида қайд этилган. Бу билан асосий қомусимиз моҳиятан халқаро ҳужжатлар ва пактларга мос эканлигини кўриш мумкин. Шунингдек, давлатимиз тинчлигига раҳна солувчи радикал гуруҳлар фаолиятларини ман этувчи турли қатор ҳужжатлар ишлаб чиқилган бўлиб, барча Ўзбекистон фуқаролари уларнинг мазмунини тўлиқ билишлари ва уларга амал қилишлари лозим. Бу айти пайтда диний дунёқарашни кенгайтириш ва ҳуқуқий маданиятини ривожлантиришни талаб этади. Диний экстремизмга қарши курашда фаолият самарали бўлиши учун турли усуллардан фойдаланиш лозим. Яъни, унинг моҳиятини илмий таҳлил этиш ва уларни тушунтиришда замонавий педагогик технологиялардан унумли фойдаланиш керак деб ўйлайман. Бунда диний ва миллий кадриятларни холислик нуқтаи назаридан ўрганиш ва фойдаланиш лозим. Мафкуравий иммунитетни ҳамиша барқарорлаштириб бориш лозим, бунда глобаллашув, оммавий маданият ва бошқа мафкуравий тажовузларни ҳисобга олиш керак. Диний экстремизмнинг моҳиятидан ҳам унинг миллат, давлат ва жамият тараққиётига фақат салбий таъсир этишини, тажовузкорона фаолиятга асосланганлигини англаш қийин эмас.

Айниқса, бугунги мураккаб мафкуравий жараёнларни илмий – амалий жиҳатдан атрофлича таҳлил қилиш ва баҳолаш, уларнинг устувор йўналишларини кимга ва нимага қарши қаратилганлигини аниқлаш, аҳоли турли қатламларга таъсирини ўрганиш, миллий манфаатларимизга зид бўлган зарарли ғоялар ва мафкуравий хуружларнинг моҳиятини очиқ бериш, ёшларимиз қалбида миллий тафаккур ва соғлом дунёқараш асосларини мустаҳкамлаш алоҳида касб этади.



Фойдаланилган адабиётлар:

1. 2021 йил 6-ноябрь куни янги сайланган Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисида
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябр куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқида таъкидлаганларидек
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январь кунидаги Олий Мажлисга мурожаатномаси.
4. Янги сайланган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқи.
5. “Ўзбекистон Республикаси Экстремизм ва Терроризмга қарши курашиш бўйича 2021-2026 йилларга мўлжалланган миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6255-сонли ва 2021 йил 28-январда имзоланган 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли
6. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси. 2017. № 2. – 33-м.
7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. www.mfa.uz/uz/press/news/2016/12/9658/.
8. Афанасьев Н.Н. “Международно-правовая база борьбы с терроризмом” Закон и право. 2021 №4.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябр куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ) Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи.
10. Алимов Мухиддин Илхомжон ўғли. (2022). Participation of Citizens in the Maintenance of Public Order Historical-Theoretical Significance. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 13, 67–70. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/2588>



Оғзаки анъанадаги доира ижро усулларининг ёзув масалалари

Хикматуллаева Муминахон Равшан қизи,

Ўзбекистон давлат консерваторияси ҳузуридаги Ботир Зокиров номидаги

Миллий эстрада санъати институти ўқитувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада нақралар билан белгиланган усулларни замонавий ёзувдаги талқини, ҳамда бир усулнинг турлича кўринишга эга эканлиги таҳлиллар билан ёритиб берилган. Шунингдек, усулларнинг ёзув масаласидаги тафовутларга эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: Ритм, метр, усул, нағма, накра, ўлчов, зарб-у-кадим, мухаммас, наср.

Аннотация: В данной статье объясняется современная нотная запись усулев обозначенных накрами, а так же приводится анализ разных видов одного усула. Включительно, рассматривается проблема записи различия усулев.

Ключевые слова: Ритм, метр, усул, нагма, накра, размер, зарб-у-кадим, мухаммас, наср.

Annotation: This article explains the modern musical notation of usuls marked with nakras, as well as an analysis of different types of one usul. Inclusively, the problem of recording the usuls difference is considered.

Key words: Rhythm, meter, usul, nagma, nakra, size, zarb-u-kadim, muhammas, nasr.

“Усул” араб тилидан олинган бўлиб, асл, асос, принцип каби маъноларини акс эттиради. У ритмо-метрик формула бўлиб, бутун асар давомида сақланиб қолади. Усул икки турда ифодаланиши мумкин: аниқ ва яширин. Аниқ деганда маълум бир урма-зарбли чолғуда ижро этилади, яширинда эса куйнинг ичида ўзига хос томонларини намоён қилади. Усул оғзаки анъанадаги мусиқанинг асосий

бўлақларидан ҳисобланиб, унинг кўп қиррали ритмик структурасининг негизидир. Хусусан, унинг асосида турли ритмик қатламлар шаклланади.²⁸

Усулларнинг оғзаки анъанадаги ифодасини замонавий ноталаштиришда бир қатор манбалар ўрганиш жараёнида асосан икки тури аниқланди:

- “тан-тан”(ва унинг ҳар хил вариантлари) нақралари билан ифодаланган усуллар;
- “бак-бум”(ва унинг ҳар хил вариантлари) дойра зарблари билан ифодаланган усуллар.

Мазкур гуруҳлардан биринчисини изоҳласак, у нақрлар асосида шаклланади. Яъни “т” ва “н” ҳарфларининг бирикиши натижасида. Хусусан, ушбу бирликларнинг ўзаро бирикиб келишининг бизга маълум бўлган турлари замонавий нота ёзувида қуйидагича ифодаланади:

1. **тан тан**

2. **та на та на**

3. **та на та на тан**

4. **тан на тан**

Мазкур схемага аниқлик киритсак, саккизталиқлар битта нақрани ўз ичига олган бўғин билан ифодаланган, яъни “та” ёки “на”. Чоракталиқлар таркибида эса икки накра мавжуд, шу сабабдан ҳам улар икки мартаба узун бўлган чўзим(“тан”) билан белгиланган деб айтиш мумкин. Шунини инобатга олиш керак-ки, баъзи бир манбаларда чоракталиқни “тан” билан бирга “нан” ва “нин” ҳам белгилайди.

²⁸Тахалов С.М. Некоторые моменты ритмической интерпретации узбекской традиционной инструментальной музыки. //Вопросы эстетики, истории и теории монодии. Т, 1987. 74-75 бетлар



Форобий²⁹, Ибн Сино, Дарвеш Али Чангий³⁰ каби мутафаккирларнинг рисолаларида ритм юқорида келтирилган даслабки ёзиш усули (“тан-тан”) билан белгиланган. Шунингдек, Чангий уларнинг қўлланиши маълум бир шеърий вазнга асосланади, деган фикрни айтиб ўтади. Бинобарин, муаллиф бунга қуйидагича таъриф беради: “Шеъриятда мавжуд бўлган ўлчовлар(мезон) мусиқада ҳам бор бўлиб, улар ўлчамларининг бирлиги билан фарқланади. Яъни шеъриятда араб тилидаги маълум бўғинларнинг ўзаро бирикиши натижасида ҳосил бўлса, мусиқада эса қадимги зарб (“зарб-у-қадим”) бўлган “тан-тан” нинг асосида шаклланади”³¹.

А.Фитратнинг “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи” номли китобида дойра усулларининг 15, 17, 24, 27 каби кўринишлари мавжудлиги борасида сўз юритилган. Хусусан, улардан 12та энг машҳурлари шулардан иборат: Ҳазаж, рамал, вофир, дуйак, фохтозарб, туркий, мухаммас, сақийл, чанбар, зарб-и қадим, зарбу-л-фатҳ. Мазкур санаб ўтилган усулларнинг 12-си муаллиф томонидан тушириб қолдирилган. Жумладан, бу усуллардан(юқорида санаб ўтилган 12та усул) ҳазаж, рамал ва мухаммасларни ритм тузилиши берилган ҳолос. Ушбу уч усул аввал белгиланган даслабки метод (“тан-тан”) кўринишида ифодаланган. Мазкур китобда ўзбек мусиқасида ўрин олган усулнинг 24 кўриниши келтирилган. Шунини айтиш жоизки, бу ерда “тан-тан” ўрнига “бак-бум” атамаси қўлланилган³². Хусусан, ҳозирги кундаги усуллар “бак-бака-бака-бум” кўринишида ифодаланади. Бу борада муаллиф: “Икки “бак” бир-бирига яқин келганда “бака” деганлар, икки “бак” бир-биридан узоқ, бироқ айрилмаган бўлганда “бакка” деганлар. Мана шундай қилиб, бор этилган (бак-бакка-бум) рукнлари майдонга келган усулнинг бир ўрнида бир чертиш замони қадар тўхтамоқ лозим эса, уруш белгиси (ж) қўйганлар. Буни “ист” деб ўқуғанлар, (бака бум^ж бум) шаклида ёзилган бир усулни (бака бум ист бака бум) деб ўқуйлар”³³, - деган фикрни келтирган. Яъни замонавий ёзувда “бака” бу икки саккизталиқни (таркибида

²⁹Назаров А. Форобий ва ибн Сино мусиқий ритмика хусусида. Т., 1995

³⁰Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVIIвека). Т., 1946

³¹Ўша манба 12-бет.

³²Хикматуллаева М.Усулга оид баъзи муаммолар//«GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2020: CENTRAL ASIA». Нур-Султан, 2020, 43-бет

³³Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Т., 1993, 13-бет




биттадан накра), “бакка” эса икки чоракталикини(таркибида иккитадан накра) ифодалайди. “Ист”(ж) бу маълум бир тўхталиш, яъни паузадир. Унинг давом этиши у бириктирилган накрага боғлиқ.

Масалан:

- “бак^ж” – 1та чоракталики чўзим ва 1та чоракталики пауза



- “бака^ж” – 2та саккизталики ва 1та саккизталики пауза



Мазкур ҳолатга янада аниқлик киритсак, рукндаги “тан” – “бак(ёки бум)” га, “тана” – “бака”га тенгдир:

№1

тан	тана	тана нан
↓	↓	↓ ↓
бак	бака	бака бум

Т.Ғофурбековнинг “Бастакорлик ижодиёти: тарихи, таҳлили, тақдири” номли китобида мазкур оғзаки айтиладиган усулларни замонавий нота ёзувидаги кўриниши берилган. Муаллиф “Даври туркий” усулини тўрт кўринишини келтирган. Улардан фақат битта кўринишига тўхтаб ўтамиз. Масалан, биринчи кўриниши³⁴ куйидагичадир:

№2

тан та-на-нан та-на- нан та-на-нан та-на- нан тан



Мазкур усулнинг замонавий ёзувдаги кўринишидан шуни хулоса қилиш мумкин-ки, ундаги “тан” ва “нан” нақралари “тана”га нисбатан икки баробар узун бўлган ритмик суратга эгадир. Бинобарин, бўғин таркибидаги нақралар сонига қараб


³⁴Ғофурбеков Т.В. Бастакорлик ижодиёти: тарихи, таҳлили, тақдири. Т., 2019, 62-бет



ритмик сурат аниқланади. Хусусан, юқорида келтирилган №2 мисолда кўриниб турганидек чоракталиikka иккита(“т” ва “н”), саккизталиikka эса битта накра тўғри келган.


Т.Ғофурбеков услубларига асосланган ҳолда Давиш Али Чангининг рисоласида келтирилган “Мухаммас” усулини таҳлил қиламиз:

№3



Мазкур усулни Ю.Ражабий ижроларидан ёзиб олинган талқини билан солиштирамиз:

№4



Бу икки усул (№3,4) орасидаги тафовут катта эканлиги кўриниб турибди. Ритмик сурат бир бирига мос келмаган, шунингдек, умумий усулнинг вақт давомийлиги ҳам турличадир. Тахминан ушбу усулларни $\text{♩}=80$ тезлигидаги ижросини реал вақтини белгиласак, №3 даги усул 7 секундни, №4 даги эса 24 секундни ташкил этади. Яъни бу усулларнинг даврийлиги(давомийлиги) ҳам бир биридан фарқ қилади.



№1 схемада “тан-тана-тананан”нинг “бак-бака-бака-бум”га ўзгаргани кўрсатилган. Мазкур услуб(“бак-бака-бака-бум”) асосида А.Фитратнинг “Ўзбек классик мусикаси ва унинг тарихи” китобида 24 та усул кўриниши берилган. Хусусан, ушбу усуллар орасидан “Мухаммас”га эътибор қаратиб, унинг юқоридаги намуналари(№3,4) билан солиштирамиз:

№5



бак ка бак ка бум ба ка бак ка бум^ж бак^ж бум бак бум бум



Ушбу усулга изоҳ беришдан аввал, “бак ва бум”ларни нота ёзувидаги ритмик кўриниши қандай белгиланганлигига тўхталиб ўтамыз. А.Фитратнинг китобида келтирилишича, икки “бак” бир-бирига яқин бўлганда “бака”(), икки “бак” айрилмаган ҳолда бир биридан узоқда бўлса “бакка”() деб белгиланган. “Бакка” рукнига нега иккита бир хил узунликдаги ритмик сурат берилди, балки улардан биринчиси иккинчисига нисбатан узунроқдир, чунки иккинчисиди фақат “ка” рукни борку деган савол уйғониши мумкин. Аммо шуни айтиш жоизки, А.Фитрат келтирган 24 та усуллар рўйхати³⁵ ичидан биронтасида ҳам кетма-кет келган “бак-бак” учрамайди, шу сабабдан ушбу ҳолат “бакка” кўринишида ифодаланган деган фикр юзага келади. Шунингдек, бир рукн ўрнида тўхташ(пауза) “ж” ҳарфи билан белгиланган³⁶. Мазкур усулнинг 3 туридан (№3,4,5) охириги икки кўриниши бир бирига вақтдаги давомийлиги билан ўхшашдир. Яъни №5 усул ҳам реал вақтда 24 секундни ташкил этади. Аммо бу №4 ва №5 усулларнинг ички тузили кўриниб турганидек анча бир биридан фарқ қилган. Дарвиш Али Чанги рисоласида келтирилган “Мухаммас” усули эса бу икки (№4,5) усул билан умумий жиҳатларининг йўқлиги юқоридаги таҳлилдан маълумдир.

Юқорида келтирилган барча усуллар таснифидан оғзаки ифодалаш учун асосан икки метод қўлланиши намоён бўлди. Ёзувдаги бундай белгилашнинг қадимги “Тантан” кўриниши билан бугунги кундаги “Бак бум” ифодаси орасида айрим тафовут ва номутаносиблик мавжуд эканлиги таҳлил жараёнида аниқланди. Хусусан, бу икки

³⁵ Фитрат А. Ўзбек классик мусикаси ва унинг тарихи. Т., 1993., 13-14 бетлар

³⁶ Ўша манба 13-бет



ёзув услубининг ҳар бири ўзининг ютиқ ва камчиликларига эга эканлигини айтиб ўтиш лозимдир. Яъни юқоридаги таҳлиллардан аниқланганидек, “тан-тан” усул(метод)и билан нота чўзимини(давомийлиги) белгилаш қулай, аммо унинг сифат томон(қаттиқ ва юмшоқ товушлар)и ноаниқдир. Хусусан, “бак бум”да эса аксинча сифат аниқ, бироқ унинг ритмик суратини белгилашда айрим камчиликлар мавжуд, деган фикрни хулосалаш мумкин. Шунини айтиб ўтиш жоизки, мусиқий ритм ва аруз шеърий тизими ўзаро умумий атамаларга эгаллиги маълум, аммо уларнинг икки алоҳида бўлган мустақил тизимлиги бир қатор тадқиқотчилар томонидан таъкидланади. Хусусан, Дарвеш Али Чангий ўз рисоласида: “.... мусиқа илми ҳам аруз каби ўз қоидаларига эга. Шеъриятда ўлчам меъйори “фоъила” формуласидир. Мусиқа учун эса “зарб ул қадим”. Шу тариқа шеъриятда асос ва асос бўлмаган ҳарфлар ўз ўлчамида ҳисобланади. Мусиқада эса “зарб ул қадим” га таянади” – деб, ёзган. Яъни шеъриятда мавжуд бўлган вазнларни мусиқий усуллар билан солиштириб, улар орасида ўхшашлик излаш мақсадга мувофиқ эмас. Бу икки мустақил, бир-бирига тобе бўлмаган тизимлардир.

Адабиётлар рўйхати

1. Гофурбеков Т.Б. Бастакорлик ижодиёти: тарихи, таҳлили, тақдири. Т., 2019.
2. Назаров А. Форобий ва ибн Сино мусиқий ритмика хусусида. Т., 1995.
3. Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиша Али (XVIIвека). Т., 1946
4. Тахалов С.М. Некоторые моменты ритмической интерпритации узбекской традиционной инструментальной музыки. //Вопросы эстетики, истории и теории монодии. Т, 1987.
5. Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Т., 1993.
6. Хикматуллаева М. Усулга оид баъзи муаммолар//«GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2020: CENTRAL ASIA». Нур-Султан, 2020.

O'QUVCHILARNI YOSH VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA CHET TILINI O'RGATISH.

Uchtepa tumani 116- maktab

Ingliz tili o'qituvchisi

Negmatova Sanoat Ergashbayevna

***Annotatsiya:** Bugungi kunda yosh avlodning xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz-tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Shu boyis, umumta'lim maktablarida bu tilni chuqurroq o'rgatish uchun pedagog xodimlardan innovatsion usullardan keng foydalanish talab etilmoqda. Shu sababdan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi hamda 2013—2014 yildan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning yaqqol isbotidir. Ingliz tili jahon tili sifatida deyarli*

barcha sohalarda eng kerakli til sifatida namoyon bo'lmoqda, shu sababli nafaqat boshlang'ich sinflarda, iqtisodiy, fan, va madaniy jihatdan rivojlangan davrlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omili ekanligini to'liq anglagan holda yuqori sinf o'quvchilari doirasida ham kasb tanlashlarida albatta tilning ahamiyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Boshqa sohalar singari til o'rganish ham o'quvchi yoshlarning zehni bilan birgalikda yosh davrlariga ham bog'liq.

***Kalit so'zlar:** Chet tillarini o'rganish, Ingliz tili jahon tili sifatida, zamonaviy texnologiyalar, online telekanallar.*

Kichik yoshli bolalarda til o'rganishga bo'lgan xohish-istak juda yuqori, ayniqsa hozirgi axborot kommunikatsiya vositalari bilan bu holat yuqori ko'rstikchlarni ko'rsatmoqda. Davlatimiz tomonida maktablarda yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv



xonalarining zamonaviy texnologiyalar bilan johzlanganligi, yosh bilimli kadrlar bilan ta'minlanganligi, maktab drslaridan tashqari mustaqil shug'illanish uchun barcha sinflar uchun online telekanallardagi televizion online darslarning tashkil etilganligi tahsinga sazovordiz. 1 va 2- sinf o'quvchilari tildagi grammatik, leksik, fonetik, birliklarni tushunmasliklari mumkin ammo multfilmlar, o'yinlar, rasmlar orqali tilni a'lo darajada o'zlashtirishlari mumkin. Shunga ko'ra grammatikada asosan ikki xil usuldan unumli foydalaniladi

- Inductive
- Deductive

Induktiv usulda o'quvchilarga avval grammatik qoidalar tushuntirilib so'ngra misollar orqali mustahkamlanadi. Bu usul ko'pincha yuqori sinf o'quvchilari uchun foydali. Masalan zamonlar, predloglar, artikllar yuqori sinf o'quvchilari uchun ma'lum termenlar bo'lib ular gaplarda ega, kesim aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi gap bo'laklarini qo'yib gap tuza olishadi. Deduktiv usulda avval ma'lum o'yinlar, mashqlar orqali mavzu tanishtirilib, so'ngra qoidaga bog'lab tushuntiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ega, kesim, fe'l va boshqa birliklar haqida ma'lumotga ega bo'lmaganliklari sababli ularga o'yinlar qo'shiqlar orqali mavzu tushuntirish samaraliroq. Masalan Can -ingliz tilida "qila olmoq" modal fe'li bo'lib qo'shiqlar handout materiallar orqali o'rgatiladi.

-Can you play football

-Can you phone call

-It is very easy

-Can you do it Nansy?

Psixologlar fikriga ko'ra yoshi katta insonlarga nisbatan bolalarda yangilikka qiziqish, o'qish, o'rganishga bo'lgan ishtiyoq 70-80% kuchliroq bo'lar ekan. Kundalik hayotimizda ham bajara ololmaydigan vazifalarni ham bolalar ogohlantirishlarga

qaramasdan bajarib ko'rishga harakat qilishadi. Bir xillikdan juda tez zerikishadi shu sababli pedagog kadrlardan yangicha uslublarda, noan'anaviy tarzda darslarni tashkil etish, o'rganilayotgan xorijiy tilning muhitini to'liq yarata olish talab etiladi.

Ingliz tilini o'qitishdagi yana bir muhim jihat shuki o'quvchining qay holatda ma'lumotni to'laqonli qabul qilishini nazorat qilish. Bir guruhdagi bolalarning o'y xayollari, fikrlashi, dunyoqarashi ma'lumotni qabul qilishi turlicha bo'ladi. Shunga ko'ra o'qituvchi har bir o'quvchining xarakteri xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini olib borishi kerak.

Misol uchun, qaysidir o'quvchida ko'z bilan eslab qolish, yana birida eshitish orqali eslab qolish qobiliyati tabiatdan shakillangan bo'lishi mumkin. Shu xususiyatlarga ko'ra ingliz tilini o'rganish asosiy 3 yo'nalishda bo'ladi S Visual learning- ko'rish orqali ma'lumotni eslab qolish S Auditory learning -eshitish orqali ma'lumotni eslab qolish S Kinaesthetic learning- harakatlar orqali ma'lumotni eslab qolish Yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda o'qituvchi o'quvchilar bilan dars mobaynida, mashqlar bajarishda, rol playlar tayyorlashda, o'yinlar orqali mavzu tushintirilsa yoki tashkillashtirilsa sezilarni natija hosil qiladi va o'quvchida til o'rganishga motivatsiya beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, umumta'lim maktablarida ingliz tilini turli sinflar doirasida o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beruvchi pedagogik innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars ishlanmalar yordamida dars o'tish o'quvchilarda tilni o'rganish uchun yuqori samara beradi.

Quyida mana shunday mazmunli dars tashkil etishda darslarda foydalanishimiz mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar va pedagogik texnologiyalardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

Kim tezroq-o'yin maqsadi writing-yozish texnikasini rivojlantirish. O'yinning borishi:inglovchilarga gaplar yozilgan kartalar beriladi va kartadagi gaplarning so'zlari

notartib joylashgan bo'ladi. Kim birinchi va to'g'ri tartibda joylashtirib yozsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu o'yin ko'proq yuqori sinflarda samara beradi.

Men kimman?- o'yin maqsadi speaking-gapirish texnikasini rivojlantirish. O'yinning borishi: guruhdagi xohlovchi chiqib biror narsa yoki shaxsni nomini aytmasdan tasvirlaydi va qolgan o'quvchilar ta'rifga ko'ra kim yoki nimaligini topishi kerak. Bu o'yin nutqiy savodxonlikni oshiradi. Bu o'yin ko'proq boshlang'ich sinflarga xos.

Davomiy hikoya-o'yin maqsadi vocabulary-so'z boyligini rivojlantirish. O'yinning borishi:sinf 2 guruhga bo'linadi va 2 turdagi hikoyalar yarim tayyor holatda beriladi va guruhlar o'z fantaziyalarigan kelib chiqqan holda hikoyani davom ettirib oxiriga yetkazadilar. Qaysi guruhda ko'proq yangi so'z ishlatilsa shu guruh g'olib hisoblanadi. Bu o'yin o'quvchilarni bir-birlari bilan hamjihatlikda ishlashga o'rgatadi. Bu o'yin yuqori sinflarda yaxshiroq samara beradi.

Noisy dictation-o'yin maqsadi grammatikani rivojlantirish. O'yinning borishi:Sinfdagi o'quvchilar bir biriga yuzma-yuz qilib joylashtiriladi va vaqt belgilanib bir vaqtda bir birlarini ham eshitib ham ro'parasidagi o'quvchining aytga so'zlarini ilg'ab to'g'ri yoza olishi kerak.

Bu o'yin biroz shovqinli bo'ladi va aynan mana shu shovqin ularga hatto shunday vaziyatda ham so'zlarni ilg'ay olishni rivojlantirish imkonini beradi. Listening- eshitish texnikasini oshiradi. Ingliz tilida so'zlar eshitilganidek yozilmaydi, masalan speak-gapirmoq so'zida {ea} diftongi [i] tovushini beradi [spi:k]. Agar o'quvchi so'zlarni to'g'ri anglay olsa demak bu yaxshi natija. Bu o'yin boshlang'ich hamda yuqori sinflarda ham qo'llaniladi.



Adabiyotlar

1. Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Iriskulov A. T. va boshqalar Kids' English pupil's book 2-sinf-Toshkent-O'zbekiston; 2014.
3. Hoshimov O'. H, Yakubov I.Y.A. Ingliz tili o'qitish metodikasi-Toshkent-2003-yil.
4. <http://www.ziyonet.uz>.



Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Ibragimova Shaxnozaning ona tili
fanidan 1 soatlik dars ishlanmasi

Fan: Ona tili.

Sinf: 5 – sinf.

Dars mavzusi : Omonimlar. Nutqda omonimlardan foydalanish.

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy:** o'quvchilarga omonimlar haqida tushuncha berish, ko'chma ma'noli so'zlar va omonimlarning farqini o'rgatish; b) **tarbiyaviy:** o'quvchilarni ijodiy izlanish orqali bilim olishga o'rgatish; guruh bilan ishlash ko'nikmasini oshirish; o'quvchilarning olgan bilimlarining hayot bilan aloqadorligini ko'rsatib berish; v) **rivojlantiruvchi:** nutqda o'zbek tilini boyituvchi unsurlarni qo'llashga o'rgatish; g) **kasbga yo'naltiruvchi:** mavzuni o'rgatish jarayonida o'quvchilarni ma'lum bir kasbga qiziqtirish: tarjimon, tilshunos. d) **milliylik va mafkuraviy:** o'quvchilarda o'z milliy an'analaridan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;

Dars turi: yangi bilim va tushunchalarni bayon qilish darsi.

Dars metodi: tushuntirish-namoyish etish, qayta xotiralash, qisman izlanuvchanlik.

Darsning usuli: “ Muzyorar” , “ Aql charxi” , “ Kichik guruhlarda ishlash”.

Darsning jihozi: darslik, mavzu yuzasidan tarqatmalar, topshiriqli rangli rasmlar, rag'bat kartochkalari.

Darsning borishi:

Dars taqsimoti	Daqiqa
Darsni tashkil qilish jarayoni	3 daqiqa
O'tilgan mavzuni takrorlash	10 daqiqa
Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa



Yangi mavzuni mustahkamlash	12 daqiqa
Darsga yakun yasash, baholash	3 daqiqa
Uyga vazifa berish	2 daqiqa
Jami:	45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

- a) o'quvchilar davomati aniqlanadi.
- b) kun yangiliklari tanishtiriladi.
- c) sinf tozaligi tekshiriladi. Dars shiori tanlab olinadi.
- d) o'quvchilar darsga jalb qilinadi. (" Muzyorar" usuli asosida. Ya'ni bu usulda o'qituvchi o'quvchilarga qarata: Darsga hamma tayyormi deb uch marta aytadi).
- d) O'qituvchi o'quvchilarga yangi dars mavzusini tanishtiradi.


- 1.1. O'qituvchi darsning maqsadi, oltin qoidasini o'quvchilarga tanishtiradi. Hamda ushbu oltin qoidalarga amal qilinish kerakligi ta'kidlanadi. Darsimizning **oltin qoidasi** quyidagicha:

O'ng qo'l qoidasi

Darsda faol bo'lish

Sinfdoshlari fikrini
hurmat qilish

Diqqat bilan darsni tinglash



1.2. Dars shiori yoki kun hikmatini e'lon qilish;

**Bilim qaytarish va
takrorlash mevasidir!**

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash

2. "Sinonimlarni top" usuli orqali o'quvchilardan o'tilgan mavzuni so'rab, bilimini mustahkamlash. Bunda o'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. O'quvchilarga turli so'zlar yozilgan kichkina qog'oz parchalari tarqatiladi. O'quvchilar shu so'zlar orasidan sinonimlarni topib, qog'ozga yopishtirib chiqishadi va sinonimik qator yasashadi.

**Chiroyli, go'zal,
sohibjamol, zebo,**

**Katta, ulkan, bahaybat,
gigant**



Aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlar **omonim so'zlar** deyiladi. Ular **shakldosh so'zlar** deb ham yuritiladi. Masalan, un (ovoz), un (mahsulot), un (fe'l).

Ot – ism, ot – hayvon; o't – olov, o't - o'simlik; ol - fe'l, ol – rang.

Ari – hasharot, ari - fe'l; kun – quyosh, kun – sutka;

Omonim so'zlar bir qarashda **ko'p ma'noli** so'zlarga o'xshab ketadi, ularni farqlash kerak. Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zni o'z va ko'chma ma'noda qo'llashdan hosil bo'ladi: burun (yuz qismi) – burun (choynakning burni). Omonimlarda turlicha ma'nolar nazarda tutiladi: burun (yuz qismi) – burun (avval).

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

“Aql charxi” usuli yordamida yangi mavzuni mustahkamlash;
Savollarga javob berib aqlimizni charxlaymiz.

1. Omonim so'zlar deb nimaga aytiladi?
2. Omonim so'zlarning ikkinchi nomi nima?
3. Omonimlar va ko'p ma'noli so'zlar qanday farqlanadi?

“O'rnini top” metodi

Quyida keltirilgan: **son, qovoq, tut, tuz** so'zlarini berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniga joylashtirib chiqing.

1. Bolalar daraxti ustiga chiqib berkinishdilar.
2. Kech kunda daladan dadam katta olib keldilar.
3. Bozorga borib olish esidan chiqibdi.
4. U oyog'ining qismi og'riyotganidan azob chekardi.

268 – mashq. She'rni o'qing, undagi g'oya to'g'risida suhbatlashing.
Shakldosh (omonim) so'zlar bildirgan ma'nolarni izohlang.

Toshni kesa olmas pichoqning **dami**,

Pok tanga o'tmaydi saraton **dami**,

Ilm va hunarga bag'ishla o'zni,

G'animat yoshlikning har o'tgan **dami**. (A. Shukurov)

“Ma'nosini izohla” metodi. 269-mashq asosida



Bu metodda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadilar. O'quvchilarga turli mavzularga doir rasmlar beriladi. O'quvchilar rasm mazmunini izohlab, shu so'zlar qatnashgan gaplar tuzadilar.



40



V. Darsni yakunlash va baholash

- 1.O'qituvchi yakuniy xulosani beradi, izohlarni to'ldiradi.
- 2.Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Baholar e'lon qilinadi.

VI. Uyga vazifa berish

271-mashq. 3, 40, 100 sonlarining berilgan rasmlarga qanday aloqasi bor?
Ushbu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

Darsda yaxshi qatnashgan oʻquvchilarga **ragʻbat kartochkalari** tarqatiladi.





MAKTABLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Boliyeva Gulchexra Xamrayevna

Olmazor tumani 133 IDUMning

"Texnologiya" fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchi yoshlarda texnik ijodkorlikni shakllantirish mavzusi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya fani, intellektual loyihalar, ijodkorlik, ratsionalizatorlik, ixtiro.

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jam'iyati qurish yo'lini tanlagan va amalga oshirib kelmoqda. Respublikamizdagi amalga oshirilayotgan qayta qurishdan asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi hisoblanadi. Hozirgi davrda ta'limni insonparvarlashtirish va ta'lim mazmunining mohiyatini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvini maydonga olib chiqdi.

Bu yondashuv markazida shaxs turadi. Bunday yondashuv ta'lim mazmunini erkin tanlash imkoniyatini beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish jarayonida shaxsning ta'limiy, ma'naviy, madaniy va hayotiy talablari qondiriladi. Eng muhimi, shaxsga nisbatan insonparvarlik munosabati namoyon bo'ladi, madaniy-ta'limiy sharoitda o'qish individualligi va mustaqil harakat qila olish imkoniyati shaldlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv insonning tabiiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari birligi rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi. Bunday yondashuv namoyandalari I.Ya. Lamer, M.N. Skatkin, V.S. Lednev, B.M. Bim-Bada, A.V. Petrovskiydir. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlar yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek, mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarning Vatanimiz ravnaqi yo'lida har taraflama yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, ularning raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishi uchun xizmat qilib kelmoqda.



XXI asr fan texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir sohaga xorijiy tajribalar, yangi loyihalar kirib kelayotgani mamlakatimiz rivoji va ta'lim sohasida fan o'qituvchisi deb his qilmasliklari va ushbi fanni chuqur egallagan holda o'quvchilarda ham fanga qiziqish uyg'ota olishlari kerak. Texnologiya fani o'qituvchilari dars o'tish jarayonida ushbu fanning jamiyatdagi o'rni va mazmunmohiyati, fanning o'qitilishdagi maqsadlarini o'zlari teran his etishlari va shu bilan birga o'quvchilarga mehnatsevarlikni, ijodkorlikni va qaysidir ma'noda tadbirkorlikni o'rgatishlari lozim. "Ma'lumki o'qituvchilik kasbi o'ta ma'suliyatli kasb bo'lib, turli integratsion bilim va ko'nikmalarni talab etadi.

Texnologiya fani o'qituvchisi kelajakda o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda ma'lum kasb-hunarga oid ko'nikmalarni shakllantiradi. Bunda berilgan buyumlarni tayyorlashda o'qituvchi yuqori malaka va kasbiy mahoratga ega bo'lmog'i kerak. Ushbu natijaga erishish uchun bilim va ko'nikmalardan tashqari o'qituvchining o'z sinalgan uslubi, ta'lim va tarbiya orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati bo'lishi lozim. Dars jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda mehnat qilish ko'nikmalarini o'stirish va mehnat orqali tarbiyalash ko'nikmasiga ega bo'lishni talabalarga oliy ta'lim muassasalarida shakllantirish lozimdir. O'quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirish borasida "Texnologiya" fani muhim o'rin tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, maktabni o'z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish va ta'lim bilan qo'shib olib borish, o'quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar.

Texnologiya fani predmetlari, qurollari, jarayonlari oddiy o'rganish obykti sifatida emas, balki o'quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fani o'quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o'rgatadi.



Texnologiya fanini o'rganish materiallar, ularning xossalarini o'rganishdan hamda ushbu materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib ulardan turli buyumlar tayyorlashdan iborat bo'ladi. Ushbu jarayon o'qituvchilardan texnologik bilimlarni qo'llash, kreativ va texnik fikrlash orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini tahlil etish va o'quvchilarga kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat. O'quvchilarni yoshligidan mehnatga o'rgatish kelajak hayotlarda juda katta samara beradi. Bunda mehnat ko'nikmalari bilan birga o'quvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarni ham shakllantirish zarur. Mashhur idealist faylasuf E.L. Radlov tomonidan yigirmanchi asr boshidagi eng obro'li falsafiy lug'atlardan birida ijodkorlik biror narsaning yaratilishi bilan bog'liqligi, yaratilish qobiliyati xudoga eng xos bo'lganligi va odam faqat nisbatan ijodiy harakatlarni bajarishi mumkin. Bunday bayonotlar bilan bir qatorda, ijodiy jarayon tarkibida ongsiz jarayonlarning mavjudligiga e'tibor qaratildi.

Keyinchalik, ijodkorlikning har xil turlarini ilmiy o'rganish o'zgargani sari, umuman unga bo'lgan munosabat ham, ijodga berilgan ta'riflar ham o'zgardi. So'nggi paytlarda, asosan, yangi mahsulotning yaratilishi ilgari bo'lmagan ijodkorlik bilan bog'liqligiga e'tibor qaratildi; ijodkorlik inson faoliyatining turli sohalarida, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar vujudga kelganda namoyon bo'ladi. Ijodkorlik - bu ma'lum bir mavzu uchun ilgari noma'lum narsani yaratishga, kashf etishga hissa qo'shadigan faoliyat. Yana bir nuqta ijodiy faoliyat ko'lami bilan bog'liq. Ijtimoiy amaliyotda, qoida tariqasida, ijodkorlik kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya kabi yangilik toifalari bilan o'lchanadi. So'nggi paytlarda tashkiliy va texnologik jarayonlarga yangilik kiritish bilan bog'liq innovatsion (innovatsion) faoliyat haqida ko'p narsa aytiladi. Ammo bunday faoliyatni ratsionalizatsiya deb atash mumkin. ratsionalizatsiya - mavjud texnologiyalardan foydalanishni yaxshilash uchun (biz faqat texnik muammolarni hal qilish bilan bog'liq jihatni olamiz).

Shunday qilib, biz buni aytishimiz mumkin: ixtirochi, birinchi navbatda, yakuniy effekt, funktsiya, dizayner - funktsiyani bajaruvchi qurilma va ratsionalizator bilan qiziqadi - tugallangan qurilmadan ba'zi shaxsiy maqsadlar uchun yanada oqilona foydalanish. Ratsionalizatorlik taklifi - bu ma'lum bir muammoning mahalliy (umumiy ahamiyatga ega

bo'lgan ixtirodan farqli o'laroq) yangi o'ziga xos muhitda (masalan, zavodning ba'zi ustaxonalarida) ishlashini yaxshilash uchun ma'lum bir muammoning echimi. lekin butun zavod miqyosida emas, balki eng ko'p ishlab chiqarish).

Ma'lum hollarda ratsionalizatorlik taklifi ixtiro bo'lishi mumkin. Dizaynni ixtirochi va ratsionalizatorlik faoliyatiga 'bog'lab qo'yish' mumkin, agar ularni amalga oshirish uchun ma'lum dizaynlarni yaratish zarur bo'lsa. Ixtiro, dizayn va ratsionalizatsiya o'rtasidagi amaliy farqni har bir faoliyatning maqsadlari xarakteridan izlash kerak. Ixtiro texnik muammoni, umuman muammoni hal qilishga qaratilgan; dizayn - tuzilmani yaratish; Loyiha - bu talabalar tomonidan amalga oshiriladigan intellektual va amaliy xarakterdagi ijodiy yechim. O'qituvchi rahbarligida bajariladigan talabalarning mustaqil ishlari. Agar biz ijodkorlikning ishchi ta'rifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uni yangi muammolarni hal qilish yoki ilgari hal qilingan muammolarni hal qilishning yangi usullarini topish, ishlab chiqarishda yuzaga keladigan turli xil muammolarni, vaziyatli qiyinchiliklarni hal qilish bilan bog'lash maqsadga muvofiq ko'rinadi. va kundalik hayot. Yangi muammoning ijodiy echimining tuzilishini ko'rib chiqishdan oldin, texnik ijodiyot turlari haqida umumiy ma'lumotga to'xtalib o'tamiz. Kasbiy ijod turlariga ixtiro, qurilish, ratsionalizatsiya, dizayn kiradi.

Texnik ijodkorlikning barcha turlari o'rtasida yaqin munosabatlar mavjud. Texnologiyaning jadal rivojlanishining birinchi davrida bunday bo'linish kuzatilmadi va ilmiy adabiyotlarda asosan ixtirochilik faoliyati haqida so'z yuritildi. Hozirgi vaqtda kashfiyot, ixtiro va ratsionalizatorlik taklifining ilmiy va amaliy bo'linmasi mavjud bo'lib, ular nafaqat texnik ob'ektlarga nisbatan amalga oshiriladi. Shunday qilib, kashfiyot deganda, ilgari noma'lum bo'lgan ob'ektiv mavjud bo'lgan mulk yoki hodisani o'rnatish tushuniladi. Ishlab chiqarish, madaniyat va boshqalar uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoning yangi echimi deb nomlangan ixtiro. Ixtirolar konstruktiv (qurilmalar), texnologik (usullar) va yangi moddalarni yaratish bilan bog'liq bo'linadi.

Texnologiya ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish lozim. Lekin bu sohada yuqori



darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik baza zamon talablariga javob berishi lozim. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas;

-texnologiya fanini o'qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog'liqlikning kamligi;

-texnologiya fani me'yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftar va o'qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi;

-texnologiya fani mazmuniga mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika, arduino kabi O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo'ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo'lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarning kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдаги ПФ-4947-сонли ‘Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида’ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

2. Махбуба Аслановна Халмухамедова ‘НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИДА КАСБ-ҲУНАР ЭГАЛЛАШГА ДАЪВАТ.’ Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal

3.Технология таълимини ривожлантириш стратегиялари модули бўйича ЎҚУВУСЛУБИЙ МАЖМУА. Тошкент-2021

4. А. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. “Та’limda innovatsion texnologiyalar” Т.: 2008. – 128 б.

ПЕРЕВОД НА ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В

И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕРЕВОДЧИКОВ

В статье освещается проблема направления перевода, то есть практика устного и письменного перевода на иностранный для переводчиков язык. Во-первых, отмечается, что статус перевода на второй для переводчика язык (Язык-2, или Язык-В) в последнее время заметно чаще стал обсуждаться в переводоведении, в частности, в теоретическом аспекте.

Ключевые слова: перевод, методы преподавания, направление перевода, второй язык, переводческие компетенции.

Марупов Шухрат Насимович, ассистент - преподаватель Самаркандского государственного института иностранных языков

В современном переводоведении термин «направленность» обозначает ситуацию, когда переводчики переводят на неродной язык, то есть на иностранный язык. Практика перевода на Язык-2 обозначается разными терминами у различных переводоведов: например, Ладмирал [Ladmiral] называет ее «le theme»; у Ньюмарка [Newmark, 1988] это «служебный перевод»; Биби [Beeby] использует термин «инверсивный перевод»; Гроссман и соавт. [Grossman et al.] описывают это явление как «перевод на неосновной язык»; Келли и соавт. [La Direccionalidad...] вводят термин «перевод А — В». Теория перевода всегда несколько негативно относилась к этой практике, в особенности это распространяется на теоретические установки, которые разрабатывались относительно основных языков Западной Европы: перевод на язык В долго рассматривался как второстепенный в сравнении с переводом на язык А. Такое пренебрежительное отношении к практике перевода на язык

В было обусловлено предположением о том, что переводчик по-настоящему владеет только родным языком, а потому и должен переводить исключительно в этом направлении. Это предположение, скорей всего, исходит из представления эпохи



романтизма о том, что народ тесно связан со своим языком. В частности, Вильгельм фон Гумбольдт утверждал, что национальный язык олицетворяет дух народа, из чего следует, что только те, кто говорит на языке данного сообщества, способны постичь духовную

сущность своего народа: «Die Sprache ist gleichsam die äußerliche Erscheinung des NGeistes der Völker; ihre Sprache ist ihr Geist und ihr Geist ihre Sprache, man kann sich beide nicht identisch genug denken» [Humboldt, p. 37].

Согласно Гумбольдту, каждому языку присущ свой особый способ выражения, недоступный тому, кто не владеет этим языком с рождения. Поэтому перевод должен осуществляться только с иностранного языка на родной и никак иначе, поскольку иностранец не может постичь скрытую сущность языка перевода. Убежденность в том, что мы способны создать полноценный перевод только на свой родной язык, коренится в представлении эпохи Романтизма о трансцендентальной природе отношений между народом и его языком. Убеждение в том, что переводить следует только на родной язык, сохранилось вплоть до конца XX века. Еще в начале 1980-х годов некоторые известные переводоведы предостерегали от перевода по направлению «Язык-А — Язык-В», уверяя, что такая практика создает «неестественные и чуждые языку перевода» тексты, используя «неприемлемые и неестественные сочетания слов» [Newmark, 1981, p. 180]. В частности, Питер Ньюмарк отмечает: «Иностранец, сколь угодно долго живущий в чужой стране, все равно будет делать ошибки в сочетаемости слов, возможно, потому что он не делает различий между грамматикой и лексикой <...>

В силу указанных причин, переводчики правильно поступают, переводя на родной язык <...>» [Newmark, 1981, p. 180]. Таким образом, еще в 1980-е годы бытовало мнение, что перевод должен осуществляться исключительно носителями языка перевода, поскольку лишь они способны интуитивно ощущать ассоциации, связанные со словами, которые отражают отношения между языком и действительностью [Duff]. Это мнение проникло и



в теорию устного перевода, — в частности, представители Парижской школы высказывали подобные мысли о том, что устный перевод на Язык-В «отвлекает сознание от реконструкции смысла» [Seleskovitch, p. 62]. Однако, читая труды ведущих переводоведов, замечаешь, что они редко обращают внимание на письменный или устный перевод на неродной язык (Язык-2).

Многие из теоретиков перевода обходили вопрос о направленности перевода, доказывая, что переводчиками должны быть идеальные билингвы, переводя с одного родного языка на другой родной язык (например: [Catford, p. 27; Gutt, p. 143]). Представление о переводчиках как о личностях, одинаково владеющих двумя языками или даже двумя культурами, можно встретить в работах Лефевра и Басснетт [Lefevere and Bassnett, p. 11] и Мэри Снелл-Хорнби, которая, например, пишет, что цель подготовки переводчиков состоит в формировании «не только двуязычного, но и бикультурного (даже мультикультурного) специалиста, способного работать в самых различных областях технической экспертизы» [Snell-Hornby, p. 11].

Некоторые авторы открыто не высказываются по вопросу о выборе языка перевода, но подспудно выражают убежденность в том, что в профессиональной среде перевод осуществляется исключительно на Язык-А, — например, можно отметить такое мнение в очерке Виктора Гюго [Hugo, p. 18], в труде Фридриха Шлейермахера «Über die verschiedenen Methoden des Übersetzens» [Schleiermacher, 1985, p. 322] или в работе В. Бенджамина «Die Aufgabe des Übersetzers» [Benjamin, p. 80].

Нередко аналогичные взгляды можно найти и у более современных исследователей перевода, — например, в деконструктивистском подходе Барбары Джонсон [Johnson, p. 142], в феминистской трактовке перевода Шерри Саймон [Simon, p. 94], в герменевтической модели перевода Джорджа Стайнера [Steiner, p. 365, 370, 372] и даже в книге Лоренса Венути [Venuti], согласно которому, переводчик всегда переводит «иностраннный» текст и приводит его в соответствие или в противоречие с «отечественной» культурной традицией, в связи с чем

подразумевается, что переводчик всегда осуществляет перевод на родной язык, а не на иностранный. Несмотря на отсутствие явного интереса в переводоведении к практике перевода на иностранный язык, в действительности эта практика имела повсеместное распространение: например, в переводе пресловутой

Септуагинты, по-видимому, участвовали и греки и не-греки, а первые переводы священных буддистских текстов с санскрита на китайский язык делали отнюдь не китайцы [Chu Chi, p. 43–53]. Да и в наши дни перевод на неродной язык осуществляется достаточно часто, а иногда и преобладает, особенно в периферийных языковых сообществах, языком которых в качестве второго владеют лишь единицы (см. [Linn] об «основных» и «периферийных» языках).

Мы ввели новое направление магистратуры — магистерскую программу по переводу — на факультете переводоведения в Люблянском университете в 2007 г., так что первые выпускники сдавали итоговые экзамены в декабре 2010 г. Чтобы оценить уровень подготовки студентов, мы проверили результаты итоговых экзаменов по направлениям перевода за период 2010–2015 гг. (всего за это время было проведено 580 итоговых экзаменов) и получили следующие данные о распределении экзаменов по направлениям перевода:

- Перевод В > А (английский > словенский) — 168 экзаменов.
- Перевод А > В (словенский > английский) — 135 экзаменов.
- Перевод С > А (нем./франц./итал. > словенский) — 121 экзамен.
- Перевод А > С (словенский > нем./франц./итал.) — 156 экзаменов.

Меня интересовало, существует ли явное расхождение в результатах, когда студенты переводят на Язык-2 или на Язык-1. Поскольку разрешается сдавать каждый экзамен до шести раз, некоторые студенты воспользовались этим и сдавали экзамен по несколько раз. В результате из 580 попыток 475 получили положительные оценки и 105 — неудовлетворительные.

Перевод на неродной язык известен в культурной традиции Запада со времен античности и получил теоретическое освещение в работах Ю. Найды. Эта переводческая практика особенно широко распространена в культурах периферийных языков. Западное переводоведение по большей части игнорирует эту практику и придерживается «традиционного» представления о том, что перевод должен осуществляться исключительно на родной язык, если необходимо получить приемлемые в языковом и культурном отношении переводы. Однако современные исследования показывают, что направление перевода не является надежным критерием языкового и культурного качества перевода.

Центральные языковые сообщества без веских оснований выступают против перевода на Язык-2, но, главное — против использования преподавателей по обучению переводу на Язык-2, если они не являются носителем этого языка. Экспериментальные данные, однако, показывают, что, несмотря на различия между преподавателями-билингвами, преподавателями — носителями языка перевода и преподавателями, для которых язык перевода не является родным, каждая из этих категорий специалистов вносит свой вклад в процесс обучения переводу на Язык-2. И, наконец, если говорить о компетенциях студентов, в среднем студенты показывают лучшие результаты при переводе на родной язык (Язык-1), особенно в случае перевода со второго иностранного Языка-С. Тем не менее разница между результатами, обусловленными направлением перевода, в среднем незначительна, а корреляция между баллами по переводу на Язык-1 и Язык-2 достаточно высока. Сам по себе факт различия языковой компетенции между владением родным языком и иностранными языками не оказывает существенного влияния на качество перевода на неродной язык. Таким образом, можно сделать предварительный вывод о том, что результаты переводческих действий студентов главным образом зависят от овладения ими переводческой компетенцией (а она не зависит от направления перевода) и в меньшей мере — от овладения языковой компетенцией.

REFERENCES

1. Bajo M. T., Padilla F., Padilla P. Comprehension processes in simultaneous interpreting. *Translation in Context*. Eds. A. Chesterman, N. G. San Salvador, Y. Gambier. Amsterdam, Philadelphia, John Benjamins Publ., 2000, pp. 127–142.
2. Beeby A. *Teaching Translation from Spanish to English*. Ottawa, Univ. of Ottawa Press Publ., 1996. 277 p.
3. Benjamin W. The Task of the Translator. *Illuminations*. Eds. H. Arendt, W. Benjamin. London, Fontana Publ., 1982, pp. 69–82.
4. Campbell S. *Translation into the Second Language*. London, New York, Longman Publ., 1998. 218 p.
5. Catford J. C. *A Linguistic Theory of Translation*. Oxford, Oxford Univ. Press, 1965. 111 p. Chu Chi Y. Translation Theory in Chinese Translations of Buddhist Texts. *Investigating Translation*. Eds. A. Beeby, D. Ensinger, M. Presas. Amsterdam, Philadelphia, John Benjamins Publ., 2000, pp. 43–53.
6. Duff A. *The Third Language*. Oxford? New York, Pergamon Press Publ., 1981. 151 p. Gutt E.-A. A Theoretical Account of Translation — Without a Translation Theory. *Target*, 1990, vol. 2, no. 2, pp. 135–164.
7. Hirci N. Electronic reference resources for translators. *The interpreter and translator trainer*, 2012, vol. 6, no. 2, pp. 219–236.
8. Hugo V. Introduction to the translation of Shakespeare. *Translation / History / Culture: A Sourcebook*. Ed. By A. Lefevere. London, New York, Routledge Publ., 1992, p. 18.

МЕНЕДЖМЕНТ В ЗДРАВООХРАНЕНИИ

Салимова Малика Рашидбековна

Разикова Азиза Абдумаликовна

Ассистенты Ташкентской медицинской академии

Аннотация: Настоящая статья посвящена проблемам управления в здравоохранении. В ней рассмотрены факторы внутренней среды, оказывающие влияние на эффективное управление медицинской организацией.

Ключевые слова: менеджмент в здравоохранении, управление медицинской организацией.

В последнее пятилетие интерес к медицинскому менеджменту резко возрос. Теоретики и практики дискутируют на тему того, каким должно быть управление медицинскими учреждениями. Наибольшая часть трудов в данной сфере посвящена проблемам управления медицинскими учреждениями государственной формы собственности.

Исследователи сходятся во мнении, что управление медицинскими учреждениями требует особого подхода ввиду специфичности выпускаемого на рынок продукта – медицинской услуги. Социальная значимость медицинского бизнеса диктует применение особых методов менеджмента и маркетинга.

С каждым годом в стране стабильно увеличивается сектор коммерческих медицинских услуг, и население все больше адаптируется к их «платности». Однако менталитет значительной части населения до сих пор не позволяет принять платную медицину как факт.

Медицинский менеджмент – это применение комплекса специальных принципов, подходов, методов и средств управления организациями системы здравоохранения различных форм собственности, направленная на удовлетворение следующих целей:

- 1) максимизацию прибыли от коммерческой медицинской деятельности;
- 2) повышение качества жизни населения;
- 3) достижение социальной гармонии, связанной с реализацией права гражданина на качественную медицинскую помощь;

4) повышение доступности медицинской помощи.

Оценка существующей проблематики медицинской отрасли вызвана внешними и внутренними факторами.

Вопросы менеджмента в здравоохранении в настоящее время очень актуальны в связи с коммерциализацией отрасли, децентрализацией государственной власти на уровне территорий и как следствие повышения уровня самостоятельности медицинских организаций (МО). Основной целью менеджмента здравоохранения, несомненно, является снижение потерь общества от заболеваемости, инвалидности и смертности. Для достижения указанной цели необходима эффективная деятельность, как всей системы здравоохранения, так и каждой отдельно взятой медицинской организации, для чего требуется внедрить новые принципы и подходы, методы и модели управления всеми звеньями медицинских организаций различных форм собственности, направленных на удовлетворения следующих взаимосвязанных целей:

- повышение доступности оказания качественной и своевременной медицинской помощи;
- повышение качества жизни и здоровья населения;
- повышение рентабельности и прибыльности деятельности МО.

При этом не все понимают и признают необходимость и значимость рентабельности и прибыльности для медицинских организаций так называемого «бесплатного» здравоохранения. Однако практика показывает, что наиболее успешными являются медицинские организации, активно привлекающие дополнительные внебюджетные финансовые средства. Всю совокупность факторов, оказывающих влияние на управление организациями здравоохранения, по способу возникновения можно условно разделить на две группы: факторы внешней среды, к которым относятся:

Всю совокупность факторов, оказывающих влияние на управление организациями здравоохранения, по способу возникновения можно условно разделить на две группы: факторы внешней среды, к которым относятся: – со стороны



государства: завышенные лицензионные требования; высокие требования к медицинским помещениям; устаревшие стандарты оснащения медицинских кабинетов; демпинговые цены на платные услуги, устанавливаемые государственными медицинскими учреждениями; – со стороны поставщиков: завышенная стоимость медицинских материалов и оборудования; – со стороны потребителей: высокий уровень недоверия к медицине, предубеждение населения против платных медицинских услуг; – прочие факторы: нехватка помещений. факторам внутренней среды: – невысокая управленческая квалификация менеджеров учреждений; – дефицит квалифицированных медицинских кадров; – дефицит финансовых ресурсов и недофинансирование; – отсутствие рекламы и маркетинга (или их низкое качество).

Все эти факторы влияют на медицинскую организацию не обособленно, а в совокупности и приводят к торможению развития современной медицины. Остановимся подробнее на факторах внутренней среды. В современных условиях управление медицинскими организациями предполагает трансформацию функций главного врача в управленческие, руководитель МО уже не может оставаться просто врачом, а должен владеть всем арсеналом средств менеджмента. Занимая руководящую должность, человек, по сути, перестает быть врачом, а становится менеджером здравоохранения — наемным профессиональным управляющим, в его деятельности экономические и управленческие знания должны занимать ведущее место. В ряде работ, посвященных анализу управленческих кадров, говорится, что около 50 % руководителей здравоохранения отмечает нехватку знаний по вопросам экономики и управления здравоохранением, а также по правовым вопросам здравоохранения. При этом все респонденты ранее проходили курсы переподготовки или повышения квалификации по организации здравоохранения. Отсутствие экономической и управленческой подготовки ряда руководителей МО обуславливает их невысокую компетентность в принятии управленческих решений, что в свою очередь приводит к снижению эффективности управления здравоохранением. Таким образом, на современном этапе повышается значение эффективного менеджмента.



Менеджмент в здравоохранении предполагает управление трудовыми, финансовыми и материальными ресурсами МО. При этом наиболее очевидное и, казалось бы, понятное управление кадрами связано с огромным количеством проблем и противоречий. И самая острая проблема — это нехватка медицинских кадров, как врачей, так и среднего медперсонала.

Наиболее эффективным решением проблемы недостатка кадров в медицинской организации может оказаться создание условий, мотивирующих персонал в ней работать. Эти условия включают в себя: – взаимоотношения: в коллективе (общий моральный климат, многолетняя совместная работа и дружба и т. д.); с профессионалами своей или смежных специальностей, работающими в других коллективах; с пациентами; – личная выгода, т.е все, что удовлетворяет личные потребности работника: доходы, статус и репутация, личные связи и т. д. Наиболее очевидной представляется ситуация с уровнем оплаты труда — понятно, что это мощный мотивирующий (или демотивирующий) фактор. Чем более справедливой и «прозрачной» считают сотрудники систему материального стимулирования, принятую в МО, тем более стабилен коллектив. Однако уровень оплаты труда медицинских кадров в отрасли, во-первых, несопоставим с таковым ни в одной развитой стране мира, а во-вторых, ни в коей мере не зависит от его количества и качества, а потому не может считаться действенным стимулом мотивации. – удовлетворенность результатами работы. С одной стороны важность достижения определенных результатов работы и их очевидность при оказании медицинской помощи не вызывают возражений. Однако существующая на практике загруженность врачей и среднего медперсонала вызывает большие сомнения относительно данного условия. Следовательно, система мотивации и стимулирования обязательно должна акцентировать внимание на важности результата, результаты должны фиксироваться и поощряться всеми известными способами.



Литература:

1. Габуева Л.А., Щепин О.П. Организация и экономика предпринимательской деятельности в здравоохранении / под ред. Стародубова В.И. – М.:МЦФЭР, 2019. – 432 с.
2. Малахова Н.Г. Маркетинг в здравоохранении. – Ростов н/Д: Феникс, 2018. – 222 с.
3. Миронкина М.А. Этапы стратегического планирования услуг медицинского учреждения // Диалоги о науке.– 2019. – No 2.



JALOLIDDIN MANGUBERDI

Qurbonova Zamira

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdi hayoti va ijodi yoritib berilgan. Shuningdek, Jaloliddin tez orada, o'n ming kishilik qo'shin to'plab, Qandahorni qamal qilgan mo'g'ullarga qarshi yurib, uni tor-mor qilish va olib brogan janglari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Manguberdi, Manguberdi hayoti, Ala id-Din Muhammad II, "yuzida xoli bor", Timur Malik.

Jaloliddin Manguberdi yoki Jaloliddin Menguberdi (Jalol id-Diniya va-d-Din Abu-l-Muzaffar Mankburni ibn Muhammad) (1199—1231) — (1220 yildan buyon) so'nggi xorazmshoh, Ala id-Din Muhammad II va uning turkman xotini Oychechaklarning to'ng'ich o'g'li.

Jaloliddin Mekburni (yoki Manguberdi) nomini olib, "yuzida xoli bor" ma'nosini anglatadi. Jaloliddinning aniq tug'ilgan sanasi noma'lum, uning rasmiy belgilangan tug'ilgan sanasi 1198 yil.

Gurganj saroyida hurmatga sazovor bo'lgan baobro' buvisi, qipchoq malikasi Turkan xotunning qistovi bilan, mavjud an'analarga qaramay, taxtga Jaloliddinning kichik ukasi O'zloqxon o'tiradi. Jaloliddin harbiy muhitda ulg'ayadi va jang san'atini erta o'zlashtiradi. G'azna (hozirgi Afg'oniston) uning qaramog'ida bo'lishiga qaramay, otasi fitnalardan saqlanib, o'g'lini o'zini oldida Gurganjda ushlab turadi. Yosh Jaloliddin dushmanlar bilan tinimsiz janglar bo'lib o'tuvchi chegaraga chiqishga haraqat qiladi.

Chingizxonning rejalashtirgan bosqinidan xabardor bo'lib, Jaloliddin otasidan qo'shinini Sirdaryoga qo'yib, dushmanni o'sha yerda kutib olishini so'raydi, lekin otasi himoya devorlari va qal'asi dushmanni mamlakatga qo'ymasligiga amin bo'ladi va qo'shinni to'plamaslikka qaror qiladi. Mo'g'ullar shaharni shiddat bilan bosib oladi. Avvaliga, 1220 yil Buxoro, keyin Samarqand o'rab olinadi. Jiddiy xastalangan Muhammad Kaspiyga qochadi. Uchta o'g'lini to'playdi, Jaloliddinning beliga o'z shamshirini osib, uni taxt vorisi etib tayinlaydi va boshqa ukalarini akasiga itoat qilishlarini



undaydi. Muhammadning o'limidan so'ng Jaloliddin taxtga o'tiradi, lekin Gurganj aslzodalari yangi hukmdorni bepisand qilib, xalq madadidan chetda qoldirishadi.

Jaloliddin uch yuz sodiq turkman jigitlaridan iborat qo'shin to'playdi va Xurosonga yo'l oladi. Niso atrofida ular yetti yuz kishilik mo'g'ul qo'shinini kutib olishadi va ularni osonlikcha yengishadi. Ushbu arzimas g'alaba Xuroson aholisini mo'g'ul istilochilariga qarshi g'ayratlantiradi, natijada, Chingizxon o'z qo'shinini Xorazm va Xurosonga yo'llaydi va Jaloliddinning kichik ukalarini qo'shini bilan yuzlanib, ularni ayovsiz tor-mor etadi.

Jaloliddin vasiyat qilib qoldirilgan yeri tomon yo'l olarkan, Marv noibi Xon Malik va uning qirq ming kishilik lashkari, turkman xoni Sayf id-din va uning qirq ming kishilik lashkari bilan ittifoqdosh tutinadi. Qandahor yaqinida birlashgan lashkarlar qo'shini mo'g'ullarni yo'q qiladi va Jaloliddin G'aznagacha yetib boradi.

Murg'ab yuqorisida unga Marvning sobiq noibi Xon Malik va turkman xoni Sayf id-din qo'shiladi. G'aznaga keliboq, Jaloliddin tez orada, o'n ming kishilik qo'shin to'plab, Qandahorni qamal qilgan mo'g'ullarga qarshi yurib, uni tor-mor etadi. Bo'lingan xorazmlik lashkarlarning harbiy qo'mondonlari o'z hukmdorining muvaffaqiyati haqida eshitib, G'aznaga to'plana boshlaydi va tez orada, Jaloliddin boshchiligida 70 mingga yaqin askar yig'iladi. U bilan birga og'asi Amin al Mulk, sarkarda Timur Malik, qarluqlar xoni Azam Malik va afg'onlar muallimi Muzaffar Maliklar ham keladi. Chingizxon xali xorazmshoh kuchidan bexabar bo'lib, unga qarshi Shiki Xutuxu boshchiligidagi 30-minglik qo'shinini jo'natadi.

Parvonadagi jang

Bahorda Jaloliddinning qo'shini G'ori daryosidagi Valian qishlog'ida Shiki Xutuxuning yetakchi lashkariga duch keladi. Mo'g'ul qo'shini, deyarli butunlay yakson etiladi: bor-yo'g'i yuzta askar jon saqlab qoladi. So'ngra, Jaloliddin dara tomon yo'l olib, u yerda jangni kutadi. Shiki Xutuxu o'zining bor qo'shinini shu yerga yo'naltiradi. Ikki qo'shin haybatli qoyalar orasidagi toshloq darada uchrashadi. Joy otliq lashkar uchun noqulay bo'lib, ikki tomon ham harakatdan tiyinishga majbur edi. Jaloliddin Temur Malikka piyoda kamonchilar bilan oldinga siljishlarini buyuradi. Xorazmliklar yovning kuchsiz tomonini sezganligiga qaramay, Shiki Xutuxu birinchi kun o'zini tiyadi, keyin qoyalarga



ko'tariladi va mo'g'ullarga tepadan yoy otishni boshlab, mo'g'ul qo'shiniga jiddiy talofot yetkazadi.

Ertasiga Jaloliddinning askarlari daraga bir nazar boqib, mo'g'ullar qo'shini soni ko'payganini payqashadi. Aslida, Shiki Xutuxu zahiradagi otlarga mato bilan o'ralgan poxol tulumlarni o'tkazib qo'yishni buyurgan bo'ladi. Dushman tarafning chap qanotiga uyushtirilgan hujum o'q-nayza do'li ostida qoladi. Shunda Shiki Xutuxu dushmanga aylanasiga hujum uyushtirishni buyuradi. Biroq, o'y-yoilar do'li va qoyatoshli yon-atrof mo'g'ullar yutug'iga to'sqinlik qiladi. Jaloliddin o'z jangchilarini egarlatadi va qo'shimcha hujumga kirishadi. Qo'qqisdan uyushtirilgan hamladan mo'g'ullar qocha boshlaydi. Xorazmshoh jangchilari chekinadi va Shiki Xutuxu o'zining yarim qo'shinidan ayriladi. Ko'plab tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Chingizxonning G'arbga o'tishi davrida Parvonadagi mo'g'ul jangchilarining tor-mor etilishi ularning O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistondagi janglari ichida yagona yirik mag'lubiyati bo'lgan.

Jaloliddinga nafaqat jangchilari, balki aholisi ham odil va haqqoniy hukmdor o'rnida madad ko'rsatgan. Parvonadagi mag'lubiyatdan so'ng mo'g'ullar Afg'oniston hududini tark etadi. Ularga javoban, Chingizxon xorazmshohlarga qarshi yangi jangda ishtirok etishga qaror qiladi. Ammo, Jaloliddin endigina Chingizxon bilan hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rayotgan vaqt uni qo'llab-quvvatlovchi sarkardalar orasida nizo kelib chiqib, qipchoq, qarluq va afg'onlar Jaloliddinni tark etishadi.

Parvonadagi mo'g'ullarning mag'lubiyatidan so'ng boshqa kuchlar boshida Chingizxonning o'zi Jaloliddinga qarshi yurish qiladi. Uni Sind daryosi qirg'og'ida 1221 yilning 9 dekabr kuni ushlaydi. Xorazmshoh qo'shinini yarim oy shaklida tizib, daryoni ikki tarafdin to'sib qo'yadi. Mo'g'ullar to'siqqa yopishadi va tez orada halok bo'lishadi. Markaziy qismi to'siqlarni yengib o'tishga harakat qiladi, ammo ko'plab askarlar nobud bo'ladi. Jaloliddin o'zining haromini butunlay suvga cho'ktirishni buyuradi, so'ngra, asir tushmaslik uchun tulpori bilan o'zini Sind daryosining katta qoyasiga tashlaydi. 6 ming chavandozlik xorazmshoh Sind daryosining boshqa qirg'og'idin o'tib, hatto, mo'g'ullarni quroli bilan qo'rqitishga ham ulguradi. Jangda Jaloliddinning oilasi asir olinadi va o'ldirali, o'zi esa Sindga ketadi. Afsonaga ko'ra, Chingizxon yosh sultonning jasoratiga tan berib,



o'zining ko'plab o'g'illariga: "Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim", degan ekan. Chingizxonni ta'qib etish uchun Balo noyon va Burbon ismli tuman begilar boshchiligidagi lashkarni yuboradi. Biroq, Multan shahrigacha yetib borgach, mo'g'ullar sulton izini yo'qotishadi.

Jud tog'ida joylashgan Shatra ma'muriyatining mahalliy sind ranasi o'z hududida Jaloliddinni qolgan askarlari bilan paydo bo'lganini bilib, 5 ming kishilik piyoda askarini va ming kishilik chavandoz askarni to'plab, unga qarshi yurish qiladi. Kutilmaganda Jaloliddinning o'zi unga qarshi hujum uyushtiradi. U o'zi shaxsan ranaga o'q uzib o'ldiradi, lashkarlari esa qisqa jangdan so'ng tarqalib ketadi. 1224 yilning boshigacha Jaloliddin Hindistonda yashaydi, Eron va Mesopotamiyaga yurishga kirishadi. To'rt yil davomida Jaloliddin Hindistonda mo'g'ullar bilan jang olib boradi.

U turkmanlardan iborat yangi qo'shin to'playdi va G'arbiy Eronga - Kavkazga yo'l oladi. 1225 yil Jaloliddin janubdan shimoliy Eronga bostirib kiradi. Jiddiy qarshiliksiz Marag'ani egallab, sulton Tabrizga yo'l oladi va shaharni zabt etadi. Otabek O'zbek Ganzakka qochadi, u yerdan mustahkam Alinjo qal'asiga ketib, o'sha yerda vafot etadi. Qisqa vaqt ichida Jaloliddin hukmronligini Ganj, Barda, Shamkir va Arranning boshqa shaharlari tan oladi. 1225 yil Jaloliddin qo'shini Gruziya va Armanistonni qisman egallaydi. 1225 yil 8 avgustda Sharqiy Armanistonning Dvin shahri yaqinida gruzin-armanlar va Jaloliddin qo'shini o'rtasida tarixga Garni Jangi deb kirgan jang bo'lib o'tadi. Unda xorazmshoh g'alaba qozonadi. Tinchlik sulhini tuzish va mo'g'ul qo'shinlariga qarshi yurish taklifi bilan o'z elchilarini gruzinlarga yuboradi, lekin malika Rusudandan rad javobini oladi. 1226 yil Gruziyani egallab, uning poytaxti Tbilisini vayron etadi, u yerdagi barcha cherkovlarni buzdirib tashlaydi. Tbilisida islom dinini qabul qilganlarga tirik qoladi. Jaloliddin sharqiy Kavkaz ortini zabt etishi jarayonida Ildegizidlar davlati qulaydi. Shervarshohlar ham o'zlarini Jaloliddinga tobeligini qabul qiladi.

1227 yil Rey yaqinida Jaloliddin mo'g'ullar qo'shinini tor-mor etadi. Shu yilning o'zida Isfaxon aholisi tomonidan yordamga chaqirilgan xorazmshoh Isfaxon shahri yaqinida mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonadi. Jaloliddin bir varakayiga ikki jangovar harakatni tutadi: G'arbiy Eronda mo'g'ullarga qarshi hamda Kavkaz ortida arman va gruzinlarga



qarshi. Ammo 1228 yil kilik-arman podshosi Getum I va misrlik sulton Ashraf bilan birlashgan rum sultoni Alouddin xorazmshohga qarshi jang boshlaydi. Xorazmshoh qo'shini ushbu hujumga bardosh bera olmay, mag'lubiyatga uchraydi.

Jaloliddin qipchoq xonlariga mo'g'ul istilochilariga qarshi birlashish taklifi bilan maktub yo'llaydi va 1220 yil Chingizxonning o'g'li Jo'ji tomonidan qo'lga olingan va bir nafar farzandi bor singlisidan javob xatini oladi. Maktabda u Jaloliddinni mo'g'ullar bilan ittifoqdosh bo'lishga ko'ndiradi va unga Amudaryo yaqinidagi yerlarni taklif qiladi. Ammo mazkur xatga Jaloliddin javob yozmaydi.

Jaloliddin dushmanlariga qarshi dovyurak qarshiliklar ko'rsatadi. 1230 yil Iroqdagi Xilot qal'asi zabt etilgach, xorazmshoh Mesopotamiya va Kichik Osiyo hukmdorlarining ittifoqi natijasidagi hujumda mag'lubiyatga uchraydi. Jaloliddin qo'shiniga yakuni zarbani Charmag'on boshchiligidagi mo'g'ullarning Ugedey lashkari yetkazadi. Jaloliddin jangda og'ir jarohatlanadi, so'ngra u Qurdiston tog'lariga yashirinishga harakat qiladi u o'sha yerda o'ldiriladi. Jaloliddin siymosi afsonaga aylanadi, unga yozuvchi Vasiliy Yanning "Mardlik qanotlarida" ertak-qissasi va boshqa asarlar bag'ishlangan.

Jaloliddin Manguberdi "milliy qahramon"lardan biri. 1999 yili mamlakatimizda Jaloliddin tavalludining 800 yilligi keng nishonlangan. O'zbekistonda unga atab bir nechta haykallar o'rnatilgan, Xorazm viloyatida Jaloliddin Manguberdiga bag'ishlangan memorial majmua qurilgan.

1999 yil Jaloliddinning 800-yillik yubileyiga bag'ishlangan 25 so'mlik yubiley tangalar muomalaga kiritilgan.

2000 yilning 30 avgust kuni "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etilgan. Bu orden bilan mamlakat mustaqilligini, Vatan sarhadlarini, ona yurt tuprog'ini himoya qilishda hamda uni ko'z qorachig'iday asrashda yuksak harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalarini ko'rsatgan, davlatning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo'shgan qo'mondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar mukofotlanadilar. 2003 yilning 22 avgust kuni ushbu orden bilan Xorazm viloyati mukofotlangan.

Jaloliddin, shuningdek, Turkmanistonda ham hurmat qozongan bo'lib, uning mo'g'ullarga qarshi jasorati bugungi kunda ham tarannum etiladi.



Adabiyot ro'yxati

1. Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999;
2. Jaloliddin Manguberdi (o'zbek, ingliz, rus tilida), T., 1999;
3. Jaloliddin Manguberdi, Vatan, yurt himoyachisi, T., 1999;
4. Buniyotov 3., Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097—1231), T., 1998;
5. Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;

O'QUVCHILARNI YOSH VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA CHET TILINI O'RGATISH.

Uchtepa tumani 116- maktab

Ingliz tili o'qituvchisi

Negmatova Sanoat Ergashbayevna

***Annotatsiya:** Bugungi kunda yosh avlodning xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz-tlini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Shu boyis, umumta'lim maktablarida bu tilni chuqurroq o'rgatish uchun pedagog xodimlardan innovatsion usullardan keng foydalanish talab etilmoqda. Shu sababdan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi hamda 2013—2014 yildan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning yaqqol isbotidir. Ingliz tili jahon tili sifatida deyarli*

barcha sohalarda eng kerakli til sifatida namoyon bo'lmoqda, shu sababli nafaqat boshlang'ich sinflarda, iqtisodiy, fan, va madaniy jihatdan rivojlangan davrlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omili ekanligini to'liq anglagan holda yuqori sinf o'quvchilari doirasida ham kasb tanlashlarida albatta tilning ahamiyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Boshqa sohalar singari til o'rganish ham o'quvchi yoshlarning zehni bilan birgalikda yosh davrlariga ham bog'liq.

***Kalit so'zlar:** Chet tillarini o'rganish, Ingliz tili jahon tili sifatida, zamonaviy texnologiyalar, online telekanallar.*

Kichik yoshli bolalarda til o'rganishga bo'lgan xohish-istak juda yuqori, ayniqsa hozirgi axborot kommunikatsiya vositalari bilan bu holat yuqori ko'rstikchlarni ko'rsatmoqda. Davlatimiz tomonida maktablarda yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv



xonalarining zamonaviy texnologiyalar bilan johzlanganligi, yosh bilimli kadrlar bilan ta'minlanganligi, maktab drslaridan tashqari mustaqil shug'illanish uchun barcha sinflar uchun online telekanallardagi televizion online darslarning tashkil etilganligi tahsinga sazovordiz. 1 va 2- sinf o'quvchilari tildagi grammatik, leksik, fonetik, birliklarni tushunmasliklari mumkin ammo multfilmlar, o'yinlar, rasmlar orqali tilni a'lo darajada o'zlashtirishlari mumkin. Shunga ko'ra grammatikada asosan ikki xil usuldan unumli foydalaniladi

- Inductive
- Deductive

Induktiv usulda o'quvchilarga avval grammatik qoidalar tushuntirilib so'ngra misollar orqali mustahkamlanadi. Bu usul ko'pincha yuqori sinf o'quvchilari uchun foydali. Masalan zamonlar, predloglar, artikllar yuqori sinf o'quvchilari uchun ma'lum termenlar bo'lib ular gaplarda ega, kesim aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi gap bo'laklarini qo'yib gap tuza olishadi. Deduktiv usulda avval ma'lum o'yinlar, mashqlar orqali mavzu tanishtirilib, so'ngra qoidaga bog'lab tushuntiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ega, kesim, fe'l va boshqa birliklar haqida ma'lumotga ega bo'lmaganliklari sababli ularga o'yinlar qo'shiqlar orqali mavzu tushuntirish samaraliroq. Masalan Can -ingliz tilida "qila olmoq" modal fe'li bo'lib qo'shiqlar handout materiallar orqali o'rgatiladi.

-Can you play football

-Can you phone call

-It is very easy

-Can you do it Nansy?

Psixologlar fikriga ko'ra yoshi katta insonlarga nisbatan bolalarda yangilikka qiziqish, o'qish, o'rganishga bo'lgan ishtiyoq 70-80% kuchliroq bo'lar ekan. Kundalik hayotimizda ham bajara ololmaydigan vazifalarni ham bolalar ogohlantirishlarga

qaramasdan bajarib ko'rishga harakat qilishadi. Bir xillikdan juda tez zerikishadi shu sababli pedagog kadrlardan yangicha uslublarda, noan'anaviy tarzda darslarni tashkil etish, o'rganilayotgan xorijiy tilning muhitini to'liq yarata olish talab etiladi.

Ingliz tilini o'qitishdagi yana bir muhim jihat shuki o'quvchining qay holatda ma'lumotni to'laqonli qabul qilishini nazorat qilish. Bir guruhdagi bolalarning o'y xayollari, fikrlashi, dunyoqarashi ma'lumotni qabul qilishi turlicha bo'ladi. Shunga ko'ra o'qituvchi har bir o'quvchining xarakteri xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini olib borishi kerak.

Misol uchun, qaysidir o'quvchida ko'z bilan eslab qolish, yana birida eshitish orqali eslab qolish qobiliyati tabiatdan shakillangan bo'lishi mumkin. Shu xususiyatlarga ko'ra ingliz tilini o'rganish asosiy 3 yo'nalishda bo'ladi S Visual learning- ko'rish orqali ma'lumotni eslab qolish S Auditory learning -eshitish orqali ma'lumotni eslab qolish S Kinaesthetic learning- harakatlar orqali ma'lumotni eslab qolish Yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda o'qituvchi o'quvchilar bilan dars mobaynida, mashqlar bajarishda, rol playlar tayyorlashda, o'yinlar orqali mavzu tushintirilsa yoki tashkillashtirilsa sezilarni natija hosil qiladi va o'quvchida til o'rganishga motivatsiya beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, umumta'lim maktablarida ingliz tilini turli sinflar doirasida o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beruvchi pedagogik innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars ishlanmalar yordamida dars o'tish o'quvchilarda tilni o'rganish uchun yuqori samara beradi.

Quyida mana shunday mazmunli dars tashkil etishda darslarda foydalanishimiz mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar va pedagogik texnologiyalardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

Kim tezroq-o'yin maqsadi writing-yozish texnikasini rivojlantirish. O'yinning borishi:inglovchilarga gaplar yozilgan kartalar beriladi va kartadagi gaplarning so'zlari



notartib joylashgan bo'ladi. Kim birinchi va to'g'ri tartibda joylashtirib yozsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu o'yin ko'proq yuqori sinflarda samara beradi.

Men kimman?- o'yin maqsadi speaking-gapirish texnikasini rivojlantirish. O'yinning borishi: guruhdagi xohlovchi chiqib biror narsa yoki shaxsni nomini aytmasdan tasvirlaydi va qolgan o'quvchilar ta'rifga ko'ra kim yoki nimaligini topishi kerak. Bu o'yin nutqiy savodxonlikni oshiradi. Bu o'yin ko'proq boshlang'ich sinflarga xos.

Davomiy hikoya-o'yin maqsadi vocabulary-so'z boyligini rivojlantirish. O'yinning borishi:sinf 2 guruhga bo'linadi va 2 turdagi hikoyalar yarim tayyor holatda beriladi va guruhlar o'z fantaziyalarigan kelib chiqqan holda hikoyani davom ettirib oxiriga yetkazadilar. Qaysi guruhda ko'proq yangi so'z ishlatilsa shu guruh g'olib hisoblanadi. Bu o'yin o'quvchilarni bir-birlari bilan hamjihatlikda ishlashga o'rgatadi. Bu o'yin yuqori sinflarda yaxshiroq samara beradi.

Noisy dictation-o'yin maqsadi grammatikani rivojlantirish. O'yinning borishi:Sinfdagi o'quvchilar bir biriga yuzma-yuz qilib joylashtiriladi va vaqt belgilanib bir vaqtda bir birlarini ham eshitib ham ro'parasidagi o'quvchining aytga so'zlarini ilg'ab to'g'ri yoza olishi kerak.

Bu o'yin biroz shovqinli bo'ladi va aynan mana shu shovqin ularga hatto shunday vaziyatda ham so'zlarni ilg'ay olishni rivojlantirish imkonini beradi. Listening- eshitish texnikasini oshiradi. Ingliz tilida so'zlar eshitilganidek yozilmaydi, masalan speak-gapirmoq so'zida {ea} diftongi [i] tovushini beradi [spi:k]. Agar o'quvchi so'zlarni to'g'ri anglay olsa demak bu yaxshi natija. Bu o'yin boshlang'ich hamda yuqori sinflarda ham qo'llaniladi.

Adabiyotlar

1. Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Iriskulov A. T. va boshqalar Kids' English pupil's book 2-sinf-Toshkent-O'zbekiston; 2014.
3. Hoshimov O'. H, Yakubov I.Y.A. Ingliz tili o'qitish metodikasi-Toshkent-2003-yil.
4. <http://www.ziyonet.uz>.

МИЛЛИЙ ХУНАРМАНДЧИЛИК ТУРЛАРИ

Атамуратов Адилбек Атабаевич

УрДУ Архитектура кафедраси катта ўқитувчиси.

Ўзбекистон, Урганч шаҳар

Нуржонов Улуғбек Илхомович

*УрДУ Магистратура бўлими, Бино ва Иншоотлар Архитектураси 211-гуруҳ
магистранти. Ўзбекистон, Урганч шаҳар*

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолани таҳлил қилиш жараёнида ўрта асрларда хунармандчиликнинг турлари ҳақида маълумотлар келтириб ўтилди. Қадимдан хунармандчилик саноатининг ривожланиши меҳнат фаолиятининг жадаллашувини талаб қилиб келган.

Калит сўзлар: Хунарманд, Хоразмда хунармандчилик, хунармандчилик, амалий санъат, хунармандлар устахоналари, маданий меърос.

АННОТАЦИЯ

В ходе анализа данной статьи были даны сведения о видах ремесел в Средние века. Древнее ремесло Развитие промышленности требует ускорения трудовой деятельности был.

Ключевые слова: Ремесленник, ремесла в Хорезме, ремесла, прикладное искусство, ремесленные мастерские, культурное наследие.

ABSTRACT

During the analysis of this article, information about the types of crafts in the Middle Ages was given. An ancient craft The development of industry requires the acceleration of labor activity has been.

Keywords: Craftsman, handicrafts in Khorezm, handicrafts, applied arts, handicraft workshops, cultural heritage



КИРИШ

Ўзбекистонда ўтказилган археологик тадқиқотлар бу ерда икки минг йил муқаддам кенг ривожланган ҳунармандчилик мавжуд эканлигини исботлади. Бу даврда синфий жамиятлар пайдо бўлиб, йирик меҳнат тақсимоти негизда ҳунармандчилик мустақил соҳа бўлиб, ажралиб чиққан. Оқибатда шаҳарларнинг ўсиши савдо-сотиқнинг ривожланишига имкон беради.

Айниқса XI-XII асрларда ҳунармандчилик кенг миқёсда ривожланиб, ўрта Осиёнинг, шу жумладан ўзбек элининг ҳам чет эллар билан иқтисодий маданий алоқалари авж олади. Маҳаллий ҳунармандчилик халқ хўжалигига зарур маҳсулотлар ишлаб чиқариш техник ва бадиий жиҳатдан юксак даражага кўтарилди. Ўзбек хонликлари даврида пойтахтларда зодагонлар, бой-тўралар ва ҳокимлар эҳтиёжларини қондирадиган ҳашаматли бинолар, турли зебу-зийнатлар яратадиган касб - ҳунарлар анча ривожланди. Шаҳар ва қишлоқ аҳолисига зарур маҳсулотлар етказиб берадиган ҳар-хил ҳунармандчилик соҳалари пайдо бўлди.

Одатда ҳунармандчиликнинг энг камида 3 хили мавжуд бўлган аҳоли яшайдиган жойга шаҳар деб ном берилган 1897йили биринчи аҳоли рўйхати вақтида катта шаҳарларда аҳолининг кўпчилик қисми ҳунармандлар ҳисобланган. Масалан, Наманган аҳолисининг -64%, Қўқоннинг -52%, Чустнинг -54%,Марғилоннинг - 50%,Андижоннинг -45%, Тошкент ва Самарқанднинг - 29% аҳолиси мустақил касб - ҳунар эгаси ҳисобланган хўжаликлардан иборат бўлган.

Шуни алоҳида қайд қилиш лозимки, ўтмишда ўзбеклар нафақат кўшни кўчманчи элатлар маҳсулотини харид қилувчилар, балки улар учун зарур ҳунармандчилик маҳсулотларини етказиб берувчи сифатида ҳам намоён бўлган. Шунинг учун маҳаллий усталар кўплаб тери ва жундан, ёғоч ва металдан, пахта ва ипакдан турли буюмлар, кийим-кечакларни ишлаб чиқариб бозорларда сотганлар. ўрта аср ҳунармандларининг яна бир хусусияти уларнинг муайян ижтимоий ташкилотларга эга бўлишида эди. Бу ўзига хос жамоатчилик анъаналарига таянган махсус уюшмаларга бирикиш эди.



Ўзбек ҳунармандчилигининг яна бир хусусияти унинг кўп соҳаларини бевосита уй-рўзгор хўжалиги билан боғлиқлиги эди. Кўп ҳунармандлар асосий касбидан ташқари айниқса қишлоқ шароитида (баъзан, шаҳарларда ҳам) деҳқончилик, боғдорчилик ва сабзавотчилик билан ҳам шуғулланиб келганлар. Уларнинг кўпчилиги қисми ўз маҳсулотларини яқин бозорга чиқарибгина қолмай ишлаб чиқарилган маҳсулотларга қараб, ҳақ олганлар. Бундай ҳолат қишлоқ жамоатчилиги анъаналарига боғлиқ бўлиб, даставвал қишлоқ эҳтиёжларига бўйсунган. Уй ҳунармандчилигида ип йиғириш, тўқиш, кигиз босиш каби касблар билан шуғулланилган. Тўқимачиликда гилам ва палос биринчи ўрин турар эди. Иш қуролларининг оддийлиги, техникавий жиҳатидан қоқоқлигига қарамай, ўзбек ҳунармандчилигининг кўп соҳалари ниҳоятда юксак санъат намуналарини яратган ажойиб амалий касб - ҳунар сифатида танилган. Ҳунармандчиликнинг қадимий даврларидан энг кенг тарқалган соҳаси темирчилик ҳисобланган. Бу соҳанинг ривожини даставвал маҳаллий хом ашёга боғлиқ бўлган. Ўзбекистон ўзининг ер қазилма бойликлари, олтин, кумуш, мис, темир қабилари билан аввалдан машҳур бўлган. 1913 йилда маҳаллий ҳунармандлар 72% металл буюмлар ишлаб чиқарганлар. Металл ишлаб чиқариш 19 касбга бўлинган.

Ривожланган соҳалардан бири металл қуйиш билан боғлиқ бўлган, у кўп жойларда дегрезлик ёки қозончилик, Хоразм ва Бухорода «Позачи» ёки «Позагар» деб номланганлар.

Дегрез одатда ҳар хил ҳажмдаги қозон, поза(тиш), чой идиш, обдаста, аспак, шамдон, маколдон, корачирок, арава ғилдирикларига тағ чўян ёки халқа жувоз бошмоқи ва ҳоказолар ишлаб чиқарган. Баъзан буюртма елим идиш, қандил, келича, носсўқи ва бошқа буюмлар ҳам қуйилган. Бухоро ва Самарқандда рехтагар - жиз билан чўяндан замбарак (тўп) ва ўқи, қурол-аслаҳа ва бошқа уй- рўзгор буюмларини ясаган. Айрим жойларда дегрезлар чўяндан маҳсулотига қараб чўянлар деб ҳам номланган. Чўян қуйиш учун махсус лойдан қурилган ўчоқ (Фарғона ва Тошкентда «Ён дўкон», Бухорода «кўра», Хоразмда «Дастгоҳ»)ларда эритилиб, қумдан ясалган асбоб идишларнинг ҳар хил қолипларда зарур маҳсулотлар қурилган.



XIX аср ўрталаригача дегрезлар хомашёни маҳаллий конлардан олганлар, кейинчалик рус мамлакатчилиги даврида Россиядан келтирилган темир-терсаклардан фойдаланилган. Умуман металл буюмларни ишлаб чиқариш хунармандчилиги асосан тўртта йирик соҳага бўлинган: темирчилик, заргарлик, мисгарлик ва тунукасозлик. Шулардан энг қадимий ва барча метал ишлаб чиқариш соҳаларига зарур қурол ва дастгоҳлар, халқ хўжалигига, айниқса дехқончилик қуроллари, уй-рўзғор буюмларини етказиб бериб турган соҳа темирчиликдир.

XIX аср охирлари-XX аср бошларида ўзбек темирчилиги шунчалик ривожланганки, унинг ичида меҳнат тақсимоли асосида мустақил соҳалар юзага келган. Масалан, уй-рўзғор буюми ва эркак сарпоси таркиби ҳисобланган ўзбек пичоғини махсус пичоқчилар, қулф-калитни қулфчи ёки қулфгарлар, игна - бигизни игначи ёки игнасозлар, ҳар хил асбоб ва буюмларни чилангар, михгар, наълчи, тақачи каби темирчи усталар ясаган, маҳаллий темирчилар асбоблардан 40 га яқин турларини билганлар Бухорода 32 хилдаги темир маҳсулотлари ишлаб чиқарадиган соҳа маълум бўлган. Мисгарлик ҳам жуда кенг тарқалган. Масалан, асримиз бошларида Бухорода 400 га яқин, Хивада 200 дан ортиқ мисгар бўлган. Айрим усталар маҳорат билан бадиий буюмлар ясаганлар. Айниқса, Бухоро, Фарғона, Хива мисгарлари машҳур бўлганлар. Улар ҳар хил ичимликлар учун идишлар, овқат ва сут идишлар (мислаган, мис товоқ, мис баркаш, лаъли, мис кўза, хумча, кумғон, стойил, офтоба, обдаста, тос, лаган, солобча, чилобчин, кошкул) ҳар хил қутича ва сандиқча носвой идиш ва ҳоказолар ишлаб чиқарганлар. Кўп буюмларга бўрттирилган ёки ўйма нақшлар берилган. Россия хонликлари босиб олгандан сўнг маҳаллий мисгарлар ўзига хос самовар чиқара бошлаганлар. Мисгарлар хом ашёни асосан Россиядан келтирганлар, рух, кўрғошин, кислота, нашатир ҳам ташқаридан келтирилган. Барча манбаларда маҳаллий усталарнинг зўр маҳорат билан бадиий буюмлар ясаганлиги тўғрисида гапирилади.

Ўзбек заргарлиги ҳам қадимий даврлардан ўзининг ажойиб санъати билан танилган. Заргарлик ноёб бадиий асарларининг намуналари кўпгина археологик



казилмалардан топилган. Заргарлик техник жиҳатдан умумий металл буюмларни ясаш услубларидан ташқари ўзига хос хусусиятларга ҳам эга бўлганлар. ҳатто олтин ва кумушни боғлаш, қиздириш, сайқаллаш, пардозлаш буюмга гул босиш, тилла сув бериш каби ишларда ўзига хос нозик услуб талаб қилинган. Заргар бойларнинг буюртмаси билан катта кичик қиммат баҳо безакларни жуда чиройли қилиб ясаганлар.

ўрта Осиё, шу жумладан Россия мустанлакасига айланган Ўзбекистонда заргарлик ва мисгарлик касблари аста - секин инқирозга учрайди. Арзон баҳода завод, фабрикадан зебу-зийнат буюмларининг маҳаллий бозорларга кўплаб келтирилиши бу ерлардаги ҳунармандчиликнинг таназзулга юз тутишига сабаб бўлди.



Ҳозиргача кенг тарқалган қадимий касблардан бири ёғоч буюмларни ясаш, ёғоч ўймакорлиги ҳунармандчилигидир. Маҳаллий усталар ёғочдан ҳар хил ишлаб чиқариш қуроллари, уй-рўзгор буюмлари, транспорт воситалари, синч ва устунлар, ойна-эшиқлар сандиқ ва бешиқлар, элак ва чарх, эгар ва

ҳоказолар ишлаб чиқарганлар. Бадиий аҳамиятга эга бўлган ўймакорлик, дурадгорликда алоҳида аҳамиятга эга энг оғир ва мураккаб меҳнат талаб қиладиган, бадиий амалий санъат соҳасидир. Мармар ўймакорлиги(сангтарошлик)дир. Бу соҳа ҳам энг мураккаб санъа тури ҳисобланади.

Ўзбек диёрида энг қадимий ва оммавий ҳунармандчилик кулолчилик касби ҳисобланади, ўзбек кулолчилигининг энг машҳур марказлари Фарғона водийсидаги Риштон қишлоғи, Бухородаги Гиждувон, Хоразмдаги Мадр ва Боғотдадир. Бу ерларда олий сифатли ва нозик безакли сопол буюмлар яратилган. Кулолчилик ҳунари ниҳоятда ривожланган ва маҳсулотга қараб бир неча соҳаларга бўлинган. Кулолларнинг маҳсулотлари нафақат шакллари бошқа номлари билан ҳам



фарқланган. Тандирчилик ҳам кулолчиликнинг бир туридир. Илгари ҳар бир ҳовлида ўрнатилган тандирни махсус усталар - тандирчилар ишлаб чиқарган. Тандирчилар ҳар бир вилоятда турлича шаклда қурилган.



Тўқимачилик ва ипакчилик касби ҳам жуда кенг тарқалган. Асримиз бошларида йирик шаҳарларда тўқимачилик билан шу ёулланувчи манафактура типигаги йирик корхоналар бўлиб, уларнинг маҳсулотини узок яқин бозорларга чиқарилган. Тола ишлаб чиқарувчилари билан тўқимачилардан ташқари бир неча касб соҳалари – бўёқчилар, пардозчилар, тандирчилар, тўқув дўкони, тароги ва ремизини ишловчилар, читгарлар (гул босувчи) ва ҳоказолар бўлган. қадимдан ипакчилик ва ипак газлама тўқиши бутун Туркистонда тарқалган ва юксак даражага кўтарилган. қадимий касблардан пиллакашлик муҳим ўринни эгаллаган. Пиллани чувитиш билан махсус ҳунармандлар - пиллакашлар ўз устахонаси (чорхона)да машғул бўлганлар. Ип газламаларига турли нақшлар берадиган уста (читгар)лар айниқса Хоразм, Самарқанд, Тошкент, Фарғона Бухоро ва Шаҳрисабзда кўп бўлган. Тўқувчилик билан нафақат айрим усталар шуғулланганлар. Чунки кўп оилаларда кийим - кечакни уйда аёлларнинг ўзлари қўлда тикганлар. XX аср бошларида Туркистон ўлкасида дастлабки тикув машиналари («Зингер» фирмаси маҳсулоти) пайдо бўлган. Оқибатда янги ҳунармандчилик касби машиначилик юзага келади, хатто машинада тикиладиган бадий каштачилик соҳаси пайдо бўлади. ўзбекларда энг кенг тарқалган касблардан бири дўппи дўзликдир. ўзига хос шакли, кашта услуби, гул нақши билан Чуст, қўқон, Марғилон, Самарқанд, Хоразм, Шаҳрисабз, Сурхондарё, дўппиларидан фарқ қилган.



Тери ишлаб чиқариш ва ундан турли буюмлар тикиш жуда машҳур бўлган. Ўзбек усталарига мол териси дастлабки хом ашё сифатида кўнчилик ва чарм маҳсулотини етиштириб беришда хизмат қилган.

Эрамизнинг биринчи асрларидаёк кишилар ганчни ажойиб хусусиятга эга эканлигини билиб ундан каълалар, карвонсарой ва бошқа жойларни безашда фойдалана бошлаганлар. Бўлиб ўтган жанглار оқибатида улар вайронага айланиб фақат колдиклари сакланиб қолган.

III асрда Тупроккаъланинг серҳашам Сарой меҳмонхоналари ўймаганч билан безатилган, Варахшадаги топилмалардан VII-VIII асрлардаги Бухоро саройи колдикларидан намуналар топилган. Бу наъмуналарларда қушлар, ҳайвонлар, баликларни, ўсимликсимон ва геометрик шаклларнинг ўйма нақшларини кўриш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. *Ислом Каримов «Баркамол авлод Ўзбекистон тараккиётини пойдевори» 1997 йил, Тошкент.*
2. *Р.Х.Жўраевнинг «Педагогик технология асослари» Тошкент, 2003 йил.*
3. *«Таълим тараккиёти дастури», Тошкент, 1999 йил.*
4. *С.С. Булатов. «Ганчкорлик». Тошкент, 1997 йил.*
5. *И. Жабборов «Ўзбек халқ этнографияси» Т.1994-52-82-б.*
6. *Т. Хўжаев. К.Абдуллаев «Аждодлар қиёфаси» Туркистон газ. 92.26.IX.*
7. *М.Рустамов«Ўзбекистон этнографияси»Тош;1991.I-IV жилд.*
8. *Остроумов. Н.П. Сарту Т. 1908.*



9. Толстов. С.П. «Қадимий Хоразм мад. излаб»Т. Фан 1957.

10. И. Жабборов «Ўзбек халқ этнографияси». Тош.199487-99 б.

11. У. Қорабоев «Ўзбек байрамлари» Т. 1991й





Индукция методи ва унинг Фрэнсис Бэкон эпистемологиясидаги ўрни

Аминова Наргиза Шарифовна
Ўзбекистон Республикаси ИИВ
Академияси ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Аннотация. Мазкур мақолада Ф.Бэконнинг эпистемологик изланишлари, илмий билиш методлари ва уларнинг Янги давр фалсафасидаги ўрни масалалари тадқиқ қилинади.

Бэкон табиатни шундайлигича ўрганиш ғоясини илгари сурган. Схоластика ва антик давр фалсафаси, айниқса Платон ва Аристотель билиш предметини ғоя, шаклдан, яъни субъектив тасаввурлардан келтириб чиқаришган. Бэкон уларни рад этади ва тадқиқот марказига табиатни қўяди. Мавзуда ушбу назарий-фалсафий қарашлардаги зиддиятлар очиқ берилган.

Калит сўзлар: индукция, дедукция, эксперимент, аксиома

Аннотация. В данной статье рассматриваются эпистемологические исследования Ф. Бэкона, научные методы познания и их роль в философии Нового времени.

Бэкон предложил идею изучения природы как таковой. Схоластика и античная философия, особенно Платон и Аристотель, выводили предмет познания из идей, форм, т. е. из субъективных восприятий. Бэкон отвергает их и ставит природу в центр исследований. В теме раскрываются конфликты в этих теоретико-философских воззрениях.

Ключевые слова: индукция, дедукция, эксперимент, аксиома

Annotation. This article discusses the epistemological studies of F. Bacon, scientific methods of cognition and their role in the philosophy of modern times.

Bacon proposed the idea of studying nature as such. Scholasticism and ancient philosophy, especially Plato and Aristotle, derived the object of knowledge from ideas, forms, that is, from subjective perceptions. Bacon rejects them and puts nature at the center of research. The topic reveals conflicts in these theoretical and philosophical views.

Keywords: induction, deduction, experiment, axiom

Фалсафа тарихида Бэконнинг индукция методи баъзан “янги индукция методи”[1] деб ҳам аталади. Бу билан Бэконнинг индукция методи ундан олдинги индуктив карашлардан фарқ қилиши таъкидланади.

Мантиқ нуқтаи назаридан караганда, кашфиётлар илмий-амалий фаолиятнинг қонуний натижаларидир, ҳеч бир ихтиро, кашфиёт тасодифий яратилмайди. Бу эса тадқиқотчидан мантиқ қонунларига амал қилувчи йўллардан, инструментлардан фойдаланишни яхши билишни тақозо қилади. Бундай йўллар, инструментлар индукция ва экспериментлардир.

Маълумки, билиш жараёни ҳиссий идрокдан бошланади[2]. Бироқ ҳиссий идрок тўғри хулосаларга, аксиомаларга олиб келавермайди. Шунинг учун ҳиссий идрок илмий билишнинг кафолати бўлолмайди. Бу ўринда ҳиссий идрок ва ақлий идрокни назорат қилиш имконини берувчи усул зарур. Бэконнинг қайд этишига мувофиқ шундай усул – индукциядир[3].

Бэкон антик давр фалсафасини таҳлил қилар экан, ўзининг методологиясини “янги логика” деб атайди. Эски мантиқ билан янги мантиқ ўртасидаги фарқ уч нарсада кўзга ташланади: “мақсаднинг ўзида, исбот қилиш тартибида ва тадқиқот бошида”.



Янги мантиқнинг мақсади исбот қидириш эмас, балки санъатдир (яъни “позитив натижа”га етишдир); асосий қоидага мос келадиган нарсани эмас, балки ушбу қоиданинг ўзини топишдир; тахминий асосни эмас, балки амалиёт учун зарур асосни излашдир. Эски мантиқ мулоҳазалар, қарши фикрлар, танқид, раддия орқали рақиб томонни мот қилишга, янги мантиқ эса амалий эҳтиёжга, амал орқали табиатни билишга интилади. Кўриниб турибдики, индукция методи ҳиссий идрокни рад этмайди, аммо у билан чекланиб, интуиция поғонасида қолиб кетмайди; у ҳиссий идрок орқали табиатга келади ва амалиётга қўшилади. Эски мантиқ эса ҳиссий билишдан тўғри умумий хулосаларга келади, натижада хусусий фикр-мулоҳазаларни аксиома тарзида тақдим этади, ўртадаги табиатни, табиатни англашга қаратилган экспериментларни тан олмайди. У таянадиган индукцияда Бэкон, “гўдакларга хослик” бор, деб ёзади. “Аммо фанга шундай индукция шакли зарурки, у тажрибада бўлиниш ва танлашни амалга ошириб, зарур хулосалар ва саралаш орқали керакли хулосаларга олиб келсин”. Чунки тажрибага, синовларга таянган “ақлу идрок фақат индукциянинг қонуний шакли орқали ҳукм чиқариши мумкин”.

“Индукция деганда айрим-айрим фактларни, конкрет далилларни ўрганиш асосида умумий хулосалар чиқариш методи тушунилади”. Аммо индукция илмий билишнинг ягона усули эмас. Фактлар янги аксиомалар олиб келиши мумкин бўлганидек, янги аксиомалар ҳам давр, вақт ўтиши билан қайта кўриб чиқилиши, ҳатто рад этилиши мумкин. Лекин “ҳар қандай билимлар, улар қанчалик мавҳумлашмасин, оламни тажрибавий идрок этишдан келиб чиқади”.

Юқоридагилардан маълум бўлдики, индукция шунчаки билиш усули, методи эмас, у билим йўқ жойдан билим, янги фактлар ва аксиомалар олиш усулидир. Бэкон, агар факт бўлса, энг чалкаш жиной ишни ҳам ечиш мумкин, деб ҳисоблайди ва ушбу фикрдан келиб чиқиб, ўзининг индуктив диалектикасини “кесишган саволлар”га, табиатни тадқиқ қилишни фуқаролик жараёнига, фуқаровий ва қонунлаштирилган ҳуқуқлар тўпламини табиат қонунларига, олимлар ва юристларнинг изоҳларини эса, фикрлар, гипотезалар, спекуляцияларга қиёслайди. Шу тариқа Бэкон, индуктив билишнинг амалиётга, табиатга йўналтирилган усул эканини очиб берди. Ақлу



идрокнинг объектини билиш жараёнига фаол аралашшига даъват этиш Бэкон эпистемологияси ва Янги давр фалсафасидаги энг муҳим хусусиятдир.

Индукция нафақат излаш (изланиш) усули, худди шунингдек, у излаб топилган нарсани танқидий таҳлил қилиш, эски, қотган фикрлардан халос бўлиш, “типик ҳолларни ўрганиш”[4] ҳамдир. Изланиш жараёни маълум фикрларни такрорлаш, уларни қайта кашф этиш (аслида шундай бўлмаслигига ҳеч ким кафолат беролмайди, чунки илм-фан гоҳо эски, унутилган фикрларни ҳам қайта кашф этиши мумкин. Минг афсуски, Бэконнинг ўйи, фикри мутлақ янги нарсаларни кашф этиш жараёнларига қаратилгандир) эмас. Бэкон танқидий таҳлилга қатъий талаблар қўяди – энг ишончли, энг аниқ, энг ҳақиқий фактлар, яъни “қаттиқ негиз” қолиши ва аксиомага ўтиши лозим. Ана шунда аксиома ишончли, хулосалар синовлардан ўтган, “типик ҳоллар” топилган бўлади.

Бэкон эпистемологияси, индукция объектлар “оддий сифатлар”ининг шаклини ёки жисмларнинг “табиат” деб аталган бўлакларга ажралишини ўрганади, деб эътироф этади. Масалан, эпистемологик талабга кўра индукция тилла, сув ёки ҳавонинг нима учун тилла, сув ёки ҳаво эканини эмас, балки уларнинг қалинлиги, жипслиги, оғирлиги, ранги, иссиқлиги ёки совуқлиги, енгиллиги каби сифатларини ўрганади. Ушбу ички сифатлар объектларнинг табиатини ёки табиатга хос воқелик эканини, яъни умумийга чиқишини кўрсатади. Хусусийдан умумийга, яъни индуктив билишдан дедуктив билишга ўтиш орқали билиш жараёни маълум бир яқунга етади. Аслида бу аналитик усулдир. Нарсаларнинг сифатларини таҳлил қилиш орқали уларнинг умумий табиатига ёки умумий шаклига келиш кейинчалик эпистемологиянинг, айниқса инглиз фалсафий эмпиризмнинг анъанасига айланди[5].

Бэконнинг фикрига кўра, тажриба ақлу идрок нуқтаи назаридан ёндашиш, у рационал ташкил этилиши зарур[6]. Шунинг учун ҳам тажриба ва экспериментлар қайта-қайта синаб кўрилиши, ақлу идрок чиқарадиган хулосалар, аксиомалар объектларнинг хусусиятларини ўрганиш жараёнларида тўлдириб берилиши зарур. Айнан ушбу ғоя



К.Поппернинг танқидий рационализм методига асос бўлиб хизмат қилган. Демак, объектлар, борлиқ ҳам, ақлу идрокнинг изланишлари ҳам чексиздир.

Тадқиқотчилар кўпинча Бэконинг индукциясига эътибор берадилар, ваҳоланки, индукция ва дедукция файласуф эпистемологиясида уйғун, бир-бирини тўлдириб келади.

Индуктив билишдан дедуктив билишга ўтиш Бэкон эпистемологиясидаги янги ёндашувдир. Бу ўринда Бэкон дедуктив ёндашишни рад этади ёки бирламчи қилиб индукцияни қўяди деган хулосага келмаслик лозим. Файласуф индукция ва дедукция масалаларини муҳокама қилмайди, аммо нарсаларнинг, табиатнинг ички сифатларини ўрганиш орқали уларнинг ташқи шаклига, шакли орқали эса моҳиятига ёки янги сифатига қайтиб келиш унинг эпистемологиясига хос хислатдир. Бэкон даврида илм-фаннинг ўзи индукция ва дедукция методларини назарий-фалсафий муаммо сифатида тадқиқ қилишга тайёр эмас эди. Улар кейинчалик XIX асрга келиб фалсафада ўрганила бошланди. Шунда ҳам бу борада нафақат ретроспектив, шу билан бирга илмий-техник ривожланиш таъсирида рўй берган ўзгаришлар, илмий изланишлар нуқтаи назаридан тадқиқотлар олиб борилмаган. К.Поппернинг назарий-фалсафий изланишлари эса энди эътироф этилмоқда.

К.Поппер Бэконни классик эмпиризмнинг асосчиларидан бири деб билади. Унинг фикрига кўра, Англиядаги Бэкон, Локк, Беркли, Юм ва Милл асос солган фалсафа мактаби – эмпиризм билан Декарт, Спиноза ва Лейбниц асос солган Европа континентал фалсафаси – рационализм (интеллектуализм) ўртасидаги баҳс илмий билишдаги асосий йўналишлар ҳисобланади. Эмпиризм тарафдорлари эпистемологик изланишлар марказига кузатувни, рационализм намоёндалари эса интеллектуал интуицияни қўяди.[7] Аммо, К.Поппер фикрига кўра, улар адашади, чунки “кузатувни ҳам, ақлу идрокни ҳам билим манбаи ҳисоблаш мумкин эмас”. Аммо ушбу “ёлғон эпистемология тарихда учрамайдиган интеллектуал ва ахлоқий революцияларнинг асосий илҳомчиси бўлди. У кишиларни мустақил фикрлашга ўргатди. У билим орқали ўзини ва бошқаларни қулликдан ва изтироблардан халос қилишига умид уйғотди. У замонавий билимнинг ривожланишига имкон берди. У



виждон эркинлиги, индивидуализм ва инсон фахр-ифтихорининг негизига айланди, умумий таълимга талаб ва эркин жамият ҳақида янги орзуни юзага келтирди. У кишиларга ўзи ва бошқалар учун масъуллик ҳиссини сингдирди ва нафақат ҳаётини, шу билан бирга бошқалар, ён-атрофдагилар учун ҳам шарт-шароитни яхшилашга интилиш туғдирди”[8]. Бэкончилик ва декартчиликнинг ижтимоий-маънавий тараққиётга, умумтаълимнинг, эркин фикрлашнинг ривожланишига бетакрор таъсирини К.Поппер рад этмайди. Аммо, унинг фикрига кўра, Бэкон ҳар ким билими, илмга интилиши билан ҳақиқатга етиши мумкин, деган ғояни илгари суриб адашди. Бэкон назарида ҳақиқат мавжуд, у табиатдадир; агар инсон илмий методларни ўзлаштиради, тажрибалар, экспериментлар ўтказса, у ҳақиқатга етиши мумкин. Бундай қараш фанатизмни, авторитетга сиғинишни келтириб чиқаради. “Ҳақу ҳақиқат, - деб ёзади К.Поппер, - одатда ҳеч аён эмас. Шунинг учун назарда тугилаётган ҳақу ҳақиқат нафақат талқин ва тасдиқни, шунингдек қайта талқин ва қайта тасдиқни тақозо қилади. Демак, ушбу ҳақиқатни ҳар куни эълон қилиш ва тасдиқлаш учун авторитет талаб қилинади, шу тариқа ҳақу ҳақиқат ўзбошимчалик билан ўрнатилади”[9]. Ҳақу ҳақиқатга етолмаслик эса пессимизмга сабаб бўлади. Файласуфлар кишилардаги пессимизмни оптимизм билан алмаштириш учун қандайдир ғояларга, келажакка, билимга ишонишни тарғиб этиб келадилар. Платон пессимизми “айдос” – идея, ғоянинг муқаддаслигига, барқарорлигига асосланган. “Худо – билим манбаи”. Платоннинг ушбу фикрини Бэкон **“Билим – куч”** деб ўзгартирган. Лекин Платонда илоҳийлик билим манбаидир, шу тариқа у ҳақу ҳақиқатни мавҳум объект, деб билади. Бэконда билим, билиш мумкин объект манбаидир. Унда инсон ақлу идрокига ишонч мавжуд. “Бэкон (ҳамда Аристотель) индукцияси, - деб хулоса чиқарди К.Поппер, - моҳиятига кўра, Сукрот майевтикасидир, яъни намоён ҳақу ҳақиқатни англашга ёки очиқ Табиат китобини ўқишга ақлу идрокни тайёрлашдир”[10]. Бэконнинг Табиати Платоннинг худосига, “айдос”ига айнандир. Бу таъсир Бэконнинг гоҳ Табиатни улуғлаганида, гоҳ илоҳийни тан олганида, дуализмида намоён бўлади.



Бэкон фалсафани “илмий билиш методи” билан қуроллантирди, шу тариқа фалсафага унга таянадиган бўлди. Илмий-техникавий ўзгаришлар даври энди бошланаётганда, мавжуд илм соҳаларини глобал воқелик сифатида ўрганиш тажрибаси ҳали йўқ пайтда, схоластика авж олиб, мустақил изланиш деярли таъқиқланганида дадил экспериментлар ўтказиб, уларни илмий-фалсафий муаммо сифатида қўйиш ҳам жасорат эди. Бэкон ушбу муаммони нафақат илм-фан олдига қўйди, уни индукция ва эксперимент орқали ечиш йўлини ҳам кўрсатиб берди. Тўғри, бу йўл камчиликлардан холи эмас, лекин унда экспериментлар орқали билиш жараёнини такомиллаштириш мумкинлигига умид, ишонч бор. Унинг ўзи таъкидлаганидек, “кашфиётлар санъати кашфиётлар билан бирга ўсиши мумкин”. Ушбу фикрнинг тўғрилигини кейинги илмий-техник ва назарий-фалсафий фанлар тараққиёти ҳам асослади. Шунинг учун ҳам, тажриба, эксперимент орқали билишнинг зарурлигини илгариги фалсафа тарихида Бэконга тенг келадиган шахс учрамайди[11].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Қаранг: Котарбинский Т. Бэкон о будущем науки//Избр. произ. –М.: Изд.ин.лит-ры, 1963, -С.114; Субботин А.Л. Френсис Бэкон. –М.: «Мысль», 1971 ва б.
2. Қаранг: Абстрактлик ва конкретлик диалектикаси. –Т.: “Фан”, 1978. -75 б.
3. Қаранг: Бэкон Ф. Сочинения в двух томах. Т.1. –М.: “Мысль», 1977. –С.70.
4. Қаранг: Антонов Г.В. От формальной логике к диалектике. – М.: “Высшая школа”, 1971. – С. 44.
5. Субботин А.Л. Френсис Бэкон. –М.: “Мысль”, 1974. – С. 95.
6. Қаранг: Макаров М.Г. Развитие понятий и предмета философии в истории ее учений. – ленинград, “Наука”, 1982. – С. 78.
7. Қаранг: Макаров М.Г. Развитие понятий и предмета философии в истории ее учений. – Ленинград, “наука”, 1982. – С. 76-89.
8. Поппер К. Предположение и опровержения. Рост научного знания. –М.: Изд. АСТ-ЕРМАК, 2004. –С.16-17.



9. Поппер К. Предположение и опровержения. Рост научного знания. –М.: Изд. АСТ-ЕРМАК, 2004. –С.24.
10. Бэкон Ф. О мудрости древних // Сочинения в двух томах. Т.2. –М.: “Мысль», 1978. –С.258.
11. Михаленко Ю.П. Бэкон и его учение. –М.: “Наука”, 1975. –С.202.



O'ZBEKISTONDA NOMONETAR OMILLARNING INFILYATSIYAGA TA'SIRINI ANIQLASH

Doniyorov Hojiboy Xolmurod O'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
matematik iqtisodiyot magirtranti

Annotatsiya: Inflyatsiya darajasi iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Uni me'yorda ushlab turish davlat, shu jumladan markaziy bankning vazifasi hisoblanadi. Maqolada nomonetar omillarning inflyatsiyaga ta'siri muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: inflyatsiya, nomonetar omil, inflyatsion targetlash, pul bozori, QPM va BVAR modellari, INI, import inflyatsiyasi.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida" PF-5877-sonli Farmoniga [1] muvofiq, ilg'or xorij tajribasiga tayangan holda, inflyatsion targetlash rejimini joriy etish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Vazirlar Mahkamasining muvofiqlashtirilgan tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish vazifasi qo'yildi. Mazkur Farmonga asosan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari va instrumentlarini qo'llashni kengaytirish, shuningdek, pul-kredit siyosati samaradorligini tubdan oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflyatsiya darajasini 2021 yilda 10 foizgacha pasaytirish hamda 2023 yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni (target) o'rnatish yo'li bilan 2020 yilning 1 yanvaridan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tkazishni ta'minlash talabi qo'yilgan edi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijlik iqsodchilar Batini va Laxtonlarning fikricha iqtisodiy tizim inflyatsiyani targetlashni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi, deb ishonishgan. Narxlar bozor

tomonidan to'liq tartibga solinishi va iste'mol narxlariga va iqtisodiyotdagi valyuta tebranishlariga haddan tashqari sezgir bo'lmashligi kerak. Bundan tashqari, iste'mol tovarlari narxlarini boshqarsangiz, odatda inflyatsiya nazorati samarasiz bo'ladi. To'liq narxni nazorat qilish zarurati esa maqsadga muvofiq bo'lmashligi kerak, lekin pul- kredit siyosati narx indeksiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi kerak. Ko'pincha hukumat nazorati ostida boshqariladigan tovarlar o'sishi Markaziy banklarning inflyatsiyani targetlashda inflyatsiyani muvaffaqiyatli boshqarish qobiliyatini susaytirishi mumkin; ayniqsa, bu narxlar talab va taklifning asosiy shartlarini hisobga olmagan holda belgilanadi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ma'lumki iqtisodiyotda tovar va xizmatlar narxlari o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar monetar hamda nomonetar omillarga bo'linadi. Monetar omillarga iqtisodiyotda pul massasi va kreditlar hajmining o'zgarishi ta'sirida o'rta muddatli davrda inflyatsiya darajasining oshishi yoki pasayishiga olib keluvchi xatti-harakatlar kiradi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati ta'siri bo'lmagan omillar esa nomonetar omillar hisoblanadi. Nomonetar omillarga tashqi iqtisodiy sharoitlar, tarkibiy omillar (raqobat sharoitlari, ishchi kuchi taklifi va sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqarishning texnologik darajasi, transport va logistikainfratuzilmasi), normativ-huquqiy sharoitlar hamda tovar va xizmatlarning ishlab chiqarishdagi taklif omillari kiradi. Nomonetar omillarni 3 turga ajratish mumkin: tashqi iqtisodiy, tarkibiy va o'rta muddatli istiqbolda taklifga ta'sir qiluvchi omillar.

Ichki nomonetar omillar narxlarning shakllanishiga bir martalik yoki tizimli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Bularga amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida o'zgaruvchan tarkibiy va institutsional sharoitlar kiradi. Islohotlarning mohiyati, olib borilishi va samaradorligi inflyatsiyaga ham oshiruvchi, ham kamaytiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mamlakatda amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar, xususan, davlatkorxonalarini isloh qilish, tartibga solinadigan narxlarni erkinlashtirish, tarif va notarif boshqarish siyosatini o'zgartirish va soliq islohotlari natijasida ba'zi tovar va xizmatlar uchun bir martalik inflyatsiyani oshiruvchi yoki inflyatsiyani pasaytiruvchi shoklar vujudga keladi.

Keng qamrovli tarkibiy islohotlarni amalga oshirishda iqtisodiy agentlarning inflyatsion kutilmalarini barqarorlashtirish muhim o‘rin tutadi. Bunda, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning keyingi o‘zgarishlari, kutilayotgan natijalari va prognozlari haqidagi ma’lumotlarning shaffofligini oshirish, asosli va ob’ektivligini ta’minlash dolzarb hisoblanadi.

Bundan tashqari, eksport va import sohalarida belgilangan qoidalar, talablar va ularda kutilayotgan o‘zgarishlar, budget kamomadi hamda iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, shuningdek, soliqqa tortish bo‘yicha iqtisodiy agentlarni xabardor qilish ham inflyatsion kutilmalarni barqarorlashtiruvchi omil hisoblanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Inflyatsion targetlash rejimida nomonetar omillar ta’sirinikamaytirish uchun quyidagi choralarlarni amalga oshirish kerak deb hisoblaymiz.

1. Tashqi import kanallari orqali mavjud xatarlarni kamaytirish maqsadida ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar importini diversifikatsiyalash, tarif va notarif tartibga solish mexanizmlarini optimallashtirish, import bozorida raqobat muhitini ta’minlash borasida tizimli choralar ko‘rish;

2. Mehnat migratsiyasi rasmiy kanallarini kengaytirish, ularning kasbiy malakasini oshirish, shuningdek, xorijiy davlatlarda mehnatmuhojirlarining huquqlarini himoya qilish va xavfsizligini ta’minlash;

3. Davlat korxonalarida olib borilayotgan islohotlarning samaradorligi yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

4. Monopol korxonalar (davlat va xususiy) mahsulotlari va xizmatlarinaxrlarining asossiz oshirilishini oldini olish maqsadida ularning tannarxi shakllanishi shaffofligini ta’minlash;

5. Raqobatbardosh tovarlar va moliya bozorlarida faoliyat yuritadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ustav kapitalida (fondlari) davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirib borish va ushbu bozorlarda davlat korxonalarini tashkil etishni ta’qiqlash,

6. Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish bozorlarda raqobat muhitini yanada takomillashtirish va xususiy tadbirkorlik huquqlari himoyasini kuchaytirish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI



1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida” PF-5877-sonli Farmoni.
2. <https://cbu.uz/oz/> - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti.
3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 11 noyabr. – O‘RQ-582-son qonun.
4. Jumaev N.X., Absalamov A.T. “Inflyatsion targetlash rejimini qo‘llash makroiqtisodiy barqarorlik va aholi faravonligini ta‘minlashning zaruriy sharti” review.uz – CERR iqtisodiy tahlil jurnali – Toshkent, 2020 yil, yanvar. – 18 bet
5. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.
6. “Pul-kredit siyosatining 2021 yil va 2022-2023 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari” Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma‘lumotlari.

XORIJIY TILLARNI MUKAMMAL O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Остонов Аскар .

Тер Ду Хорижий филология

фак Роман Герман тиллар каф уким

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalar va Internet-resurslaridan foydalanish talablari muhokama qilingan. Xususan, bu professor-o'qituvchi tomonidan qo'yilgan aniq maqsadlarga erishish uchun o'quv qo'llanmalarini tizimli ravishda tanlash muhimligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, kompyuterlashtirish, raqamli texnologiyalar, o'quv qo'llanmalarini tanlash.

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan davrda jamiyat kelajakdagi mutaxassislardan mustaqil ravishda bilim olish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, ularni turli muammolarni samarali hal qilishi, faktlarni to'plash va tahlil qilish, umumlashtirish hamda asosli xulosalarni qabul qilish uchun amalda qo'llash talablarini qo'yadi, muvaffaqiyatga erishish uchun muloqotga kirishish, turli vaziyatlarda birgalikda ishlash, ziddiyatli vaziyatlardan chiqish yo'lini izlash kerak. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish yo'llarini topib, tanqidiy va ijodiy fikrlash, o'z madaniy darajasini oshirish uchun mustaqil ishlash jarayonlarini o'zlashtirish talab etiladi. Ta'lim jarayonida professor-o'quvchilarning yuqoridagi ko'nikmalarini va bilim qobiliyatlarini rivojlantirish faol ta'lim texnologiyalari orqali yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR SHARHI



Hozirgi vaqtda global kompyuterlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini, shu jumladan ilm-fan va ta'limni qamrab olgan. Internetning rivojlanishi va o'quv jarayonini soddalashtiradigan ko'plab kompyuter dasturlarining paydo bo'lishi chet tillarini o'rganishni sezilarli darajada o'zgartirib, haqiqiy manbalar bilan ishlashni tezroq va osonlashtirdi.

N.B. Golubevaning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish professional yo'naltirilgan chet tili ta'limining ajralmas qismi ekanligi haqida dalillar keltirilgan. Ijtimoiy fikrlash sifatida tanqidiy fikrlashga ta'rif berilgan va shu sababli ushbu hodisaning kommunikativ tomoni ta'kidlangan. Shuningdek, kommunikativ chet tili kompetensiyasining xarakterli xususiyatlari yoritilgan va uning shakllanish shartlari ko'rsatilgan. Xulosa qilinganki, ushbu kompetensiya chet tili va interaktiv bo'lib, mohiyatan fanlararo bog'liqligi asoslangan.

T.A. Ivanova, I.V. Skugareva, A.Ye. Shabanovalarning tadqiqotlarida globallashtirish jarayonlari keltirib chiqargan ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarini o'qitishning amaliy tajribasi o'rganilgan. Unda chet tillari kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv jarayonini takomillashtirish misollari keltirilgan.

G.I.Okan tomonidan chop etilgan maqolada oliy o'quv yurtgga o'qitishning faol usullarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan, "pedagogik yangiliklar", "faol o'qitish usullari" kabi tushunchalari ochib berilgan. Asosiy e'tibor talabalarni kasbiy tayyorlashda "O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish" innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligiga qaratilgan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Kompyuter ta'limi dasturlari an'anaviy o'qitish usullaridan bir qator afzalliklarga ega, bu birinchi navbatda to'g'ridan-to'g'ri audiovizual interaktiv ta'sir o'tkazish vositasi hisoblanadi. An'anaviy o'qitish usullari bilan birgalikda ularni sinfda qo'llash nutq faoliyatining har xil turlarini o'rgatish, lingvistik hodisalarning mohiyatini anglash, lingvistik qobiliyatlarni shakllantirish, kommunikativ vaziyatlarni yaratish, til va nutq



ko'nikmalarini avtomatlashtirish va individual yondashuvni amalga oshirishni ta'minlash hamda intensivlashtirishga imkon beradi.

Talabaning mustaqil ishi, shuningdek ularning bilim faolligini, motivatsiyasini va sifatini oshirishga yordam beradi. Kompyuter kommunikatsiya texnologiyalari talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtiradigan usullarni yangicha yondashuvda amalga oshirishga imkon beradi. Ular turli xil o'quv saytlari va tematik forumlarda virtual munozaralarda ishtirok etishlari, turli o'quv yurtlari talabari bilan birgalikda qo'shma ijodiy loyihalarni amalga oshirishlari mumkin. Shunday qilib, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ta'limni individualizatsiya qilishning faol shakllaridan biri deb hisoblash mumkin [3].

Yangi texnologiyalarning interaktivligi, multimedia va tarkibni vizualizatsiya qilish kabi ajralmas xususiyatlarni o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, ta'lim mazmunini kompyuter orqali vizualizatsiya qilish, ayniqsa, o'yinlar orqali, interaktiv shaklda, o'quvchilarning kognitiv fikrlash uslublarini, ijodkorligini va aqliy faoliyatini rivojlantiradi, shuningdek, ularning psixologik va emotsional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [5].

Taniqli olim N.K.Ryabtsevaning so'zlariga ko'ra "kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonida evristik yangilikni joriy qiladi va o'z-o'zini samaralibilish va takomillashtirish uchun motivatsiya yaratadi, shuningdek darsni jozibali vahaqiqatan ham zamonaviy qiladi, treningning individualizatsiyasi amalga oshiriladi, nazorat qilish va xulosa qilish o'z vaqtida hamda ob'ektiv shaklda amalga oshiriladi» [6].

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqoridagi tahlillarga asosan ta'kidlash kerakki, xorijiy tillarni o'qitishda kompyuter texnologiyalari va internet-resurslardan foydalanish bugungi kun talabalarida barcha kerakli va munosib vakolatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratishga imkon beradi.



Bugungi kunda professor-o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan zamonaviy g'oyalar va tendensiyalar bilan birgalikda tanishish va ularni keyingi muhokama qilish usullari ham chet tillarini o'qitishda katta motivatsion kuchga ega.

Shu bilan birga deyarli har bir talaba uchun o'zlarining kompyuterlari va Internetga ulangan raqamli qurilmalarining mavjudligi professor-o'qituvchining talabalarni Internet orqali chet tilini o'rganish jarayoniga jalb qilish vazifasini ancha yengillashtiradi [4].

E'tiborlisi shundaki, professor-o'qituvchi raqamli texnologiyalarni tanlashda asosiy savollar quyidagilardan iborat: nimadan foydalanish, qanday foydalanish va eng muhimi, nima uchun u yoki bu manbadan foydalanish kerak. Buning uchun, avvalo, darsning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash, binobarin, ushbu dars doirasida kompyuter yangiliklaridan foydalanish zarur. Keyin biz o'zimizga ushbu maqsad va vazifalarga yuqori samaradorlik bilan erishish uchun qanday resurslardan foydalanishimiz kerakligini va nihoyat, tanlangan o'quv vositasi qanday ishlashini so'rashimiz kerak bo'ladi. Yuqoridagi masalalarni batafsil tushunish talabalarning o'quv jarayoniga jalb qilinishini va kelajakdagi kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Belyaeva I.S. Texnik universitet talabalari uchun ingliz tili darsligini tuzish tajribasidan / I.S. Belyaeva, A.E. Shabanova // Tver davlat texnika universitetining axborotnomasi. Seriya: Ijtimoiy va gumanitar fanlar. - 2016. - No 3. - B. 18–23.
2. Golubeva N. B. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kasbiy yo'naltirilgan chet tili kompetensiyasini shakllantirishning muhim elementi sifatida Universitet axborotnomasi. - 2015. - No 3. - B. 257–261.
3. Ivanova T.A. Rossiyaning yagona ta'lim makoniga integratsiyalashuvi sharoitida Tver davlat texnika universitetida chet tillarini o'qitish / T.A. Ivanova, I.V. Skugareva, A.E. Shabanova // Tver davlat texnika universitetining axborotnomasi. Seriya: Ijtimoiy va gumanitar fanlar. - 2016. - No 2. - B. 88–93.
4. Okan G. I. Universitetda faol o'qitish usullari: mazmuni va amalga oshirish xususiyatlari // Ilmiy muloqot. 2012. No 1. S. 265–270.



5. Trapeznikova G. A., Xabibullina F. Ya. Til fakulteti talabalariga ijtimoiy-siyosiy lug'atni o'rgatishda tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanish // Mari davlat universiteti axborotnomasi. – 2017 yil.

- T. 11. - No 2 (26). -FROM. 46–52.



G.M. Toychieva, professor of physical culture and sport at Fergana branch of the Uzbek state university

SIGNIFICANCE OF "COACHING" METHODOLOGY

Annotation: this article describes the possibility of developing a student's individuality with the help of coaching methodology (such as cognition, awareness, responsibility), a special form of knowledge, creative partnership of two personalities who rely on the student's desire to create their personal and professional life, teaching them to think and comprehend in a new way.

Аннотация: ушбу мақолада коучинг методикаси орқали талабанинг индивидуаллигини ривожлантириш (билиш, англаш, жавобгарлик кабилар), билим беришнинг ўзгача шакли, талабанинг шахсий ва касбий ҳаётини яратиш истагига таянган иккита шахснинг ижодий шериклиги, янгича ўйлаш ва фикрлашга ўргатиш каби имкониятлари мавжудлиги ҳақида фикрлар баён этилган.

Аннотация: в этой статье излагается возможность развития индивидуальности студента с помощью методологии коучинга (такой как познание, осознанность, ответственность), особой формы знания, творческого партнерства двух личностей, которые полагаются на желание студента создавать свою личную и профессиональную жизнь, обучая их думать и осмысливать по-новому.

Key words: coaching methodology, student's individuality, knowledge, awareness, a special form of knowledge transfer, creative partnership, new thinking

Калит сўзлар: коучинг методикаси, талабанинг индивидуаллиги, билиш, англаш, билим беришнинг ўзгача шакли, ижодий шериклик, янгича фикрлаш

Ключевые слова: методология коучинга, индивидуальность студента, знания, осведомленность, особая форма передачи знаний, творческое партнерство, новое мышление

In the education of our republic, researches are being conducted on the issues of improving the educational system based on innovative technologies, strengthening its national ground, raising the training of socially active, competitive personnel to the level of world standards. Quality changes and high efficiency in the field of education depend on their compatibility with the world educational requirements, the achievement of positive results in professional training of students in our country, first of all, on the extent to which their acquired competencies are put into practice. For this purpose, we researched the use of the "Coaching" methodology.

"Coaching" methodology determines the goal and optimal ways to achieve it; increases student independence and responsibility; to be satisfied with one's work; finding new ways of effective cooperation; quickly find an important solution in difficult situations;

alignment of individual goals with the goals of the educational institution; enrich your lifestyle; open new opportunities; enrich life with new productive personal relationships and help others.

Coaching means "to train" in English. In education, it refers to a continuous process that creates an opportunity for the effective activity of the teacher and the student.

Coaching is providing individual consultation to a student to achieve an important educational goal, unlocking his inner potential, forming and developing the necessary abilities and skills, and mastering advanced strategies for achieving results. The purpose of coaching is not to teach something, but to create conditions for self-education so that the student acquires the necessary knowledge and experience.

This methodology is designed to understand the tasks and needs of students for their professional and personal growth, and to expand their opportunities. It is focused on the implementation of plans in various areas of life, such as education, business, interpersonal relationships, family, and physical fitness.

Another major goal of coaching is to teach students how to think and think in new ways. First, it is necessary to establish a relationship of trust.

With the use of coaching, students achieve their goals very quickly, in the most efficient way and with satisfaction. The advantages of coaching are that it improves the effectiveness of educational activities, develops students in all aspects and teaches them in the best ways and methods.

Coaching involves rapid learning, which in turn: brings joy and satisfaction; the interaction in the team improves; the quality of life and learning environment improves; the teacher will have a lot of free time; many creative ideas appear; human resources and skills are used well; unlocks the previously undiscovered talent of students, etc.

Thus, coaching is a creative partnership of two people based on the desire to develop the student's individuality (knowledge, awareness, responsibility, etc.), a special form of education, and the desire to create a student's personal and professional life. This is certainly important in the formation of students' learning competencies. That is why it is important for teachers to study it thoroughly and introduce it into the educational process as a new method entering the educational system.

It is desirable to form learning-cognitive competences in the coaching methodology offered by us based on the MIMM structure: M-motivation, I-information, M-methodology, M-coordination stages, students' interest in learning and understanding is directed to independent activities.

The main factor in the formation of educational competences is the participation of students in creative research, activation of independent work, for this it is preferable to use interesting tasks that train and develop thinking.

Students are guided to independent work based on increasing their motivation to learn. Today's students should be educated in a non-standard manner, leaving a little aside from traditional education. Today is the age of technology and information. It is the need of the hour to educate a student with the ability to think independently and creatively, who can compete.

Coaching, MIMM, reverse learning methods create initiative in solving spontaneous problems in students. These methods form students' modern social skills, such as independent work, logical and creative thinking, designing, self-analysis, showing talent, and applying the acquired knowledge in life.

In the formation of internal motivation of students in higher education, it is necessary to create such conditions for the teacher, in which the social importance of the basis of theoretical preparation, activity (educational-management, educational-informational, educational-logical) is explained. For example, using business games, implementing projects, etc.

Forecasting and planning: the preliminary analysis of problematic situations allows to determine the sequence of activity stages, to choose the necessary tools for its implementation, to understand the nature of the problems, to make the necessary changes, to forecast the expected results.

Classification of concepts, their classification, concretization, and practical application are carried out. Students' activities are organized according to the principles "from abstract to concrete" and "from general to specific".

The final-reflexive stage: the results of problem solving are analyzed, corrections are made, mistakes are worked on. The main role refers to the adequate self-assessment of students, which testifies to the student's readiness for self-development, self-education.

It is worth saying that this type of activity allows reflection of personal self-development, emerges as both internal and external mechanisms of self-organization, and provides an opportunity to predict the development of the further interaction of subjects during the implementation of the project in the independent work process.

LIST OF REFERENCES:

1. Абдуназаров Л.М. Issues on Teaching Ecology in National Continuous Education // Eastern European Scientific Journal Germany, 2018 йил №3. – P. 265- 270. (13.00.00. №1.)



2. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. –p.4-5.

3. Жумабоев С.М. Непрерывное педагогическое образование как условие успешной адаптации молодых учителей // Узлуксиз таълим. – Тошкент, 2007. – № 4. –Б. 49-56. (13.00.00. №9)

4. Жумабоев С.М. Информационные технологии в высшем педагогическом образовании // “Замонавий ахборот –коммуникация технологиялари” Республика илмий амалий анжумани мақолалар тўплами. СамТАТУ филиали -2016 й.

5. Жумабоев С.М. Этапы и требование создания средств электронного обучения в педагогическом образовании // V Международной научно-практической конференции «Инновации в образовании: философия, психология, педагогика», которая состоится 6 декабря 2018 в КУ Сумской областной институт последипломного педагогического образования. Украина 2018 г.

6. Эрназарова Г.О. Основные проблемы применения системы компьютеризация обучения/ Ахборот ва телекоммуникация технологиялари муаммолари мавзусида Республика илмий-техник конференцияси, Тошкент, 2015 йил, 12.03. –Б.455-457

УДК (371.035.3)

MUHANDIS-PEDAGOG SHAXSIGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Mustaqil tadqiqotchi Astanova Moxira Muxtarovna(O'zbekiston)

Annotasiya.*Hozirgi kunda o'qituvchi mehnatining nufuzini oshirish asosiy masalalardan biri. O'qituvchining faol mehnatisiz jamiyatni, jumladan, iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin emas, chunki har qanday rivojlanishning asosida kadrlar turadi. O'qituvchining mas'uliyatli va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi vazifalar yotadi. Bu kabi ishlarni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq.*

Tayanch iboralar: *pedagogik faoliyat, axloqiy fazilatlar: yaxshilik, vijdon, xalollik, rostguylik, burch, mas'uliyat, insonparvarlik, talablar, ishchanlik, shaxsiy sifatlar, bilimdonlik;*

Kirish.Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, kasbini sevishi, o'z kasbiga bo'lgan cheksiz sadoqat o'qituvchini boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki ta'lim maskanlarida ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturida», «uzluksiz ta'limni isloh qilishning yo'nalishlaridan biri, ta'lim tizimini kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilm-fan xodimlarining kasbiy nufuzini oshirish», -deb ko'rsatilgan. Demak, hozirgi kunda o'qituvchi mehnatining nufuzini oshirish asosiy masalalardan biri. O'qituvchining faol mehnatisiz jamiyatni, jumladan, iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin emas, chunki har qanday rivojlanishning asosida kadrlar turadi. O'qituvchining mas'uliyatli va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi vazifalar yotadi. Bu kabi ishlarni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: yoshlarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, ota-

onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarini olib borish va hokazo. Bularning barchasi o'qituvchidan chuqur bilimlarga ega bo'lishni, o'z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim konsepsiyasida o'qituvchi-mutaxassis oldida turgan vazifalar quyidagicha belgilanadi: «Mutaxassis malakasi –chuqur bilim, keng dunyoqarash va kasb tayyorgarligi, kompyuter bo'yicha savodxonligi, o'z bilimlarini tezlik bilan yangilash va to'ldira olish qobiliyati singari omillardan tashkil topadi... Shular qatorida uning intizomi, mas'uliyat, ziyolilik, o'z ishiga, Vatan va jahon taraqqiyoti yo'lida ezgulik va adolatga sadoqat tuyg'ularini ham tarbiyalash zarur»..[A.1;,2].

Ilmiy tadqiqot asosiy vazifalari.

Shuning uchun ham hozirgi jamiyatda o'qituvchining vazifasi quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarni hozirgi zamon dunyo taraqqiyoti darajasida bilimlar bilan qurollantirish;
2. O'quvchilarda bilimga qiziqish va ishtiyoqni tarbiyalash, o'qish motivlarini rivojlantirish;
3. O'quvchilarning ma'naviy o'sishiga alohida e'tibor qaratish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va e'tiqodni shakllantirish orqali ularni vatanparvarlik, baynalminallik ruhida tarbiyalash;
4. O'quvchilarni axloqiy, huquqiy, etik va estetik bilim, mahoratlarning rivojlanishiga e'tibor qaratish;
5. Bo'lajak avlodni hayotga, ongli mehnat va kasb tanlashga tayyorlash;
6. Yoshlarda ishbilarmonlik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik sifatlarini rivojlantirish;
7. Ta'lim jarayonini takomillashtirish o'zining kasb mahoratini oshirish, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya sirlarini o'rganish uchun tinimsiz ijodiy ishlash, izlanish;

Ushbu fikrlar o'qituvchilarga bevosita ta'luqli. Chunki jamiyatimizda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, bozor munosabatlariga kirib borishimiz o'qituvchidan nafaqat kasbiy bilimlarni, balki iqtisodiy, yuridik, texnikaviy bilimlardan ham xabardor bo'lishni taqozo qilmoqda. .[A.2;,3;,4].

Usullar va muhokama. Bolalar maktabda rivojlanishning turli davrlarini: bolalik, o'smirlik, o'spirinlik pallalarini bosib o'tadilar. Bolalarning yoshi rivojlanish darajasiga ko'ra ularga beriladigan tarbiyaning mazmuni o'zgarib boradi, yoshi ulg'aygan sari ularga talab ham ortadi. Shu tufayli o'rta va katta yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularning mustaqilligiga suyanib ish ko'rish yaxshi natija beradi.

O'qituvchi o'quvchilarga nisbatan muayyan holatda tursagina (bu holat ularning yoshiga qarab turlicha bo'ladi) pedagogik ta'sir ko'rsatishni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi. Mazkur holat o'quvchilar bilan muomala sohasida o'qituvchining asosiy yo'l-



yo'rig'idan iborat bo'lib, u o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlariga monand bo'ladi. Turli yoshdagi o'quvchilarning muomalasiga ta'sir ko'rsatish sub'ekti bo'lgan o'qituvchi tutgan yo'l va mahoratining umumlashtirilgan tavsifini quyidagicha tasavvur qilishi mumkin: quyi sinflarda o'qituvchi tashkilotchi bo'lib maydonga chiqadi. V. Dalning lug'atiga qaraganda-tuzuvchi-ta'sis etuvchi (tashkil etish-yo'lga qo'yish, qat'iy asoslash degan so'zdan) ma'noni bildiradi.

Pedagogning kichik yoshdagi o'quvchilar hayotiga -ta'sir ko'rsatishining asosiy mazmuni uni tashkil etish zarurati bilan belgilanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar jamoalarida talabchan va quvnoq tarbiyachi bo'la oladigan, bolalarning faol ijodkorlik bilan to'la hayotini tashkil etib, ular orasida o'zaro xayrihoxlik, g'amxo'rlik vaziyatini, zavqli vaziyatni vujudsa keltira oladigan tarbiyachilar katta obro'-e'tibor qozonadilar. Bolalar katta yoshdagi bunday kishilarni o'z do'stlari deb qabul qilishga moyildirlar. Bunday munosabat eng yaxshi munosabatdir, chunki u katta yoshdagi kishiga tashkiliy vazifalarni hal etishni osonlashtiradi, tarbiya vazifalarini mohirlik bilan samarali hal etishga yordam beradi. O'smirlar o'qiydigan sinflarda o'qituvchining holati rahbar degan so'z bilan ifodalanishi mumkin. V. Dal bu so'zni quyidagicha, ya'ni ko'rsatuvchi, murabbiy, ishboshi, boshlovchi deb ta'riflaydi.

Ta'lim – tarbiya jarayonining hamma tomonlari umumsinf o'quvchilari jamoasiga xos xususiyatlarga amal qilgan holda yo'lga qo'yiladi. Ammo, har bir o'quvchi o'ziga xos jismoniy, axloqiy, aqliy, ruxiy va boshqa xususiyatlarga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Shu boisdan ta'lim jarayonida guruhdagi o'quvchi-talabalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ish ko'rish muhim didaktik ahamiyatga ega.

Dars davomida har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini to'la hisobga olish juda qiyin va har doim ham buning iloji bo'lavermaydi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'rtoqlari va boshqalarga bo'lgan munosabati, xulqi, irodaviy sifatlarini o'rganadi, ular bilan suhbatlashadi. Kuzatish jarayonida pedagog o'quvchining kuchli va ojiz tomonlarini, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga mos bo'lgan xususiyatlarni bilib oladi, o'quvchilarning hayotiy va mehnat qobiliyatini o'rganadi. Mohir pedagog o'quvchilar psixologiyasini ham yaxshi o'rganib, ularda fanni o'zlashtirish darajalarini qay darajada oshirish yullarini topadi. .[A.4;6].

Tadqiqot ob'kti. Qarsi muhandislik –iqtisodiyot instituti. Pedagogning professional pozitsiyasi. O'qituvchining axloqiy fazilatlari. Pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq va asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomalada o'zini to'la olishi zarur. Shuningdek, bolalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomalalik, kuzatuvchanlik, keng fikrlay olish, tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjudligi ham kishining pedagogik ishga yaroqliligini ko'rsatadi.

O'qituvchining muhim fazilati – kishilar bilan tez til topisha olishi, ko'pchilikka aralasha bilish, ulfatijon, dilkashlik bo'lib, bu unda muomala madaniyatining yuksakligini ifodalaydi. Chunki o'qituvchiga hamisha odamlar bilan aloqa qilishga, ular bilan ishlashga to'g'ri keladi.

O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy (fazilat) sifatlarda ifodalanadi. Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi obro'sini oshiradi va pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmat, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchan va adolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi, halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlarini hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun kata amaliy ahamiyat kasb etadi. [A.4;,5].

Yaxshilik –ijobiy axloqiy fazilat bo'lib, xulqiy sifatlarning majmuini, inson faoliyati yoki biror xatti-harakatiga ijobiy munosabatning yig'indisini aks ettiradi. Yaxshilik qaror topishi uchun pedagogik jarayonda yomonlikka murosasiz bo'lish, yaxshi istak bilan xushmuomala qilish, yaxshi qiliq, yaxshi xatti-harakatlarning birligi zarur.

Burchga sodiqlik har bir kishining odobi, axloqini ko'rsatadi. Har bir ishda, har bir masalada muallim o'z burchiga sodiq bo'lishi zarur. O'qituvchi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish sohasidagi o'z burchini zo'rlik tufayli yuklatilgan majburiyat emas, balki o'z hayotining ma'nosi, ishonch va vijdon da'vati deb hisoblaydi.

O'qituvchining kasbiy-axloqiy fazilatlaridan biri talabchan va adolatli bo'lishdir. Pedagogik faoliyatda adolat bo'lish bolani o'qituvchiga bo'lgan ishonch-muhabbatiga olib keladi. Albatta, pedagogda vijdon bo'lishi kerak. Pedagog hech qachon o'z fikrini o'quvchilarga majburan o'rgatishiga va majburan javob olishga harakat qilmasligi kerak, aks holda o'quvchi o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar keskinlasha boshlaydi.

Bilimdonlik, halollik, rostguylik – o'qituvchining muhim axloqiy fazilati hisoblanadi. Bu fazilatlar insoniy munosabatlarni go'zallashtiradi. O'qituvchining ma'naviy boyligi, bilimdonligi xalq manfaatiga, yoshlarning baxti, istiqboli, kelajagiga qaratilishi, xizmat qilishi zarur. Muallimning bilimdon bo'lishi, insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklarni ko'paytirishi va uni yoshlarga astoydil o'rgatishi, o'z ishidan qanoat hosil qilishi, o'z kasbini, bolalarni dildan sevib, berilib ishlashi – bularning barchasi o'quvchi shaxsining shaxsining shakllanishiga bebaho axloqiy ta'sir etadi. O'qituvchining ma'naviy qiyofasida halollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, oddiylik va kamtarinlik muhim fazilatlar hisoblanadi. [A. 5;,6;,].



Tadqiqot natijalari. Pedagogga qo'yiladigan talablar: ishchanlik sifatleri, shaxsiy sifatlar, pedagogik mahoratni namayon qilish orqali barkamol insonni tarbiyalash, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish .

O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oliyjanob, yuksak va eng murakkab vazifadir. Har bir bola o'z hulq-atvoriga, xarakteriga ega. Yoshlarni tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o'rganish nihoyatda murakkab. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim.

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mafkuraviy sohada – ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, sotsial extiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy-siyosiy faollik;
- kasbiy pedagogik sohada – bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish; psixologo-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati; haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish; vazminlik, o'zini tuta bilish; kasbiy layoqatlilik;
- bilish sohasida – keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish.

Boshqa ta'lim turlarida bo'lganidek, oliy maktab o'qituvchisi shaxsiga ham jiddiy talablar qo'yiladi. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan eng muhim talab uning yuqori malakali bo'lishidir. Balki uningsiz pedagogik faoliyat yuritib bo'lmaydi. Oliy maktab o'qituvchisi ham shunday talablarga javob berishi kerakki, bunda talabalar uni yuksak darajada bo'lg'usi mutaxassisni shakllantiradigan shaxs darajasiga ko'tarsin.

Oliy maktab o'qituvchisiga quyidagi muhim va doimiy talablar qo'yiladi:

- jamiyat rivojlanishining siyosiy, sotsial va iqtisodiy yo'nalishlarini to'g'ri baholay olishi;
- pedagogik faoliyatni sevishi;
- o'z sohasi bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishi;
- zakovatli bo'lishi;
- pedagogik tuyg'u;
- yuksak yetuklik;
- umumiy madaniyat va axloqning yuksak darajasi;
- pedagogik texnologiyalarni mahorat bilan egallagan bo'lishi.



Yuqorida sanab o‘tilganlar, pedagog shaxsiga xos bo‘lgan tug‘ma xislatlar emas, balki ular pedagogning o‘z ustida muntazam va betinim mehnati, ulkan xizmatlari natijasida yuzaga keltiriladi.[A.5;,6;,7].

Xulosa

Tashabbuskor va g‘ayratli o‘qituvchi yoshlarni (talabalarni) o‘z orqasidan ergashtira oladi, o‘quvchilar unga ishonadi va ergashadi.

Xullas, har bir o‘qituvchi o‘z ustida tinmay ishlashi kerak hamda barcha sohada chuqur bilimli bo‘lishi talab etiladi.O‘qituvchi hozirgi zamon talablariga javob beradigan yuksak axloqiy-ma‘naviy sifatlarga ega bo‘lgan, chuqur bilim va mahorat egasi bo‘lishi lozim.Vatan tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur biladigan, ma‘naviy komil inson bo‘lishi; O‘z fani doirasida chuqur bilimga ega bo‘lgan, fanlararo aloqalarni yaxshi bilish va uni o‘quvchilarga o‘rgatish; Pedagogik texnologiyani yaxshi biladigan, uning yangi-yangi yo‘llarini yarata oladigan, izlanuvchan, ijodiy ishlaydigan pedagogik mahorat egasi bo‘lish; Pedagogik muomala madaniyatini yaxshi egallagan, o‘z hissiyotini idora qiladigan, sabotli bo‘lishi, pedagogik etika qoidalariga amal qiladigan bo‘lishi;Dunyo taraqqiyoti darajasidagi bilimlardan xabardor, ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lgan inson bo‘lishi;[A.7;,8].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davletshin M.T, Tuychieva S.M. «Umumiy psixologiya» T., 2002 y.
2. Zunnunov A, Xayrullaev M., Pedagogika tarixi. T: «Sharq», 2000 y.
3. Zunnunov A. O‘zbek pedagogikasi tarixi. T: «O‘qituvchi», 1997 yil.
4. Mavlonova R, To‘raeva O., Pedagogika. T: «O‘qituvchi», 2001 y.
5. Munavvarov A.Q. tahriri ostida. Pedagogika. T: «O‘qituvchi», 1996 y.
- 6.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Q: «Nasaf» nashriyoti, 2000 y.
7. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. T: « O‘qituvchi», 1997 yil.
8. Xo‘jaev N, Hasanboev J., Iqtisodiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma, T-2002 yil

KORXONALARNING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI

Rejabbaev Sarvar Umarxonovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Zamonaviy shiddatli raqobat sharoitida korxonalar va kompaniyalar o'zlarining investitsion jozibadorligini oshirishlari kerak. Shu bilan birga, barcha korxonalar ham turli sabablarga ko'ra investitsiya loyihalarini amalga oshira olmaydi. Ko'pincha, investitsiya salohiyati mavjud bo'lganda, bir qator tashkilotlar boshqa xarakterdagi qiyinchiliklarga duch kelishadi. Maqolada iqtisodiy munosabatlarning barcha manfaatdor subyektlarini jalb qilgan holda moliya bozorlarida korxonalarining investitsiya faolligini oshirish vositalari va usullari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *investitsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar bozori, investitsiya strategiyasi, soliq imtiyozlari, soliq krediti, davlat kafolati, amortizatsiya siyosati, klaster.*

Аннотация. *В современных условиях жесткой конкуренции предприятиям и компаниям необходимо повышать свою инвестиционную привлекательность. В тоже время далеко не все предприятия смогут реализовать инвестиционные проекты в силу различных причин. Зачастую при наличии инвестиционного потенциала ряд организаций сталкивается с трудностями разного характера. В статье рассматриваются инструменты и методы повышения инвестиционной активности предприятий на финансовых рынках с привлечением всех заинтересованных субъектов экономических отношений.*

Ключевые слова: *инвестиционная активность, рынки ценных бумаг, инвестиционная стратегия, налоговое льготирование, налоговый кредит, государственная гарантия, амортизационная политика, кластер.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar deyarli barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tashqi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi. Ishlab chiqarishni aylanma mablag'lar bilan ta'minlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hozirgi iqtisodiy vaziyatning asosiy muammolaridan biridir. Arzon va qulay bank kreditidan mahrum bo'lgan iqtisodiyot tabiiy ravishda ishlab chiqarish maqsadlarida moliyaviy resurslarni jalb qilishning boshqa shakllarini qidiradi. Ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb etishning asosiy shakli korxonaning moliya bozoriga chiqishi bo'lishi kerak. O'z navbatida, kompaniya zamonaviy bozorni o'rganishi va qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirok etishi kerak. Moliyaviy bozorlar orqali investitsiyalarni jalb qilish raqobat muhitida tashkilotlarning normal ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Bunga kapitalni rivojlantirish va texnik takomillashtirishga, barqaror va samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan moliyaviy zaxiralarni yaratishga mablag'larni tizimli ravishda kiritish orqali erishiladi. [1]

Uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishning eng muhim tarkibiy qismi, albatta, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish hisoblanadi. So'nggi paytlarda O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiya jarayonlarining faollashuvi kuzatilmoqda. Shu bilan birga,



investitsiyalarning umumiy miqdori mutlaq ko'rinishda ichki iqtisodiyotning mablag'larga bo'lgan haqiqatda zarur bo'lgan ehtiyojini aniq qondirmadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, investitsiya faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar quyidagilardir:

Yuqorida ta'kidlanganidek, Leksikologiya leksikani o'rganadi, leksika esa so'zlardan (so'zlar majmuidan) iborat bo'ladi, shunday ekan birinchi navbatda so'zning o'zi haqida, uning mohiyati haqida to'xtab o'tishga to'g'ri keladi. Ayrim ishlarda «asosiy til birligi», «til va nutqning eng muhim elementlaridan biri», «tilning eng kichik asosiy birligi» deb umumiy tarzda va oddiygina ta'riflanadigan so'z aslida juda murakkab xususiyatga ega. Uch – to'rt og'iz so'z, hatto uch – to'rt jumla bilan ham so'zga to'la ta'rif berib bo'lmaydi. Shu vaqtga qadar lingvistik adabiyotlarda so'zga uning boshqa hodisalardan farqini belgilovchi aniq, mukammal ta'rif yo'qligining boisi ham ana shunda. So'z til birligi sifatida juda murakkab xususiyatga ega ekan, so'zga qandaydir umumiy yoki aniq ta'rif berishdan ko'ra, uning o'ziga xos tomonlarini, boshqa til birliklaridan farqli belgi –xususiyatlarini yoritish muhimdir. Oddiy nazar tashlashdayoq so'zning tovushdan, tovushlar majmuidan tuzilishi aniq seziladi. Barcha tillarda ham so'z asosan birdanortiq tovushdan tuziladi. Bir tovushdan iborat so'zlar juda kam miqdorni tashkil etadi (so'roq bildiruvchi – «a», achinish, afsuslanish bildiruvchi – «e» so'zlari). Shuningdek, har qanday so'zning ma'lum bir ma'no ifodalashi ham shu tilda so'zlashuvchilar uchun sir emas. Ma'lum bir ma'noga ega bo'lmagan har qanday tovush yoki tovushlar majmui hech vaqt so'z bo'la olmaydi. Har qanday so'z paydo bo'lishidayoq o'z ma'nosi va tovush qiyofasiga (tovush qobig'iga) ega bo'ladi. Demak, har qanday so'z, avvalo, tovush va ma'no birligiga ega bo'ladi. Bu narsa so'zning fonetik va semantik tomoni. So'zning tovush tomoni uning ma'nosini reallashtiruvchi (yuzaga chiqaruvchi)dir. Xuddi shu tovush tomoni (tovush qiyofasi) bilan so'zning ma'nosi tinglovchiga yetadi, tushuniladi. Demak, u so'zning ma'nosi uchun, uning



reallashuvi uchun xizmat qiladi [5].

Soʻzning maʼnosi maʼlum tovushlar majmuida reallashishi sababli bu maʼnoni tovushlar majmui, tovushlarning maʼlum tartibdagi birligi hosil qiladigandek tuyuladi. Boshqacha aytganda, tovushlar «maʼnosi»ning birligi soʻzning maʼnosidan iboratdek boʻlib koʻrinadi. Haqiqatda esa bunday emas. Garchi tovushsiz soʻz boʻlmasa – da, biroq u yoki bu soʻzning mazmuni shu soʻzni tashkil etgan tovushlar «maʼnosi»ning yigʻindisidan kelib chiqmaydi. Tovushlar (fonemalar) maʼnoga ega emas. Shuning uchun tovushlarning har qanday majmui maʼno ifodalayvermaydi. Masalan, “*o, d, a, m*” tovushlaridan iborat “*odam*” tovush majmui maʼlum maʼno ifodalagani (soʻz boʻlgani) holda, shu tovushlarning “*adom*”, “*admo*” yoki “*odma*” majmui hech qanday maʼnoga ega emas va ular soʻz ham emas. Xuddi shu fonemalardan tashkil topgan “*omad*” ham maʼnoga ega va soʻz hisoblanadi. Lekin u “*odam*” soʻzidan tamomila boshqa soʻz.

Toʻgʻri, soʻzning tovush qobigʻida oʻzgarish boʻlsa-da, maʼno saqlanishi, demak, soʻzning oʻzi ham saqlanishi mumkin. Leqin bu hodisa (tovush qobigʻidagi oʻzgarish) “*birdaniga*” (darhol) emas, balki til taraqqiyoti jarayonida yuz bersagina shunday boʻladi. Bu hodisa tub soʻzlardagina emas, balki yasama soʻzlarda ham yuz berishi mumkin. Masalan, *evur – oʻgir (aylantir), biragu – birov, iroq – yiroq, yogʻoch – ogʻoch, kiprik – kirpik, qoʻimi – qoʻnshi, magiz – mayiz* va hokazo. Soʻzning tovush qobigʻida boʻladigan bunday oʻzgarishlar soʻzning oʻz maʼnosi bilan yashash jarayonida maʼlum qonuniyatlar asosida roʻy beradi. Shuning uchun ham bu oʻzgarish maʼnoning, shu bilan birga soʻzning yoʻqolishiga olib kelmaydi.

Soʻz tovush qobigʻining oʻzgarishi bilan (tovushning sifat yoki miqdoriy oʻzgarishi, tovush tartibining oʻzgarishi bilan) maʼnoning oʻzgarishi, yangi soʻz hosil boʻlishi hodisasi ham bor: *koʻr – koʻz, artmoq – arch(i)moq) artmoq – derazani artmoq, stolni artmoq; archi(i)moq: kartoshkani arch (i)moq* va boshqalar⁵. [5.9.] Soʻzning ikkinchi muhim belgisi maʼlum maʼnoga egaligidir. Lekin soʻzlar ifodalaydigan maʼnolar bir xil emas. Ular eng umumiy xususiyatlari bilan ham turli tipga boʻlinadi. Masalan, ayrim soʻzlar obʻektiv



borliqdagi narsa – hodisa, belgi, harakat kabilarni bildiradi (shu narsa – hodisa, belgi, harakatni ataydi): *bogʻ, daryo, koʻk, baland, oʻqimoq* va hokazo;

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, yuqoridagilardan maʼlum boʻladiki, soʻz nihoyatda murakkab xususiyatlarga ega boʻlgan til birligidir. U oʻzining muhim belgi – xususiyatlari bilan tilshunoslikning maxsus boʻlimlarining oʻrganish obʻekti boʻladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Musajon Bobojonov. Jahon tillari haqida eng, eng, englar. 27.10.2012. <https://m.ok.ru>
2. Bozorboy Oʻrinboyev. Leksikologiya. <https://qomus.info>
3. Oʻzbekiston SSR FA Tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik boʻlimi tomonidannashrga tayyorlangan Oʻzbek tili leksikologiyasi. Toshkent. 2011 yil.
4. Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent. 2015 yil.
5. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 1 – jild. Toshkent, 2016 yil.

UO'K 626.826.624.69

SUG'ORILADIGAN MAYDONLARDA YOPIQ GORIZONTAL DRENAJ QURUVCHI MASHINANING SAMARALI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISH

Vafoyev R.S. – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti

Email: vafoyevrustam@gmail.com

Imomov Sh.J. – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori, t.f.d. prof.

Email: shavkat-imomov@rambler.ru

Annotatsiya. Maqolada xorijda va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yopiq gorizontaal drenaj quruvchi mashinalarning qisqacha tahlili berilgan bo'lib, ularni yutuq va kamchiliklari keltirilgan. Kamchiliklarni bartaraf qiluvchi yopiq gorizontaal drenaj quruvchi mashinaning takomillashtirilgan konstruksiyasi ilmiy asoslari bilan berilgan. Tavsiya etilayotgan drenaj mashinasi chuqurligi 1,5 m, eni 0,3 m bo'lgan drenaj transheyasiga drenaj quvuri va sizdirgich materialni o'tqizib bir vaqtda qayta ko'mib, uni zichlash texnologiyasi berilgan.

Kalit so'zlar: grunt, zichlik, namlik, transheya, drenaj, mashina, tezlik, quvvat, kuch, ona grunt, yumshatilgan grunt, zichlangan grunt, texnika, texnologiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 - iyuldagi PF-6024-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi" Farmonida yerlarni meliorative holatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan [1].

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda drenajlarning o'rni juda muhim bo'lib, ayniqsa sug'oriladigan yerlarda yopiq gorizontaal drenajlarni qurish orqali yerlardan foydalanish koeffitsiyentini oshirish mumkin.

Hozirda xorijdan olib keltirilib ishlatilayotgan drenaj mashinalar ayrim texnik va texnologik sabablarga ko'ra ishlab chiqarishda o'z samarasini bermayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Yopiq gorizontaal drenaj quruvchi mashinalar 3 turga bo'lib o'rganiladi. 1-transheyali; 2-transheyasi toraytirilgan; 3-transheyasiz [2].


Bu turlarning hammasi mamlakatimizning sug'oriladigan yerlarda qurilgan bo'lib ular deyarli ishlamaydi. Buning asosiy sababi, bu mashinalar ustida kengroq ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Agarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilganda, bularning qaysi biri mamlakatimizning sug'oriladigan yerlarga qo'llanilishi mumkinligi aniq bo'lar edi. Jahon va mamlakatimizda yopiq gorizontaal drenajlarni qurish texnologiyasi o'rganilganda nima uchundir bizning mamlakatimizda drenaj transheya chuqurligi 3 m qilib, Yevropa mamlakatlarda esa 1,5 m qilib belgilanganligi asoslanmagan [3,4].



2-rasm. Plastmassa quvurlarni yotqizuvchi drenaj mashinasi

Transheyasi toraytirilgan drenaj quruvchi mashinaning umumiy ko'rinishi 2- va 3- rasmlarda ko'rsatilgan. 2-rasmda ko'rsatilgan drenaj mashinasi chuqurligi 3 m, eni 0,3 m bo'lgan transheya qazilib, unga plastmassali quvurni o'rnatish bilan birga transheyadan qazib chiqarilgan gruntni qayta ko'mib ketadi. Mashinaning ishchi tezligi 10...150 m/soat bo'lib, massasi 23 t ni tashkil qiladi. Dvigatelning quvvati 80 kW. Bu mashina yordamida sizdirgich materialni bilan drenaj quvuri o'ralmaydi

Transheyasi toraytirilgan drenaj quruvchi mashinaning umumiy ko'rinishi 3-rasmda ko'rsatilgan. ДУ - 301 А rusumli drenaj mashinasi chuqurligi 3 m, eni 0,3 m, mashinaning ishchi tezligi 10...150 m/soat bo'lib, massasi 23 t ni tashkil qiladi. Dvigatelning quvvati 80 kW. Bu mashinaning asosiy kamchiligi transheyadan chiqqan gruntni qayta ko'mmaydi. Buning uchun alohida texnika talab qiladi.



3-rasm. ДУ-301 А rusumli drenaj mashinasi

Yuqoridagi mashinalarning drenaj qutisining hajmi katta bo'lib, unga sizdirgich materialni maxsus mashinada olib keltirilib solinadi. Quyidagi drenaj qutisining hajmi kichraytirilgan plastmassa quvurlarni yotqizuvchi drenaj mashinasining sxemasi keltirilgan (4-rasm). Drenaj mashinasiga parallel ravishda sizdirgich materiallari aravacha traktorga tirkama ravishda o'rnatilgan bo'lib, u sizdirgich materialni drenaj qurish jarayonida yetkazib beradi.


Bu mashinada tasmali yuklagich yo'q bo'lib, qazilgan grunt qarshilik kuchlari yordamida transheyaning ikki qirg'og'iga chiqarib tashlanadi.



4-rasm. Drenaj quruvchi mashinaing ish jarayoni

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf qiladigan konstruksiyasi takomillashtirilgan drenaj mashinasini loyihalash bo'yicha institut (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti) olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib bormoqda. Uning dastlabki natijalari maqolada keltirilgan.

Taklif etilayotgan samarali texnologiya: Yuqorida qilingan tahlil va hisoblashlar asosida mashinaning takomillashtirilgan konstruksiyasini loyihalash mumkin



6-rasm. Konstruksiyasi takomillashtirilgan drenaj quruvchi mashina:

a-yon tomondan koʻrinishi; *b*-ustidan koʻrinishi; 1-tractor bazasi; 2-transheya qazuvchi ish jihozi; 3-drenaj qutisi; 4-agʻdargich; 5-gruntni zichlovchi parrakli ish jihozi; 6-qayta koʻmilgan grunt; 7-zichlangan grunt; 8-sizdirgich materiali; 9-drenaj quvuri; 10-transheyadan chiqqan grunt; 11-tayanch gʻildiragi

Bunda, drenaj quruvchi mashina 1 ning zanjirli ish jihozi 2 ga gruntni qirquvchi tishlar va uning orqasida kuraklar oʻrnatiladi, drenaj qutisi 3 takomillashtirilib, uning hajmi (chuqurligi 1,5 m, uzunligi 1,2 m va eni 0,3 m) 0,54 m³, drenaj qutisi maxsus ramaga payvandlanadi, rama qoʻzgʻaluvchan qilib mashinaning yurish uskunasi ramasiga oʻrnatiladi, drenaj qutisi ramasining oxiriga tayanch gʻildiraklari 11 ning oʻqi joylashtiriladi, drenaj qutisining ramasiga boltli birlashma yordamida gruntni transheyaga qayta koʻmuvchi agʻdargich 4 lar oʻrnatiladi, drenaj qutisining orqasiga gruntni zichlovchi parrakli ish jihozi 5 oʻrnatilgan boʻlib, u harakatni rostlanuvchi gidromotordan oladi, drenaj qutisi koʻtarib-tushiriladi. Maxsus moslama orqali amalga oshiriladi (6-chizma).

Mashinaning ishlatish tartibi. Mashina maxsus mashina tashuvchi aravalar yordamida drenaj quriladigan maydonga keltiriladi. Drenaj mashinasi aravadan tushirilib, drenaj quriladigan joyga keltiriladi (bunda mashina drenaj nishabligiga qarshi yoʻnalishda) va oldin transheya qazuvchi ish jihozi harakatga keltirilib, loyihadagi chuqurlikgacha tushiriladi, mashina 2 m masofani oʻtgandan soʻng, drenaj qutisi ham qazilgan transheyaga tushirilib, mashina toʻxtatiladi, qutidagi tarnovdan drenaj quvuri oʻtkaziladi, drenaj



mashinasining o'qi bo'ylab harakatlanadigan traktor va unga tirkama qilib o'rnatilgan maxsus aravachadagi sizdirgich materiali tasmali yuklagich orqali qutiga yo'naltirilib, quti to'ldiriladi, drenaj mashinasi harakatga keltirilib, drenaj qurish boshlanadi, yuqorida aytilganidek, drenaj mashinasidagi gruntni chiqarib tashlovchi tasmali yuklagich bu mashinada yo'q (aslida uni harakatga keltirish uchun 6...8 kW quvvat kerak bo'ladi), bunda kurakli ish jihozi yordamida qazib chiqarilgan grunt, o'z og'irligi va kurakli ish jihozi yordamida surilish natijasida grunt transheyaniq ikki qirg'og'iga joylashadi va bu gruntlar ag'dargich yordamida transheyaga qayta ko'miladi, qayta ko'milgan grunt parrakli ish jihozi yordamida zichlanadi.

Xulosa

Yuqorida sanab o'tilgan bir qancha texnikalardan foydalanishning kamchiligi qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

- ayrim mashinalarning drenaj transheyasini qazib, unga drenaj quvuri va sizdirgich materialni o'rnatish bilan birga undan qayta chiqqan gruntni ko'mish jarayoni amalga oshirishi bilan o'zlarining afzalliklarini ko'rsatsada, qayta ko'milgan gruntning zichlanmasligi oqibatida drenajni ishdan chiqishiga sabab bo'ladi;

- ayrim mashinalar drenaj quvuri sifatida niqoblangan drenaj quvurlarni yotqizadi, buni faqat zax qochiriladigan maydonda qo'llash mumkin. Sug'oriladigan maydonlarda ayniqsa bizning mamlakatimizda il va gilning mavjudligi drenaj quvurlarini kamida 15 sm lik sizdirgich materiali bilan qoplashni taqozo etadi

- hozirda talab qilinadigan texnologiya bo'yicha drenajni qurish, gruntni qayta ko'mish va qayta ko'mish jarayonida zichlash texnologiyalarni birlashtiruvchi bironta mashina yo'q

Biz taklif etayotgan texnika va texnologiyada quyidagi afzalliklarni keltirish mumkin:

- konstruksiyasi takomillashtirilgan drenaj mashinasining ish unumdorligi yuqori bo'lib, massasi deyarli 50 foizgacha kamaygan;

- drenaj o'lchamlarining chuqurligi 1,2-1,5 m eni 0,3-0,5 m bo'lishi ish jihoziga tushadigan yuklamani kamaytirib, kichik quvvatli (50...80 kW) dvigatellarni qo'llash mumkin bo'ladi. Bunda yoqilg'ining sarfi ham 50 foizgacha qisqaradi;

- an'anaviy drenaj qurish texnologiyasida 3 turdagi mashina ishlatilgan bo'lsa (drenaj quruvchi, qayta ko'muvchi va qayta ko'milgan gruntni zichlovchi) taklif qilinayotgan texnologiyada bu ishlarni bajarish uchun bir mashina ishlatiladi;

- an'anaviy usulda drenaj quvurlarni yuvib tozalovchi (ikkita traktor, ikkita nasos stansiyasi va boshqalar) qo'llanilsa, taklif qilinayotgan texnologiyada bunga hojat qolmaydi. Sabab, drenaj quvuri ichiga uni qurish jarayonida zanglamas po'lat arqon tashlab ketiladi va bu arqondan drenaj quvurini yuvib tozlashda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 - iyuldagi PF-6024-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. (www.lex.uz), 2020 yil 10 iyul.
2. Vafoev S.T. Yopiq gorizontaldrenajlarni qurish va ishonchli ishlashining ilmiy asoslari. – Toshkent: FAN. 2005. 124 b.
3. Mirsagatov A.N., Vafoev S.T. Sposob zasypki drenajnoy transhei. A.s. №1532659, BI, 1989, №48..
4. Vafoev S.T., Usmonov T. Drenajni himoyalash. //J.O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2004.№8. 33 – 34 betlar



SHO'RLANGAN VA O'TA SHO'RLANGAN TUPROQ TARKIBIDAGI TUZLARNI YUVISH TEXNIKA VA TEXNOLOGIYASI

*Vafoyev S.T. – Gidromelioratsiya ishlarining texnika va texnologiyasi kafedrasini prof. v.b.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot
universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti*

Email: saf0195400@gmail.com

*Jo'rayev A.A. – Gidromelioratsiya ishlarining texnika va texnologiyasi kafedrasini mudiri, PhD
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot
universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti*

Email: akramjurayev@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada sho'rlangan va o'ta sho'rlangan yerlarda qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olish uchun, tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvib chiqaruvchi texnika va texnologiyalari yoritilgan. 0,4...0,5 m chuqurlikka diametri 50 mm bo'lgan drenaj quvurlari o'rnatilgan bo'lib, drenaj quvurlarning boshi va oxirida maxsus tiqinlar joylashtirilgan. Maxsus ajratilgan yuz metr kvadrat yuzaga oraliqlari 60 sm bo'lgan drenaj quvurlari o'rnatilgan. Bu vaqtda esa ikkala tiqin ham yopiq holatda bo'ladi. Ajratilgan maydonning sho'rini yuvishda birinchi marta maydonga 15 metr kub suv berildi. Tuproq tarkibidagi tuzlarni erishi uchun 2-3 soatdan keyin quvur uchidagi tiqinlar ochildi. Shunda tuproq tarkibidagi tuz miqdori 4 marta kamaydi. Ikkinchi marta shu hajmdagi suv berilganda esa ikki marta tuz miqdori kamaydi. Natijada tuproq tarkibidagi tuz me'yor darajasiga yetdi. Bu usulni qo'llash orqali har 3-4 yilda bir marta tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvish mumkin. Bu esa suvni 6-8 marta tejash imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: tuproq, sho'rlangan, tuz, quvur, drenaj, sizdirgich, tiqin, aralashma, suv, sho'r suv, miqdor, eritma

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 08.04.2021 yildagi 190-son "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning sho'rini yuvish ishlarini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarorda ko'rsatilganidek mamlakatimizning ayrim hududlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlari) da sug'oriladigan maydonlarning 50 % i dan ortiq sho'rlangan yoki o'ta sho'rlangan hisoblanadi.

Bu maydonlardan yuqori hosil olish uchun tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvish texnologiyasi olimlarimiz tomonidan tavsiya etilgan. Tavsiyaga ko'ra, har yili bu maydonlar 2-3 marta suvga bo'ktirilib sug'oriladi va natijada tuproq tarkibidagi tuzlar erib aralashma hosil qilinadi. Bunda har bir gektarga bir marta yerni sho'rini yuvish uchun 1500-2000 metr kub suv sarflanadi. Bu jarayon har yil amalga oshirilsada tuproq tarkibidagi tuz keskin kamaymaydi. Bu esa har yili 4000...6000 metr kub suv ortiqcha sarflanishiga olib keladi. Mamlakatimizda suv tanqisligini hisobga olgan holda undan oqilona foydalanib, suv tejankor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishni taqozo etadi. Hozirda qishloq xo'jalik ekinlarni sug'orishda suv tejankor texnologiyalarni (tomchilatib sug'orish, turoq ostidan namlab sug'orish, yomg'irilatib sug'orish) qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va ular qisman qo'llanilmoqda. Bu olimlarning tavsiyasiga ko'ra, quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- yer kuzda yaxshilab shudgorlanib, katta maydonlar yerning past balandligiga qarab, mayda maydonchalarga ajratilib, baland roshlar qo'yiladi;

- bu maydonchalar suvga to'ldirilib, tuproqning suvga to'yinish darajasigacha ma'lum vaqt ushlab turiladi;

- suv bilan tuproq tarkibidagi tuz erib aralashma (suv tuz aralashma) sini hosil qiladi;

- bu aralashma ma'lum muddatgacha tuproqqa shimiladi.

Bu usul yaxshi natija beradi qachonki, drenajlar sho'r yuviladigan maydonlarga yaqin bo'lsa. Bunda tuproq tarkibidagi sho'r suv drenajga o'tib ketadi. Bizlarning Buxoro viloyati Kogon tumanidagi sug'oriladigan yerlar bo'yicha kuzatuvimiz shuni ko'rsatadiki, bu yerlarda umuman yopiq gorizont

drenajlar qurilmagan va ochiq drenajlar (kollektorlar) orasidagi masofa juda katta (1,5...2 km) bo'lib, bular tuproq tarkibidagi ortiqcha sho'r suvni olib chiqish uchun quvvati yetmaydi. Natijada, sho'rni yuvishga berilgan suv ma'lum qatlamga 40..50 sm chuqurlikkacha pastga tushadi va har yil 2-3 martadan bu ishni qaytarilishi shu chuqurlikda o'ta qattiq tuzli qatlam hosil qilinadi va bu qatlam har yili sho'r yuvishda qalinlashib boradi. Bu esa tuproqning havo almashinuvini deyarli yo'qotadi va hosildorlik kamayib ketadi. Hosildorlikni oshirish uchun sun'iy hosil qilgan o'ta qattiq qatlamni yumshatuvchi texnikalardan foydalanishni taqozo etadi (chuqur yumshatkichlar). Bunday maydonlarning ko'payib borishi qishloq xo'jalik ekinlarining tannarxiga katta ta'sir qiladi.

Yevropa mamlakatlarida qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun mo'ljallangan yerlarga ishlov beruvchi oddiy (passiv) ish jihozini qo'llashdan voz kechilgan. Bunga sabab, passiv ish jihozlari katta tortish kuchini talab qiladi. Hozirda g'arb mamlakatlarda murakkab bo'lsada, faol ish jihozlari ishlatilimoqda. Bu esa metal va energiyaning iqtisod qilishga olib keladi.

Hozirda mamlakatimizdagi bir qancha doktorant va mustaqil ilmiy izlanuvchilar chuqur yumshatkichlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilgan hamda ularni natijalarini ham himoya qilganlar. Biroq, bularning biron-tasi ham ishlab chiqarishda qo'llanilmayapti.


Tadqiqot maqsadi: sho'rlangan va o'ta sho'rlangan yerlardagi tuproq tarkibidagi tuzni miqdorini pasaytiruvchi samarali texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish.

Yuqorida aytib o'tilganidek, tuproq tarkibidagi sho'rni yuvish uchun har yili 2-3 marta shu maydonlar suvga to'yintiriladi. Bu esa agar, sho'rni bir marta yuvish uchun 1500...2000 metr kub suv sarflansa bu 3 yilda 4500...6000 metr kub suvni tashkil qiladi. Bu katta hajmdagi suv bo'lib, suv tanqislik sharoitida bu ortiqcha suvdan qishloq xo'jalik ekinlarini suv tejankor (tomchilab, tuproq ostidan namlab, yomg'irilatib sug'orishlar) texnologiyalarni qo'llab qishloq xo'jalik mahsulotlardan yuqori hosil olish mumkin.

Taklif etilayotgan samarali texnologiya: Yuqorida qayd etilganidek, yillar davomida tuproq tarkibidagi sho'rni yuvish natijasida uning tarkibidagi ortiqcha sho'r suvlarning chiqib ketishiga sharoit yo'qligi sababli, yer sathidan 40-50 sm chuqurlikda qattiq tuzli qatlam hosil bo'ladi.



1-rasm. Tayyorlangan drenaj quvurlari



2-rasm. Drenaj quvurlarni yotqizish jarayoni

Bu qatlamning qalinligi 25-45 sm gacha yetadi. Buning uchun institut (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti) hududidan taqqoslash maqsadida ikkita bir sothdan yer maydoni ajratib olindi va ular shudgor qilindi. Ularni atrofi chellar bilan o'raldi.

Birinchi tajriba maydoniga drenaj quvurlari tayyorlanib (1-rasm) chuqurligi 50 sm, eni 10 sm bo'lgan qazilgan transheyalariga joylashtirib ko'mildi, (2-rasm). Bunda drenaj quvurining kiruvchi va chiquvchi quvur teshiklari tiqinlar bilan tiqilgan holda ko'mildi.

Drenaj quvurlari o'rnatilgandan so'ng birinchi tajriba maydoni quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (3-rasm).



3-rasm. Shudgor qilingan birinchi tajriba maydoni

Huddu shunday o'lchamga ega bo'lgan ikkinchi tajriba maydoni ham shudgorlanib, ularga suv berildi. Tuproq suvga to'yintirib ma'lum vaqtgacha ushlab turildi (4-rasm)



4-rasm. Tuproq tarkibidagi sho'rni yuvish jarayoni

Birinchi tajriba maydondagi suv 1,5-2 soat ushlab turilgandan so'ng, drenaj quvurlardagi tiqinlar olindi va natijada hosil bo'lgan sho'r suv maxsus xandakka chiqarib yuborildi (5-rasm).



5-rasm. Drenaj quvurlari yordamida shoʻrni yuvish jarayoni

Suv (loyqa suv) Amudaryodan maxsus mashinada olib kelinib, ajratilgan maydonlarga solindi. Bunda olib kelingan suvdan naʼmuna olinib laboratoriyaga berilganda undagi xlorning miqdori 170 mg/l ekanligi aniqlandi. Bu degani shoʻrni yuvishga ishlatiladigan suvning oʻzi shoʻr suv.

Amudaryodagi suvning shoʻrlanishiga sabab, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Xorazm viloyatdagi kollektorlarning suvi Amudaryoga qoʻshilishidir. Shunday boʻlsada har 2-3 yilda bir marta tuproq tarkibidagi shoʻrni yuvish orqali paxta va gʻalladan yuqori hosil olib kelinmoqda.



6-rasm. Kartoshka ekilgan birinchi tajriba maydoni

Ajratilgan birinchi tajriba maydonning shoʻr yuvilgandan soʻng, undan chiqqan suvni ham naʼmuna olinib tuz miqdorini tekshirish uchun laboratoriyaga berildi. Bunda suv tarkibidagi xlor miqdori 680 mg/l ekanligi aniqlandi. Demak ajratilgan yer oʻta shoʻr boʻlib uni yuvish natijasida tuz 4 marta kamayganligini koʻrish mumkin.

Ikkala maydonni ham maʼlum muddatda (3-4 oy) kuzatuv uchun qoʻyilganda birinchi tajriba maydoni yaxshi koʻrinishga ega boʻlib, begona oʻtlar oʻsmaslikka guvoh boʻlindi (6-rasm).

Ikkinchi tajriba maydonda esa maydon ustki qismi oqarib, begona oʻtlar oʻsganligini koʻrish mumkin (7-rasm).



7-rasm. Kartoshka ekilgan ikkinchi tajriba maydoni

Ikkala tajriba maydoniga ham kartoshka ekilib, birinchi tajriba maydoniga tuproq ostidagi drenaj quvuridan bio o'g'it aralashmali suv (1/20 nisbatda) 2 marta berildi. Ikkinchi tajriba maydonga esa an'anaviy usulda jo'yaklar orqali sug'orib kerakli kimyoviy o'g'itlar orqali 4 marta suv berildi. Olingan hosildorlik birinchi tajriba maydonida ikkinchisiga nisbatan 1,5 barobar ko'p hosil berganiga guvoh bo'ldik.

Hozirda bu maydonlarga paxta va bug'doy ekish mo'ljallanmoqda. Bularning natijalarini kelgusi maqolada beriladi.

Xulosa

1. O'ta sho'rlangan birinchi tajriba maydonidagi tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvish bir marta yuvilganda uning tarkibidagi tuz 4 marta kamayar ekan.

2. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, drenaj quvuri orqali tuproq tarkibidagi tuzlarni eritib sho'r suv qilib olib chiqib ketishi, bu maydonlarni har 3-4 yilda bir marta tuproq tarkibidagi tuzni yuvish xulosasini berish mumkin.

3. Agar tuproq tarkibidagi sho'rni yuvishda ishlatilgan suvning ortiqchasi kollektorlarga chiqarib tashlanmasa, bu yerlarni qayta sho'rlanishiga olib keladi

4. Tuproq tarkibidagi tuzni yuvish uchun berilgan suv tuzli aralashma hosil qilinganda ortiqcha aralashma chiqib ketmasa 40-50 sm chuqurlikda o'ta qattiq tuzli qatlam hosil bo'ladi. Bu esa tuproqning havo almashish funksiyasini buzishga olib keladi va bu qatlamni qo'shima texnika yordamida yumshatishga to'g'ri keladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хамраев К.Ш., Худойназаров И.А., Азимбоев С.А., Тураев А.С. Роль полианионного полимера при промывке засоленных почв. Сборник статей XV традиционной научно-практической конференции молодых ученых, магистрантов и одаренной молодежи на тему "Актуальные проблемы в сельском и водном хозяйстве". Ташкент, 2016
2. Хамидов М.Х., Хамраев К.Ш., Муинов У.Б. [и др.]. Совершенствование технологий промывки засоленных земель бухарского оазиса. Аграрная наука. 2019. № 3. С. 55–58
3. Хамидов М.Х., Хамраев К.Ш. Эффективная технология промывки засоленных почв ОБРАБОТКА ПОЧВЫ <https://doi.org/10.32634/0869-8155-2019-332-9-76-79>



4. Мелиорация почв, Засоленные почвы: учеб, пособие // О.Г.Лопатовская, А.А.Сугаченко-Иркутск:
Изд-во Иркут, гос, ун-та, 2010,-101с.

ADVENTIV/INVAZIV O'SIMLIK *PHYSALIS ANGULATA* NING EKOLOGIYASI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

¹Abduboyeva N.T., ²Ozodbekova G.A., ¹Sotiboldiyeva D.I., ²Xakimova D.A., ²Maxkamov T.X.

¹O'zbekiston Milliy universiteti

²Toshkent davlat agrar universiteti

ANNOTATSIYA

O'zbekistonda adventiv/invaziv o'simliklarni bioekologik xususiyatlarini o'rganish, foydali jihatlarini tadqiq etish va muqobil oziq - ovqat, dorivor o'simlik sifatida foydalanish boyicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu adventiv o'simliklardan oqilona foydalanish va ularni nazorat qilish va boshqarish imkoniyatini beradi. Ushbu maqolada *Physalis angulata* ning ekologiyasi, dorivorlik xususiyatlari va foydalanish istiqbollari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Physalis angulata*, adventiv, invaziv o'simlik, ekologiyasi, dorivorlik xususiyatlari.

ECOLOGY AND MEDICINAL PROPERTIES OF ADVENTIVE/INVASIVE PLANT *PHYSALIS ANGULATA*

ABSTRACT

In Uzbekistan, scientific research is being carried out on studying the bioecological features of adventive/invasive plants, researching their useful aspects and using them as alternative food and medicinal plants. This allows for the rational use of alien plants, their control and management. This article presents information about the ecology, medicinal properties and prospects of use of *Physalis angulata*.

Key words: *Physalis angulata*, adventive, invasive plant, ecology, medicinal properties.

KIRISH.



Adventiv/invaziv o'simliklar dunyo o'simliklarining xilma-xilligi uchun eng jiddiy tahdidlardan biridir [16, 19]. Yevropada jami 6000 ga yaqin begona taksonlar qayd etilgan [21], ularning ekologik va iqtisodiy ta'siri mos ravishda 1094 va 1347 tur uchun hujjatlashtirilgan [35]. Adventiv neofitlarning yarmi Yevropaga 1899 yildan keyin kelganligi aniqlangan. Har yili Yevropaga o'rtacha 6,2 ga yaqin naturalizatsiyaga qodir yangi turlar keladi [21]. Shu sababli, yangi begona turlarning qochishi va tarqalishini diqqat bilan kuzatib borish va qayd etish muhimdir.

Begona o'simliklarning dunyoda tarqalishi turlichadirdir. Shimoliy Amerika, Shimoliy-G'arbiy Yevropa, Janubiy Afrika, Janubi-Sharqiy Avstraliya, Yangi Zelandiya va Hindiston qirg'oqlari tabiiylashgan begona o'simliklarning qaynoq nuqtalari hisoblanadi, boshqa mintaqalar, masalan, Janubiy Amerika yoki Shimoliy Osiyoga begona turlar nisbatan kamroq ta'sir qiladi [29].

O'zbekistonda adventiv/invaziv o'simliklarni bioekologik xususiyatlarini o'rganish [3, 4, 5, 7], foydali jihatlarini tadqiq etish va muqobil oziq-ovqat, dorivor o'simlik sifatida foydalanish [3, 5], agressiv begona o'tlarga qarshi ilmiy asoslangan kurash usullari [1, 2] olib borilayotgan bo'lib, bu o'zga hudud florasiga mansub o'simliklardan oqilona foydalanish va ulrni nazorat qilish hamda boshqarish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot ob'ekti *Physalis angulata* L. Solanaceae oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik bo'lib [6], dunyoning tropik va subtropik mintaqalarida keng tarqalgan [18]. Bog'larda, bo'sh yerlarda, yo'l yoqalarida, o'rmonlarda dengiz sathi yaqinidagi soylar bo'ylab va ekin maydonlarida tarqalgan [31]. Dunyo bo'yicha Braziliya, Markaziy Amerika, Xindistonda [26] tarqalgan. Kavkazda va Ukrainada ayrim hollarda madaniy ekin sifatida yetishtiriladi. Invaziv o'simlik sifatida dunyoning ko'plab mamlakatlarida qayd etilgan [12, 13, 16, 19, 21, 26, 29, 30, 33].

Ushbu maqolada *Physalis angulata* ning ekologiyasi, dorivorlik xususiyatlari va foydalanish istiqbollari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

TADQIQOT METODLARI.



Tadqiqot 2021-2022 yillar davomida olib borildi. Dastlab o'simlik uchraydigan hududlar, makonlar va o'simlik jamoalari aniqlandi. O'simliklardan gerbariy namunalari tayyorlandi. O'simlikni aniqlashda "Flora Uzbekistana" asaridan foydalanildi [6]. O'simlikning dorivorlik xususiyatlari adabiyotlar asosida keltirildi. Adabiyotlar tahlili Web of Science va Google scholar xalqaro ma'lumotlar bazasi hamda Researchgate ilmiy axborot ijtimoiy tarmog'idagi mavjud ilmiy manbaalar asosida keltirildi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI.

2022 yil davomida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Toshkent viloyatida tarqalgan *Physalis angulata* ning zamonaviy tarqalish areali va ekologiyasi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yig'ildi. *P. angulata* garchi oziq-ovqat ekini sifatida foydalanilishi va ko'plab dorivor xususiyatlarga ega bo'lsa-da, u ayrim mamlakatlarda paxta, makkajo'xori va soya uchun zararli/invaziv begona o't sifatida ham qayd etilgan [8, 33, 34]. O'zbekiston florasida uchun ham zararli/invaziv begona o't sifatida qayd etilgan [6].

O'zbekiston florasida asarining yangi nashri 3 jildida Ituzumdoshlar oilasi berilgan bo'lib, unda *Physalis angulata* to'g'risida O'zbekiston Milliy gerbariyidagi mavjud gerbariy namunalari asosida ma'lumotlar keltirilgan. Afsuski gerbariy namunalari yig'ilgan sanalar juda eski bo'lib, turning zamonaviy tarqalish areallari va ekologiyasi to'g'risida qimmatli ma'lumot bermaydi. Gerbariy namunalari terilgan joy va sanalar quyidagicha: 12.09.1940 y. Samarqand viloyati Samarqand shahri; 10.10.1956 y. Toshkent viloyati Chinoz tumani; 14.07.1962 y. Toshkent viloyati Chinoz tumani; 17.11.1965 y. Toshkent viloyati Chinoz tumani.

Turkiyaning invaziv o'simliklar ro'yxatiga kiritilgan [27]. Paxta, makkajo'xori, bodring, pomidor, qalampir va zaytun bog'larida begona o't sifatida katta zarar keltiruvchi invaziv begona o't sifatida qayd etilgan [12]. Farooq va boshq. usbu turni muvaffaqiyatli bosqiniga birlamchi sabab sifatida sug'orish tadbirlarini, ikkilamchi sabablar sifatida pH va elektr o'tkazuvchanligini keltirishadi.

O'zbekistonda ushbu tur agrotexnik tadbirlar vaqtida olib borilmasdan qarovsiz qolgan, yangi barpo etilgan, manzarali va mevali bog'larda sug'orish ariqlarining

bo'ylarida, makkajo'xori va boshqa poliz ekinlari dalalarida, ayniqsa ziravorlar ekilgan dalalarda, xullas bug'doydan so'ng ikkinchi ekin ekib foydalanilayotgan dalalarda uchrashi qayd etildi. *Physalis angulata* Toshkent viloyati Chinoz tumanida, vtomobil yo'li va poliz ekinlari dalasi oralig'idagi manzarali o'simliklar ekilgan kengligi 10 metrlik maydonning har-xil o'tli-fizalisli-qo'ytikonzor hamda poliz ekinlari ekilgan dalaning har-xil o'tli-fizalisli-kurmakzor assotsiatsiyalarida qayd etildi (1-rasm).



A



B

1-rasm. *Physalis angulata* subdominantlik qilgan (A) har-xil o'tli-fizalisli-qo'ytikonzor va (B) har-xil o'tli-fizalisli-kurmakzor assotsiatsiyalari

P. angulata ni O'zbekiston florasidagi tarqalish areali va ekologik makonlariga asoslanib, ushbu turni kirib kelish yo'lini transport vositalari yordamida tuprog'i bilan keltirilgan manzarali, mevali o'simliklar bilan kirib kelgan bo'lishi mumkin deb taxmin qilish haqiqatga yaqinroqdir.

Ozaslan va boshq. 2017 [26] yilda *Physalis* ning ikkita invaziv turining urug'unuvchanligi biologiyasi va ularni qurg'oqchil va yarimqurg'oqchil xududlarda boshqarishga ta'sirini o'rgangan. Ularning ilmiy tadqiqotlarida yangi terilgan pishgan urug'lar oqova suv ostida ushlab turish yo'li bilan tinim davridan samarali chiqarilgan. *P. angulata* urug'lari turli harorat (15 dan – 40°C gacha), pH (4 dan – 10 gacha), osmotik potentsial (0 dan –1.2 MPa gacha), sho'rlanish darajasi (0 dan – 400 mM gacha natriy xloridli) bo'yicha tajribalarda unuvchanligi bo'yicha yaxshi natijalar namoyon etganligi keltirilgan. Ushbu o'simlik o'zga xudud florasida turli ekologik omillarga chidamlilik namoyon etib, kelgusida ekologik makonini va tarqalish arealini kengaytirib borish potentsialiga ega ekanligini namoyon etgan.



Butun dunyoda bu o'simlik o'simlik dorivorligi va bezgak, gepatit, astma, dermatit va revmatizm kabi turli xil inson kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi [32]. O'simlik barglari infuziyalari quloq og'rig'i va tug'ruqdan keyingi infeksiyalarni davolash uchun ishlatiladi. *P. angulata* markaziy asab tizimini susaytiruvchi ta'sirga ega va o'smaga qarshi faollikka ham ega [10, 23, 24, 28,]. O'simlikdan fizalin A, B, D, F va glikozidlar, ya'ni miritsetin-3-o-neohesperidozid ajratilgan va o'simtaga qarshi faollikni ko'rsatadi [17].

Physalis turkumi nafaqat farmakologik va biologik xususiyati balki oziq-ovqat sifatida ham iqtisodiy ahamiyatga ega, shu bilan birga tarkibidagi kimyoviy birikmalari uchun ham juda muhimdir. Tropin alkaloidlari va fizalinlar turli xil dorivor xususiyatlar uchun javobgar bo'lgan kimyoviy birikmalarning ikkita asosiy guruhidir. Tropanlar parasempatik asab tizimining muskarinik retseptorlariga yopishgan neurotransmitter atsetilxolin faolligini inhibe qilish orqali anti-muskarin faolligini ko'rsatadi.

O'simlik tarkibidagi mavjud kimyoviy birikmalar oshqozon-ichak va mushak spazmlari va Parkinson kasalligini davolash uchun muhim va foydalidir [20, 36]. O'simtaga qarshi va sitotoksik faollik tufayli fizalinlarga e'tibor beriladi. *Physalis* biologik faollikning keng spektriga ega, ya'ni, bakteriyaga qarshi, abortga qarshi, mollyussid, antiprotozoal, saratonga qarshi, antiseptik va sitotoksik va immunomodulyatsiya qiluvchi ta'sir ko'rsatadi [9, 15]. Afsuski, bu dorivor xususiyatlar tijorat maqsadlarida qo'llanilmaydi. *P. angulata* an'anaviy va xalq tabobatida diuretik sifatida qo'llaniladi va oshqozon kasalliklarini, og'riq qoldiruvchi va revmatik kasalliklarni davolaydi. Shuningdek, u gepatit va servitsit uchun antinosiseptiv, antipiretik, yallig'lanishga qarshi hisoblanadi [23].

P. angulata barglari va butun o'simlik taloq, jigar va siydik pufagi yallig'lanishini kamaytirish uchun va revmatizmدا vannalarda ishlatiladi [25]. Amazon vodiysida o'simlik sharbati tinchlantiruvchi, depurativ, revmatik va quloq og'rig'i uchun ishlatiladi. Tayvanda diabet, bezgak va astmani davolashda ishlatiladigan dorilarning tarkibiy qismidir [14]. Peruning Amazon qishlog'i aholisi bezgak, jigar va gepatit bilan bog'liq muammolar uchun barglardan foydalanadilar [13, 30]. G'arbiy Afrikada an'anaviy ravishda saraton kasalligini davolash uchun ishlatiladi [22]. O'simlikning yer ustki qismlari va mevalari furunkullar,



yallig'lanishlar yoki yaralar, ich qotishi va ovqat hazm qilish muammolarini davolashda ishlatiladi [11].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бабабеков Қ. Б., Махкамов Т. Х., Мамбетназаров А. Б., Қаландарова М. М., Рахматов А. А. (2022). Инвазив бегона ўтларни биэкологияси ва қарши кураш чоралари. Агро кимё химоя ва ўсимликлар карантини, 4, 8-10.
2. Бабабеков Қ. Б., Махкамов Т. Х., Мамбетназаров А. Б., Қаландарова М. М., Елмурадова М. А. (2022). Зарпечак бегона ўтига қарши кураш усуллари. Агро кимё химоя ва ўсимликлар карантини, Махсус сон 2, 92-93.
3. Жумабоев Ф.Ш., Махкамов Т.Х., Авазова М.А. Тошкент воҳаси шароитида Испан мингбошини етиштириш технологияси. Агро информ, 4(6), 2022. – Б. 34-39.
4. Жумабоев, Ф. Ш., & Махкамов, Т. Х. (2022). Инвазив ўсимлик испан мингбошини етиштиришнинг айрим жиҳатлари. Intellectual education technological solutions and innovative digital tools, 1(12), 43-46.
5. Жумабоев, Г. Ш., & Махкамов, Т. Х. (2022). Инвазив усимлик-Испан мингбоши (*Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert) ни маданийлаштириш истикболлари ва уруг унувчанлиги. ГулДУ ахборотномаси, 1, 17-23.
6. Ковалевская. Род 810 (4). *Physalis L.* – Физалис // Флора Узбекистана. Т. 5. – Ташкент: Академии наук УзССР, 1961. – С. 426-429.
7. Мелиқўзиев, А. А., Ергешев, Д. А., & Махкамов, Т. Х. (2022). Инвазив ўсимлик *Amorpha fruticosa L.* нинг биоэкологик хусусиятлари ва кўпайтириш усуллари. Academic research in educational sciences, 3(7), 168-175.
8. Arslan, M., Uremis, I. & Uludag, A. (2005). Determining bio-herbicidal potential of Rapeseed, radish and turnip extracts on germination inhibition of cutleaf ground-cherry (*Physalis angulata L.*) seeds. Journal of Agronomy, 4: 134–137.
9. Bastos G, Santos A, Ferreira V, Costa A, Bispo C, Silveira A, et al. (2005). J Antinociceptive effect of the aqueous extract obtained from roots of *Physalis angulata L.* on mice. J Ethnopharm, 103:241-5.

10. Chiang HC, Jaw SM, Chen CF, Kan WS. (1992). A novel cytotoxic flavonoid glycoside from *Physalis angulata*. *Anticancer Res*, 12:837-43.
11. Dokosi B. (1998). *The herbs of Ghana*. Ghana Universities Press, Accra.
12. Farooq, S., Onen, H., Ozcan, S. & Ozaslan, C. (2016). Invasion status of *Physalis* spp in Diyarbakir and Vicinities. in *International Diyarbakir Symposium*. 149.
13. Ferreyra R. (1970). *Flora invasora de los cultivos de pacallpi y tingomaria*.
14. Heish T, Huang Y, Lin Y, Chung G. (2006). *Physalis angulata* induced G2/M phase arrest in human breast cancer cells. *Food Chem Toxicol*, 44:974-83.
15. Hseu C, Wu R, Chang W, Kumara S, Linb K, Huang Y, et al. (2011). Inhibitory effects of *Physalis angulata* on tumor metastasis and angiogenesis. *J Ethnopharm*, 135:762-71.
16. Hulme PE. (2007). Biological invasions in Europe: drivers, pressures, states, impacts and responses. *Issues in Environmental Science and Technology*, 25: 56–80. <https://doi.org/10.1039/9781847557650-00056>.
17. Ismail N, Alam M. (2001). A novel cytotoxic flavonoid glycoside from *Physalis angulata*. *Fitoterapia*, 72:676-9.
18. Januario A, Filho E, Pietro R, Kashima S, Sato D, Franca S. (2002). Antimycobacterial physalins from *Physalis angulata* L. (Solanaceae). *Phytother Res*, 16:445-8.
19. Keller RP, Geist J, Jeschke JM, Kühn I. (2011). Invasive species in Europe: ecology, status, and policy. *Environmental Sciences Europe* 23: 23, <https://doi.org/10.1186/2190-4715-23-23>
20. Kelly K, Quinn L, Steve C, Kirsten B, Hillary L, Mark C, et al. (2012). The ethnobotany and ethnopharmacology of wild tomatillos, *Physalis longifolia* Nutt, and related *Physalis* Species. *Econ Bot*, 20(10):1-13.
21. Lambdon PW, Pyšek P, Basnou C, Hejda M, Arianoutsou M, Essl F, Jarošík V, Pergl J, Winter M, Anastasiu P, Andriopoulos P, Bazos I, Brundu G, Celesti-Grapow L, Chassot P, Delipetrou P, Josefsson M, Kark S, Klotz S, Kokkoris Y, Kühn I, Marchante H, Perglová I, Pino J, Vilà M, Zikos A, Roy D, Hulme PE (2008). Alien flora of Europe: species diversity, temporal trends, geographical patterns and research needs. *Preslia* 80: 101–149

22. Lawal O, Uzokwe E, Lgboanugo I, Adio F, Awuson A, Nwogwugwu, et al. (2010). Ethno-medical information on collection and identification of some medicinal plants in research institutes of South-west Nigeria. *Afr J Pharm Pharmacol*, 4(9):32.
23. Lin Y, Chiang H, Kan W, Hone E, Shih S, Won M. (1992). Immunomodulatory activity of various fractions derived from *Physalis angulata* L extract. *Am J Chin Med*, 20(3-4);233-43.
24. Lin YS, Chiang HC, Kan WS, Hone E, Shih SJ, Won MH. (1992). Immunomodulatory activity of various fractions derived from *Physalis angulata* L. extract. *Am J Chin Med*, 20:233-43.
25. Lorenzi H, Nova Odessa. *Plantas daninhas do Brasil*. Nova Odessa, S-ao Paulo, Brasil; 1982. p. 372.
26. Ozaslan, C., Farooq, S., Onen, H., Ozcan, S., Bukun, B., & Gunal, H. (2017). Germination biology of two invasive *Physalis* species and implications for their management in arid and semi-arid regions. *Scientific Reports*, 7(1), 1-12.
27. Ozaslan, C., Bukun, B., Ozcan, S. & Onen, H. (2015). *Physalis angulata*. In *Invasive Plants Catalogue of Turkey Vol. 1* (ed Huseyin Onen) 424–432 Ministry of Agriculture.
28. Perez R, Perez A, Garcia M, Sossa H. (1998). Neural pharmacological activity of *Solanum nigrum* fruit. *J Ethnopharmacol*, 62:43-48.
29. Pyšek P, Pergl J, Essl F, Lenzner B, Dawson W, Kreft H, Weigelt P, Winter M, Kartesz J, Nishino M, Antonova LA, Barcelona JF, Cabezas FJ, Cárdenas D, Cárdenas-Toro J, Castaño N, Chacón E, Chatelain C, Dullinger S, Ebel AL, Figueiredo E, Fuentes N, Genovesi P, Groom QJ, Henderson L, Inderjit, Kupriyanov A, Masciadri S, Maurel N, Meerman J, Morozova O, Moser D, Nickrent D, Nowak PM, Pagad S, Patzelt A, Pelsner PB, Seebens H, Shu W, Thomas J, Velayos M, Weber E, Wieringa JJ, Baptiste MP, van Kleunen M (2017). Naturalized alien flora of the world: species diversity, taxonomic and phylogenetic patterns, geographic distribution and global hotspots of plant invasion. *Preslia* 89: 203–274, <https://doi.org/10.23855/preslia.2017.203>
30. Rutter A. (1990). *Catalogo de plantas utiles de la Amazonia peruana institutol inguistico de veranoyarinacocha Peru*.



31. Smith. (1991). *Albe Flora Vitiensis nova: a new flora of Fiji*. National Tropical Botanical Garden, Lawai, Kauai, Hawaii, 5. p. 626.
32. Soares MB, Bellintani MC, Ribeiro IM, Tomassini TC, Ribeiro dos Santos R. (2003). Inhibition of macrophage activation and lipo polysaccharide induce death by seco-steroids purified from *Physalis angulata* L. *Eur J Pharmacol*, 459:107-12.
33. Travlos, I. S. (2012). Invasiveness of cut-leaf ground-cherry (*Physalis angulata* L.) populations and impact of soil water and nutrient availability. *Chilean Journal of Agricultural Research*, 72, 358.
34. Travlos, I., Travlos, S., Economou, G. & Lyberopoulou, S. (2010). The weed *Physalis angulata* in western Greece. in *Proceedings of 16th Conference of the Greek Weed Science Society*, Karditsa. 1–2.
35. Vilà M, Basnou C, Pyšek P, Josefsson M, Genovesi P, Gollasch S, Nentwig W, Olenin S, Roques A, Roy D, Hulme PE (2010). How well do we understand the impacts of alien species on ecosystem services? A pan-European, cross-taxa assessment. *Frontiers in Ecology and the Environment*, 8: 135–144, <https://doi.org/10.1890/080083>
36. Zhang H, Samadi A, Cohen M, Timmermann B. (2012). Antiproliferative withanolides from the Solanaceae: A structure activity study. *Pure Appl Chem*, 84:1353-67.

ЗАМОНАВИЙ КОСТЮМБОП МАТОЛАР АССОРТИМЕНТЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ ТАҲЛИЛИ

доц. Д.Т.Назарова, ўқитувчи Тожибоева Д.Б.
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

Ушбу мақолада костюмбоп тўқималарни ассортиментни ўрганган. Кимёвий ва табиий тодалар аралашмали матоларнинг хусусиятлари таҳлил қилинган.

В данной статье, изучены ассортимент костюмных тканей. Проанализировано комплексных тканей из натуральных и химических волокон.

In this article, studied costume fabrics. Complex tissues of natural and chemical fibers were analyzed.

Калит сўзи: хом-ашё, жун, ип, костюмбоп мато.

Республикамизда мавжуд бўлган маҳаллий хом-ашёдан фойдаланиб, янги костюмбоп тўқима ассортиментларини кенгайтириш ва ишлаб чиқариш, маҳаллий тўқимачилик хом ашёларини қайта ишлаш ҳажмини ошириш, илғор чет эл фирмалари билан ҳамкорликда соҳа корхоналарига энг янги технология ва ускуналарни жорий этиш, долзарб масала ҳисобланади [1].

Замонавий костюмбоп матолар ассортиментни турли туман бўлиб, тўқимачилик саноатининг барча соҳаларида ишлаб чиқарилади. Бироқ, костюмбоп матоларнинг хом ашёсига қараб уларнинг мато ишлаб чиқариш соҳаларидаги ўрни бирдек эмас.

Жун газламалар ассортиментидаги костюмбоп матолар камволли ва майин мовутли кичик синф сифатида берилган.

Камволли матолар ичида артикул сони бўйича костюмбоп матолар энг катта солиштирма оғирликка эга. Улар катта зичликка эга булган пишитилган ипдан ишлаб чиқарилади: сирт зичлиги $260-340 \text{ г/м}^2$

Сидирға бўялган, соф жунли матоларнинг намунасига қуйидагилар киради:

- бостон (сирт зичлиги 340 г/м^2), формали кийимларга ишлатилади;

- креп (сирт зичлиги $300-340 \text{ г/м}^2$), одми костюмлар учун ишлатилади;

Ҳар хил рангга бўялган соф жунли матоларга трикони киритиш мумкин. Унинг сирт зичлиги $240-340 \text{ г/м}^2$ га тенг бўлади.

Ип матолар ассортиментида костюмбоп матолар алоҳида гуруҳ ёки кичик гуруҳга ажратилмай, кийим гуруҳи таркибида бўлиб, уларни сидирға жунли, ҳар хил рангли, меланж, гул босилган, қишки матолар кичик гуруҳларида учратиш мумкин. Костюмбоп триколарнинг сирт зичлиги $250-300 \text{ г/м}^2$ атрофида бўлиб, эни $142-150 \text{ см}$ ни ташкил этади. Ҳар хил рангли ва меланж ип матолар арзон, ҳар кунги костюмлар ва бошқа кийимларни ишлаб чиқаришга мўлжалланган.

Бу матоларнинг кўпчилиги пахта ҳамда вискоза штапель тодалари аралашмасидан тўқилган бўлиб, юмшоқ, кам киришадиган беаги эса шакл сақловчи хусусиятга эга.



Табиий хомашёдан тайёрланган маҳсулотга талаб кундан кунга ошмоқда. Жоҳон модасига пахта толаси иштирок этадиган матолар катта мувоффақият қозонмоқда. Улардан ишлаб чиқарилган костюмбоп матолар яхши гигиеник хусусиятларга ва ҳар жихатдан қулайликларга эга.

Табиий ипакдан тўқилган матолар ассортиментда ҳам костюмбоп матолар алоҳида синф ёки гуруҳга ажратилмаган. Ипакли матолар артикули ўзининг ишлатилишига қараб костюм-қўйлакбоп матоларга гуруҳланган.

1298-1299 йилларда эски Қримда муҳрланган нотариал бир ҳужжатда Хоразмдан келтирилган “*carusmizna*” ва “*organinum*” деб номланган ипак хом ашё тойларини генуялик савдогар Италияга сув йўли орқали жўнатганлиги маълум қилинади. Юқоридаги маълумотларга таянган ҳолда, ўрта аср Хоразм шаҳарлари тизимининг ташқи катта ҳудуди чеккаси маданий экинзорлар билан туташиб кетган, деган фикрни илгари суриш мумкин. Ушбу хулосанинг археологик тадқиқотлар натижасида қўлга киритилган далиллар ҳам тасдиқлайди.

Воҳада олиб борилган археологик тадқиқотлар давомида ўрта аср шаҳар ва қишлоқ масканларидан токзорлар, боғлар ва бошқа дехқончилик маданияти йўллари аниқланди. Шу билан бирга ўша даврларга оид ҳунармандчилик дастгоҳлари, асбоб – ускуналари ҳамда ҳунармандчилик маҳсулотлари топилганлиги айтиб ўтилди.

XIII асрда муаллифлардан ал-Қурайший бу даврда Хоразм пойтахтида 50 га яқин асосий ихтисослашган ҳунармандчилик турлари фаолият олиб борганлиги хусусида маълумот берса, Закариё ал-Қазвиний Урганч аҳолиси моҳир ҳунармандлар

бўлиб, бу ерда, айниқса, хунармандчиликнинг темирчилик, дурадгорлик соҳалари юксак даражада ривож топганлигини қайд қилиб ўтади.


Ўрта асрларда Хоразмдаги тўқимачилик хунармандчилиги тўғрисида ҳам маълумотлар йиғилган бўлиб, жумладан воҳада гилам, қимхоб кўрпалар, “малҳам” чойшаби, чопонлар, ошланган терилар тайёрланганлиги мазкур манбаларда ўз аксини топган. Абдурашид ал-Бакувий (XIV-XV асрлар) “Китоб таҳлис ал-асар ва ажойиб малик ал-қахҳор” номли асарида Гурганчнинг моҳир “зардўзлари” ҳақида ёзади.

1558 йилда Кўхна Урганчда бўлган “Москва-Лондон” савдо компанияси вакили А.Женкинсоннинг “Хоразмда камон, пайкон, қилич, найза ва бошқа қурол-аслаҳалар қадимги анъанавий услубда тайёрланади” деган маълумоти ҳам воҳанинг моҳир қуролсоз уста-хунармандлари ҳақидаги маълумотни тасдиқлайди. Ёзма маънабаларнинг бу гуруҳини йирик қомусий олим Маҳмуд ибн Валининг (XVII аср) рус тилига таржима қилган “Бахр ул-асрор фи маноқиб ул ахёр” асари тўлдирди, дейиш мумкин. Унга Хоразмнинг ўрта аср шаҳарлари ва вилоятнинг сиёсий, иқтисодий ҳолати, маҳаллий аҳолининг турмуш тарзи тўғрисида қисқа бўлса-да, маълумотлар мавжуд.

Ўрта асрлар ёзма манбаларида Хоразм воҳасидаги хунармандчилик тарихига оид кўплаб маълумотлар мавжуд. Булар эса Хоразмнинг ўрта асрларда марказий Осиёнинг хўжалик жиҳатидан юксак даражада ривожланган ҳудудларидан бири эканлигини таъкидлайди. Лекин мазкур ҳудуддаги ўрта асрларга хос сиёсий-тарихий жараёнлар таъсирида ривожланган хунармандчилик саноати тарихига оид маҳсул асарлар ўз даврида битилмади ва кейинчалик ҳам мазкур муаммо илмий жиҳатдан етарлича тадқиқ этилмай келди. Шу боисдан ёзма манбалардаги хунармандчилик тарихига оид маълумотларни археологик далиллар билан таққослаш, аниқлаш, умумлаштириш усуллари асосида илмий тадқиқ этиш, тадқиқот натижаларини эса илм-фанга кенг жорий этиш тарихшунослик фанининг энг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади.



Шунингдек меъморий бўёкли сопол қопламалар эрамиздан анча илгариек қўлланила бошлаган. Ўша даврда бундай ҳунар икки йўналишга бўлинган: тупрок хом-ашёсидан тайёрланган ва рангсиз эмал билан бўялган сополнинг ўзи ҳамда оз миқдордаги лой ва оҳак билан кварц кукуни аралашмасидан таркиб топган кошин. Фаянс бўёқлари ҳам ёрқин, ҳам рангсиз ҳолда учрайди. Мовароуннаҳр кулолчилиги биринчи йўналишга бўйсундурилган, бу ерда кошин фақат XIV асрда пайдо бўлган. Эрон ва Озарбайжо усталарининг маҳсулотларига дуч келгач, бу пайтгача лойдан сополлар тайёрлаш билан банд бўлган Хоразм кошинга ўтган, бинобарин, на маҳсулот тури, на материал таркибида уларга тақлид қилган.



Хоразм фаянси юқори силикатли: кремнийли тупрок 89-98% атрофида. Хоразмда меъморчилик-кулолчилик мактаби ташкил бўлишининг ўз асослари бор:

1. Хоразм иқтисодиёти ва маданияти юксак даражада бўлган.
2. Эрон билан яқин алоқа қилинган.
3. Фаянс учун хом-ашё –кварц қумлари, оҳаклар ва кварцитларнинг чекланмаган

захиралари мавжуд эди.

XII аср охирида силлиқланган терракота ва ёпиштирилган ҳарфларга эга бўлган оммавий плиталар орасига майда қўшимча кўринишидаги зангори ва мовий рангли юксак силикат кошин майдонга чиқди. Бу ишқорли-кўрғошинқалайи рангли эди.

XIV асрда меъморчилик кошинлари: бўёкли ёзув остидаги нафис кўринишга эга бўлган тиниқ ишқорли бўёқ билан безатилган олтибурчакли плиткалар, панно, юлдузлар, фаянс плиткалардаги эпиграфика тасмалари ва бошқалардан фойдаланишга асосий эътибор қаратила бошланди.

Бироз кейинроқ меъморчилик кошинининг янги хили пайдо бўлди. Тўқ ишқорли-қалайи рангли бўёқлар остида, улардан юқорироққа Хоразмнинг шон-шуҳрати



хисобланган сопол бўёқлари билан безатилган рангдор сополлар ва мозаиканинг тенги бўлмаган. Хоразм кулоллари ўзларининг бой тажрибаларини Мовароуннахрда ҳам сақлаб қолишга муваффақ бўлганлар.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдуллаев Тимур Пўлатович “XII-XV асрларда Хоразм хунармандчилиги” Хива 2016й.
2. Хоразм маъмун академияси ноширлик бўлими, 2016й.
Абдураззоқов А.А., Бозбородов М.А., Заднепровский Ю.А. Стеклоделие Средней Азии.-Т.:Фан, 1963.
3. "Ўзбекистон номоддий маданий мероси" ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий комиссияси, 2017й
4. С.Булатов "Ўзбекистон халқ амалий безак санъати" 1991

PRAGMATIVITY OF RELIGIOUS TEXTS IN ENGLISH AND UZBEK

Toshpolatova Mukhlisa Shukurovna

Department : Master's degree at the Uzbek State University

World Languages Faculty of Linguistics (English), 2nd year

Resume: In recent years, there has been a noticeable increase in interest in the problems of religious (sacred) language, religious communication, and religious discourse in linguistics. The author of this article seeks to show that the content of religious texts is multifaceted and multidimensional, and therefore the study of the language of confessional texts should be carried out comprehensively, in particular, taking into account the role and place of a particular text in confessional culture and in the history of religion.

Keywords: semantic and pragmalinguistic analysis of a religious text, language, Turkic vocabulary, pragmatics.

Contacting of languages and cultures in the republics of Central Asia (in the CIS) has an ancient history. In this multi-ethnic, poly- linguistic geographic space, their "collision" and contact co -functioning with the manifestation of donation and recipient is a common occurrence. This contact with Farsi, with Arabic, with Mongolian, with Russian, led to serious mutual enrichment of languages, cultures and peoples.

Each era of contact between languages and cultures of different ethnic groups leaves its mark on their development and improvement, which is realized, first of all, in language and culture. At the same time, the national language, as a rule, remains the same national as it was, but with borrowings from the contacting languages, for example: Arabic, Persian, Russian vocabulary in the Turkic languages.

At present, the English language is actively entering the Turkic world of Eurasia, penetrating almost all social aspects of the activity of the individual and society. The entry of the English language is carried out systematically, at the state level. This is explained by the fact that through the English language, young people can enter a wider and deeper field of activity in many social spheres - educational, scientific, economic, diplomatic, etc.

Uzbek is a multi-dialect language. Its dialects are included in the system of three dialects of the Uzbek language - Karluk-Chigili , Kypchak, Oguz , which are also the main three dialects and Turkic languages in general. Thus, the Uzbek language is a language

consisting of dialects that differ sharply from each other, since some of them are formed in the system of one dialect, the second - in the system of another dialect, and the third - in the system of the third dialect. What unites the genetic Uzbek speakers of the Uzbek language is the normative Uzbek literary language, a language that sharply differs to the same extent from most dialects of the Uzbek language, especially Oguz and Kypchak.

A genetic speaker of the Uzbek language, as a rule, speaks the Uzbek native dialect and the native Uzbek literary language, i.e. he is an intralinguistic bilingual individual within his native language. This provision in the overwhelming majority also applies to the Uzbek territorial linguistic societies, striving to master the normative Uzbek literary language, which is carried out, first of all, in the school education system.

The term "pragmatics" was introduced by C. Maurice (from the Greek deed, action). Pragmatics studies the behavior of signs in real communication processes. The central concepts of pragmatics are context and speech act. The speech act is the core of the so-called Speech Act Theory (TRA). The theory of speech acts received an interesting development in the works of Grice, who developed the mechanisms of speech implication.

Pragmatics is an integral part of the study of speech, since, among other things, scientists pay attention to what external linguistic situation motivates the choice and use of certain linguistic means. In other words, in practical research, the main attention is paid to the communicative content of the utterance in different communication conditions.

Pragmatics, among other linguistic areas, is most associated with the problems of language use, since the use of language by a person is the main object of study of pragmatics. The concept of pragmatics has been and is being used to describe a fairly wide and heterogeneous spectrum of phenomena. This means that it is difficult to define the boundaries of pragmatics, but it is quite clear that pragmatics is related to areas of science dealing with communication problems.

The interdisciplinary nature of the initial concepts of linguopragmatics involves many factors, both proper linguistic, psychological, sociolinguistic, and socio-historical, national-cultural, ethnographic and other factors, into the circle of the problem of "man and language". All this led to the diversity of definitions of this area of linguistics.

The problems of linguoculturology and accent are analyzed in conjunction, since the culture of language and speech is closely related to the problem of speech accent; Decreasing the accent generally increases the cultural and linguocultural aspects of mastering a non-native language and vice versa.

The accent is seen as some kind of flaw in the speech in the second language and even as mistakes. This understanding of the accent in speech in the second language is widespread. In this case, the accent is a speech interference problem. With this approach to understanding the accent, one can both agree and disagree. We stand on the scientific position that accent is not fully speech interference: it is a phenomenon that is formed after overcoming speech interference at almost all levels of the language. Accent is an already well-established specificity of speech in a non-native language, which is not considered by many listeners and specialists as a disadvantage in speech in a second language. Such speech often attracts the attention of a large number of listeners, interlocutors. According to the definition in the Terminological Dictionary, an accent is "... a peculiar pronunciation in the Second Language, in which the Articulatory Base of the Mother Tongue is involuntarily manifested ...", further it is written that this is "... a manifestation of interference at the phonetic level."

In general, we agree with this definition of accent, but in particular, not completely. Firstly, in our opinion, it would be necessary to talk about some manifestation in speech in the second language of some features of the work (functions) of the articulation base of the native language, and not the entire work of the articulation base, because the individual and society speaking the second language, they already have a good or even perfect command of it (vocabulary, grammar, stylistics, prosody). The accent in this case manifests itself to a greater extent at the level of intonation, rhythm, tone, and then at the segmental phonemic - sound level, but which does not distort the sound -producing and acoustic norms of the second language. Therefore, the final part of the definition of accent in the dictionary as "... a manifestation of Interference at the phonetic level" (consonants - "at the sound level") can be attributed to the traditional everyday understanding of the accent. Accent is a phenomenon that is both typical and atypical, and manifests itself (or forms) after



overcoming speech interference, which is understood as obvious and implicit errors in speech in a second language, when such speech is perceived by specialists as lack of knowledge or poor, poor command of a non-native language, on which the individual is trying to communicate or which he is learning. Therefore, the understanding of the accent in speech, in our opinion, should be considered not as speech interference, but as a deviation that manifests itself in oral or written speech in the second language both intentionally (consciously) and involuntarily (unintentionally, unconsciously).

Let us give a simple example of the distortion of the meaning of the meaning of a sentence in the process of translation, while strictly observing the translation of individual words. According to the rule about word order in an English sentence, the center of the utterance, i.e. the new that is spoken of must be at the beginning. Therefore, translating the seemingly simple sentence "A man entered the church" is not so easy. You should think about what information is new: about a person or about the church into which he entered. Option "A man came into the church" means that the emphasis is on the person. This is new information for us and the word "man" is used with the indefinite article. If we already know about this person and we want to draw attention to the fact that he entered the church, the sentence should be translated "The man came into the church". The word "man" is used with the definite article. We cannot put the word "church" at the beginning of a sentence in English, since it acts as a circumstance (recall that declarative sentences in English can only begin with a subject).

Not all of these options are marked with confessional coloring. For example, for translation "Exaltation honest and life-giving Cross Lord's" offered not less four options: the Exaltation of the Holy and Living Cross, the Raising Up of the Honored and Live-giving Cross, the Feast of the Exaltation of the Holy Cross of Our Lord, the Elevation of the Live-creating Cross and So further. The choice of the optimal translation option remains with the researcher and depends on his experience, skills and desire to understand the issue.

When conducting a semantic and pragmalinguistic description of religious texts, one should not only take into account the peculiarities of their content and form, but also the social significance and features of functioning in a particular culture.



Literature:

1. Araeva L.A., Bulgakova O.A., Kalent'eva L.S. and others. Language picture of the world of Teleuts : monograph / otv. ed. A.V. Proskurin. - Kemerovo: KGU, 2016.
2. Gadomsky A.K., 2017, Religious language - theolinguistics - linguistics, Scientific notes of the Tauride State University. IN AND. Vernadsky, Philology Series, No. 20 (59), 1, p. 287–292.
3. Slyshkin G.G., 2000, From text to symbol: linguistic and cultural concepts of precedent texts in consciousness and discourse, Moscow: Academia .



O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI RIVOJLANTRISH

Mirzanematova Nilufar Irismuxamatovna

Tishkent shahar Yunusobod 97-sonli umumtalim maktabining

“Texnologiya(serviz yonalishi)” fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida “Texnologiya” fani darslarini tashkil etish samaradorligini oshirishda tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish orqali o'quvchilarni kasbkorlikka yo'llashning mazmun-mohiyati yoritilgan. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchi yoshlarda texnik ijodkorlikni shakllantirish zarur ekanligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: Texnologiya fani, intellektual loyihalar, ijodkorlik, ratsionalizatorlik, ixtiro.

Bolalar bilan individual ishlash texnologiyalari (o'zlashtirilmayotgan bolalar, tarbiyasi og'ir bolalar, iqtidorli bolalar bilan ishlash, shaxsiy yordam berish va h) o'rganish zarurati paydo bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tahlil qilish va baholash texnologiyalari (rejalashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish, baholash, korreksiya qilish). Yuqoridagilarning barchasi umumiy tarzda pedagogika fanidagi darslarida nazariy jihatdan o'rganiladi. Galdagi vazifa ana shu nazariy ma'lumotlarni amlda qo'llashni o'rganishdan iboratdir Tarbiya jarayonida hamkorlik pedagogikasi tamoyillarini qo'llash texnologiyalari. Hamkorlik pedagogikasining mohiyati – tarbiya jarayonining samarali natijalariga erishish maqsadida oilaviy va ijtimoiy tarbiyani birlashtirish, pedagog va ota-onalarning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirish hamda o'quvchilarni o'qituvchining yordamchi-lariga aylantirishdan iborat. Shuni hisobga olgan holda tarbiya jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar hamkorlik pedagogikasi mohiyatiga mos bo'lishi kerak. Chunki ular yordamida pedagog o'z o'quvchilarini mustaqil fikrlashga, mustaqil hayotga tayyorlashga majbur. Quyida ayrim pedagogik texnologiyalarni, innovatsion metodlarni tarbiya ishlari jarayoniga moslashtirish va foydalanish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Aqliy hujum – bu usul sinf hayoti va ijtimoiy faoliyatga bog'liq muammolarni hal qilish bo'yicha g'oya va fikrlarni bildirish usulidir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarga “Kamalak”, “Boychechak”, “G'uncha” nomlari mos keladi. Katta o'quvchilarga va talabalarga esa guruh nomlari murakkabroq bo'lishi kerak. Masalan ularga “Ziyo”, “Zukko”, “Tinchlik”, “Istiqlol”, “Istiqbol”, “Uchqun” kabi nomlari mos keladi. Kichik guruh sarkorlarni har chorak yoki yarim yilda o'zgartirish mumkin. Bu har qaysi o'quvchiga ham rahbar, ham bo'ysunuvchi sifatida bo'lishiga imkon yaratadi. Maktab, litsey, kollej o'quvchilarini ma'naviy-ma'rifiy jihatdan to'g'ri tarbiyalash masalalari o'qituvchidan O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlaridan keng va samarali



foydalanishni talab qiladi. Shuning uchun, bolaligidan boshlab o'quvchilarda Prezidentimiz, madhiyamiz, bayrog'imiz, gerbimiz, davlatimiz siyosatiga, diniy oqimlarga to'g'ri munosabatini shakllantirish jarayonida o'qituvchi maxsus tayyorlangan ko'rgazmalar, tayanch sxemalar, slaydlar, kino-videofilmlar kabi materiallardan unumli foydalanishi shart. Tarbiya jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarni o'rganishda an'anviy usulvositalardan foydalanmoqda; bular: kuzatib borish, suhbat o'tkazish, ota-onasi oldiga borish va h. Bundan tashqari, tarbiya jarayonida pedagog turli xil anketa va test yordamida maktab psixologi hamkorligida o'z sinfdagi o'quvchilarni o'rganadi. Jumladan, zamonaviy ta'lim-tarbiya o'qituvchidan diagnostik anketa va testlardan foydalalanishni talab etmoqda. Bunday anketa yoki test orqali o'qituvchi har qaysi o'quvchining o'qishga, mehnatga, odamlarga, o'ziga munosabatini hamda uning shaxsiy sifatlarini o'rganishga imkon topadi.

Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, bo'lg'usi pedagoglardan yana ham yuksakroq marralarni ko'zlash, fan, texnika va texnologiyalar borasidagi yangiliklardan xabardor bo'lish talab etilmoqda. Qadim zamonlardan beri ulig' ajdodlarimiz yangilikka ishtiyoqmand bo'lib kelganlari va sharqda renesans davrini boshlab berganliklarini dunuo hamjamiyati tan olgan. Hususan ilm olishga, hunar o'rganishga, biror bir kasb egasi bolishga intilish bizning bobokalonlarimizda juda kuchli bo'lgan va bu o'z navbatida diyorimizda juda ko'p dunyo ilm-fani rivojida katta hissa qo'shgan allomalar etishib chiqishiga sabab bo'lgan.

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlar yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek, mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarning Vatanimiz ravnaqi yo'lida har taraflama yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, ularning raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishi uchun xizmat qilib kelmoqda. XXI asr fan texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir sohaga xorijiy tajribalar, yangi loyihalar kirib kelayotgani mamlakatimiz rivoji va ta'lim sohasida o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar xalqimizning boy madaniy merosi, tarixiy an'analarini to'liqligicha saqlab qolish, hunarmandchilikni keng targ'ib qilish maqsadida 2017- yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni va texnologiyalarni rivojlantirish to'g'risidagi" farmoni Davlat Ta'lim Standartlariga to'laligicha mos kelgan holatda uning sifatini oshirish uchun xizmat qilib kelmoqda. Umumta'lim maktablarida texnologiya fani o'qituvchilari o'zlarini ikkinchi darajali fan o'qituvchisi deb his qilmasliklari va ushbi fanni chuqur egallagan holda o'quvchilarda ham fanga qiziqish uyg'ota olishlari kerak. Texnologiya fani o'qituvchilari dars o'tish jarayonida ushbu fanning jamiyatdagi o'rni va mazmunmohiyati, fanning o'qitilishdagi maqsadlarini o'zlari teran his etishlari va shu bilan birga o'quvchilarga mehnatsevarlikni, ijodkorlikni va qaysidir ma'noda tadbirkorlikni o'rgatishlari lozim. "Texnologiya" fani darslarini tashkil etish samaradorligini oshirish, o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalalari atroflicha o'rganilgan, foydali maslahatlar, uslubiy tavsiyalar berilgan. Biz mana shunday tavsiyalardan foydalangan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Texnologiya" fani mashg'ulotlarini rejalashtirish va



o'tkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarini talqin qilib ko'rmoqchimiz. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Texnologiya" fani mashg'ulotlarining samarali bo'lishi eng avvalo shu fan o'qituvchilarning mashg'ulotlarga qay darajada tayyorgarlik ko'rishiga, mashg'ulotlarni o'tkazishni qanday rejalashtirishiga va, nihoyat, amalga oshirishiga bevosita bog'liqdir. Binobarin mashg'ulotlarni qanday rejalashtirish va o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish mashg'ulot samaradorligini oshirishga qaratilgan dastlabki va eng muhim omildir. Ma'lumki o'qituvchilik kasbi o'ta ma'suliyatli kasb bo'lib, turli integratsion bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Texnologiya fani o'qituvchisi kelajakda o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda ma'lum kasb-hunarga oid ko'nikma -larni shakllantiradi. Bunda berilgan buyumlarni tayyorlashda o'qituvchi yuqori malaka va kasbiy mahoratga ega bo'lmog'i kerak. Yuqorida aytilgan usul-vositalar orqali o'quvchilar haqida olingan ma'lumotlarni o'rganib, tahlil qilib va umumlashtirib sinf rahbari o'ziga yordamchilarni ajratadi, iqtidorli va tarbiyasi og'ir bolalarni aniqlaydi hamda sinf jamoasi bilan keyingi ishlarni rejalashtiradi. Bu usul-vositalar o'qituvchilar tajribasida keng tarqalgan, lekin ular ancha uzoq vaqtni oladi. Ayrim vaziyatlarda o'qituvchiga qisqa vaqt davomida o'quvchilar haqida ba'zi ma'lumotlarni bilish zarur bo'lib qoladi. Bunday hollarda quyidagi interfaol usullardan foydalanishni tavsiya etamiz. Muz yorish usuli odamlarning o'zaro munosabatlarini yaxshilash, ularni bir-biri bilan yaqinroq tanishtirish usulidir. Tarbiya jarayonida turli xil muz yorishlar mavjud:

- 1) odamlarning kayfiyatini ko'tarish, ularni notanish sharoitda tinchitish;
- 2) yangi jamoani tashkil etishda odamlarni o'zaro tanishtirish (misol uchun, o'qituvchini yangi sinf o'quvchilari bilan), shaxslararo munosabatlarni yaratish;
- 3) dam olish daqiqasi sifatida o'tkazish. Muz yorishning turi "quvnoq daqiqa" deb nomlangan usulidan, odatda dars paytida o'quvchilar charchagan vaqtda foydalaniladi.

Bundan tashqari, muz yorishning boshqa turlarini ham qo'llash mumkin. Bir necha misol keltiramiz. Taqdim etish o'qituvchi o'quvchilardan o'zlarini tanishtirishni va o'zlari haqida ma'lumot berishlarini so'rab, ularni doira shaklida o'tirg'izib, suhbat uyushtiradi. O'quvchilar ketma-ket navbat bilan quyidagi masalalar bo'yicha axborot berishadi: ismi va familiyasi, turar joyi; ota-onalarning ishlash joylari; ijtimoiy tajribasi (qanday topshiriqlarni bajargan edi); kelajakda kim bo'lmoqchi va h.

Bu usulga kam vaqt ketadi (bir kishiga 2-3 daqiqa), biroq 30 va undan ko'p o'quvchilar bo'lgan sinflarda uni qo'llab bo'lmaydi. Intervyu – notanish o'quvchilardan juftlar tanlab, ularga bir-biri bilan tanishishi uchun 5-7 daqiqa muddat beriladi. Keyin ularning har biridan o'z sherigini butun sinf jamoasiga shu kishi haqidagi o'qituvchi tanlangan bitta qiziq dalilni qo'shgan holda tanishtiradi. Bu usul har bir o'quvchini jamoaga tanishtirishga imkon beradi. Bu usul o'quvchilarga qat'iyatlik baxsh etadi. Oldingi usulga nisbatan bu usul ko'proq vaqt oladi, biroq uni 25 kishidan ortiq sinflarda qo'llab bo'lmaydi. Jadvallar usuli. Hamkorlik qilgan sinf jamoalar uchun hamda o'quvchilar haqida qo'shimcha axborot olishda qo'llash mumkin. Bu usulni qo'llash uchun o'qituvchi har bir

o'quvchiga qog'oz varag'ini berib, uni to'rt qismga ajratib, har biriga quyidagi axborotni yozishni iltimos qiladi:

- yuqori chap burchakda o'zini bitta so'z bilan ifodalash;
- yuqori o'ng burchakda o'zi faxrlanadigan narsani yozish;
- pastki chap burchakda o'zi to'g'risidagi birorta sirni oshkor qilish (bu birorta jiddiy sir bo'lishi shart emas, u atrofdagilardan birortasi bilmaydigan sir bo'lishi kerak);
- pastki o'ng burchakda o'zi yaxshi ko'radigan mashg'uloti (xobbi)ni yozish.

O'qituvchi ham o'z jadvalini qatnashchilari bilan bir vaqtda, to'ldi-radi. Sinf o'quvchilari o'z ishlarini yakunlaganlaridan so'ng, ulardan jadvallarini ko'rinadigan qilib ushlagan (yoki devorga osib qo'yilgan) holda bir-birlari bilan tanishadilar. Bu usul ko'p vaqt olmaydi, lekin uni yordamida o'qituvchi o'z o'quvchilarini chuqurroq o'rganishga imkon topadi (ayniqsa, yangi sinf bo'lsa). Bunday usullarni qo'llash jarayonida sinfdagi barcha o'quvchilarni qatnashishi shart. Bu usullarni qo'llashda o'quvchilarning yosh va bilish hamda xarakter xususiyatlarini hisobga olish, tortishuv va izlanish natijalari ularning shaxsiyatiga tegmaydigan bo'lishi kerak. Rolni ijro etish usuli o'qituvchidan rolli o'yin texnologiyasini yaxshi bilishni talab qiladi.

Bu usul o'yin qatnashchilarini faollashti-ruvchi usullar qatoriga kiradi. O'yindan oldin o'qituvchi (olib boruvchi) vaziyatni tushuntiradi, personajlarning tipik xattiharakatlaridan xabardor qiladi. O'quvchi-qatnashchilar bu ma'lumotlardan foydalanib, belgi-langani rollarni ixtiyoriy tarzda ijro etadilar. Ushbu natijaga erishish uchun bilim va ko'nikmalardan tashqari o'qituvchining o'z sinalgan uslubi, ta'lim va tarbiya orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati bo'lishi lozim. Dars jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda mehnat qilish ko'nikmalarini o'stirish va mehnat orqali tarbiyalash ko'nikmasiga ega bo'lishni talabalarga oliy ta'lim muassasalarida shakllantirish lozimdir. O'quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirish borasida "Texnologiya" fani muhim o'rin tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, maktabni o'z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish va ta'lim bilan qo'shib olib borish, o'quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // "Xalq so'zi", 2017-yil, 16-iyun.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: O'qituvchi, 2004. – 236 b.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi: "Nasaf", 2000.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T.: "Fan", 2006.- 89 b.
5. Sattorova Z. va b. Texnologiya: 9-sinf uchun darslik. –T.: "O'zbekiston", 2019. – 66 b.



6. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. –T.: “Gold print nashr”, 2019. – 32 b.

7. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi.- T.: “Yangi nashr”, 2019. – 52 b.

8. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligida innovatsion jarayonlar. - T.: “Yangi nashr”, 2019. – 88 b.

9. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining spektral-variativ komponentlari.- T.: “Yangi nashr”, 2019. – 27 b.

10. Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: “Universitet”, 2020. – 172-177 b.

МАКТАБЛАРИДА «ТЕХНОЛОГИЯ» ФАНИ ДАРС МАШГУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Қодирова Садина

Гулистон тумани 1-ИДУМ Технология фани ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада интерфаол методлардан бири бўлган ТРИЗ-методи орқали ўқувчиларни замонавий фикрлаш ва ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш, бу қобилиятларни амалда кўрсатиш, технологик хужжатлар билан иш олиб бориш ҳамда ўқув ишлаб чиқариш топшириқларини бажаришлари мумкинлиги масаласи ёритилган.

Таянч сўз ва тушунчалар: ТРИЗ-методи, технология, полимерлар, машгулот жараёни, технологик хужжат, ўқитишнинг замонавий усуллари.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги «Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида»ги 187-сон қарори билан тасдиқланган «Технология» фанидан ўқувчиларда компетенцияларни шакллантиришга йўналтирилган Давлат таълим стандарти ва Халқ таълими вазирлигининг 2017 йил 3 июндаги «Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартлари талаблари асосида такомиллаштирилган ўқув дастурларини тасдиқлаш ва амалиётга жорий этиш тўғрисида»ги 190-сон буйруғи билан тасдиқланган «Технология» фани ўқув дастури асосида «Технология» фанига янгидан 5-7- синфлар учун «Полимер материалларига ишлов бериш технологияси», «Рўзғоршунослик асослари» бўлимлари ва бўлимларга оид мавзулар киритилган. Ўқувчи-ёшларни келгусида унумли меҳнат фаолиятига тайёрлаш, ўзларини қизиқтирган касб-хунарларни эгаллашга йўналтириш ишларини йўлга қўйиш асосан умумтаълим мактабларидаги меҳнат таълими ўқув фани зиммасига тушади. Ўқувчиларда билим ва меҳнатга муҳаббат, меҳнаткашларга ҳурмат ҳиссини сингдириш, уларни жамоатчилик, ватанга садоқат, дўстлик, ўзаро ҳурмат руҳида тарбиялаш технология фани ва касб таълимининг тарбиявий



хусусиятидир. Технология ва касб таълимининг тарбиявий вазифаларини амалга ошириш учун ўқитишнинг мазмуни, шунингдек, ўқув ишларининг ташкилий шакл ва методларини қўллаш самарали бўлади. Ҳар бир тараққиёт босқичига ўтишнинг шарти фақат меҳнат унумдорлигини мунтазам ошириш ва моддий неъматлар мўл-кўллигини яратишдан иборат бўлиб қолмасдан, ёш авлодда юксак ахлоқий сифатларни тарбиялашдан ҳам иборат. Бу энг аввало жамият манфаатлари йўлида қилинадиган жараёнда шаклланади. Технология ўқув машғулоти жараёнида ўқувчиларда устахонадаги асбоб-ускуналарни асраш, ҳам ашё материалларидан тежамкорлик билан фойдаланиш ҳисси тарбияланади. Ўқув устахоналаридаги меҳнат маданияти иш ўрнини ташкил этиш ва ўқув-меҳнат машғулотларини тўғри режалаштириш; технология фани ва касб таълими дарсларида қўл асбоблари билан бир қаторда турли мосламалардан фойдаланиш ҳам катта аҳамиятга эга, негаки улар фақат ўқувчиларнинг иш сифатини яхшилаб қолмасдан, айтилиши вақтда меҳнат унумдорлигини ҳам оширади. Ўқитувчининг меҳнат ва ҳунар усулларини кўрсатиш вақтидаги шахсий намунаси ўқувчилар учун кучли тарбиявий восита бўлиб ҳисобланади. Технология фани ва касб таълимида амалий машғулоти жараёнида мавзунинг мазмунини очиб беришда, меҳнат ва касб таълими тарбиясининг мақсадлари, вазифалари амалга оширилади. Демак, амалий машғулоти деганда ўқувчиларнинг ўқув материалини фаол, онгли ва мустақам ўзлаштириши мақсадида технология ўқитувчиси раҳбарлигида амалга оширилиши, ҳам жамоа, ҳам яқин тартибдаги иш турларини ўз ичига оладиган ўқув-меҳнат фаолиятини ташкил этишни тушуниш керак. Ҳозирги кунда ўқувчиларни ҳар томонлама ривожланган шахс сифатида шакллантириш учун ўқув жараёнини турли усулларда ташкил этиш зарурияти туғилди. Чунки, ўқувчи ўзини қизиқтирган саволларига интернет тармоқлари орқали жавоблар ечими вариантларини излаб топиш имконини бермоқда. Шундай бўлса-да, ўқувчи шахси ўқув фанлари орқали билим, малака ва кўникмаларга эга бўлсагина, шу фаолиятнинг мазмун-моҳиятини тушуниб етади. Таълимда инновацион технологиялар, интерфаол услубларнинг сони жуда кўпайиб кетган. Биз тавсия этадиган ТРИЗ методи ўзига хос хусусиятларга эга. ТРИЗ (ўзбек тилидаги ИМРН) -



сунъий тизимларнинг умумий қонуниятларини ривожлантирувчи фан, яъни, Ижодий масалаларни ривожлантириш назарияси (ИМРН)ни билдиради. Бу назариянинг муаллифи Г.С.Альтшуллер¹ бўлиб, ТРИЗнинг асосий таҳлил объекти сунъий тизимлар ҳисобланади. ТРИЗ методига ижодий ёндашув ва ижодий фикрлаш каби тушунчалар киритилади. ТРИЗ – ижодий масалаларни ривожлантириш методидир. ТРИЗ - ижодкорлик масалаларини ҳал этиш назарияси ва техник тараққиёт механизмлари соҳасидаги билимлардир. Ушбу методни қўллашдан мақсад, бугунги кунда ўқувчининг креативлик яъни ижодий тафаккурини ривожлантириш технологиясини қўллашдан иборат. Намуна тариқасида 6-синф дастуридаги мавзу бўйича дарс технологиясини таклиф этамиз. Шунини таъкидлаш керакки, технология фани жараёнида умумий дидактик хусусиятга эга бўлган кўпгина методлардан фойдаланилади. Бироқ меҳнат усулларини амалда кўрсатиш, уларни бажаришга оид машқлар, техникага оид маълумотнома ва технологик ҳужжатлар билан иш олиб бориш, ўқув ишлаб чиқариш топшириқларини бажариш каби методлар фақат «Технология» фанига хос бўлган методлардир. Технология дарсларида педагогик технологиянинг кўплаб турларидан фойдаланиб, машғулотни ташкил этиш мумкин. Педагогик технология эса боланинг қизиқувчанлигини ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган. А.Кушнернинг фикрича, методика – илғор тажрибани оммалаштириш ёки билимларни етказишнинг янгича йўлини ихтиро қилиш йўли бўлиб, натижасига ҳамиша ҳам қафолат бера олмайди. Технология эса ҳар қандай шароитда қандай бўлишидан қатъий назар, олдиндан белгиланган натижани берувчи жараёнидир. Технология фани педагогик технологиянинг воситалари, усуллари ва шакллари билан боғланган. Дарс жараёнида педагогик технология оммавий таълим шароитида давлат таълим стандартлари талаблари даражасида кадрлар тайёрлашни таъминлайди. Бизнинг олий мақсадимиз келажак учун мустақил фикрли, ижодкор, изланувчан ва истеъдодли ёшларни етказиб беришдан иборат.



Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги «Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида»ги 187-сон қарори.

2. Ўзбекистон Халқ таълими вазирлигининг 2017 йил 3 июндаги «Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартлари талаблари асосида такомиллаштирилган ўқув дастурларини тасдиқлаш ва амалиётга жорий этиш тўғрисида»ги 190-сон буйруғи.

3. Альтшуллер Г.С. Найти идею. Введение в ТРИЗ – теория решения изобретательских задач. – М.: «Альпина Паблишер», 2012. (Серия «Искусство думать»).

4. Ибрагимов Х.И. Педагогик психология. / Х.Ибрагимов, У.А.Йўлдошев ва бошқалар. - Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2007.

5. Шарипов Ш.С., Абралова М. Мактаблар ўқув ва ўқув ишлаб чиқариш устахоналари учун хавфсизлик техникаси ва ишлаб чиқариш санитарияси қоидалари. Методик йўриқнома. - Т.: РТМ, 2002.

6. <http://www.istedod.uz>

7. <http://www.pedagog.uz>



1	САМЫЕ НЕОБЫЧНЫЕ РУССКИЕ ИМЕНА XXI ВЕКА Бердиева Хуршида Анарбаевна	4
2	МЕТОДЫ И СПОСОБЫ ПРЕОДОЛЕНИЯ СТРЕССА Дусчанова Саражон Юлдошевна А.С.Пушкина	10
3	DISCOURSE ANALYSIS Temirova Hayotxon Bayramali qizi	15
4	Нокимiyat bo'linishi tizimida sud hokimiyati tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari Djalilov Nig'matulla Karimovich	19
5	АНАЛИЗ И ОЦЕНКА МАСШТАБОВ КАНАЛОВ ВЛИЯНИЯ НА ИНФЛЯЦИЮ КУРСА ВАЛЮТ Буриева Феруза Нажмиддиновна	27
6	ҚЎРИҚЛАШ ШАРТНОМАСИ БЎЙИЧА ТАРАФЛАРНИНГ ХУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ Р.Д.Рузиев Н.Н.Шамшетов	34
7	SHIROQCHI TUMANNIDA AHOLI JOYLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI GEOGRAFIK OMILLAR Normatov Sunnat Axmadovich Z.N.Tojiyeva	42
8	Teaching vocabulary for the intermediate level pupils Nigora Ruziyevna Azimova Nasiba Nurkobil kizi Khushbakova	46
9	Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqini rivojlantirish Sulaymonova Nasibaxon Komiljon	49
10	Экологические аспекты добычи горючих сланцев Hasanov Elyorjon Erkinjon ug'li Eshmuhamedov Murod Azimovich	53
11	Экологические аспекты добычи горючих сланцев Hasanov Elyorjon Erkinjon ug'li Eshmuhamedov Murod Azimovich	60
12	MODERN ENDODONTICS: PROBLEMS AND SOLUTIONS Dildora Kasimovna Mardonova	69
12	THE IMAGE OF THE FATHER IN THE NOVEL "FATHER GORIO". Karimova Nilufar Umidbek qizi	69
13	МАКТАБЛАРДА "МАТЕМАТИКА" FANINI O'QITISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI E'zoza Yusupova Yusup qizi	74
14	ИНФОРМАТИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ Юсупова Эъзоза Юсуп кизи	79
15	Худойкулов Садирдин Каримович Бабаев Шавкат Байрамович WAYS TO IMPROVE FORECASTING OF PROPERTY TAX COLLECTED FROM INDIVIDUALS	84
16	Наслий ангионевротик шишнинг замонавий даволаш усулларининг самарадорлигини баҳолаш Разикова .И.С Шорустамова .С.С Каримова.Д.С Солиева.Х.Н	92
17	HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH DAVR TALABI Пуллатов Хасанжон Иброхим угли	99
18	Evaluating how teachers can match methodology to learner needs and the process of the strengths and weaknesses of teaching methodologies/philosophies, including Khabibulloeva Gulchekhra, Buronova Mekkamtosh and Khushbakova Nasiba	103
19	O'quvchilarga tasviriy san'at va chizmachilik mashg'ulotlarida loyihalashga o'rgatishning ahamiyati I.U. Izbasarov	106



20	IMPROVING STUDENTS' WRITING SKILLS BY USING SOCIAL MEDIA Makhsudova Munisa Jamol qizi Turg'unova Shakhnoza	112
21	Терминларнинг мазмуний муносабатлари Насирдин Қаршиев	117
22	O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KORRUPSIYA XAVFI A.R.Jabbarov	122
23	QUYOSH, OY VA YULDUZLAR FAYZIEVA GULNOZA FAYZIEVA SHAXODAT	129
24	IS'NAKHAN TORA – ELEGANT POET AND SCIENTIST, PUBLISHER AND TRANSLATOR Valiyev Sarvar Usmonkhon ugli	135
25	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH ASOSLARI Soatqulov Suyar Quvatovich	138
26	ТЎҚИМАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ БОШҚАРИШ МАСАЛАЛАРИ Умарходжаева Муяссархон Ганиевна	142
27	ЎЗБЕКИСТОН МИНТАҚАЛАРИДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИНГ ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШ Умарходжаева Муяссархон Ганиевна	148
28	Исоқов Зафар Ғофуржон ўғли Алимов Мухиддин Илхомжон ўғли Ўзбекистон Республикасида ҳарбий хизматни ўтаётган ҳарбий хизматчиларнинг жинсий ва моддий жавобгарлигининг назарий-ҳуқуқий асослари	155
29	Реймов Тимур Мамбеткаримович Алимов Мухиддин Илхомжон ўғли Ўзбекистонда ёшлар онгига деструктив ғоялар таъсир этишни олдини олишни такомиллаштириш	161
30	Оғзаки анъанадаги доира ижро усулларининг ёзув масалалари Хикматуллаева Муминахон Равшан қизи	170
31	O'QUVCHILARNI YOSH VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA CHET TILINI O'RGATISH Negmatova Sanoat Ergashbayevna	177
32	Ibragimova Shaxnoza Omonimlar. Nutqda omonimlardan foydalanish	182
33	МАКТАБЛАРДА ТЕХНОЛОГИЯ FANINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTRISH Boliyeva Gulchexra Xamrayevna	188
34	ПЕРЕВОД НА ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕРЕВОДЧИКОВ Марупов Шухрат Насимович	193
35	МЕНЕДЖМЕНТ В ЗДРАВООХРАНЕНИИ Салимова Малика Рашидбековна Разикова Азиза Абдумаликовна	199
36	МЕНЕДЖМЕНТ В ЗДРАВООХРАНЕНИИ Салимова Малика Рашидбековна Разикова Азиза Абдумаликовна	204
37	O'QUVCHILARNI YOSH VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA CHET TILINI O'RGATISH Negmatova Sanoat Ergashbayevna	210
38	МИЛЛИЙ ҲУНАРМАНДЧИЛИК ТУРЛАРИ Атамуратов Адилбек Атабаевич Нуржонов Улуғбек Илхомович	215
39	Индукция 340етод ива унинг Фрэнсис Бэкон эпистемологиясидаги ўрни Аминова Наргиза Шарифовна	224
40	O'ZBEKISTONDA NOMONETAR OMILLARNING INFILYATSIYAGA TA'SIRINI ANIQLASH Doniyorov Hojiboy Xolmurod O'g'li	232
41	XORIJIIY TILLARNI MUKAMMAL O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARNING O'RNII Остонов Аскар	236



42	SIGNIFICANCE OF “COACHING” METHODOLOGY G.M. Toychieva	241
43	MUHANDIS-PEDAGOG SHAXSIGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR Astanova Moxira Muxtarovna	245
44	KORXONALARNING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI Rejabbaev Sarvar Umarxonovich	251
45	IQTISOD YO'NALISHI TALABALARIDA KASBGA YO'NALTIRILGAN CHET TILI O'QITISH METODIKASI Kushimova Maxbuba Janibekovna	261
46	SURUNKALI GEPATIT KASALLIGINING O'SPIRIN YOSHIDAGI BOLALARDA KLINIK KECHISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Rustamova M.T., Xaytimbetov J.SH., Xayrullayeva S.S.	265
47	LEKSIKOLOGIYANING ISTIQBOL DAVRI Ergashova Nodira Qosimovna	273
48	SUG'ORILADIGAN MAYDONLARDA YOPIQ GORIZONTAL DRENAJ QURUVCHI MASHINANING SAMARALI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISH Vafojev R.S Imomov Sh.J	277
49	SHO'RLANGAN VA O'TA SHO'RLANGAN TUPROQ TARKIBIDAGI TUZLARNI YUVISH TEXNIKA VA TEXNOLOGIYASI Vafojev S.T Jo'rayev A.A	281
50	ADVENTIV/INVAZIV O'SIMLIK PHYSALIS ANGULATA NING EKOLOGIYASI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI Abduboyeva N.T., Ozodbekova G.A., Sotiboldiyeva D.I., Xakimova D.A., Maxkamov T.X.	287
51	ЗАМОНАВИЙ КОСТЮМБОП МАТОЛАР АССОРТИМЕНТЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ ТАҲЛИЛИ Д.Т.Назарова Тожибоева Д.Б	296
52	Differences between assessment and evaluation Negmatova Barnokhon Iskhakhan Ibrat	303
53	THE MAIN BIOLOGICAL AND ECOLOGICAL FEATURES OF THE HYBRID HIBISCUS PLANT Malokhat A. Rakhimova	309
54	ХОРАЗМНИНГ ЎРТА АСР ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ Атамуратов Адилбек Атабаевич Нуржонов Улуғбек Илхомович	319
55	PRAGMATICITY OF RELIGIOUS TEXTS IN ENGLISH AND UZBEK Toshpolatova Mukhlisa Shukurovna	325
56	O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI RIVOJLANTRISH Mirzanematova Nilufar Iristmuxamatovna	330
57	МАКТАБЛАРИДА «ТЕХНОЛОГИЯ» ФАНИ ДАРС МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ Қодирова Садина	335